

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

D.A.Xalmatova,S.B.Allayorova

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA

Darslik

(60110100- pedagogika)

Pedagogika oliy talim muassasalarining
Pedagogika talim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya
etilgan

**ZEBO PRINTS
Chirchiq-2026**

UO'K
KBK

D.A.Xalmatova, S.B.Allayorova. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Darslik. –T.: “ZEBO PRINTS”, 2026. 320 b.

Taqrizchilar:

G.O.Ernazarova - Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Pedagogika” kafedrası pfd. professori.

A.T.Kurbanov - O'zDSMI dosenti p.f.f.d (PhD)

Ushbu darslik Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash Rayosatining 2023-yil 31 oktyabrdagi 6-sonli majlis qaroriga muvofiq, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 6 noyabrdagi 491-son buyrug'i (ro'yxatga olish raqami №491212) bilan nashr etishga tavsiya etilgan.

ISBN

© D.A.Xalmatova va b., 2026

© “Zebo prints”, 2026

Kirish

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o'rtasida uyg'unlikni vujudga keltirish, ehtiyojlarning xususiylikdan umumiylikka o'sib o'tishining qondirilishi har jihatdan o'quvchi va talabalar qobiliyatlari, iste'dodlarini, ichki imkoniyatlarini, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etishni, shuningdek rivojlantirishni talab etadi. Yosh avlodning shaxs va subyekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasini aniqlarnasdan turib, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish mumkin emas.

Jamiyatning infrastrukturalarida, guruhliy shaxslararo munosabatlarda demokratiya printsiplarining qaror topishi, fuqarolar o'rtasida teng huquqlilik, subyektlilik, hamkorlik, hamdardlik (empatiya) mezonlari turmush tarziga aylana boshlashi kishilik dunyosining jahonshumul ijtimoiy-tarixiy g'alabasining yorqin ifodasidir. Hozirgi davrda shaxsning robotlashuviga chek qo'yilishi, o'zining mustaqil inson (subyekt) tarzida namoyon bo'lishi uchun moddiy-ma'naviy negiz barpo etilishi, shaxsiy dunyoqarash (hamilmiy, hamdiniy), barqaror e'tiqod, mustahkam pozitsiya, qat'iy iroda, o'tkir va bukilmas g'oyani egallashga imkon yaratdi. Ana shunday umumbashariyat jamiyat kasb etuvchi ijtimoiy voqelik, hodisa, ijtimoiy tasavvur va ehtiyoj mamlakatimizda shaxsni markaziy figura sifatida tan olinishi va rivojlanishning harakatlantiruvchisi tarzida baholanishi pedagogik diagnostika zaruratga aylanganligini anglatadi.

Abdulla Avloniy o'z davrida bashorat qilganidek: «Agar pedagogika insonni har tomonlarni tarbiyalashni xohlar ekan, unda insonni har tomonlarni o'rganishi zarur».

Pedagogik fikrlar tarixi taraqqiyotida o'qitish sifatini ta'minlash va natijasini kafolatlash, tarbiya samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lim va tarbiya jarayoni ijtimoiy sub'ektlar – o'qituvchi hamda o'quvchilar ishtirokida tashkil etiladi.

O'qituvchilar kasbiy kompetentligining turli darajada bo'lishi, o'quvchilarning yosh, fiziologik, psixologik jihatdan bir-biridan farqli imkoniyatlarga egaligi o'qitish va tarbiya jarayonida muayyan, xususan, bir guruh o'quvchilarning fanlarni o'zlashtira olmasligi, ularda ijtimoiy-pedagogik talablarni bajarishda me'yordan og'ish holatining kuzatilishi kabi muammolarni yuzaga keltiradi. Mavjud muammolarni bartaraf qilish maqsadida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida psixologiya sohasida turkum tadqiqotlar amalga oshirildi. Natijada XX asarning dastlabki o'n yilliklarida "psixologik diagnostika" nazariyasi, so'nggi o'n yilliklarida esa "pedagogik diagnostika" nazariyalari asoslandi. Ushbu nazariyalarning asosiy g'oyasi va tadqiqot yo'nalishini ta'lim sifatini real holatni tashxislash asosida tahlil qilish hamda baholash tashkil qiladi. Namoyon bo'layotgan nuqsonlarni bartaraf etish, tuzatish choralarini belgilashga bo'lgan ijtimoiy-pedagogik ehtiyoj OTMda "Pedagogik diagnostika va korrekciya" o'quv fanini o'qitish zarurligini ko'rsatdi.

OTMning pedagogika yo'nalishida "Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fanining o'qitilishi talabalarda kasbiy faoliyat jarayonida ta'lim sifatini ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi holatlar – fanlarni o'zlashtira olmaslik, ijtimoiypedagogik talablarni bajarishda me'yordan og'ishni bartaraf etish malakalarini rivojlantirish bilan birga ularni amaliy jihatdan ilmiy-pedagogik tadqiqotni samarali tashkil etishga tayyorlaydi. O'quv fani asoslarini puxta o'zlashtirish talabalarda mavjud vaziyatni to'laqonli tahlil qilish, sintezlash, nuqsonlarning kelib chiqishiga o'z ta'sirini o'tkazuvchi barcha omillarni o'rganish, muammoni bartaraf qilishga tanqidiy yondashish, samarali metod va metodikalarni tanlash, ulardan maqsadli foydalanish malakalarini rivojlantiradi.

Mazkur darslik pedagogika oliy talim muassasalarining Pedagogika, pedagogika va psixologiya talim yo'nalishlarida tahsil olayotgan bakalavr, magistrlar uchun mo'jallangan.

Insonshunoslik fanida inson-jamiyat, jamiyat-inson shaklida o'zaro ta'sirni taqozo etar ekan, birinchi va ikkinchisi ham to'g'ri,

ham teskari aloqani o'rnatishi joiz. Darslikdan talabalar pedagogik diagnostika va korrektsiyani, uni o'tkazish tartibi, yo'llari, metodlari, korrektsiyalash tamoyillari bilan yaqindan tanishadilar.

I BOB. “PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA” FANINING NAZARIY ASOSLARI

1-mavzu: “Pedagogik diagnostika va korreksiya” fanining o‘rganish doirasi, tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari, shuningdek, mazkur faning pedagogika sohasida tutgan ilmiy-amaliy o‘rni.

Reja:

1. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” fanining o‘rganish obyekti, predmeti, maqsadi va asosiy vazifalari.

2. Pedagogik diagnostika va korreksiyaning pedagogika fanidagi ilmiy hamda amaliy yo‘nalish sifatidagi ahamiyati.

3. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanida qo‘llaniladigan asosiy kategoriyalar va tushunchalar

Tayanch tushunchalar: holatni aniqlash, rivojlanishni tekshirish, korreksiya, tashxis, tekshirish va aniqlash, rejalashtirish va tartibga solish, nazorat qilish, korrektsiyalash, baholash

1. Pedagogik diagnostika va korreksiya fanining o‘rganish obyekti, predmeti, maqsadi va asosiy vazifalari. Har bir fan yoki o‘quv fani kabi “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘z oldiga muayyan maqsadni qo‘yadi, ushbu maqsadga erishish yo‘lida ma‘lum vazifalarni belgilaydi. Qolaversa, mazkur fan o‘zining tadqiqot ob‘ekti, predmeti hamda tayanch kategoriyalari (asosiy tushunchalari)ga ega.

O‘quv fanining maqsadi, vazifalari, ob‘ekti, predmeti va kategoriyalari uning tadqiqot yo‘nalishi, fan sifatida o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra belgilanadi.

“Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanining maqsadi - pedagogik ahamiyatga ega ma‘lumotlarni aniqlash va ulardan foydalanish asosida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, tarbiyalash, o‘quv hamda kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan

samarali tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Har bir fan yoki o'quv fani oldiga muayyan vazifalar qo'yiladi. Ularning aniq belgilanishi maqsadga tezkor va samarali erishishga yordam beradi.

“Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'quv fani sifatida quyidagi ikki turdagi vazifalarni hal qiladi (1.1-rasm).



1.1-rasm. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'quv fanining asosiy vazifalari

Har bir fan yoki o'quv fani kabi “Pedagogik diagnostika va korreksiya” ham o'zining ob'ekti va predmetiga ega.

“Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'quv fanining ob'ekti - pedagogik jarayon hamda uning barcha tarkibiy elementlari - pedagog, o'quvchi, pedagogik faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari, metodlari, vositalari, shart-sharoitlari, texnologiyalari hamda natijalari.

O'quv fanining ob'ekti o'z navbatida uning predmetini belshilashga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'quv fanining predmeti uning ob'ekti

asosida belgilanadi. Bunda ikkita sub'ekt: o'quvchi (bola) va pedagog, shuningdek, ta'lim va tarbiya sharoiti nazarda tutiladi (1.1-jadval).

1.1-jadval. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'quv fanining predmeti

“Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'quv fanining ob'ekti sifatida		
O 'quvchi ko 'zda tutilganda	Pedagog ko'zda tutilganda	Ta'lim va tarbiya sharoiti ko'zda tutilganda
O'quv fanining <i>ob'ekti</i> quyidagicha belgilanadi:		
O'quvchining shaxsiy va tipologik xususiyatlari; ta'lim olganlik, tarbiyalanganlik, rivojlanganlik, faoliyat ko'nikmalari, qiziqish, xohish- istaklari, xulq-atvorining namoyon bo'lish darajalari; tengdoshlari hamda kattalar bilan munosabatining o'ziga xosliklari	Pedagogning kasbiy kompetentligi, shaxsiy xususiyat- lari, o'quvchi (bola)lar bilan munosabatining o'ziga xosliklari	Turli yoshdagi shaxsni o'qitish metod- lari; mikro guruhdagi muhit; muayyan yosh davridagi shaxsni shaxsga beriladigan ta'lim (tarbiya) mazmuni hamda ta'lim (tarbiya) vositalari, texnologiyalari; shaxsning rivojlanishiga turli omillar, xususan, oilaning ta'siri

Ma'lumki, har bir fan yoki o'quv fani kabi “Pedagogik diagnostika va korreksiya” ham o'zining tayanch tushunchalari (asosiy kategoriyalari)ga ega. Quyidagilar “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'quv fanining tayanch tushunchalari (asosiy kategoriyalari) sanaladi:

Tashxis (pedagogikada) - o'zida tadqiqot (o'rganish) ob'ekti sifatida tanlangan shaxs yoki ijtimoiy guruh (masalan, o'quvchilar sinfi)ga xos muayyan xususiyatlarni, shaxslararo o'zaro ta'sirni, o'zaro munosabatlarni, o'zaro bir-birlarini tushunishni tavsiflaydigan pedagogik faoliyatning yakuniy natijasi. Tashxis - tashxislashning, ya'ni, tashxislash jarayonining natijasi, shuningdek, ma'lum xususiyat, sifat, holat va shu kabilarning tasdiqlanishi sanaladi.

Tekshirish (yoki tekshiruvdan o'tkazish) - tadqiqot ob'ekti bo'lgan shaxs yoki jarayonga oid dalillarning tashxis ma'lumotlari bilan o'zaro solishtirish va ularning tasdiqlanishini ta'minlovchi jarayon.

Metod (qad. yun. "dOoOof" yo'l, usul; yun. "methodos" - tadqiqot yo'li, usuli) - muayyan maqsadga erishish uchun ma'lum yo'lni, tartib yoki tizimga solingan faoliyat usulini tanlash. Mazkur tushuncha turlicha talqin qilinadi. Jumladan,

- 1) faoliyat usuli;
- 2) qandaydir faoliyat usullarining majmui;
- 3) harakat usuli yoki ko'rinishi;
- 4) harakat tizimi;
- 5) ta'sir ko'rsatish yo'li;
- 6) maqsadga erishish uchun tashkil etilayotgan harakat.

Tashxislovchi metodlar - olingan natijalar asosida psixologik hamda pedagogik jarayonning mohiyatini, muayyan shaxsga yoki shaxslar guruhi (masalan, o'quvchilar sinfi)ning o'ziga xos xususiyatlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'lchash, ularni o'zaro solishtirish va tasdiqlashga xizmat qiladigan metodlar. Odatda, tashxis metodlari sifatida anketa, suhbat, test, intervyu, pedagogik kuzatish, ekspert baholash, natijalarni matematik qayta ishlash (matematik-statistik metod) kabilar qo'llaniladi.

Tashxislovchi metodika - ma'lum me'yorlarga tayangan holda muayyan shaxs, shaxslar guruhi (o'quvchilar sinfi) yoki o'rganilayotgan jarayonga xos qandaydir sifat, o'ziga xos

xususiyatlarni o'lchash, natijalarni o'zaro solishtirish va tasdiqlashga qaratilgan chora-tadbir.

Test metodi (ingl. "test" - sinash, tekshirish) - o'rganilayotgan shaxsning aqliy rivojlanish damjasi, qobiliyati, muayyan ish-harakat, faoliyatni bajarishga doir ko'nikma, malakalari, shaxsiy va irodaviy sifatlari, ruhiy xususiyatlari, shaxslar guruhi (masalan, o'quvchilar sinfiga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashda qo'llaniladigan qisqa standart tekshirish yoki sinov usuli.

Tashxislovchi texnika — pedagog yoki mutaxassis tomonidan samarali o'zlashtirilib, o'rganilayotgan shaxs (o'quvchi, tarbiyalanuvchi) yoki shaxslar guruhi (masalan, o'quvchilar sinfiga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini amalda samarali qo'llashga imkon beradigan bilim, ko'nikma, malaka va tajribalar yig'indisi.

Me'yor (tashxislovchi me'yor) — 1) tashxislash jarayonining avvali (boshi) va yakuni (oxiri) da qo'lga kiritilgan natijalarni o'zaro solishtirish uchun xizmat qiladigan standartlashtirilgan o'lchov birliklari, ko'rsatkichlar; 2) o'rganilayotgan shaxs yoki shaxslar guruhi (masalan, o'quvchilar sinfiga xos bo'lgan xulq-atvor, ma'lum xatti-harakatni tashkil qilish, shuningdek, ma'lum jarayonga xos xususiyatlarni tadqiq qilish uchun namuna, andoza.

Standart (davlat ta'lim standarti - DTS; ingl. "standard" - meyor, namuna) - uzluksiz ta'lim bosqichlarining asosiy ta'lim dasturlari mazmunining zaruriy minimumini, o'quvchilarga yuklanadigan o'quv yuklanmalarning maksimal hajmini, ta'lim muassasasi bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini, ta'lim jarayonini ta'minlash (uning moddiy- texnik, o'quv-laboratoriya, axborot-metodik, kadrlar taminoti)ning asosiy talablarini aniqlab beradigan meyor va talablar. Diagnostika nazariyasida "standart" tushunchasi quyidagi uch jihatga ko'ra qo'llaniladi:

1) o'lchash, o'zaro solishtirish, tahlil qilish va baholash uchun asos bo'ladigan ko'rsatkich;

2) psixologik-pedagogik ko'rsatkich (shkala)larni shakllantirish uchun asos bo'ladigan ixtiyoriy etalon (namuna);

3) muayyan jamiyat tomonidan e'tirof qilingan ijtimoiy axloq mezoni.

Talab (psixologik-pedagogik talab) — turli xatti-harakatlarni bajarish, muayyan faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ijtimoiy vazifalar ,psixologik xulq-atvor me'yorlariga tarbiyaviy ta'sir usuli. U ma'lum harakatlarni rag'batlantirish yoki to'xtatish, shaxsni ijobiy harakatlarga undash xarakteriga ega bo'ladi. Psixologik va pedagogik diagnostikada talab (psixologik-pedagogik talab)lar to'rtta guruhga ajratiladi. Ular:

1) nazariy xarakterga ega talab (psixologik va pedagogik ko'rsatma, yo'l-yo'riq, maslahat; o'lchov birliklari);

2) amaliy xarakterga ega talab (tashxislash jarayonida ustuvor bo'lgan omillarga tayanishni taqozo qiladigan psixologik- pedagogik talab; o'lchov birliklari);

3) ob'ektiv qonuniyatlar asosida shakllantiriladigan tashxis tamoyillari;

4) tashxislash jarayonini tashkil qilish tartibi va qoidalari.

Mezon (yun. "kriteron " - muhokama (mulohaza qilish) uchun vosita) - unga asoslangan holda baholash amalga oshiriladigan belgi; nimaningdir tavsifi yoki tasnifi; baholash o'lchovi.

Ko'rsatkich (lot. "indicator" - ko'rsatkich) - aniq ob'ektda namoyon bo'ladigan qandaydir o'lchov birligi yoki o'zgarish sifati (mezoni). Mezon, uning miqdoriy va sifat tavsifi bo'yicha ob'ektning turli holatlarini muhokama qilishga imkon beradigan o'lchov, chegara. Ko'rsatkich, odatda, o'lchanadigan mezonning tashqi jihatdan juda yaxshi farqlashga imkon beradi.

Rivojlanishni bashoratlash - dinamik xarakterga ega modelning asosiy natijasi bo'lib, uning yordamida tashxislanuvchi ob'ektning sabab- oqibatli o'zaro bog'liqligi, uning mavjud bo'lishini ta'minlovchi jarayon qonuniyatlari to'g'risidagi qarashlar tartiblanadi.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostika g'oyalarini amaliyotda qo'llash didaktik va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy, metodik, tashkiliy, amaliy jihatdan to'g'ri tashkillashtirilishini ta'minlaydi. O'quvchilar tomonidan BKMning samarali o'zlashtirilishi uchun sharoit yaratadi. Qolaversa, pedagogik jarayonda muayyan kamchiliklar ko'zga tashlansa, ularni tezkor bartaraf etish, istiqbol vazifalarni oqilona belgilashga yordam beradi.

II. Pedagogik diagnostika va korreksiya pedagogikaning ilmiy va amaliy sohasi sifatida. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning individual xususiyatlarini chuqur o'rganish va shu asosda ta'lim jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvning ilmiy asoslarini pedagogik diagnostika va korreksiya tashkil etadi.

Pedagogik diagnostika o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka, psixologik holat va rivojlanish darajasini o'rganishga qaratilgan bo'lsa, korreksiya – bu aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, o'quvchi shaxsining ijobiy rivojlanishini ta'minlash jarayonidir. Shu bois, mazkur yo'nalishlar pedagogika fanining muhim ilmiy va amaliy sohalaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim tizimining asosiy maqsadi – shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning bilimi, ma'naviyati va dunyoqarashini shakllantirishdan iborat. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun pedagog o'z faoliyatida ilmiy tahlil, kuzatuv, baholash, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish kabi murakkab bosqichlarni amalga oshiradi.

Ana shunday tahliliy-amaliy jarayonlar pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya orqali amalga oshiriladi. Ularning har ikkisi ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas bo'g'inlari bo'lib, pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etishga imkon yaratadi.

Pedagogik diagnostika va korreksiya – bu zamonaviy ta'limning nazariy hamda amaliy poydevoridir. Ular o'qituvchiga ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, shaxsning rivojlanish

xususiyatlarini chuqur o'rganish, individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi.

Diagnostika orqali o'quvchi shaxsidagi holat aniqlansa, korreksiya orqali bu holat o'zgartiriladi. Shu tarzda ta'lim jarayoni uzluksiz rivojlanish, tahlil va takomillashuv asosida amalga oshadi.

Shunday qilib, pedagogik diagnostika va korreksiya o'qituvchining kasbiy mahorati, ta'lim sifati hamda o'quvchining shaxsiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan eng muhim pedagogik mexanizmlardandir.

III. "Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fanining asosiy tushunchalari. Ma'lumki, har bir fan yoki o'quv fani kabi "Pedagogik diagnostika va korreksiya" ham o'zining tayanch tushunchalari (asosiy kategoriyalari)ga ega. Quyidagilar "Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fanining tayanch tushunchalari (asosiy kategoriyalari) sanaladi:

Tashxis (pedagogikada) - o'zida tadqiqot (o'rganish) ob'ekti sifatida tanlangan shaxs yoki ijtimoiy guruh (masalan, o'quvchilar sinfi)ga xos muayyan xususiyatlarni, shaxslararo o'zaro ta'sirni, ozaro munosabatlarni, o'zaro bir-birlarini tushunishni tavsiflaydigan pedagogik faoliyatning yakuniy natijasi. Tashxis - tashxislashning, ya'ni, tashxislash jarayonining natijasi, shuningdek, ma'lum xususiyat, sifat, holat va shu kabilarning tasdiqlanishi sanaladi.

Tekshirish (yoki tekshiruvdan o'tkazish) - tadqiqot ob'ekti bo'lgan shaxs yoki jarayonga oid dalillarning tashxis ma'lumotlari bilan o'zaro solishtirish va ularning tasdiqlanishini ta'minlovchi jarayon.

Metod (qad. yun. "dOoOof" yo'l, usul; yun. "methodos" - tadqiqot yo'li, usuli) - muayyan maqsadga erishish uchun ma'lum yo'lni, tartib yoki tizimga solingan faoliyat usulini tanlash¹. Mazkur tushuncha turlicha talqin qilinadi. Jumladan, 1) faoliyat usuli; 2) qandaydir faoliyat usullarining majmui; 3) harakat usuli yoki ko'rinishi; 4) harakat tizimi; 5) ta'sir ko'rsatish yo'li; 6) maqsadga erishish uchun tashkil etilayotgan harakat.

Tashxislovchi metodlar - olingan natijalar asosida psixologik hamda pedagogik jarayonning mohiyatini, muayyan shaxsga yoki shaxslar guruhi (masalan, o'quvchilar sinfi)ning oziga xos xususiyatlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'lchash, ularni o'zaro solishtirish va tasdiqlashga xizmat qiladigan metodlar. Odatda, tashxis metodlari sifatida anketa, suhbat, test, intervyu, pedagogik kuzatish, ekspert baholash, natijalarni matematik qayta ishlash (matematik-statistik metod) kabilar qo'llaniladi.

Tashxislovchi metodika - ma'lum me'yorlarga tayangan holda muayyan shaxs, shaxslar guruhi (o'quvchilar sinfi) yoki o'rganilayotgan jarayonga xos qandaydir sifat, o'ziga xos xususiyatlarni o'lchash, natijalarni o'zaro solishtirish va tasdiqlashga qaratilgan chora-tadbir.

Test metodi (ingl. "test" - sinash, tekshirish) - o'rganilayotgan shaxsning aqliy rivojlanish damjasi, qobiliyati, muayyan ish-harakat, faoliyatni bajarishga doir ko'nikma, malakalari, shaxsiy va irodaviy sifatlari, ruhiy xususiyatlari, shaxslar guruhi (masalan, o'quvchilar sinfjga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashda qo'llaniladigan qisqa standart tekshirish yoki sinov usuli².

Tashxislovchi texnika — pedagog yoki mutaxassis tomonidan samarali o'zlashtirilib, o'rganilayotgan shaxs (o'quvchi, tarbiyalanuvchi) yoki shaxslar guruhi (masalan, o'quvchilar sinfjga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini amalda samarali qo'llashga imkon beradigan bilim, ko'nikma, malaka va tajribalar yig'indisi.

Me'yor (tashxislovchi me'yor) — 1) tashxislash jarayonining avvali (boshi) va yakuni (oxiri) da qo'lga kiritilgan natijalarni o'zaro solishtirish uchun xizmat qiladigan standartlashtirilgan o'lchov birliklari, ko'rsatkichlar: 2) o'rganilayotgan shaxs yoki shaxslar guruhi (masalan, o'quvchilar sinfjga xos bo'lgan xulq-atvor, ma'lum xatti-harakatni tashkil qilish, shuningdek, ma'lum jarayonga xos xususiyatlarni tadqiq qilish uchun namuna, andoza.

Standart (davlat ta'lim standarti - DTS; ingl. "standard" - meyor, namuna) - uzluksiz ta'lim bosqichlarining asosiy ta'lim dasturlari mazmunining zaruriy minimumini, o'quvchilarga yuklanadigan o'quv yuklanmalarining maksimal hajmini, ta'lim muassasasi bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini, ta'lim jarayonini ta'minlash (uning moddiy- texnik, o'quv-laboratoriya, axborot-metodik, kadrlar taminoti)ning asosiy talablarini aniqlab beradigan meyor va talablar. Diagnostika nazariyasida "standart" tushunchasi quyidagi uch jihatga ko'ra qo'llaniladi: 1) o'lchash, o'zaro solishtirish, tahlil qilish va baholash uchun asos bo'ladigan ko'rsatkich; 2) psixologik-pedagogik ko'rsatkich (shkala)larni shakllantirish uchun asos bo'ladigan ixtiyoriy etalon (namuna); 3) muayyan jamiyat tomonidan e'tirof qilingan ijtimoiy axloq mezon.

Talab (psixologik-pedagogik talab) — turli xatti-harakatlarni bajarish, muayyan faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy -psixologik xulq-atvor me'yorlari va tarbiyaviy ta'sir usuli. U ma'lum harakatlarni rag'batlantirish yoki to'xtatish, shaxsni ijobiy harakatlarga undash xarakteriga ega bo'ladi. Psixologik va pedagogik diagnostikada talab (psixologik-pedagogik talab)lar to'rtta guruhga ajratiladi. Ular: 1) nazariy xarakterga ega talab (psixologik va pedagogik ko'rsatma, yo'l-yo'riq, maslahat; o'lchov birliklari); 2) amaliy xarakterga ega talab (tashxislash jarayonida ustuvor bo'lgan omillarga tayanishni taqozo qiladigan psixologik- pedagogik talab; o'lchov birliklari); 3) ob'ektiv qonuniyatlar asosida shakllantiriladigan tashxis tamoyillari; 4) tashxislash jarayonini tashkil qilish tartibi va qoidalari.

Mezon (yun. "kriteron" - muhokama (mulohaza qilish) uchun vosita) - unga asoslangan holda baholash amalga oshiriladigan belgi; nimaningdir tavsifi yoki tasnifi; baholash o'lchovi.

Ko'rsatkich (lot. "indicator" - ko'rsatkich) - aniq ob'ektda namoyon bo'ladigan qandaydir o'lchov birligi yoki o'zgarish sifati (mezon). Mezon, uning miqdoriy va sifat tavsifi bo'yicha ob'ektning turli holatlarini muhokama qilishga imkon beradigan o'lchov,

chegara. Ko'rsatkich, odatda, o'lchanadigan mezonning tashqi jihatdan juda yaxshi farqlashga imkon beradi.

Rivojlanishni bashoratlash - dinamik xarakterga ega modelning asosiy natijasi bo'lib, uning yordamida tashxislanuvchi ob'ektning sabab- oqibatli o'zaro bog'liqligi, uning mavjud bo'lishini ta'minlovchi jarayon qonuniyatlari to'g'risidagi qarashlar tartiblanadi.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostika g'oyalarini amaliyotda qo'llash didaktik va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy, metodik, tashkiliy, amaliy jihatdan to'g'ri tashkillashtirilishini ta'minlaydi. O'quvchilar tomonidan BKMning samarali o'zlashtirilishi uchun sharoit yaratadi. Qolaversa, pedagogik jarayonda muayyan kamchiliklar ko'zga tashlansa, ularni tezkor bartaraf etish, istiqbol vazifalarni oqilona belgilashga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1 Pedagogik diagnostikaning predmeti va ob'ek tni izohlab bering.

2. Pedagogik diagnostikaning maqsadi, vazifalarini tushuntirib bering.

3.O'zbekistonda pedagogik diagnostikaga oid qarashlarning shakllanishi haqida nimalami bilasiz.

4. Shaxs rivojlanishida biologik omilning o'mini qanday tushunasiz?

5. Shaxs shakllanishida ijtimoiy muhitning ahamiyatini ko'rsatuvchi misollar keltira olasizmi?

6. Shaxs rivojlanishida ta'lim va tarbiya qanday o'rin tutadi?

7. Shaxsning rivojlanishi uning faolligi bilan bog'liqmi?

Javobingizni

izohlang.

Test:

1. "Diagnostika" atamasining lug'aviy ma'nosi to'g'ri ifodalangan qatorni

ko'rsating

a) «dia» - «shaffof», «gnozip>y-«bilim- o'rganilayotgan ob'ekt yoki jarayon togrisida aniq ma'lumot olishning umumiy vositasi bo'lib xizmat qiladi;

b) “Dia”-“ta’lim”, «gnozifi ”- “tarbiya” - ta’lim-tarbiya jarayonini qulay tashkil etish;

c) “Shaffof ma’lumot beruvchi” metodika sifatida tushuniladi;

d) “Donishmandlar suxbati” ma’nosini bildirib, pedagogikada keng qo’llaniladigan metodni bildiradi.

2. Pedagogik diagnostika- bu....

a) Pedagog shaxsining va u bilan muloqotga kirishuvchilarning pedagogik tizim natijalarini o'rganish, tahlil qilish, samaradorligini oshirish jarayoni dir;

b) SHaxsning o'ziga xosligini belgilab beradigan anatomik, fiziologik, psixologik xususiyatlari;

c) Ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi xususiyatlari;

d) Ta’lim tizimida innovatsion jarayonlarni tashkil qilish.

3. Pedagogik diagnostikaning predmeti: “shaxs” bu

a) o'zining fikrini bayon eta oladigan, mustaqil qaror qila oladigan, boshqaruv tamoyillarini to'la-tukis idrok etuvchi inson;

b) jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'lgan, o'zligini anglagan, o'z “Men”iga da’vogar inson:

c) kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi, jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'lgan, o'zligini anglagan, o'z “Men”iga da’vogar inson;

d) Biologik, psixologik, ijtimoiy omillar asosida taraqqiy etgan, aqliy jihatdan kamolotga yetishgan, ob'ektivlik, fikrlovchilik, qobiliyatlilik va boshqa sifatlarini

4. Pedagogik jarayon- bu...

a) ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan jarayon;

b) tarbiyalanuvchilarning o'z-o'zini taraqqiy ettirish jarayoni;

c) axloqiy, estetik, falsafiy dunyoqarashni shakllantirish;

d) - shaxsning o'ziga va o'z faoliyatiga bir jamoa yoki butun jamiyat nuqtai nazaridan baho bera olish.

5. Sharqda pedagogik diagnostika elementlari quyidagi tarbiyaviy metodlar zahirida qo'llanilgan:

a) Nasihat, ogohlantirish, namuna;

b) ***Tushuntirish, nasihat berish, namuna, ibrat, rag'bat;***

c) Hikoya, so'z orqali ifodalash, ko'rgazmalilik;

d) Tushuntirish, jazolash, ko'rgazmalilik.o'zida mujassamlashtirgan individ

2-mavzu. Pedagogik diagnostikaning asosiy funksiyalari turlari va metodlari

Reja:

1.Pedagogik diagnostikada olib boriladigan sohalar

2.Pedagogik diagnostikaning asosiy turlari

3.Pedagogik diagnostikaning va korreksiyaning o'ziga xos jihatlari

Tayanch tushunchalar: *pedagogik diagnostika, nazorat, baholash, tahlil, tuzatuvchi funksiyasi, axborot funksiyasi, prognostik funksiyasi, tarbiyaviy funksiyasi, boshqaruv funksiyasi.*

I.Pedagogik diagnostikada olib boriladigan sohalar. Pedagogning turli pedagogik vaziyatlarda mavjud muammolarni hech bir qiyinchiliksiz, oqilona hal etishi uning yuqori darajada kasbiy kompetentlika ega bo'lishiga bog'liq. Qolaversa, inson resurslariga bo'lgan ehtiyoj tobora o'sib borayotgan hamda mehnat bozorida kuchli raqobat yuzaga kelayotgan mavjud sharoitda pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik tashxislash orqali pedagog faoliyatini aniqlashtirish, uni amaliy vazifalarni hal qilishga yo'naltirish, pedagogning kasbiy kompetentligini takomillashtirish, o'quvchilarning bilim hamda

tarbiyalanganlik darajasini, shuningdek, o'quvchilar jamoasining tarbiyalovchi ta'sirini kuchaytirish mumkin. Yu.P.Shapran bo'lajak biolog o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik darajasini tashxislash masalasini bir qator kompetentliklar, xususan, qadriyatli-yo'naltiruvchi, tabaqalashtirilgan-psixologik, strategik, autopsixologik, tashkiliy, metodik, axborotli-texnologik, fan, etimologik, salomatlikni asrash, innovatsion- ijodiy, ijtimoiy-kommunikativ va shaxsiy kompetentlik asosida o'rgangan.

O'z mohiyatiga ko'ra pedagogik tashxislash pedagogik jarayonni baholash va korrektsiyalash uchun tashxis ob'ekti (pedagogning ma'lum sifati, kasbiy malakasi, kompetensiyasi, o'zlashtirish darajasi, tajribasi)ni belgilovchi real ko'rsatkich va o'zgarish an'analari to'g'risidagi tezkor axborotga ega bo'lishni taqozo etadi.

Tashxislashda eng muhim omil muddatning belgilanishidir. Ya'ni: tashxislanadigan har qanday holat ma'lum vaqt oralig'idagina o'rganiladi. Zero, ana shu vaqt oralig'i o'rganilayotgan holat to'g'risida real, ob'ektiv ma'lumotlarni qo'lga kiritish imkonini beradi. Tashxislashda kuzatuv muddatlar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, 2 soat, 1 hafta, ikki hafta, 1 oy, 6 oy, 1 yil, 3 yil yoki 5 yil.


Har qanday soha, xususan, tibbiyot va psixologiyada bo'lgani kabi pedagogikada ham pedagogik tashxis aniq holatlar, ularning darajasini belgilovchi mezon hamda ko'rsatkichlarga muvofiq amalga oshiriladi. L.S.Vbigotskiy shaxsning rivojlanishini tashxislashni quyidagi holatlar bo'yicha amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb topadi: empirik, etimologik va topologik jihatdan, tashxis, bashorat hamda korrektsiyalash (to'g'rilash) nuqtai nazaridan.

“Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'quv fani muayyan funksiyalarni bajaradi. “Funksiya” (lot. “functio” - ijro etish, bajarish) tushunchasi nazariy jihatdan “ish-harakat yoki faoliyat doirasi” mazmunini anglatadi. O'quv fani quyidagi sohalarda diagnostika va korrektsiyalash ishlarining amalga oshirilishini ta'minlaydi (2.1-rasm):

Asosiy sohalar		
Tarbiya sohasida	Ta'lim sohasida	O'qitish
Shaxsning hayotiy maqsadlarini aniqlash va o'lchash; u tomonidan insoniyatning madaniy bilim va tajribasining samarali o'zlashtirilishi uchun zarur choralarni belgilash	Shaxsning har tomonlama rivojlanishi hamda u tomonidan borliq, kishilik faoliyatiga oid tizimlashgan bilimlarning o'zlashtirilishi uchun zarur choralarni belgilash	Muayyan ta'lim muassasasida ma'lum bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va o'quv-bilish kompetensiyalarini samarali, puxta o'zlashtirish darajasini aniqlash

2.1-rasm. Pedagogik diagnostika olib boriladigan sohalar

Manbalarda Pedagogik diagnostika va korreksiya o'quv fanining asosiy funksiyalari quyidagilar ekanini ko'rsatilgan (2.2-rasm):



2.2-rasm. Pedagogik diagnostikaning asosiy funksiyalari

1. Tezkari (qaytar) aloqa yoki axborot bilan ta'minlanganlik funksiyasi. Ushbu funksiya o'qituvchiga o'quv jarayonini, o'quvchilarning harakatlarini boshqarish, turli murakkab, muammoli vaziyatlarda to'g'ri pedagogik yechimni topishga yordam beradi. Tezkari (qaytar) aloqa yoki axborot bilan ta'minlanganlik funksiyasi pedagogik diagnostikaning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, u orqali o'quvchilarning hayotiy maqsadlari, qiziqishlar, borliqqa

bo'lgan hamda turli ijtimoiy sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlari, ruhiy holatlari, ichki kechinmalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'linadi. O'quvchilarning turli vaziyatlar (tengdoshlari bilan o'ynash, sayr, ta'lim jarayoni hamda bo'sh vaqtlar)da o'zlarini namoyon qilishlari pedagog tomonidan o'rganilib, sodir bo'lgan holatlarga nisbatan munosabat bildiriladi.

Mazkur funksiya o'qituvchiga har bir o'quvchi va o'quvchilar guruhining o'ziga xos xususiyatlarini, qiziqishlari, mayllari, muammolari, hayotiy intilishlari, maqsadlari va tajribalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. O'quvchilarning muammo va yutuqlari haqidagi aniq ma'lumotlar ularning har biri uchun alohida, individual pedagogik yondashuvni belgilash, o'quv materiallarini taqdim etish imkoniyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga o'qitish jarayonini o'ta murakkablashtirib borilishining oldini oladi.

2. Bashoratlash funksiyasi tashxislanayotgan ob'ektning rivojlanish istiqbollari aniqlashni nazarda tutadi. Ushbu funksiya o'qituvchiga ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanilayotgan vositalar, yaratilgan shart-sharoitlar, pedagogik faoliyat natijalari o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash orqali pedagogik jarayonning istiqbolli rivojlanishini belgilashga qaratilgan choralarni ishlab chiqish imkonini beradi. O'qituvchining diagnostik faoliyati nafaqat o'quvchilarning ahvolini aniqlash va baholashga, balki ularning rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, shart-sharoitlarni aniqlashga ham yo'naltirilgandir. Bashoratlash funksiyasi pedagogik tadqiqotlarda yanada samarali qo'llaniladi.

3. Nazorat va tuzatish funksiyasi o'qituvchiga o'quvchilar ta'lim va tarbiya jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf qilish orqali pedagogik jarayonni boshqarish, shuningdek, ta'limning rivojlantiruvchi imkoniyatlaridan o'qitish samaradorligini oshirishda foydalanishga yordam beradi. Mazkur funksiya ekspert baholash asosida amalga oshiriladi hamda tashxislanayotgan

ob'ektning muayyan standart, me'yor yoki modelga egaligini nazarda tutadi.

4. Baholash funksiyasi qo'lga kiritilgan pedagogik mezon va ko'rsatkichlar bilan taqqoslash asosida amalga oshiriladi. Mazkur funksiya amalga oshirish o'rganilayotgan pedagogik ob'ektning har bir aniq belgilangan vaqtdagi o'zgarishi darajasini belgilash va bu o'zgarishlarning o'qituvchining harakatlariga bog'liqligini ifodalaydi. Baholash funksiyasi har bir o'qituvchi faoliyatini sifat va miqdor jihatdan baholanilishiga xizmat qiladi. Pedagogik diagnostikada ilmiy- pedagogik tajriba sifatida amalga oshiriladigan baholash funksiyasi qo'lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish, xolis ravishda qiymatini belgilash imkoniyatini yaratadi.

II. Pedagogik diagnostikaning asosiy turlari. Har bir faoliyatning jamiyat uchun ijtimoiy, sub'ekt uchun shaxsiy ahamiyati, qiymati uning qay darajada samarali bo'lgani, muayyan natijalarni kafolatlay olgani bilan belgilanadi. Shu sababli qaysi sohada bo'lishidan qat'i nazar faoliyat samaradorligini aniqlash uchun u erishilgan natija - aniq ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi. Tahlil natijasiga ko'ra faoliyatning samarali bo'lgani to'g'risidagi xulosaga kelinadi. Faoliyat samaradorligini aniqlash bir necha yo'l, metod yoki usullar bilan aniqlanadi. Pedagogik diagnostika bu boradagi mavjud yo'l, metod va usullarni o'zida to'la qamrab olgan faoliyat shakli hamda alohida mustaqil soha sanaladi.

Ta'lim tizimida qo'llanilayotgan pedagogik diagnostika yaxlit jarayon bo'lib, u o'z ichiga bir nechta turdagi diagnostik faoliyatni qamrab oladi. Manbalarda pedagogik diagnostikaning bir nechta turi mavjudligi ko'rsatiladi. Ular quyidagilardir:

Asosiy diagnostikani o'tkazishning asosiy usuli - bir qator boshqa usullar bilan to'ldirilgan ishtirokchi kuzatuv usuli sanaladi. Bu turdagi tashxis yiliga ikki marta o'tkaziladi va sinfdagi barcha o'quvchilarni qamrab oladi.

Mohiyatiga ko'ra **asosiy boshlang'ich diagnostika** o'quvchining joriy vaqtgacha erishgan yutuqlari, shuningdek, rivojlanishdagi

muammolari aniqlanadi. Mavjud muammolarni hal qilish uchun o'quvchiga o'qituvchi, ota-onalar yoki mutaxassisning yordami zarur. Asosiy boshlang'ich diagnostika asosida o'qituvchi psixolog va mutaxassis o'qituvchilar bilan birgalikda o'quvchining shaxs sifatida rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlaydi.

Shu bilan birga uning o'quv faoliyatida hamda shaxs sifatida shakllanishida yutuqlarga erishishi uchun kattalarning kasbiy yordami yoki hayotiy tajribasiga asoslangan maslahatlari kerak. Asosiy boshlang'ich diagnostika orqali pedagogik yordamga muhtoj o'quvchilar uchun individual ish rejasi ishlab chiqiladi. Rejada amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar, shuningdek, o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga imkon beradigan bir yillik ta'lim yo'nalishi belgilanadi.

O'quv yili oxirida o'tkaziladigan **asosiy yakuniy diagnostikaning** natijalariga ko'ra o'qituvchining oldiga qo'yilgan pedagogik vazifalarning hal qilinish darajasi tahlil qilinib, baholanadi. Qolaversa, pedagogik jarayonni loyihalashtirishning yanada istiqboli yo'nalishlari, jarayonga samarali ta'sir ko'rsatadigan juda ko'plab omillar belgilanadi, pedagogik jamoatchilikning tarbiyaviy ta'sir imkoniyatlari aniqlanadi.

Oraliq diagnostika sinfnig barcha o'quvchilari uchun emas, balki ular orasidan tanlab olingan - rivojlanishida jiddiy muammolari bo'lgan o'quvchilar bilan amalga oshiriladi. Bu jarayonda pedagogik diagnostika usullari sifatida kuzatish va bolalar uchun oddiy test topshiriqlaridan foydalanish mumkin. Oraliq pedagogik diagnostikaning maqsadi bolaga nisbatan tanlangan ta'lim strategiyasining to'g'riligini baholash, rivojlanish dinamikasini aniqlashdir. Ushbu turdagi diagnostika natijalariga ko'ra, agar zarur bo'lsa, pedagog, psixolog va boshqa mutaxassis o'qituvchilar pedagogik jarayon mazmuniga tuzatish, o'zgaritirishlar kiritishlari mumkin.

Tezkor diagnostika favqulotda muammolarni hal qilish sifatini baholashga qaratilgan. U tarbiyaviy ish doirasida kerak bo'lganda

amalga oshiriladi, murakkab vositalarni talab qilmaydi va tarbiyachiga bolalar bilan muloqot qilishning to'g'ri taktikasini tanlashda yordam beradi. Tezkor diagnostikaning asosiy shakllari diagnostika darsi, oddiy eksperimental vaziyat, suhbat va boshqalar bo'lishi mumkin.

III. Pedagogik diagnostika va korreksiyaning o'ziga xos jihatlari. Har qanday jarayonda bo'lgani kabi pedagogik diagnostikada ham o'ziga xususiyatlar, ungagina xos bo'lgan jihatlari ko'zga tashlanadi. Diagnostik faoliyatda quyidagi ustuvor jihatlarni ajratish mumkin:

1. Taqqoslashda o'qituvchi o'quvchining xulq-atvorini kuzatib, uning xatti-harakatlarini avvalgi xatti-harakatlari bilan yoki hozirgi yoki avvalgi, shuningdek, boshqa o'quvchilarning xatti-harakatlari bilan yoki bo'lmasa, mutlaqo notanish o'quvchining xatti-harakatlari bilan solishtiradi. Bu holat pedagogik diagnostikada individual, ijtimoiy yoki ob'ektiv korrelyasion me'yor deb ataladi.

2. **Tahlil qilishda** kuzatishning qiyosiy tasnifidan chetga chiqiladi. Bunda quyidagi savollarga javob topiladi: 1. Nima uchun o'quvchining muayyan yosh davridagi xulq-atvori avvalgi xatti-harakatlaridan, sinfdoshlarining xatti-harakatlaridan farq qiladi? Nima sababdan ayrim o'quvchilarning xulq-atvorida "og'ishlar" kuzatiladi? Tahlil qilish orqali o'quvchining tashxislanayotgan sifati, holatidagi ijobiy va salbiy ko'rinishlarning sabablari o'rganiladi, aniqlanadi hamda uni korreksiyalash choralari ishlab chiqiladi. O'quvchi bilan individual ishlash ish rejasi tuziladi.

3. **Izohlash (talqin qilish)** tashxislash natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va ular asosida ma'lum xulosaga kelish jarayoni holatni izohlash yoki talqin qilish deyiladi. Rivojlanish prognozini tayyorlash va pedagogik qarorni qabul qilish xulosaga tayangan holda holatning izohlanishi (talqin qilinishi)ga bog'liq. Izohlash (talqin qilish) to'plangan ma'lumotlar aniq bo'lganidagina amalga oshiriladi. Tashxis jarayonida faqat bir nafar o'qituvchining shaxsiy kuzatuvlari asosida to'plangan ma'lumotlarga emas, balki

boshqa fan o'qituvchilari hamda mutaxassislarning o'rganishlari orqali ega bo'lingan qo'shimcha dalillar ham tahlil qilinadi. O'qituvchi yoki o'qituvchi (mutaxassis)lar ega bo'lgan ma'lumotlar ob'ektiv va sub'ektiv yondashuv, samarali usullar yordamida har tomonlama sinchiklab o'rganiladi, tahlil qilinadi. Binobarin, shundagina, xulosaning xolis, to'g'ri bo'lishiga erishiladi.

4. **Bashoratlash.** Pedagogik diagnostikada o'qituvchi o'quvchining turli vaziyatlarda yoki muayyan muddat (1, 2, 3 va hokazo yil)dan keyin o'zini tutishi, muomalasi, atrofdagilar bilan munosabatiga oid ma'lumotlar doimiy ravishda ekstrapolyasiya qiladi (ob'ekt yoki jarayonining bir qismini kuzatish asosida chiqarilgan xulosani boshqa tarkibiy elementlarga teng taqsimlaydi). Tashxis natijasida olingan ma'lumotlar, ular asosida tuzilgan xulosalarga tayangan holda o'qituvchi o'quvchining har xil vaziyatlardagi harakatlarining istiqbolini belgilash (bashoratlash) imkoniyatiga ega bo'ladi. Bashoratlash o'quvchiga nima uchun va qanday pedagogik yordam zarurligini tushunishga yordam beradi.

5. **Qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish.** Pedagogik diagnostikaning zamonaviy muammolari juda ko'p va xilma-xildir. Bu holat turli sabablar bilan izohlanadi. Ya'ni: pedagogik diagnostikaning ilmiy-metodologik asosi nazariy jihatdan hali yetarli darajada asoslanmagan; pedagogik diagnostikani amalga oshirishga bo'lgan talabning xilma-xil mazmunga egaligi (ilmiy-pedagogik ekspertiza, tadqiqot faoliyati, o'quv amaliyoti); diagnostik masalalarni hal qilishga differensial (tabaqaviy) yondashuvning talab qilinishi (sabab - pedagogik diagnostika maqsadining turlicha ekanidir).

Zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostika vositalarini o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlay oladigan darajada takomillashtirish talab qilinadi. Qolaversa, har bir o'quvchining muammo va yutuqlariga tayangan holda uni rivojlantirish traektoriyasini oqilona belgilash maqsadga muvofiqdir.

Bunda, eng muhimi, pedagogik diagnostika jarayoni bosqichlari to'g'ri belgilash va ularni izchil tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Demak, zamonaviy sharoitda har bir o'qituvchi har o'qituvchi pedagogik diagnostika asoslarini puxta bilishi, bu boradagi mavjud bilimlaridan ta'lim va tarbiya jarayonida samarali foydalana olishi zarur. Zero, shunda pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlash va o'quvchilarni har tomonlama rivojlangan shaxs etib tarbiyalashga erishiladi.

Pedagogik faoliyatni tashxislashning metodik jihatlari

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida o'qituvchining kasbiy faoliyatini tashxislashda quyidagi metod, vosita va jihozlaridan foydalanilmoqda: darsni kuzatish; portfolio; ta'lim oluvchilarning yutuqlari; testlar; anketalar.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini tashxislash quyidagilar asosida amalga oshiriladi: pedagogning kasbiy faoliyatda erishgan yutuqlari to'g'risida ma'lumot beruvchi portfolio (malaka oshirish kurslarida tahsil olganlik, turli ko'rik va tanlovlarda ishtirok etganlikka oid ma'lumotlar asosida); o'quvchilarning tegishli fan bo'yicha erishgan natijaviy (fan olimpiadalari, o'zlashtirish) ko'rsatkichlari; attestatsion diagnostika natijalari (bosma hamda elektron shakllarda o'quv materiallarini tayyorlash, o'quvchilarni fan olimpiadalari, turli tanlovlarga tayyorlash, OAVda ish tajribasini ommalashtirish va boshqalar asosida).

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy kompetentligini tashxislash texnologiyalarini takomillashtirish muammosi doirasida tashkil etilgan oid ta'limiy tajribaning "yadrosi"ni maxsus metodikaning mazmunini yorituvchi axborotli- didaktik ta'minot tashkil etdi.

J.E.Sarsekeeva o'quv fani misolida "axborotli-didaktik ta'minot" tushunchasini shunday ta'riflaydi: o'quv fanining axborotli-didaktik ta'minoti - muayyan o'quv fani yoki o'quv fanlari u o'quv-metodik majmua bo'lib, u tamoyillar tizimi asosida shakllantiriladi. Mazkur majmua o'zida didaktik maqsadlar va tarbiya, ta'lim va rivojlanish

vazifalarini, pedagogika, psixologiya, ergonomika, informatika va boshqa fanlarning talablarini inobatga olgan holda ishlab chiqilib, o'qitish jarayonini tashkil etish va nazorat qilish uchun foydalaniladigan qog'oz va magnitli tashuvchi ko'rinishdagi turli foydali, mazmunli pedagogik axborotlarni aks ettiradi.

Pedagogik tashxislash jarayonida foydalaniladigan axborotli-didaktik ta'minot tashkiliy, tahliliy, nazorat qiluvchi, korreksion, kommunikativ, refleksiv va bashoratlovchi vazifalarni bajaradi.

Tashxislash jarayonida foydalaniladigan axborotli-didaktik ta'minot sirasiga:


- o'quv-metodik materiallar (darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ta'limiy dasturlar, masalalar to'plami, ma'lumotnoma xarakteridagi adabiyotlar, turli lug'atlar, audio va video materiallar va boshqalar);

- kompyuter ishlanmalari (alohida kompyuter dasturlari, ma'lumotlar bazasi, elektron darsliklar, yaxlit kompyuter kurslari, dasturiy-metodik majmualar va hokazolar)

- tashxislovchi metod va vositalar;

- didaktik ta'minotni amaliyotga tatbiq etish imkonini beruvchi tashkiliy- pedagogik shart-sharoitlar kiradi.

Pedagogik tashxislashda baholovchi vositalarni aniqlab olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular metodik vositalar jamlanmasi sifatida e'tirof etilib, attestatsion sinov davrida mutaxassisning tayyorgarlik darajasini belgilangan standartlarga muvofiqligi darajasini belgilashga xizmat qiladi. Tashxislovchi vositalar jamlanmasini quyidagilar tashkil qiladi (3.2.-rasm):



3.2-rasm. Tashxislovchi vositalarning turlari

Tashxis materiallari quyidagilarga ajratiladi:

1) yechimini bir yoki ikki harakat (urinish) bilan topish mumkin bo'lgan oddiy nazorat topshiriqlari (shu jumladan murakkab bo'lmagan testlar);

2) doimiy, shuningdek, nostandart vaziyatlarda ko'p martalik harakat (urinish)ni talab etuvchi majmuaviy nazorat topshiriqlari.

Oddiy nazorat topshiriqlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

-yopiq shakldagi javoblarni tanlashga asoslangan oddiy test topshiriqlari;

-qisqa javoblar yoki oddiy harakat (urinish)lar bilan hal qilinadigan oddiy vaziyatli topshiriqlar;

-matnni, yechimni yoki qo'l harakatlarini yodga olish asosida bajariladigan murakkab bo'lmagan topshiriqlar.

Oddiy nazorat topshiriqlari sodda bilim va ko'nikmalarga egalikni tekshirish uchun mo'ljallanadi. Bu kabi topshiriqlardan tashqari majmuaviy nazorat topshiriqlari ham mavjud bo'lib, ularning sirasiga ochiq shakldagi; yechimni bosqichma-bosqich topish mumkin bo'lgan hamda javobi batafsil bayon etiladigan testlar, individual yoki jamoa bo'lib bajariladigan loyihalar, laboratoriya ishi yoki trenajyor, stanok, maneken va boshqalarda amaliy harakatlarni bajarishga oid topshiriqlarni kiritish mumkin. Majmuaviy nazorat topshiriqlari muayyan soha bo'yicha bajariladigan zarur ko'nikma, malaka va qobiliyatlarning yaxlit tarzda tekshirilishi uchun xizmat qiladi.

Muayyan shartlarni inobatga olinishi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini tashxislash, baholashga qaratilgan pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ular:

-tashkiliy-tayyorgarlik ishlarini oqilona tashkil etish;

-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini tashxislash va baholashning metodik ta'minotini yaratish;

-yaratilgan metodik ta'minot asosida o'quvchilarning tegishli bilim, ko'nikma, malaka va ma'naviy-axloqiy sifatlariga egaligini tashxislash va baholash;

-olingan natijalarga ko'ra metodik ta'minotning amaliyotga mosligini tahliliy o'rganish;

-pedagogik amaliyotning mavjud holatidan kelib chiqqan holda metodik ta'minotni innovatsion xarakterdagi nazariy material, vosita va texnologiyalar bilan boyitish.

Shunday qilib, o'qituvchining pedagogik voqelikni diagnostik tadqiq qilishda ustuvor tamoyillari, pedagogik tashxislash darajalari hamda bosqichlaridan yetarlicha xabardor bo'lishi tegishli jarayonni samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Pedagogik faoliyatni tashxislash afaqat o'qituvchining kasbiy kompetentlik sifatlariga egaligi, shu bilan birga uning pedagogik faoliyatni tashxislashning metodik jihatlaridan xabardorli hamda pedagogik diagnostikani metodik jihatdan to'g'ri, oqilona tashkil etishga tayyorligi to'g'risi bir to'xtamga kelishga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik diagnostikaning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Pedagogik diagnostika nechta asosiy funksiyani bajaradi va ular nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich, joriy va yakuniy diagnostika o'rtasidagi farq nimada?
4. Pedagogik diagnostikaning prognostik funksiyasi qanday vazifani bajaradi?
5. Qaysi metodlar yordamida o'quvchilarning shaxsiy rivojlanish darajasi aniqlanadi?
6. Diagnostika jarayonida o'qituvchining refleksiyasi qanday rol o'ynaydi?

Test:

1. Pedagogik diagnostika jarayonida o'quvchi faoliyatini tahlil qilishda o'qituvchi faqat baholash bilan cheklanmasligi nimani anglatadi?

a) Diagnostika faqat nazorat funksiyasini bajaradi

b) O'qituvchi tahlil asosida rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishi kerak

c) Barcha o'quvchilar bir xil natija ko'rsatadi

d) Diagnostika yakuniy natijaga qaratilgan

2. Agar diagnostika natijalari o'quvchilarning bilim darajasi pastligini ko'rsatsa, o'qituvchi eng avvalo qanday harakatni amalga oshirishi lozim?

a) Baholarni qayta ko'rib chiqish

b) O'quvchilarni jazolash

c) Ta'lim metodlarini tahlil qilib, o'zgartirish

d) Yangi fan kiritish

3. Quyidagi holatlarning qaysi biri prognostik diagnostika misoliga to'g'ri keladi?

a) O'quvchi ishtirokidagi dars jarayonini kuzatish

b) O'quvchi kelajakda qaysi yo'nalishda muvaffaqiyat qozonishini aniqlash

c) Test natijalarini baholash

d) Sinfda intizomni saqlash

4. Pedagogik diagnostika natijalari asosida individual yondashuvni shakllantirishning eng to'g'ri yo'li qaysi?

a) Barcha o'quvchilarga bir xil topshiriq berish

b) Faqat yuqori baholanganlarni rag'batlantirish

c) Har bir o'quvchi ehtiyojidan kelib chiqib rivojlantiruvchi chora belgilash

d) Baholash tizimini murakkablashtirish

5. O'qituvchi diagnostika jarayonida sotsiometriya metodini qo'llab, o'quvchilar orasida "chetda qoluvchi" shaxslarni aniqladi. Bu ma'lumot unga qanday imkon yaratadi?

- a) Kamchiliklarni yashirish
- b) Guruhda ijobiy psixologik muhitni shakllantirish**
- c) O'quvchilarni ajratish
- d) Faqat baholash mezonlarini o'zgartirish

3-mavzu: Pedagogik diagnostikada o'quvchilar yosh xususiyatlarining o'ziga xosliklari.

Reja:

- 1 Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni pedagogik diagnostika (PD) va pedagogik korreksiyalash (PK) tarkibi.
2. Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar tamoyillari va metodlari.
3. O'smirlik yoshida deviasiya (me'yordan og'ish) holatlari. Deviasiya tiplari.

Tayanch tushunchalar: *pedagogik diagnostika, korreksiya, guruhli normalar, metodikalar, kichik maktab yoshi, yosh xususiyatlar*

I. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni pedagogik diagnostika (PD) va pedagogik korreksiyalash (PK) tarkibi. Bugungi kunda xulq-atvordagi umumiy munosabatlarni diagnostika va korreksiya qilish uchun yagona nazariya mavjud bo'lmasada, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar jamoasidagi ijtimoiy munosabatlarni quyidagi xususiy komplekslar orqali aniqlash mumkin:

- 1) guruhli normalar;**
- 2) guruhli tarkib;**
- 3) guruhdagi munosabatlar.**

Keyingilari o'z navbatida formal va noformal kabi guruhlarga bo'linishi mumkin. Formal guruh o'qituvchi tomonidan nazorat ostiga olingan ta'limtarbiya maqsadlariga xizmat ko'rsatsa, noformal muhitda, o'qituvchining aralashtirishsiz turli jarayonlar kechishi mumkin, bunda do'stlik, mehr-oqibat, sabrtoqat, mehnatsevarlik

bilan birga o'jarlik, yolg'onchilik subutsizlik kabi hislatlar ham shakllanishi hech gap emas.

Ammo shu narsani ta'kidlash joizki, noformal guruhlamining paydo bo'lishi-tabiiy hodisa, chunki o'kuvchi o'zining ma'lum jamoaga taalluqliligi, o'z hohish-irodasini namoyon qila oladigan guruhga aloqador ekanligi Shukuhi bilan yashashi zarur. Kichik maktab yoshidagi bolaning xulqidagi nuqsonlarni korrektsionalayotgan o'qituvchi bolaning qaysi noformal guruhga aloqadorligini, uning ta'sir kuchini bilishi kerak. Yuqori sinf o'kuvchilari formal guruhlardan asta-sekinlik bilan yiroqlashadilar. Mazkur guruhlarda o'z qonun-qoidalari, baholash mezonlari mavjud bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda bolalarni turli to'garaklarga jalb etish o'ta foydali, chunki to'garaklarda bolalar qiziqishlari, mayllariga qarab, ularga qatnashadilar. Bunda motivatsiya yaratishga imkoniyat katta bo'ladi. To'garaklarda o'quvchilar tafakkurini hayotiy faktlar bilan boyitish imkoniyati kengayadi, o'quvchilarda mantiqiy tafakkur rivojlantiriladi; Boshlang'ich sinflarda muammoli o'qitishni to'g'ri tashkillashtirish ham o'quvchilarning kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, taqdim qilinayotgan o'quv materialida berilgan axborot ustida amallar bajarilib undagi muammo yechimini topishga harakat qilish, izlanayotgan miqdor o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash bolaning mushohada qilish qobiliyatini o'stiradi, uning axloqiy kategoriyalarni tez ilg'ab olishiga zamin yaratadi.

Shu munosabat bilan taqdim qilinayotgan o'quv materialini to'rt qismga bo'lish mumkin:

1. O'quv materialining tarbiyaviy xarakterga molikligi.
2. Undagi axborotlarning ta'sir kuchi.
3. yechimini topish zarur bo'lgan muammoning qo'yilishi.
4. O'qituvchi mahorati va guruh bilan konformligi(kirishuvchanligi).

Boshlang'ich sinfda taqdim etilayotgan o'quv materiali va o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning mazmuniga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini yuqoridagi dalillar ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, sifat – muayyan shaxsning ayrim xususiyatlarini ifodalovchi axloqiy tushuncha hisoblanadi. Fazilat esa shaxs, jamiyat, millatga tegishli bo'lgan ijobiy axloqiy xislatlar yig'indisidan iborat bo'lib, pedagogik tuzatish jarayonida aynan shu jihatlarga diqqat qaratilishi lozim. Fazilatlar insonning ijobiy xislatlari to'plamidir. Maktab o'qituvchilari o'quvchilarda ijobiy xususiyatlar va fazilatlarni shakllantirish maqsadida ulardan foydalanishlari kerak.

II. Bola rivojlanishidagi kamchiliklarni tashxislashda korreksion ishlar tamoyillari va usullari. Rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar maxsus, tuzatuvchi-rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiyaga muhtojdirlar. Anomal bolalarga yondashishda faqatgina biror nuqsonni aniqlash emas, balki uning xarakteri, tuzilishi, bolani tegishli tashkilotga joylashtirish va tuzatish ishlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan raqamli va sifatli ko'rsatkichlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Anomal bolalarni maxsus muassasalarda o'qitish va tarbiyalash, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tuzatuvchi-rivojlantiruvchi sinflarni tashkil qilish masalasi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar (PTPK) shug'ullanadi. Bu borada mutaxassislar quyidagi qoidalarga rioya qilishlari maqsadga muvofiq:

1. Insonparvarlik qoidasi har bir bola uchun o'z qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantira oladigan zaruriy sharoitlarni o'z vaqtida yaratib berishdan iborat bo'lib, u bolani izchil va batafsil o'rganishni, uning yo'lida uchraydigan to'siqlarni bartaraf etish usullari va vositalarini qidirishni talab etadi.

2. Bolalarni kompleks o'rganish qoidasi bolaga tashxis qo'yishda kerakli mutaxassisliklar (tibbiy, defektologik, psixologik va pedagogik) bo'yicha olingan ma'lumotlarga tanishishni nazarda

tutadi. Agar shifokor, defektolog, psixolog va pedagoglarning mulohazalari har xil bo'lsa, bola qayta ko'rikdan o'tkaziladi.

3. Bolani har tomonlama va butunlay o'rganish qoidasi bolaning idrok qilishi, hissiy-irodaviy xislatlari va xatti-harakatlarini tekshirishni ko'zda tutadi. Unga ko'ra bolaning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jismoniy ahvoli ham inobatga olinadi. Bolani har tomonlama va butunlay o'rganish uning o'quv, mehnat va o'yin kabi faoliyatlari jarayonidagi harakatlarini kuzatishga asoslanadi.

4. Sifatiiy-miqdoriy yondashuv qoidasi bola bajargan topshiriqni baholashda yakuniy natijani emas, balki usulini, masalani yechish uchun tanlangan yo'lning mantiqiylikini, harakatlarning mantiqiy ketma-ketligini, maqsadga erishishdagi qat'iylik va harakatchanlikni ham hisobga olish zarurligini ta'minlaydi.

5. Muayyan turdagi patologiyali bolalarni boshqa bolalar guruhlaridan ajratish qoidasi har bir maxsus ta'lim muassasasi o'ziga xos tartib-qoidalarga ega ekanligini tavsiflaydi.

6. Rivojlanishidagi mavjud cheklanishlar darajasiga qarab farqlashtirilgan ta'limni tashkil etish qoidasi rivojlanishida o'xshash (yoki teng, baravar, mos) bolalar uchun mo'ljallangan.

Ammo, darajasiga qarab, turli xil og'ishlarga ega bo'lgan bolalarni ajratib, ularni o'qitishni ko'zda tutadi, shuning uchun, ularni ta'lim berish usullarida sezilarli farqlar bor (masalan, ko'zi zaif bolalar teginish asosida (Brayl tizimi orqali), yomon ko'ruvchilar esa ko'rishga asoslangan holda o'qitiladi).

Yosh tamoyili har bir guruh yoki sinfga ma'lum yoshdagi bolalarning qabul qilinishi haqida gapiradi. Turli yoshdagi rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarni sinovdan o'tkazish va ularga tuzatish yordamini ko'rsatish tajribali mutaxassislar tomonidan bajariladi. PMPK tarkibida quyidagi mutaxassislar ishlaydi: o'qituvchi, psixolog, vrach, psixiatr, nevropatolog, otolaringolog, ortoped, oftalmologlar, oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog va logoped. PMPK faoliyatiga

defektologiya ta'limi va g'ayritabiiy bolalar bilan ishlashda amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassis boshqaruvchi rahbarlik qiladi.

Psixologik-pedagogik sinovlar quyidagi usullar orqali tashkillashtiriladi:

1.Suhbat usuli. Suhbat bola bilan bog'lanish vositasi sifatida, g'ayritabiiy bolaning shaxsiyati, hissiy-irodaviy fazilatlarini, xatti-harakati, shuningdek, rivojlanishidagi og'ishlarning sabablari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ishga yordam beradi. Agar bolaning nutqida, eshitish qobiliyatida kamchiliklari bo'lsa yoki aloqaga qiyin kirishsa, suhbatni o'tkazish tavsiya qilinmaydi. Bunday vaziyatlarda bolani qiziqtiradigan namoyish materiallaridan foydalanish mumkin.

2.Kuzatuv usuli. Kuzatuv bolaning maslahatlashuvga kelishidan oldin boshlanadi va to'liq sinovlarni o'tkazish jarayonida davom etadi. Kuzatuv har doim aniq maqsadga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bolani o'yin faoliyatini uyushtirish jarayonida kuzatish alohida muhimlikka ega, chunki u bola bilan bog'lanishga imkoniyat yaratadi. Ba'zi hollarda o'yinchoqlar yordami bilan maxsus sinovlar o'tkaziladi.

3.Rasmlarini tahlil qilish usuli. Rasmlar bolani o'rganishda muhim farqlovchi-tashxisiy vosita sanaladi. Agar bola pedagog tomonidan taklif qilingan rasmlar qo'rquv uyg'otsa, bolaga erkin rasm chizishni maslahat berish maqsadga muvofiq. Uning mavzuni tanlash qobiliyati, tasvirlash xususiyatlari, rasm chizish jarayoni yakuniy tashxis uchun qadrlil ma'lumot beradi. Aqliy zaif bolalar odatda mavzuni tanlashda qiynaladi, ular syujetlar yaratmay, alohida oddiy narsalarni tasvirlashga urinadi.

4.Tajriba-psixologik izlanishlar usullari. Ular maxsus o'rganilishi lozim bo'lgan ruhiy jarayonni faollashtiradigan ma'lum holatlarni yaratishni nazarda tutadi. Tajriba usullari orqali bu yoki shu vaziyatlarning sabablari va mexanizmlarini ochib berish mumkin.

5.Test usuli. Bu usul bolalarning psixodiagnostika maqsadlarida sinovdan o'tkazishda qo'llaniladi. D.Veksler tomonidan asoslangan

moslashtirilgan test keng tarqalgan. Undan foydalanish shaxsiy-psixologik sinovlarni o'tkazishda bola haqida zaruriy qo'shimcha ma'lumotlarni olishga yordam beradi.

III.O'smirlik yoshida deviasiya (me'yordan og'ish) holatlari.

Deviasiya tiplari.O'smirlik davrini o'tish bosqichi deb ataydilar. Bolalr yosh ko'rsatkichlari davrida o'tish bosqichi eng qiyin murakkab davrdir. Bu davrni yana shu sababli ham o'tish davri deb hisoblaydilarki, bu o'sish bosqichida inson bolalikdan kattalik davriga, bola xarakteridan, yetuk inson bo'lib shakllanadigan bir, o'ziga xos jarayonlar davriga o'tiladi.

O'smirlik yoshida o'smirning yahlit hayoti va faoliyati jiddiy o'zgaradi va uning psixikasi qayta shakllanishiga olib keladi, o'z tengdoshlari bilan o'zaro faoliyatda, munosabatlarning yangi shakllari vujudga keladi. O'smirning jamiyatdagi vaziyati, holati almashidi unga kattalardan yoqoriroq talablar qo'ya boshlaydilar. Bu yosh davrida jinsiy ytilish faolashadi biroq ijtimoiy shakilanish orqada qoladi. Bu esa jinsiy tarbiyada ijtimoiy-psihologik muomolarni vujudga keltiradi.

O'smirlik yoshida bolani o'z -o'zini anglashga ihtiyoj paydo bo'ladi. Men kimman!savoliga javob berish uni tez-tez bezovta qiladi. Uni o'z -o'ziga qiziqish paydo bo'ladi. U yoki bu faktlarga unda shahshiy qarash, mulahaza yoritish, o'z bahosini berish kabi hususiyatlar shakilanadi. Vaqtinchalik oila va maktabdan psihologik uzoqlanish holatlari bo'lib turadi.O'smir shahsning shakilanishida tengdoshlarning tasiri kuchaygandak bo'ladi. Ko'pincha o'smir haqiqiy rasmiy jamoa va norasmiy guruh bilan muloqot qilishning qay biri afzal ekanligi to'g'risidagi tanlov oldida turadi. O'smir o'zining erkin sezaigan, uni hurmat qilaladigan insonlar bo'lgan bu muhitni ko'proq yaxshi ko'radi.

O'smirlarda deviant xulq-atvor sabablari.Inson taraqqiyoti ko'pgina omillar o'zaro ta'siri bilan asoslanadi: irsiy avlodan-

avlodga o'tuvchi, muhit, tarbiya, insonning shaxsiy amaliy faoliyati kabilarga bog'liq.

Voyaga etmaganlarning deviant xulq-atvorini asoslovchi asosiy omillarni ajratib ko'rsatish mumkin.

1.Biologik omil. Bola organizmining noqulay fiziologik yoki anatomik xususiyatlari mavjud bo'lib, uni ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtiradi.

Bularga:

- genetic, avloddan o'tuvchi xususiyatlar. Ularga qaliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rishda nuqsonli bo'lganlar, asab sistemasining buzilishi kabilar kiradi. Bunday bolalar hali ona qornidayoq noto'g'ri qo'yish, onaning kasallanishi (jismoniy va psixik jarohatlar, surunkali yuqumli kasalliklar bilan og'rishi, bosh suyagi-miya psixik jarohatlari, tanosil kasalliklari); irsiy kasalliklarning ta'siri, ayniqsa, irsiylik, alkogolizm ta'sirida bo'ladilar;

- inson organizmiga ta'sir etuvchi psixologo-fiziologik og'ir tashvishlar, janjalli vaziyatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, energiya yangi turlari, samotik allergik kasalliklar turlariga olib kelishiga sabab bo'ladi.

- fiziologik, o'z tarkibiga nutqdagi nuqsonli, tashqi qiyofadagi nuqsonlar, konstitusion-samotik nuqsonlar sababli atrofdagilar bilan munosabatda yuzaga keltiradi va shaxslararo munosabatda bolaning o'z tengdoshlari, jamoa o'rtasida chekkaga chiqish tortilishga olib keladi.

2.Psixik omil. Bola psixopotologiyasida yoki aksentuasiyasida (haddan tashqari zo'riqish) xarakterning alohida xususiyati bilan ifodalanadi.

Bu xulqiy og'ishganlik bola asab ruhiy kasalliklar, psixopatiya, nevrosteniya bilan xastalanganligi orqali vujudga keladi.

Aksentukrlashgan xarakter xususiyatiga ega bo'lgan bolalar turli psixologik ta'sirlarga o'ta sezgir, psixik me'yorning eng chetki turi bo'lib, tibbiy- ijtimoiy reabilitasiyaga muxtoj va tarbiya

xarakteridagi chora-tadbirlarnin tadbirlarning ko'rilishi talab etadigan bolalardir.

3.Ijtimoiy-pedagogik omillar. Oila maktab ijtimoiy tarbiya nuqsonlarida namoyon bo'ladi.

Bu omil bolani ijtimoiylashuvidan og'ishganlikka bolalik davridayoq maktabda o'zlashtirmovchilik tufayli maktab bilan aloqaning uzilishi (pedagogik bo'sh qo'yish)olib keladi. O'smirda maktabga ongli ravishda qiziqishning shakilanmasligi matuviga sabab bo'ladi. Bunday bolalar maktabga yomon tayyorlangan, uy vazifalariga negativ munosabatda bo'luvchi maktab baholariga befarq bo'ladigan o'quv dezadantasiyasiga uchrovchi bo'ldilar.

***O'quv dezadantasiya** - bolaning maktabga bo'lgan qiziqishini saqlashida bir yoki ikki fonni o'zlashtirishida qiyinchilikka duch kelgan hollatidir.*

***Maktab dezadantasiya** - bolaning yosh hususiyatida ta'lim olishga qiyinchiliklar bilan bir qatorda, hulqiy buzilishlar holatlari o'qtituvchilar sinflari bilan janjali vaziyatlar ko'rinishi birinchi o'ringa chiqadi. Dars qoldirish odatlari paydo bo'ladi.*

***Ijtimoiy dezadantasiya** - bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishi maktab jamoasining talablariga javob berishdan qochish holatlari turli, asosial jamoalariga kirib ketish, spirtli ichimliklarga giyohvan moddalarga qiziqishining ortishi bilan namayon bo'ladi.*

Bolaning ijtimoiy rivojlanishidagi og'igan omillari yomon oilalar sabab bo'ladi. SHunday oilaviy o'zaro munosabatlar usullar mavjudki, ular voyaga yetmaganlarning asosisiyal hulq-atvorlarining shakilanishiga olib boradi.

1.Tarbiyaviy va oilaning ichki munosabatlarining diogramonik usuli. Bu usul o'zida bir tomondan, bola istaklariga ko'ra bo'lsa ikkinchi tomondan bolani inqirozli janjalli vaziyatlarga yoki oila ikki hil ahloqiy qarash mavjudligi oila uchun boshqa jamiyat uchun bo'lgan boshqacha tarbiyaviy holatlar.

2.Barqaror bo'lmagan janjalli usul. Noto'lig' oilalarga tasrbiyaviy ta'sir etuvchi,er-hotin ajralish, ota-ona va uzoq muddat alohida yashashlari sababli yozaga keladi.

3.Munosabatlarning asosial usuli. Yomon tashkil etilgan oilalarda,doimiy-spirtli ichimliklar ichish, giyohvandlikka berilish, ahloqsizlik ota-onaning jinoyatchilik hulq atvor "oilaviy qahri qatiqlik "va zo'ravonlik kabi yozaga keladi. Qahri munosabatlar (haqorat ho'rlash)deb bolaga unga g'amho'rlik qiluvchi, qarmog'iga olgan odamlar tomonidan zarar etkazilishining ko'pgina harakterlariga aytiladi. Bu holatlarga bolaga jismoniy zarar etkaziluvchi jismoniy emosional (hissiy)jinsiy qiynoqlar bilan azoblash ko'p takrorlanuvchi noo'rin jazolar kiradi. Qahrli munosabatlarga bolalar mehribonlik uylarida kasalhona va boshqa muasasalarida duch kelishlari mumkin

SHunday holatlaridagi bolalar havsizlik hissisni sezmaydilar. Ularning meyoriy rivojlanishida bu hisiyotni ahamyati katta.Bu esa bolaga uni o'zi haqida men yomonman hech kimga kerakmasman, sevimli kemasman deb o'ylashlariga sabab bo'ladi. Qahrli munosabatlarning har qanday turi bola sog'lig'iga zarar ko'rsatadi. Uning hayoti va ijtimoiy moslashuvchanlik havf tug'diradi.

Nazorat savollari

1.Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni diagnostika va korreksiyalash asosan qaysi tarkibda amalga oshadi?

2.Bolaning xulq-atvorini korreksiyalashda qanday jihatlar hisobga olinishi zarur?

3.Pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiyalashni boshlang'ich ta'lim muassasalari uchun qanday o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib o'tish joiz.

4.Xulq-atvordagi umumiy munosabatlarni diagnostika va korreksiya qilish uchun yagona nazariya mavjud bo'lmasada, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar jamoasidagi ijtimoiy munosabatlarni qanday xususiy komplekslar orqali aniqlash mumkin?

4-mavzu: Pedagogik diagnostikaning tarixiy rivoji.

Reja:

1. Pedagogik diagnostika va korreksiya ning o'quv fani sifatida shakllanishi hamda rivojlanishi.
2. Pedagogik diagnostika tushunchasining mohiyati.
3. Sharq mutafakkirlari va G'arb pedagoglari jamiyatda pedagogik kasbining tutgan o'rni haqida.

Tayanch tushunchalar: tashxislash, ta'limiy tashxislash, tuzatish, diagnostika (tashxis), diagnostika qilish, tashkillashtirish, kuzatuv o'tkazish, tuzatish jarayoni, baholash.

I“Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'quv fani sifatida shakllanishi va rivojlanishi. Zamonaviy sharoitlarda “Pedagogika” fani har tomonlama rivojlangan, mukammal shaxsni tarbiyalash va yetishtirish masalasini hal etishga yo'naltirilgan. Asrlar davomida shakllangan o'qitish va tarbiya tizimi yuqori darajadagi ong, fikrlash, jahon qarashi, ma'naviy fazilatlar va hayotiy tajribaga ega insonni yetishtirishga oid boy urf-odatlar va an'analarni o'zida jamlagan. Insoniyat rivojining turli bosqichlarida ta'lim amaliyotida aynan shu qimmatbaho an'analarga tayangan holda ish olib borilgan. Biroq, mavjud ta'limiy odatlar statik emas, balki o'z g'oyalarini jamiyat hayotidagi o'zgarishlarga moslashtirib boradi.

Bu o'z navbatida pedagogik jarayon, faoliyat va ilmiy-tadqiqot sohalarida yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Yangi yo'nalishlarning fikrlari va tamoyillarining boyib borishi pedagogik turkumdagi fanlar orasida mustaqil fanlarning vujudga kelishini ta'minlaydi. So'nggi chorak asr mobaynida pedagogik turkumdagi fanlar soni “Ijtimoiy pedagogika”, “Pedagogik texnologiya”, “Innovatsion pedagogika”, “Pedagogik innovatika”, “Pedagogik konfliktologiya”, “Pedagogik diagnostika va korreksiya” kabi mustaqil fanlar hisobiga ortdi. Bu fanlar amaliyotda o'z o'rnini topdi va muhim pedagogik muammolarni samarali o'rganishga yordam bermoqda. Garchi diagnostika va tuzatish masalalari qadimdan

tadqiq etilgan bo'lsa-da, "Pedagogik diagnostika va korreksiya" nisbatan yangi ta'lim fani hisoblanadi.

Jahon ta'lim amaliyotida o'z mustaqil o'rniga ega bo'lishiga hali ko'p vaqt o'tmaganiga qaramay, bu fan ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ehtiyojlarini qondirishda ma'lum tajribaga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida bu fanning o'quv fani sifatida o'qitilishi bo'yicha dastlabki tajribalar to'plangan bo'lsa-da, o'qituvchilar "Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fanining barcha imkoniyatlaridan to'la foydalanishda boy amaliy tajribaga ega emaslar. Shu bois hozirgi vaqtda respublika ta'lim muassasalarida fan imkoniyatlaridan samarali foydalanishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Bu tushuncha ilk bor tibbiyotda qadimgi Yunonistonda qo'llanilgan. Qadimgi yunonlar muvaffaqiyatli davolash uchun kasallik va uning sabablarini to'g'ri tushunish, bemor organizm xususiyatlari, kasallik kechishini bilish, turli davo vositalarining ta'sirini anglash va shuning uchun kasallikni davolashdan ko'ra to'g'ri diagnostika qo'yish muhimligini tushunganlar. Jamiyat rivojining keyingi bosqichlarida iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar, sub'ektlar hayot tarzi tufayli "diagnostika" tushunchasi turli sohalarda (texnika, iqtisodiyot, psixologiya) qo'llana boshlandi.

Psixologik tahlil (psixoanaliz) masalalari bilan qiziqqan va Shveytsariyaning nufuzli tibbiyot vakillaridan biri bo'lgan, psixologik tahlil metodini qo'llab-quvvatlovchi faollardan biri sifatida mashhur bo'lgan German Rorshax birinchi marta "psixologik diagnostika" tushunchasini ishlatdi.

German Rorshax tomonidan 1921 yilda "Psixologik diagnostika: idrokka asoslangan diagnostik test" nomli asarning chop etilishi "Psixologik diagnostika" tarixining aynan shu nom bilan rivojlanishini ta'minladi.

Bugungi kunda o'qituvchi kasbiy faoliyatining muhim qismiga aylangan "Pedagogik diagnostika"ning tarixida nemis olimi Karlxayns Ingenkampning alohida o'rni bor.

Aynan Karlxayns Ingenkamp 1968 yilda ta'lim sohasida "pedagogik diagnostika" tushunchasini qo'llashni taklif qilgan.

Muallif diagnostikaga asoslangan pedagogik faoliyat negizida sifatni zarur ilmiy mezonlar bilan saqlagan holda o'qituvchi tomonidan o'quvchilar faoliyatini anketa orqali kuzatish, nazorat va so'rov natijalarini qayta ishlash orqali ularning xatti-harakatlar mohiyatini bildirish, natijalar sabablarini yoritish va kelajakni izohlash jarayonini tushungan edi.

"Diagnostika" (tashxislash) tushunchasi yunon tilidan tarjima qilinganda lug'aviy ma'noda "bilish", "aniqlash", nazariy ma'noda esa "aniqlash qobiliyati", "aniqlash imkonini berish" deganlarni bildiradi.

Jamiyat rivojining keyingi bosqichlarida iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar, sub'ektlar hayot tarzi tufayli "diagnostika" tushunchasi turli sohalarda qo'llana boshlandi. Masalan, texnika sohasida (texnik diagnostika; mashina, mexanizm, uskuna, inshoot, qurilma va boshqa texnik ob'ektlarning texnik holatini baholash usullari va vositalarini o'rganish), iqtisodiy sohada (iqtisodiy diagnostika; iqtisodiy munosabatlar, o'zgarishlar mohiyatini tahlil qilish asosida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, mahsulotlarni yetkazib berish va sotish, sohalarni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, ularni boshqarishda kutilayotgan muammolar, ularning tavsifi va belgilarini o'rganish), psixologiya sohasida (psixologik diagnostika; qobiliyati, qiziqishlari, mayllari, ichki imkoniyatlarini namoyon qilishi va ulardan foydalanishini o'rganish bo'yicha ma'lumotlarga asoslangan shaxsni tadqiq qilish).

II. "Pedagogik diagnostika" tushunchasining mohiyati.

So'nggi yillarda ta'lim va tarbiya amaliyotida pedagogik jarayon, holat, hodisalarni diagnostika qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun diagnostika pedagogik jarayon, holat, hodisalarning

mavjud ahvolidan kelib chiqib, kelajak vazifalarini belgilash imkonini beradi.

Diqqatga sazovor jihat shuki, so‘nggi o‘n yilliklarda “pedagogik diagnostika” tushunchasi ko‘plab tadqiqotchilar e‘tiborini tortmoqda. Garchi bu tushuncha ular tomonidan shaklan turlicha izohlangan bo‘lsa-da, nazariy jihatdan umumiy mazmunga ega.

K.Ingenkamp fikriga ko‘ra, pedagogik diagnostika zarur o‘lchov (ko‘rsatkich)lardan foydalanish asosida hodisalar mohiyatini anglash va ularning muayyan vaziyatlardagi holatiga baho berish jarayonidir. Muallif pedagogik diagnostikaning o‘ziga xosliklaridan kelib chiqib, uni mohiyati, maqsadi va vazifalarini belgilash orqali pedagog tomonidan tashkil etiladigan faoliyatning mustaqil turi ekanligiga urg‘u beradi.

Yaxlit tizim sifatida pedagogik jarayonining barcha bosqichlarida uni tarkibiy elementlari holatini aniqlash orqali kelajakni belgilash, ta‘lim strategiyalarini ishlab chiqish zamonaviy pedagogik diagnostika oldida turgan muhim vazifalardir. Shu sababli bu tushuncha nazariy jihatdan tavsiflanadi.

Pedagogik diagnostika — pedagogik tizimning turli elementlari holatini va uni barcha bosqichlarda bashorat qilish, mo‘tadil rivojlanish tendensiyalarining buzilishini bartaraf etish uchun ularni amalga oshirish sharoitlarini tavsiflovchi belgilarini aniqlash va o‘rganish.

Maqsad, vazifa, diagnostika shakllari, metodlari, vosita yoki jihozlari, diagnostikani amalga oshiruvchining ma‘lumoti, malaka darajasi, ish tajribasi, diagnostika mezonlari va ko‘rsatkichlari, diagnostika bosqichlari, diagnostika natijalari, korrektsiyalovchi metodika pedagogik diagnostikaning muhim asoslari bo‘lib, har qanday vaziyatda ular yaxlit holda hisobga olinishi lozim.

V.Uruskoy pedagogik diagnostika o‘z mohiyatiga ko‘ra ikki maqsadga xizmat qiladi, deb hisoblaydi. Ular:

1.o'qituvchining kasbiy darajasini o'rganuvchi metod, vositalar tizimi sifatida kasbiy faoliyatdagi qiyinchiliklarni o'rganish, ularni bartaraf etishning samarali yo'llarini izlash zaruriyatini anglash;

2.pedagogik faoliyatni tashkil etishning individual uslubiga ko'ra o'qituvchining kuchli tomonlarini aniqlash, ularni mustahkamlash va rivojlantirishning aniq yo'llari va vositalarini belgilash.

Yanada aniqroq aytganda, pedagogik diagnostika — aniq maqsaddan kelib chiqib, muayyan holat (fazilat, bilimlarni o'zlashtirish) bo'yicha o'rganiluvchi shaxs faoliyatini kuzatish, tekshirish va baholashga oid statistik ma'lumotlarni yig'ish, ularni tahlil qilish, dinamik rivojlanishni aniqlashga yo'naltirilgan nazorat yoki monitoringning tarkibiy qismi; ta'lim oluvchilar, pedagog yoki ta'lim muassasasi rahbarining faoliyati darajasida jarayon yoki hodisani bir vaqtning o'zida tezkor o'rganish, baholash, yo'naltirish va to'g'rilash demakdir.

O'z mohiyatiga ko'ra ma'lum jarayon, hodisa yoki ob'ekt bo'yicha pedagogik tashxis qo'yishga yo'naltirilgan faoliyat pedagogik diagnostika sanaladi. Chunki diagnostika negizida shaxs yoki avtomatik qurilma tomonidan amalga oshiriladigan real harakat yotadi.

III. Sharq mutafakkirlari va G'arb pedagoglarining jamiyatda pedagogik kasbning tutgan o'rnini haqida.Jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida Sharq mutafakkirlari hamda G'arb ma'rifatparvarlarining asarlarida o'z aksini topgan.

Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishiga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan shu jihati bilan farq qiladi: o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi.

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli vazifani bajarishi zarurligini ta'kidlar ekan,

ularga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi: bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish; berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish; ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish; talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi; fanga qiziqтира olishi; berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi; bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish; har bir so'zning bolalar hissiyatini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish.

Alisher Navoiy o'z davrining ayrim maktabdorlari ega bo'lgan sifatlar, xususan, qattiqqo'llik, ta'magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Xususan, "mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa. ... Yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nanki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir".

Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta'kidlab o'tadi: "Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima yetsin.

Shunisi ham borki, u to'dada fahm-farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila".

Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o'z asarlarida o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o'rin beradi. Allomaning qayd etishicha, bolaning sog'lom bo'lib o'sishida ota-onalar o'ziga xos rol o'ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o'qituvchining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Ya'ni bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning "diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa" ekanligini ta'kidlab, "fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur", - deydi.

Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi rolga katta baho berib, o'qituvchilik "yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb" ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, pedagog o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Ya.A.Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlarning namoyon bo'lishi maqsadga muvofiq ekanligiga urg'u beradi: vijdonli, ishchan, sabrli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga otalardek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortida ergashtiruvchi va diniy e'tiqodga ega bo'lgan shaxs.

K.D.Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho berib, ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Bu g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o'qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi.

Nazorat savollari:

1. "Pedagogik diagnostika" tushunchasi ilk marta kim tomonidan qo'llanilgan?

2. "Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fanining rivojlanishiga kimlar hissa qo'shgan?

3. "Diagnostika" va "pedagogik diagnostika" tushunchalari qanday ma'noni bildiradi?

4. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fani qanday maqsadni ko‘zlaydi?

5. O‘quv fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

6. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fani qanday asosiy tushuncha (kategoriya)larga ega

5-mavzu: O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik diagnostika

Reja:

1. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanining funksiyalari.

2. Pedagogik diagnostikaning asosiy turlari.

3. Pedagogik diagnostikaning o‘ziga xos jihatlari.

Tayanch tushunchalar: *funksiya, “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanining funksiyalari, pedagogik diagnostika turlari, faoliyat, pedagogik faoliyat, tashxislash, pedagogik faoliyatni tashxislash.*

I. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanining funksiyalari. Pedagogning turli pedagogik vaziyatlarda mavjud muammolarni hech bir qiyinchiliksiz, oqilona hal etishi uning yuqori darajada kasbiy kompetentlika ega bo‘lishiga bog‘liq. Qolaversa, inson resurslariga bo‘lgan ehtiyoj tobora o‘sib borayotgan hamda mehnat bozorida kuchli raqobat yuzaga kelayotgan mavjud sharoitda pedagogning kasbiy kompetentlikka ega Bu holat mazkur masalaning dolzarbligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik tashxislash orqali pedagog faoliyatini aniqlashtirish, uni amaliy vazifalarni hal qilishga yo‘naltirish, pedagogning kasbiy malakasini takomillashtirish, o‘quvchilarning bilim hamda tarbiyalanganlik darajasini, shuningdek, o‘quvchilar jamoasining tarbiyalovchi ta’sirini kuchaytirish mumkin. Yu.P.Shapran bo‘lajak biolog o‘qituvchilarning kasbiy malaka darajasini tashxislash masalasini bir qator malakalar, xususan, qadriyatli- yo‘naltiruvchi, tabaqalashtirilgan-ruhiy, strategik, o‘z-o‘zini ruhiy boshqarish,

tashkiliy, uslubiy, axborotli-texnologik, fan, tilshunoslik, salomatlikni saqlash, yangilanish- ijodiy, ijtimoiy-aloqaviy va shaxsiy malaka asosida o'rgangan. O'z mohiyatiga ko'ra pedagogik tashxislash pedagogik jarayonni baholash va to'g'rilash uchun tashxis ob'yekti (pedagogning ma'lum sifati, kasbiy malakasi, qobiliyati, o'zlashtirish darajasi, tajribasi)ni belgilovchi real ko'rsatkich va o'zgarish an'analari to'g'risidagi tezkor ma'lumotga ega bo'lishni talab etadi. Tashxislashda eng muhim omil muddatning belgilanishidir. Ya'ni: tashxislanadigan har qanday holat ma'lum vaqt oralig'idagina o'rganiladi. Zero, ana shu vaqt oralig'i o'rganilayotgan holat to'g'risida real, ob'yektiv ma'lumotlarni qo'lga kiritish imkonini beradi. Tashxislashda kuzatuv muddatlar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, 2 soat, 1 hafta, ikki hafta, 1 oy, 6 oy, 1 yil, 3 yil yoki 5 yil. Har qanday soha, xususan, tibbiyot va ruhiyatshunoslikda bo'lgani kabi pedagogikada ham pedagogik tashxis aniq holatlar, ularning darajasini belgilovchi o'lchov hamda ko'rsatkichlarga muvofiq amalga oshiriladi.

L.S.Vigotskiy shaxsning rivojlanishini tashxislashni quyidagi holatlar bo'yicha amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb topadi: empirik, sababiy va joylashuv jihatdan, tashxis, oldindan aytish hamda to'g'rilash nuqtai nazaridan. "Pedagogik tashxislash va to'g'rilash" o'quv fani muayyan vazifalarni bajaradi. "Vazifa" (lot. "functio" - ijro etish, bajarish) tushunchasi nazariy jihatdan "ish-harakat yoki faoliyat doirasi mazmunini bildiradi. O'quv fani quyidagi sohalarida tashxislash va to'g'rilash ishlarining amalga oshirilishini ta'minlaydi.


Asosiy sohalar

Tarbiya sohasida	Ta'lim sohasida	O'qitish sohasida
1	2	3

Shaxsning hayotiy maqsadlarini aniqlash va o'lchash; u tomonidan insoniyatning madaniy bilim va tajribasining samarali o'zlashtirilishi uchun zarur choralarni belgilash	Shaxsning har tomonlama rivojlanishi hamda u tomonidan borliq, kishilik faoliyatiga oid tizimlashgan bilimlarning o'zlashtirilishi uchun zarur choralarni belgilash	Muayyan ta'lim muassasasida ma'lum bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va o'quv- bilish qobiliyatlarini samarali, puxta o'zlashtirish darajasini aniqlash
--	---	--

Pedagogik diagnostika olib boriladigan sohalar

Manbalarda Pedagogik tashxislash va korreksiya o'quv fanining asosiy vazifalari quyidagilar ekanini ko'rsatilgan.



Pedagogik tashxislashning asosiy vazifalari

1.Teskari (qaytar) aloqa yoki ma'lumot bilan ta'minlanganlik vazifasi. Ushbu vazifa o'qituvchiga o'quv jarayonini, o'quvchilarning harakatlarini boshqarish, turli murakkab, muammoli vaziyatlarda to'g'ri pedagogik yechimni topishga yordam beradi. Teskari (qaytar) aloqa yoki ma'lumot bilan ta'minlanganlik vazifasi pedagogik tashxislashning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, u orqali o'quvchilarning hayotiy maqsadlari, qiziqishlar, borliqqa bo'lgan hamda turli ijtimoiy sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlari, ruhiy holatlari, ichki kechinmalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'linadi. O'quvchilarning turli vaziyatlar (tengdoshlari bilan o'ynash, sayr, ta'lim jarayoni hamda bo'sh vaqtlar)da o'zlarini

namoyon qilishlari pedagog tomonidan o'rganilib, sodir bo'lgan holatlarga nisbatan munosabat bildiriladi. Mazkur vazifa o'qituvchiga har bir o'quvchi va o'quvchilar guruhining o'ziga xos xususiyatlarini, qiziqishlari, mayllari, muammolari, hayotiy intilishlari, maqsadlari va tajribalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. O'quvchilarning muammo va yutuqlari haqidagi aniq ma'lumotlar ularning har biri uchun alohida, individual pedagogik yondashuvni belgilash, o'quv materiallarini taqdim etish imkoniyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga o'qitish jarayonini o'ta murakkablashtirib borilishining oldini oladi.

2.Bashoratlash vazifasi tashxislanayotgan ob'yektning rivojlanish istiqbollarini aniqlashni nazarda tutadi. Ushbu vazifa o'qituvchiga ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanilayotgan vositalar, yaratilgan shart-sharoitlar, pedagogik faoliyat natijalari o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash orqali pedagogik jarayonning istiqbolli rivojlanishini belgilashga qaratilgan choralarni ishlab chiqish imkonini beradi. O'qituvchining tashxislash faoliyati nafaqat o'quvchilarning ahvolini aniqlash va baholashga, balki ularning rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, shart-sharoitlarni aniqlashga ham yo'naltirilgandir. Oldindan aytish vazifasi pedagogik tadqiqotlarda yanada samarali qo'llaniladi.

3.Nazorat va tuzatish vazifasi o'qituvchiga o'quvchilar ta'lim va tarbiya jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf qilish orqali pedagogik jarayonni boshqarish, shuningdek, ta'limning rivojlantiruvchi imkoniyatlaridan o'qitish samaradorligini oshirishda foydalanishga yordam beradi. Mazkur vazifa mutaxassis baholash asosida amalga oshiriladi hamda tashxislanayotgan ob'yektning muayyan standart, me'yor yoki namunaga egaligini nazarda tutadi.

4.Baholash vazifasi qo'lga kiritilgan pedagogik o'lchov va ko'rsatkichlar bilan taqqoslash asosida amalga oshiriladi. Mazkur vazifa amalga oshirish o'rganilayotgan pedagogik ob'yektning har bir aniq belgilangan vaqtdagi o'zgarishi darajasini


belgilash va bu o'zgarishlarning o'qituvchining harakatlariga bog'liqligini ifodalaydi. Baholash vazifasi har bir o'qituvchi faoliyatini sifat va miqdor jihatdan baholanilishiga xizmat qiladi. Pedagogik tashxislashda ilmiy- pedagogik tajriba sifatida amalga oshiriladigan baholash vazifasi qo'lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish, xolis ravishda qiymatini belgilash imkoniyatini yaratadi.

II. Pedagogik tashxislashning asosiy turlari. Har bir faoliyatning jamiyat uchun ijtimoiy, sub'ekt uchun shaxsiy ahamiyati, qiymati uning qay darajada samarali bo'lgani, muayyan natijalarni kafolatlay olgani bilan belgilanadi. Shu sababli qaysi sohada bo'lishidan qat'i nazar faoliyat samaradorligini aniqlash uchun u erishilgan natija - aniq ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi. Tahlil natijasiga ko'ra faoliyatning samarali bo'lgani to'g'risidagi xulosaga kelinadi. Faoliyat samaradorligini aniqlash bir necha yo'l, usul yoki usullar bilan aniqlanadi. Pedagogik tashxislash bu boradagi mavjud yo'l, usul va usullarni o'zida to'la qamrab olgan faoliyat shakli hamda alohida mustaqil soha sanaladi.

Ta'lim tizimida qo'llanilayotgan pedagogik tashxislash yaxlit jarayon bo'lib, u o'z ichiga bir nechta turdagi tashxislash faoliyatni qamrab oladi.

Manbalarda pedagogik tashxislashning bir nechta turi mavjudligi ko'rsatiladi.

Ular quyidagilardir



Pedagogik diagnostikaning asosiy turlari

Asosiy tashxislashni o'tkazishning asosiy usuli - bir qator boshqa usullar bilan to'ldirilgan ishtirokchi kuzatish usuli sanaladi. Bu turdagi tashxis yiliga ikki marta o'tkaziladi va sinfdagi barcha o'quvchilarni qamrab oladi. Mohiyatiga ko'ra asosiy boshlang'ich tashxislash o'quvchining joriy vaqtgacha erishgan yutuqlari, shuningdek, rivojlanishdagi muammolari aniqlanadi. Mavjud muammolarni hal qilish uchun o'quvchiga o'qituvchi, ota-onalar yoki mutaxassisning yordami zarur. Asosiy boshlang'ich tashxislash asosida o'qituvchi ruhiyatshunos va mutaxassis o'qituvchilar bilan birgalikda o'quvchining shaxs sifatida rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlaydi. Shu bilan birga uning o'quv faoliyatida hamda shaxs sifatida shakllanishida yutuqlarga erishishi uchun kattalarning kasbiy yordami yoki hayotiy tajribasiga asoslangan maslahatlari kerak. Asosiy boshlang'ich tashxislash orqali pedagogik yordamga muhtoj o'quvchilar uchun individual ish rejasi ishlab chiqiladi. Rejada amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar, shuningdek, o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga imkon beradigan bir yillik ta'lim yo'nalishi belgilanadi. O'quv yili oxirida o'tkaziladigan asosiy yakuniy tashxislashning natijalariga ko'ra o'qituvchining oldiga qo'yilgan pedagogik vazifalarning hal qilinish


darajasi tahlil qilinib, baholanadi. Qolaversa, pedagogik jarayonni loyihalashtirishning yanada istiqboli yo'nalishlari, jarayonga samarali ta'sir ko'rsatadigan juda ko'plab omillar belgilanadi, pedagogik jamiyatning tarbiyaviy ta'sir imkoniyatlari aniqlanadi.

Oraliq tashxislash Sinfning barcha o'quvchilariga emas, balki faqat alohida tanlab olingan — rivojlanishida jiddiy qiyinchiliklari mavjud bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladi. Bu jarayonda pedagogik diagnostika vositalari sifatida kuzatuv va bolalar uchun soddalashtirilgan test topshiriqlari qo'llaniladi. O'rtadagi (oraliq) pedagogik diagnostikaning asosiy maqsadi — bolaga nisbatan qo'llanilayotgan ta'lim strategiyasining samaradorligini baholash, rivojlanish dinamikasini aniqlashdan iborat. Ushbu diagnostika natijalariga qarab, agar kerak bo'lsa, o'qituvchi, psixolog va boshqa maxsus mutaxassislar ta'lim jarayonining mazmuni, usullari va yondashuvlariga tuzatishlar kiritishlari mumkin.

Tezkor tashxislash. Favqulodda yoki dolzarb muammolarni bartaraf etish samarasini baholashga yo'naltirilgan. U tarbiyaviy ish jarayonida zarur bo'lganda o'tkaziladi, murakkab asbob-uskunalar talab qilmaydi hamda tarbiyachiga bolalar bilan to'g'ri muloqot taktikasini tanlashda yordam beradi. Tezkor diagnostikaning asosiy shakllari quyidagilar bo'lishi mumkin: diagnostik dars, oddiy tajriba vaziyati, suhbat va shunga o'xshash vositalar.

III. Pedagogik tashxislash va to'g'rilashning o'ziga xos jihatlari. Har qanday jarayonda bo'lgani kabi pedagogik tashxislashda ham o'ziga xususiyatlar, ungagina xos bo'lgan jihatlari ko'zga tashlanadi. Tashxislash faoliyatda quyidagi

ustuvor jihatlarni ajratish mumkin (5-rasm):



Tahlil qilishda. Kuzatishning oddiy qiyosiy tasnifidan voz kechiladi. Bunda quyidagi asosiy savollarga javob izlanadi:

-nima uchun o'quvchining ma'lum yosh bosqichidagi xulq-atvori avvalgi xatti-harakatlaridan va sinfdoshlarining odatdagi xulq-atvoridan farq qilmoqda?

-qanday sabablarga ko'ra ayrim o'quvchilarda xulq-atvorda «og'ishlar» (deviatsiyalar) kuzatilmoqda? Tahlil jarayonida o'quvchining diagnostika qilinayotgan sifati yoki holatidagi ijobiy va salbiy tomonlarning asl sabablari aniqlanadi, ularning kelib chiqish mexanizmlari o'rganiladi hamda bu holatni tuzatish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Natijada o'quvchi bilan individual ishlashning batafsil rejasi tuziladi.

Izohlash talqin qilish (izohlash) tashxislash natijalarida olingan ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va ular asosida aniq xulosaga kelish jarayoni holatni izohlash yoki talqin qilish deb ataladi. Rivojlanish prognozini tuzish hamda pedagogik qaror qabul qilish to'g'ridan-to'g'ri ushbu izohlash (talqin) sifatiga bog'liq. Talqin qilish faqat to'plangan dalillar yetarli darajada aniq va to'laqonli bo'lgandagina amalga oshiriladi. Bunda nafaqat bitta o'qituvchining shaxsiy kuzatuvlari, balki boshqa fan o'qituvchilari, psixolog va boshqa mutaxassislar tomonidan olingan qo'shimcha ma'lumotlar ham har tomonlama tahlil qilinadi. Olingan barcha axborot ob'yektiv va sub'yektiv yondashuvlar, ilmiy-uslubiy samarali metodlar yordamida sinchiklab o'rganiladi. Natijada xulosa xolis, ishonchli va to'g'ri bo'ladi.

Bashoratlash (prognozlash) pedagogik diagnostikada o'qituvchi o'quvchining turli vaziyatlarda yoki ma'lum muddatdan (1, 2, 3 yil va hokazo) keyin qanday xulq-atvor ko'rsatishi, muloqot uslubi va atrofdagilar bilan munosabatini doimiy ravishda oldindan taxmin qiladi (ekstrapolyatsiya qiladi). Tashxis natijalari va ulardan kelib chiqqan xulosalarga asoslanib, o'qituvchi o'quvchining kelajakdagi harakatlarini bashoratlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Prognozlash o'qituvchiga bolaga qanday va qaysi turdagi pedagogik yordam ko'rsatish kerakligini aniq tushunishga yordam beradi.

Ziddiyat va qarshiliklarni bartaraf qilish. Zamonaviy pedagogik diagnostikaning oldida turgan muammolar soni juda ko'p va xilma-xil. Bunga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

- pedagogik diagnostikaning ilmiy-nazariy asoslari hali to'liq yetarli darajada ishlab chiqilmagan;
- tashxislashga qo'yilayotgan talablar mazmuni jihatidan juda xilma-xil (ilmiy tadqiqot, mutaxassislik faoliyati, o'quv amaliyoti);
- muammolarni hal qilishda tabaqali (darajali) yondashuv talab etiladi, chunki maqsadlar turlicha.

Hozirgi sharoitda diagnostika vositalarini o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini to'laqonli ta'minlay oladigan darajada takomillashtirish zarur. Har bir bolaning muammo va yutuqlaridan kelib chiqib, uning rivojlanish yo'nalishini oqilona belgilash eng maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda eng muhimi – pedagogik diagnostika jarayonining bosqichlarini to'g'ri aniqlash va ularni izchil, muntazam tashkil etishdir. Shunday ekan, har bir zamonaviy o'qituvchi pedagogik diagnostika asoslarini chuqur bilishi, mavjud ilmiy bilimlarni ta'lim-tarbiya jarayonida samarali qo'llay olishi shart. Aynan shunda pedagogik jarayon yuqori samaradorlikka erishadi va o'quvchilar har tomonlama rivojlangan barkamol shaxs sifatida tarbiyalanadi.

Nazorat savollari:

1. "Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fani qanday asosiy vazifalarni bajaradi?
2. Pedagogik diagnostikaning qanday turlari mavjud?
3. Asosiy diagnostika qachon va qanday maqsadda o'tkaziladi?
4. Tezkor diagnostika boshqa turlardan qaysi o'ziga xos jihati bilan ajralib turadi?
5. Pedagogik diagnostikaning o'ziga xos xususiyatlari qayerda ko'rinadi?
6. Pedagogik faoliyatni diagnostika qilishning ahamiyati nimada?

7. Tashkiliy-uslubiy diagnostika deganda nima tushuniladi?

8. Atestatsion diagnostikaning asosiy o'ziga xosligi nimadan iborat?

Test topshiriqlari:

1. Tashxislashda kuzatuv muddati eng uzoq bilan ... yilgacha belgilanadi?

a) 3 **b) 5** c) 7 d) 10

2. Nazariy jihatdan "ish-harakat yoki faoliyat doirasi" mazmunini anglatadigan tushuncha – bu ...

a) konsepsiya b) monitoring **c) funktsiya** d) korreksiya

3. Tarbiya, ta'lim va o'qitish. Ular – pedagogik diagnostika amalga oshiriladigan asosiy ...

a) vazifalar **b) sohalar** c) yo'nalishlar d) faoliyat turlari

4. Tezkari (qaytar) aloqa yoki axborot bilan ta'minlanganlik, bashoratlash, nazorat-tuzatish, baholash – bular "Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fanining asosiy ...

a) funksiyalari b) yo'nalishlari c) turlari d) vazifalari

5. Asosiy (boshlang'ich va yakuniy) diagnostika; oraliq diagnostika, tezkor diagnostika – bular pedagogik diagnostikaning asosiy ...

a) funksiyalari b) yo'nalishlari **c) turlari** d) vazifalari

II-BO‘LIM. «PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA» FANINING ASOSIY PRINTSIPLARI, BOSQICHLARI (DARAJALARI), UMUMIY METODLARI, ILMIY NAZARIY ASOSLARI. O‘LCHASH VA SHKALALASH

6-mavzu: Pedagogik voqelikni diagnostik tadqiq etishning umumilmiy tamoyillari va darajalari

Reja:

1. Pedagogik voqelikni diagnostik tadqiq qilish tamoyillari.
2. Pedagogik diagnostika darajalari va bosqichlari.
3. Pedagogik faoliyatni tashxislash.

Tayanch tushunchalar: *tamoyil, daraja, bosqich, pedagogik diagnostika tamoyillari, pedagogik diagnostika darajalari, pedagogik diagnostika bosqichlari, pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyatni tashxislash.*

I. Pedagogik voqelikni diagnostik tadqiq qilish tamoyillari. Ma'lumki, har qanday faoliyat – uning turi yoki shaklidan qat'i nazar – samarali bo'lishi uchun muayyan fundamental printsiplarga asoslanishi zarur hisoblanadi. Shu bois malaka oshirish kurslarida pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini tashxislash va baholashga qaratilgan faoliyatni tashkil etishda ham ustuvor ilmiy printsiplarni aniq belgilashga alohida e'tibor berilmoqda. "Tamoyil" (lot. *principium* – boshlang'ich, asos) tushunchasi nazariy jihatdan muayyan ta'limot, nazariya, ilmiy fan yoki dunyoqarashning asosiy, boshlang'ich qoidasi, boshqaruvchi qonuniyati ma'nosini anglatadi. Shu ta'rifga asoslanib, "pedagogik diagnostika tamoyillari" quyidagicha izohlanadi: Pedagogik diagnostika tamoyillari – pedagogik tashxislash va korreksiya faoliyatining barcha bosqichlarida majburiy ravishda rioya qilinadigan, ilmiy asoslangan, faoliyatning maqsadi, mazmuni va samaradorligini ta'minlovchi fundamental ilmiy-nazariy qoidalar va boshqaruvchi qonuniyatlar majmuidir.

Pedagogik diagnostika tamoyillari - pedagogik diagnostikaning mohiyati, maqsad tizimi, ijtimoiy-didaktik va tarbiyaviy funksiyalari, asosiy qonuniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari hamda amalda qo'llashning majburiy shart-sharoitlarining ilmiy asoslangan mazmunini ochib beruvchi yetakchi nazariy g'oyalar.

Quyidagi tamoyillar "Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fanining fundamental (ustuvor) tamoyillari qatoriga kiradi.

1.Maqsadning aniqligi. Diagnostik maqsadning aniqligi pedagogik tashxislash jarayonida maqsadning yuqori darajada aniqligi va operatsionallashuvi o'quvchilarning ta'lim jarayonida duch kelayotgan o'quv qiyinchiliklarini aniqlashga, muayyan kognitiv, affektiv yoki psixomotor sifatlarning shakllanish darajasini ob'ektiv belgilashga hamda o'quv natijalarining prognozlanadigan holatini bashorat qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

2.Tashxis jarayonining yaxlit o'rganilishi. O'quv sub'ekti yoki ob'ektini pedagogik tashxislashga yo'naltirilgan jarayonning sistemli-kompleks tashkil etilishi o'qituvchining qo'lga kiritgan empirik va nazariy ma'lumotlarini ko'p qirrali, o'zaro bog'liq tahlil qilishini, diagnostika va baholash jarayonida barcha ichki va tashqi determinantlarni (omillar), tizimning tarkibiy komponentlarini hamda ularning funksional o'zaro ta'sir va bog'lanishlarini majburiy hisobga olishini kafolatlaydi.

Ustuvor tamoyillar

Tashxis maqsadining aniqligi	>	Tashxis jarayonining yaxlit o'rganilishi kerak
Tashxis muddatining aniq belgilanishi		Tashxis jarayonining izchilligi va davomiyligi
Individual-differensial va polifaktorli (ko'p omilli) yondashuv tamoyili		Diagnostik metodikaning amaliy sharoitlarga adekvatligi tamoyili

Diagnostic shakl, metod, vosita va texnologiyalarning integrallik va muvofiqlik tamoyili	Diagnostic texnologiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va bosqichliligi tamoyili
Diagnostic natijalarning ishonchliligi va ob'ektiv baholanishi tamoyili	Diagnostic natijalarning maqsadga adekvatligi va muvofiqligi tamoyili

Pedagogik diagnostikaning ustuvor tamoyillari

3.Tashxis muddatining aniq belgilanishi. Pedagogik jarayonda tashxislash bosqichlarining vaqt oralig'ini ilmiy asosda, maqsadga muvofiq va oqilona belgilash hamda ularning qat'iy aniqligini ta'minlash olingan diagnostik natijalarning yuqori ishonchliligiga, ob'ektivligiga va haqqoniylikiga kafolat beradi.

Qolaversa, o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishgan yoki erishmaganligini aniq belgilanishini ta'minlaydi. Tashxis muddatining aniqligi natijalarni haqqoniy va ishonch bo'lishiga yordam beradi.

4.Diagnostikaning izchillik va uzluksiz davomiylik tamoyili Pedagogik diagnostika jarayonining bosqichma-bosqich, tizimli va doimiy ravishda olib borilishi o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni o'zlashtirishdagi to'siq va muammolarini o'z vaqtida aniqlash hamda ularni ketma-ket bartaraf etish imkoniyatini ta'minlaydi.

5.Individual-differensial va polifaktorli (ko'p omilli) yondashuv tamoyili Pedagogik tashxislashda o'rganilayotgan sub'ekt (o'quvchi yoki sinf kollektivi) va ob'ektga oid barcha axborotning chuqur, har tomonlama tahlili zarur bo'lib, shaxsning rivojlanishiga yoki ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarning aniqlanishi, tizimlashtirilishi va majburiy hisobga olinishi diagnostik ko'rsatkichlarning asosliligi va to'g'riligini kafolatlaydi.

6.Diagnostik metodikaning amaliy sharoitlarga adekvatligi tamoyili Pedagogik-psixologik jarayonlarda qo'llaniladigan metodikaning umumta'lim muassasalari sharoitlariga, o'qituvchilarning professional tayyorgarligiga va o'quvchilarning real imkoniyatlariga to'liq moslashuvi diagnostika faoliyatining yuqori samaradorligi va amaliy qimmatining asosiy shartidir.


7.Diagnostik shakl, metod, vosita va texnologiyalarning integrallik va muvofiqlik tamoyili Pedagogik faoliyatda kutilgan natijaga erishish tanlangan diagnostik shakl, metod, vosita va zamonaviy axborot texnologiyalarining to'g'ri kombinatsiyasiga bog'liq bo'lib, ular o'rtasidagi funksional birlik va o'zaro muvofiqlik diagnostika jarayonining muvaffaqiyatining muhim shartidir.

8.Diagnostik texnologiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va bosqichliligi tamoyili Texnologik yondashuvning mohiyatiga ko'ra, pedagogik diagnostika jarayoni oldindan belgilangan maqsadga qat'iy muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz bosqichlarda amalga oshirilishi lozim bo'lib, bu bosqichli harakatlarning og'ishmasdan, bir maromda tashkil etilishini ta'minlaydi.

9.Diagnostik natijalarning ishonchliligi va ob'ektiv baholanishi tamoyili O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka darajasini aks ettiruvchi natijalarning haqqoniyligi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida tajriba-nazorat guruhlari tashkil etilishi, standartlashtirilgan vositalardan foydalanish, barcha ishtirokchilarning xolis va bevosita javob berishi, amaliy-ijodiy topshiriqlarda qat'iy vaqt reglamentiga rioya qilinishi majburiydir. Bu kelajakdagi pedagogik vazifalarni aniqlash va korreksion ishlar samaradorligini oshirish imkonini beradi.

10.Diagnostik natijalarning maqsadga adekvatligi va muvofiqligi tamoyili Tashxis natijalari qo'yilgan diagnostik maqsadning xususiyatlariga to'liq mos kelishi va o'rganilayotgan holatni aniq ifodalashi zarur. Agar olingan natijalar maqsad doirasida ko'zda tutilgan ko'rsatkichlarni yoritmasa, diagnostika jarayoni noto'g'ri tashkil etilgan deb baholanadi.

II. Pedagogik diagnostika darajalari va bosqichlari. Qaysi soha yoki faoliyat turi bo'lishidan qat'i nazar, diagnostika natijalari har doim turli ierarxik darajalarda namoyon bo'ladi. Pedagogik diagnostikaning fundamental (asosiy) darajalari quyidagilardan iborat.



Pedagogik tashxislashning asosiy darajalari


Birinchi daraja. Komponentli (elementar) diagnostika Ushbu bosqichda pedagogik ob'ekt yoki jarayonning alohida tarkibiy qismlari (komponentlari) ajratib olinadi va har bir komponentning o'ziga xos xususiyatlari alohida o'rganiladi. Bu diagnostikaning eng boshlang'ich darajasi bo'lib, natijalari umumiy holatni to'liq aks ettirmaydi, prognozlash imkoniyati cheklangan va ishonchlilik darajasi nisbatan past bo'ladi.

Ikkinchi daraja. Strukturali (tuzilmaviy) diagnostika Bu darajada nafaqat individual komponentlar, balki ularning o'zaro bog'lanishlari va tuzilishi tahlil qilinadi. Tizimli diagnostika yordamida pedagogik jarayonning ayrim elementlari o'rtasidagi funksional qaramliklar, o'zaro ta'sir darajalari aniqlanadi. Natijada ta'lim-tarbiya jarayonidagi komponentlar orasidagi real bog'lanishlar ochib beriladi. Strukturali diagnostika natijalari amaliy holatni ancha ishonchli va to'liqroq ifodalaydi.

Uchinchi daraja. Tizimli (yaxlit tizim) diagnostika Diagnostikaning eng yuqori va to'liq darajasi bo'lib, pedagogik jarayon yaxlit tizim sifatida o'rganiladi. Bu darajada nafaqat komponentlar va ularning o'zaro aloqalari, balki butun tizimning

ichki vazifalari, rivojlanish dinamikasi, maqsadga yo'naltirilgan funktsionalligi va tarixiy o'zgarish zanjiri ob'ektiv tahlil qilinadi. Tizimli diagnostika yordamida alohida elementlarning umumiy maqsadga qanday xizmat qilishi, o'zaro integratsiyalashuvi va jarayonning rivojlanish traektoriyasi aniq belgilab beriladi. Ushbu daraja diagnostikaning eng to'liq, ishonchli va prognostik ahamiyatga ega shakli hisoblanadi. Pedagogik faoliyatda rejalashtirish, tashkil etish, monitoring, tahlil va korreksiya tamoyillarining ustunligiga asoslangan holda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka darajasini aniqlash kutilayotgan o'quv natijalariga erishishning eng samarali yo'lidir. Bunda diagnostika jarayonining barcha muhim bosqichlari va darajalarini majburiy hisobga olish zarur.

Pedagogik faoliyatda rejalashtirish, tashkil etish, nazorat, tahlil hamda korreksiyalash g'oyalarining yetakchiligiga asoslangan holda o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari darajasini kutilgan natijani qo'lga kiritishga yordam beradi. Bunda tashxislashning muhim bosqichlarini inobatga olish lozim



N.V.Kuzmina o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi misolida pedagogik

tashxisni quyidagi izchillikka muvofiq - bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Tashxislash jarayonida pedagogik diagnostikaning asosiy bosqichlari o'rtasidagi o'zaro funksional bog'lanish va uzviy aloqadorlikning ta'minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bosqichlarning o'zaro integratsiyalashuvi va uzluksiz bog'liqligi diagnostik faoliyatni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish hamda yuqori ishonchli va ob'ektiv natijalarga erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

III. Pedagogik faoliyatni tashxislash. L.V. Grebennikova ta'kidlaganidek, o'qituvchining kasbiy faoliyatini tahlil orqali tashxislash uning tashkil etayotgan pedagogik mehnati bilan o'quvchilarning real natijalari (intellektual va madaniy rivojlanish darajasi, aqliy qobiliyatlari, nazariyani amaliyotga tatbiq etish ko'nikma va malakalari) o'rtasidagi farqni aniq ko'rish imkonini beradi. Shu bilan birga, o'qituvchining faoliyatida zamonaviy va

an'anaviy yondashuvlarni o'zaro ongli, muvofiq va uyg'un tarzda integratsiyalashganlik darajasini baholash imkoniyati yaratiladi. Har qanday sohada bo'lgani kabi pedagogik faoliyatni tashxislash ham murakkab va ko'p omilli jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ushbu jarayonda barcha ichki va tashqi determinantlarni (omillarni) majburiy ravishda har tomonlama hisobga olish, olingan natijalarni chuqur va ob'ektiv tahlil qilish zaruriy talab sifatida qoraladi.

Agar tashxislash jarayonida yuqoridagi talablardan birortasi e'tibordan chetda qolsa, o'qituvchining kasbiy faoliyati hamda unga bog'liq o'quv-tarbiya jarayonining real samaradorligi ob'ektiv baholana olmaydi.

O'qituvchilarda o'z kasbiy kompetentliklarini mustaqil tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Ushbu ko'nikmalarga ega bo'lish pedagoglarning

o'z ustida izchil ishlashi, kamchiliklarni tizimli bartaraf etishi hamda muvaffaqiyatlarini doimiy boyitib borishiga asos yaratadi.

Pedagogik mehnatni tashxislashda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

- an'anaviy metodlardan oqilona foydalanish va mavjud tajribani samarali qo'llash;
- ilg'or pedagogik texnologiya va metodlarni o'zlashtirish;
- ularni o'quv materialining mazmuni bilan o'z vaqtida va muvofiq bog'lay bilish;
- o'z-o'zini tahlil va baholash orqali o'qitish jarayonida qayta aloqa (feedback) mexanizmini ta'minlash.

M.E. Inkovning ta'kidlashicha, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini tashxislashda quyidagi pedagogik tamoyillarga amal qilinganda eng yuqori samaradorlikka erishiladi: konseptuallik, metodologik asoslanganlik, diagnostiklik, tashkiliy-boshqaruv tamoyillari.

Kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni attestatsiya shaklidagi tashxislash ta'lim sifatini boshqarishning pedagogik monitoring tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, mustaqil va avtonom xususiyatga ega.

M.E. Inkov muammoni tizimli yondashuv asosida o'rganar ekan, avvalambor kasbiy kompetensiyalarni tashxislashning mazmunini ochib beruvchi tayanch tushunchalarga e'tibor qaratadi. Muallifga ko'ra, ushbu jarayon quyidagi asosiy tushunchalar orqali ifodalanadi:

1. **Boshqaruv xarakteridagi pedagogik tashxislash** – o'quv-tarbiya jarayonining didaktik va metodik resurslarini, pedagoglar va ta'lim muassasasi rahbarlarining kasbiy malakasini baholashga yo'naltirilgan funksional va tuzilmaviy jihatdan o'zaro bog'langan diagnostik komponentlar majmui.

2. **Tashkiliy-metodik tashxislash** – o'qituvchilarning metodik kompetentligi, kasbiy tayyorgarligi va pedagogik jarayonni

tashkil etishdagi o'ziga xos yondashuvlarini aniqlashga qaratilgan funksional-tuzilmaviy bog'langan diagnostik qismlar majmui.

3. **Attestatsion tashxislash** – ta'lim sifatini boshqarishning umumiy tizimida o'qituvchi faoliyatini kompleks ekspert baholashning maxsus shakli bo'lib, pedagogik faoliyatning muayyan sohasini ta'lim muassasasi ustavi, davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga muvofiqligini aniqlashga xizmat qiladi.

Tezkor (operativ) tashxislash o'qituvchi faoliyatini mezonlarning minimal talab darajasidan baholashga asoslangan holda pedagogik tizimni boshqarishni takomillashtirish maqsadida ziddiyatlar, muammoli holatlar va dastlabki (potensial) qiyinchiliklarni tezkor aniqlashga yo'naltirilgan diagnostik tahlil shaklidir.

Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida o'qituvchining kasbiy faoliyatini tashxislashda quyidagi metod va vositalar qo'llanilmoqda:

- dars jarayonini bevosita kuzatish;
- pedagogik portfólio;
- o'quvchilarning o'quv yutuqlari va natijalari;
- testlash;
- so'rovnoma (anketa) usullari.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini tashxislash quyidagi asosiy manbalarga tayanadi:

1. Pedagogik portfólio (malaka oshirish kurslari, tanlov va ko'riklarda ishtirok etganlik to'g'risidagi hujjatlashtirilgan ma'lumotlar);

2. O'quvchilarning fan bo'yicha erishgan natijaviy ko'rsatkichlari (olimpiadalar, o'zlashtirish darajasi);

3. Attestatsion diagnostika natijalari (bosma va elektron o'quv materiallari tayyorlash, o'quvchilarni olimpiada va tanlovlarga tayyorlash, ommaviy axborot vositalarida tajriba yoritilishi va boshqa mezonlar asosida).

Ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini tashxislash texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan tajribalar natijasida maxsus metodikaning mazmunini ochuvchi axborotli-didaktik ta'minot tajriba "yadrosi" sifatida shakllantirildi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik voqelikni diagnostik tadqiq qilishda qanday tamoyillari ustuvorlik kasb etadi?
2. Pedagogik diagnostika qanday darajalari mavjud?
3. Pedagogik diagnostika nechta bosqichda amalga oshiriladi?
4. Pedagogik faoliyatni tashxislash deganda nimani tushunasiz?
5. Pedagogik faoliyatni tashxislashda qanday metodik jihatlar ko'zga tashlanadi?
6. Tashxislovchi vositalar nima?

Test topshiriqlari:

1. "Muayyan ta'limot, nazariya, fan yoki qarashlarning asosiy, boshlang'ich holati" ta'rifi ... tushunchasiga taalluqli.

- a) qonuniyat;
- b) ***tamoyil;***
- c) konsepsiya;
- d) qarash.

2. Pedagogik diagnostikaning mazmuni, maqsadi, ijtimoiy-didaktik,

tarbiyaviy ahamiyati, qonuniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari, uni qo'llash

shartlarining mohiyatini yorituvchi yetakchi, asosiy g'oyalar.

Ular ...

- a) pedagogik diagnostikaning nazariy asosi;
- b) pedagogik diagnostika metodikasi;
- c) pedagogik diagnostika qonuniyatlari;
- d) ***pedagogik diagnostika tamoyillari.***

3. Maqsadning aniqligi; tashxis jarayonining yaxlit o'rganilishi; tashxis muddatining aniq belgilanishi; tashxis jarayonining izchilligi va davomiyligi; shaxsiy xususiyatlarni inobatga olish va ko'p omillik;

tashxis metodikasining amaliyotga mosligi hokazolar. Ular pedagogik diagnostikaning ...

- a) ***ustuvor tamoyillari;***
- b) nazariy asosi;
- c) muhim qonuniyatlari;
- d) samarali metodikasi.

4. Komponentlar, tuzilma hamda tizim holatini o'rganuvchi diagnostika. Bular pedagogik diagnostikaning ...

- a) ***asosiy darajalari;***
- b) muhim mezonlar;
- c) ahamiyatli ko'rsatkichlari;
- d) alohida turlari.

5. Tashxisning bu darajasida jarayonning tuzilishi aniqlanadi.

Bu vazifa ... diagnostika tomonidan amalga oshiriladi.

- a) komponentlar holatini o'rganuvchi diagnostika;
- b) ***tuzilma holatini o'rganuvchi diagnostika;***
- c) tizim holatini o'rganuvchi diagnostika;
- d) holatini o'rganuvchi diagnostika.

7-Mavzu: Pedagogik diagnostikaning umumiy metodlari

Reja:

1. Pedagogik diagnostikada qo'llaniladigan metodlar.
2. O'quv jarayonini kuzatish, psixologik-pedagogik eksperiment, suhbat va intervyu, anketalashtirish usullari
3. Test sinovlari, hujjat tahlili, mazmun tahlili, mutaxassislar baholashi

Tayanch tushunchalar: *pedagogik kuzatuv, psixologik-pedagogik eksperiment, og'zaki so'rov (suhbat), chuqur suhbat (intervyu), so'rovnoma (anketa), test sinovlari, hujjat tahlili, mazmun tahlili (kontent-analiz), mutaxassislar bahosi (ekspertiza).*

I. Pedagogik diagnostikada qo'llaniladigan metodlar.
O'quvchilar tomonidan o'quv materiallarining puxta o'zlashtirilishi

ularning kognitiv va shaxsiy rivojlanish darajasiga, shuningdek, o'quv-bilish faolligi tajribasiga bevosita bog'liq. Shu sababli o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda o'quv-bilish faolligining muayyan darajasi maxsus o'lchovlar (kriteriyalar) asosida aniqlanadi.

XIX asr o'rtalariga qadar pedagogik tashxislash asosan subyektiv xarakterga ega bo'lib, ushbu maqsaddagi faoliyat tizimsiz va tasodifiy tarzda amalga oshirilardi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pedagogik diagnostika ilmiy asosga ega bo'lib rivojlana boshladi. Natijada o'quvchilarning bilim darajasini og'zaki va yozma shaklda baholashga qaratilgan ilmiy asoslangan pedagogik nazorat va baholash usullari ishlab chiqildi. Ta'lim natijalarini aniqlashga yo'naltirilgan an'anaviy usullar quyidagilardan iborat edi:


- og'zaki so'rov (savol-javob);
- yozma nazorat ishlari;
- imtihonlar.

Ta'lim jarayonida qo'llanilgan an'anaviy usullar, asosan, o'quvchidan avval o'zlashtirilgan bilimlarni qayta takrorlash (reproduktiv ko'rsatish) yoki berilgan namunaga mos ravishda vazifani bajarishni talab qilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik tashxislashning eng keng tarqalgan va ommalashgan usullari testlar hamda nazorat topshiriqlaridir. Ular o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish darajasini bevosita va tezkor baholash maqsadida qo'llaniladi. Standartlashtirilgan testlar qat'iy ilmiy-mezoniy talablar (validlik, ishonchlilik, obyektivlik) asosida ishlab chiqiladi va bir xil sharoitda katta guruh o'quvchilarining bilim darajasini solishtirish imkonini beradi. Nazorat topshiriqlari esa mazmun va shakl jihatidan o'qituvchilar tomonidan mustaqil ravishda tuziladi, shu sababli ularga ma'lum darajada subyektivlik xos bo'ladi. Bunday topshiriqlarning sifati bevosita o'qituvchining kasbiy kompetentligi, pedagogik tajribasi, o'quv jarayonining maqsad va vazifalarini chuqur anglash darajasiga bog'liq. Hozirgi kunda pedagogik diagnostikada "tashxis usullari" (diagnostik

usullar) deb ataluvchi keng metodlar majmuasi qo'llaniladi. Eng ommabop va samarali tashxis usullari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik kuzatuv (o'qitish jarayonida bevosita yoki bilvosita kuzatish)
2. Psixologik-pedagogik eksperiment (tajriba)
3. Og'zaki so'rov va chuqur suhbat (intervyu)
4. So'rovnoma (anketa)
5. Psixodiagnostik testlar va standartlashtirilgan test sinovlari
6. Hujjat tahlili (o'quv hujjatlari, kundaliklar, daftarlarni tahlil qilish)
7. Mazmun tahlili (kontent-analiz)
8. Mutaxassislar (ekspertlar) bahosi

Ushbu usullar o'quvchilarning nafaqat bilim darajasi, balki ko'nikma va malakalari, o'quv faolligi, motivatsiyasi hamda shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini har tomonlama aniqlash imkonini beradi.



Pedagogik diagnostikada samarali qo'llaniladigan metodlar

Pedagogik diagnostikada samarali qo'llaniladigan metodlarning har biri o'ziga xos afzalliklar, shuningdek muayyan kamchiliklarga ega.

II. PEDAGOGIK KUZATUV, PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK EKSPERIMENT, SUHBAT, INTERVYU VA ANKETA USULLARI

Pedagogik diagnostikada qo'llaniladigan har bir usul o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida muayyan cheklovlar va kamchiliklarga ham ega.

1. Pedagogik kuzatuv usuli

Ta'lim muassasalarida amaliy tashxis jarayonida pedagogik kuzatuv eng muhim o'rin tutadigan usullardan biridir.

Pedagogik kuzatuv – o'quv-tarbiya jarayonini bevosita o'rganish orqali tadqiqotning asosiy muammosini aniqlash, uning yechim yo'llarini izlash va natijalarni solishtirish maqsadida qo'llaniladigan diagnostik usul hisoblanadi.

Usulning mohiyati shundan iboratki, tadqiqotchi o'quv jarayonini tabiiy sharoitda uzoq muddat davomida maqsadli, tizimli va izchil kuzatadi, tajriba (kuzatuv) boshlanishi va yakunidagi ko'rsatkichlarni solishtirib, o'zgarishlarni tahlil qiladi.

Pedagogik kuzatuvning samaradorligi quyidagi shartlarga bog'liq:

1. Kuzatuvning aniq va aniq belgilangan maqsadga ega bo'lishi;
2. Tizimli va uzluksiz olib borilishi;
3. Har bir bosqichda muayyan diagnostik vazifalarning qo'yilishi;
4. Kuzatilayotgan hodisalarning mohiyatini chuqur va sinchiklab o'rganish;
5. Shoshilmay, asosli xulosa chiqarish.

Agar pedagogik kuzatuv ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilsa, uning ilmiy va amaliy ahamiyati yanada ortadi.

2. Psixologik-pedagogik eksperiment (tajriba) usuli

Pedagogik diagnostikada eng samarali va ilmiy asoslangan usullardan yana biri – **psixologik-pedagogik eksperiment** hisoblanadi.

Pedagogik eksperiment (lot. experimentum – sinov, tajriba) – mavjud pedagogik muammoning yechim variantlarini sinab ko'rish,


berilayotgan tavsiya va metodlarning amalda qo'llanilishi mumkinligini, ularning samaradorligini aniqlash, mavjud ta'lim sharoitlari maqsadga erishishni kafolatlay olish-olmasligini o'rganish maqsadida maxsus tashkil etiladigan tadqiqot usuli.

Usulning asosiy ilmiy-amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- muammoning real yechim yo'llarini aniqlash imkonini beradi;
- yangi pedagogik vosita va metodlarning samaradorligini oldindan bashorat qilishga yordam beradi;
- ta'lim jarayonidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini aniq isbotlaydi.

Pedagogik eksperiment bir necha turga bo'linadi:

1. **Tabiiy eksperiment** – o'quv jarayonining odatiy (tabiiy) sharoitida o'tkaziladi;
2. **Laboratoriya eksperiment** – maxsus yaratilgan sun'iy sharoitlarda amalga oshiriladi;
3. **Konstatirlovchi eksperiment** – hozirgi holatni aniqlash maqsadida o'tkaziladi;
4. **Shakllantiruvchi (o'zgartiruvchi) eksperiment** – maqsadli ta'sir orqali o'quvchilarda yangi sifatlarni shakllantirishga qaratiladi;
5. **Pilot (sinov loyixa) eksperiment** – yangi metod yoki vositaning keng qo'llanilishidan oldin kichik guruhda sinab ko'riladi.



Pedagogik tajriba turlari

Pedagogik eksperimentning samaradorligi quyidagi shartlarga qat'iy rioya qilish bilan ta'minlanadi:

- tajribaning aniq ilmiy loyiha (dastur) asosida tashkil etilishi;
- tadqiqot gipotezasining puxta nazariy va empirik asoslanishi;
- tadqiqot ob'ektlari, sub'ektlari va usullarining to'g'ri tanlanishi;

- tajriba o'tkazish muddati va davomiyligining optimal belgilanishi;
- zarur pedagogik shart-sharoitlar (jihozlar, vositalar, metodik ta'minot)ning to'liq yaratilishi;
- olingan ma'lumotlarning ishonchli statistik va sifatli tahlili, natijalarning to'g'ri umumlashtirilishi.

Tajriba yakunida olingan natijalar tahlil qilinib, ilmiy asoslangan xulosalar chiqariladi hamda amaliyotga tatbiq etish uchun aniq metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Suhbat usuli. Pedagogik diagnostikada suhbat usuli eng faol va moslashuvchan tadqiqot vositalaridan biri sifatida keng qo'llaniladi.

Suhbat – tadqiqotchi va respondent o'rtasida savol-javob shaklida olib boriladigan maqsadli dialogik muloqot usuli.

Suhbatning asosiy vazifalari:

- pedagogik kuzatuv natijalarini chuqurlashtirish va boyitish;
- o'quvchi yoki guruhning ichki motivlari, qiziqishlari, muammolarini aniqlash;
- muammoning yechimiga yo'naltirilgan shart-sharoitlarni aniqlash;
- tadqiqot sub'ektlarini muammo yechimiga faol jalb qilish;
- o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini yaqindan o'rganish.

Suhbat turlari:

- individual suhbat;
- guruhli (fokus-guruh) suhbat;
- ommaviy (kollektiv) suhbat.

Suhbat jarayonida o'qituvchi yoki tadqiqotchi o'zining jonli nutqi, samimiy munosabati va faol tinglash mahorati orqali o'quvchining ichki dunyosini ochishga, uning shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga erishadi. Shu bilan birga, suhbat o'quvchining ijtimoiy muhitga, tabiatga, jamiyatga munosabati, qadriyatlar tizimi va o'z-o'zini anglash darajasini aniqlashning eng samarali yo'llaridan

biridir. Suhbat usulining samaradorligi quyidagi shartlarga qat'iy amal qilish bilan ta'minlanadi:

1. Suhbatning aniq maqsadidan kelib chiqqan holda savollar mazmunini puxta ishlab chiqish, savollar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish va izchillikni ta'minlash;

2. Suhbat o'tkaziladigan joy va vaqtni oldindan to'g'ri belgilash;

3. Suhbat ishtirokchilarining sonini maqbul darajada aniqlashtirish;

4. Suhbatdosh (respondent) haqida avvaldan yetarli ma'lumot to'plash;

5. Suhbatdosh bilan ochiq, samimiy va ishonchli munosabat o'rnatish;

6. Respondentning fikrlarini erkin, to'siqsiz va batafsil bayon eta olishi uchun qulay psixologik muhit yaratish;

7. Savollarni qisqa, aniq, ravshan va tushunarli shaklda berish;

8. Olingan javoblarni o'z vaqtida yozib borish va keyinchalik chuqur tahlil qilish. Suhbatning mehnat tarbiyasi, huquqiy ong, ekologik madaniyat, iqtisodiy bilim va gigiyena mavzularida tashkil etilishi alohida ijobiy natija beradi. Bunda o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoni beruvchi ochiq va muammoli savollar qo'yish, bahs-munozara tashkil etish o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi va mustaqil mulohaza yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Pedagogik jarayonda qo'llaniladigan suhbat turlari:

1. **Kirish (orientatsion) suhbat** O'quv mavzusi yoki bo'limi boshlanishida o'tkaziladi. Maqsad – o'quvchilarning mavzuni qanchalik anglab yetganligini, oldingi bilimlarini faollashtirish va yangi materialga tayyorgarlik darajasini aniqlash.

2. **Yakuniy (umumlashtiruvchi) suhbat** Mavzu yoki bo'lim yakunida o'tkaziladi. Maqsad – o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni tizimlashtirish, umumlashtirish, o'zaro bog'lanishini aniqlash va qoldiq savollarni bartaraf etish.

3. **Katexitik suhbat** (qadimgi yunoncha “katechesis” – og‘zaki o‘qitish, nasihat) Qisqa savol-javob shaklida, asosan darsning boshida yoki oxirida qo‘llaniladi. Maqsad – o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasini, yangi mavzuni o‘zlashtirishga tayyorgarlik holatini tezkor aniqlash.

4. **Evristik suhbat** (yunoncha “evrika” – topdim!) Muammoli savollar ketma-ketligi orqali olib boriladi. Maqsad – o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, dalillarni asosli bayon etish qobiliyatlarini rivojlantirish. Bu suhbatning eng faol va ijodiy shakli hisoblanadi.

5. **Sokratik suhbat** (Sokrat usuli) O‘qituvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob bermaydi, balki savollar orqali o‘quvchini o‘zi to‘g‘ri xulosaga yetaklaydi. Bu usul chuqur tushunish va o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishda eng samarali hisoblanadi.

Intervyu – suhbatning yanada rasmiylashtirilgan va strukturalashtirilgan shakli bo‘lib, oldindan tayyorlangan savollar ro‘yxati (intervyu gid) asosida olib boriladi.

Intervyu turlari:

- strukturalashtirilgan (qat‘iy savollar tartibi);
- yarimstrukturalashtirilgan (asosiy savollar + qo‘shimcha aniqlashtiruvchi savollar);

chuqur (klinik) intervyu – shaxsiy hayotiy tajriba, motivlar va his-tuyg‘ularni ochishga qaratilgan. Intervyu o‘quvchining ichki kechinmalari, qiyinchiliklari, maqsadlari va kelajak rejalari haqida chuqur ma‘lumot olish imkonini beradi. Shu sababli u nafaqat diagnostika, balki korreksion-rivojlantiruvchi ishda ham muhim o‘rin tutadi. Respondentga oldindan tayyorlangan savollar turkumini taqdim etish orqali uning tadqiqotdagi muayyan muammo yoki umumiy muammoning biror jihatiga bo‘lgan munosabati, fikrlari va tajribasini chuqur o‘rganishga mo‘ljallangan diagnostik metod. Intervyuning mohiyati shundan iboratki, tadqiqotchi respondentning javoblarini yozib olish (audio yoki video yozuv, stenografiya) orqali subyektiv tajribalarini, motivatsiyasini,

qiyinchiliklarini va takliflarini aniqlaydi. Bu usul pedagogik diagnostikada o'quvchilarning o'quv jarayoniga munosabati, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ta'lim muammolari haqida chuqur ma'lumot to'plashda samarali.

Anketa metodi (fr. "enquete" - surishtirish, ma'lumot olish, tekshirish)-pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida dalillar to'plash maqsadida qo'llanilib, tizimli savollar yordamida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadigan metod. Pedagogik diagnostikada tashxislovchi vosita sifatida anketadan foydalaniladi. respondentlardan og'zaki yoki (ko'pincha) yozma shaklda ijtimoiy, ijtimoiy-pedagogik va shaxsiy ma'lumotlarni tezkor va katta hajmda to'plash uchun mo'ljallangan metodik vosita. Anketa usuli pedagogik kuzatuv, suhbat va intervyu jarayonida olingan dastlabki ma'lumotlarni boyitish, kengaytirish va statistik jihatdan isbotlash imkonini beradi. Muloqot tizimli, oldindan ishlab chiqilgan savollar majmuasi (anketa) asosida amalga oshiriladi, javoblar esa asosan yozma shaklda to'ldiriladi.

Anketa turlari:

Ochiq savolli anketa – respondent o'z fikrini erkin, batafsil va o'z so'zlari bilan ifodalaydi (chuqur sifatli ma'lumot beradi);

Yopiq savolli anketa – berilgan variantlardan birini tanlash talab etiladi ("ha/yuq", "to'liq roziman/qisman roziman/rozimasman", reyting shkalalari va h.k.);

Aralash (yarim ochiq) anketa – ochiq va yopiq savollar birgalikda qo'llaniladi.

Anketa usulining samaradorligini ta'minlovchi asosiy shartlar:

1. Savollar tadqiqot muammosining mohiyatini to'liq va aniq yoritishi lozim;
2. Savollar qisqa, aniiz, aniq va yagona talqin qilish imkonini beradigan tarzda tuzilishi kerak;
3. Savollar respondentlarning yoshi, dunyoqarashi, psixologik va madaniy xususiyatlari hisobga olingan holda ishlab chiqilishi zarur;

4. Anketa to'ldirish uchun yetarli vaqt berilishi, shoshilmaslik ta'minlanishi kerak;

Anketa shaxsiy hayot sirlarini ochishga yoki psixologik noqulaylik tug'dirishga olib kelmasligi lozim (maxfiylik prinsipi qat'iy saqlanishi kerak); Anketa yozma shaklda standartlashtirilgan savollar majmuasidan iborat bo'lib, katta respondentlar guruhidan bir vaqtda ma'lumot to'plash imkonini beruvchi usul tezkorlik, katta hajmdagi ma'lumot to'plash, statistik ishlov berish imkoniyati beradi. Zamonaviy anketa turlari: qog'oz, elektron (Google Forms, LimeSurvey va b.), ochiq, yopiq va aralash savollar.

Olingan javoblar ilmiy asoslangan mezonlar va (agar kerak bo'lsa) statistik usullar yordamida chuqur tahlil qilinishi shart.

Tushuntirish (o'quv materialini mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish bo'lib, u hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo'llaniladi; tushuntirish chog'ida o'quv materialining qiyin o'rinlariga urg'u berilib, mazmun ochiladi; tushuntirish samarasi o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan foydalanishiga ko'p jihatdan bog'liq).

III. TEST, HUJJAT TAHLILI, KONTENT-TAHLIL VA EKSPERT BAHOLASH USULLARI

Zamonaviy pedagogik diagnostikada test usuli eng keng qo'llaniladigan va eng obyektiv usullardan biri hisoblanadi. Maxsus testlar o'quvchining muammolarini aniqlash, kreativlik, aqliy qobiliyat, motivatsiya darajasi kabi sifatlarni o'lchashda muhim ahamiyatga ega (masalan, E.P. Torrensning "Tugallanmagan rasmlar" testi, Ravenning progressiv matritsalar, D. Vekslerning aqliy rivojlanish testi va b.).

Test usuli (ingl. test – sinov, tekshiruv) – o'quvchining aqliy rivojlanish darajasi, qobiliyatlari, ko'nikma va malakalari, shaxsiy-irodaviy sifatlari, ruhiy holatini qisqa muddatda, standart sharoitda aniqlash va baholashga mo'ljallangan maxsus sinov vositasi.

Testlarning asosiy turlari:

- Ochiq shakldagi testlar (erkin javob talab qiluvchi);

- Yopiq shakldagi testlar (tanlovli javoblar: “ha/yuq”, ko‘p variantli tanlov);

- Standartlashtirilgan intellekt testlari (IQ testlari);
- Shaxsiyat testlari (16 PF Kettell, MMPI, Big Five va b.);
- Muvaffaqiyat testlari (achievement tests);
- Loyihaviy (projective) testlar (Rorshax, TAT).

Test usulining afzalliklari:

1. Tekshiruv uchun qisqa vaqt talab etiladi;
2. Baholashning yuqori obyektivligi ta’minlanadi;
3. Bir vaqtda katta guruh bilan ishlaydi;
4. Natijalar tez va avtomatlashtirilgan tarzda ishlov beriladi;
5. Barcha o‘quvchilar uchun mutlaqo bir xil shart-sharoit yaratiladi.

Hujjat tahlili – pedagogik jarayon va hodisalarni obyektiv o‘rganishning muhim manbasi bo‘lib, ta’lim muassasasining faoliyatini normativ-huquqiy, metodik va tashkiliy jihatdan baholash imkonini beradi.

Hujjat tahlili usuli – ta’lim muassasasining rasmiy va norasmiy hujjatlari orqali erishilgan yutuq va kamchiliklarni aniqlash, ilg‘or tajribani umumlashtirish, me’yoriy talablarning bajarilish darajasini o‘rganish maqsadida qo‘llaniladigan tadqiqot usuli.

Tahlil qilinadigan asosiy hujjatlar:

- O‘quv dasturlari va rejalari;
- Dars jadvali, guruh jurnallari;
- O‘quvchilarning shaxsiy ish varag‘i, xususiyatnomalari;
- Pedagogik kengash bayonnomalari va qarorlari;
- Tarbiyaviy ishlar rejasi va hisobotlari;
- Ta’lim muassasasi pasporti, smetasi, buyruqlar;
- Moddiy-texnik baza hujjatlari.

Kontent-tahlil (ingl. content analysis – mazmun tahlili) – matnli materiallarning mazmunini sifat va miqdor jihatidan tizimli o‘rganish orqali ijtimoiy-pedagogik hodisa va tendensiyalarni aniqlashga qaratilgan zamonaviy tadqiqot usuli.

Kontent-tahlilning asosiy yo'nalishlari:

1. Matn nima haqida gapirayotganini va nima uchun shunday yozilganini aniqlash (muallif niyati, ijtimoiy kontekst);
2. Matnning ichki tuzilishi, til xususiyatlari, janr va ritmini tahlil qilish;
3. Matn o'quvchiga yetkazilgandan keyingi ta'sirini o'rganish (effekt).

Tahlil ob'ektlari: gazeta maqolalari, darslik matnlari, o'quvchilarning insho va referatlari, ommaviy axborot vositalari materiallari, intervyu va ochiq anketalar matnlari, pedagogik kengash bayonnomalari va b.

Ekspert baholash – malakali mutaxassislar (ekspertlar) guruhining professional hukmi orqali murakkab pedagogik jarayon, hodisa yoki tizimning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va bashorat qilish usuli.

Ekspert baholashning asosiy bosqichlari:

1. Ekspertiza maqsadi va vazifalarini aniqlash;
2. Ekspertlar guruhini tanlash (kamida 5–15 nafar, o'z sohasining yetuk bilimdoni);
3. Savolnoma, reyting shkalalari yoki baholash jadvallarini ishlab chiqish;
4. Individual yoki guruhli so'rov o'tkazish;
5. Natijalarni statistik ishlov berish (o'rtacha arifmetik, kelishuv koeffitsienti);
6. Yakuniy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Qo'llaniladigan shakllar: individual anketa, Delfi usuli, "aql bosimi" (brainstorming), fokus-guruh, reytinglash, juft taqqoslash.

Nazorat savollari:

1. Qanday metodlar tashxis metodlar deb nomlanadi?
2. Tashxis metodlari sirasiga qanday metodlar kiradi?
3. Pedagogik kuzatish metodining maqsadi nimadan iborat?
4. Pedagogik tajribaning qanday turlari mavjud?
5. Pedagogik diagnostikada suhbat qanday shakllarda qo'llaniladi?

6. Intervyu metodi qanday metod?
7. Anketaning qanday turlari mavjud?
8. "Test" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
9. Pedagogik diagnostikada qo'llaniladigan metodlarni maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?.

Test topshiriqlari:

1.... - ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilishi zarur bo'lgan pedagogik muammoni aniqlash, uning yechimini topish maqsadida qo'llaniladigan usul.

- a) pedagogik tajriba;
- b) **pedagogik kuzatish;**
- c) hujjatlarni tahlil qilish;
- d) kontent-tahlil.

2. Tabiiy tajriba; laboratoriya tajribasi; tajriba ishi - bular

- a) pedagogik tajribaning metodlari;
- b) pedagogik tajribaning shakllari;
- c) **pedagogik tajribaning turlari;**
- d) pedagogik tajribaning texnologiyalari.

3. Individual, guruhli hamda ommaviy suhbat - bular ...

- a) **suhbat shakllari;**
- b) suhbat turlari;
- d) suhbat metodlari;
- c) suhbat texnologiyalari.

4. Respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish orqali uning tadqiq etilayotgan muammo, yoki umumiy muammoning biror jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabatini o'rganish metodi - bu ...

- a) blis-so'rov;
- b) savol-javob;
- c) suhbat;
- d) **intervyu.**

5. Ochiq va yopiq savollarga asoslanadigan yozma so'rov metodi - bu ...

- a) yozma ish;
- b) **anketa;**
- c) test;
- d) kontent-tahlil.

6... - bir nechta javob variantlariga asoslangan savollardan tashkil topadigan metod.

- a) yozma ish;
- b) anketa;
- c) **test;**
- d) kontent-tahlil.

7. O'quv mashg'ulotlarining jadvali; o'quv dasturi; guruh jurnallari; o'quvchilarning shaxsiy varaqalari; buyruqlar; Pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalari va qarorlari; tarbiyaviy ishlar rejasi va boshqalar. Ular - ...

- a) **ta'lim muassasasiga tegishli hujjatlar;**
- b) o'quvchiga tegishli hujjatlar;
- c) o'qituvchiga tegishli hujjatlar;
- d) pedagogik jamoaga tegishli hujjatlar.

8... - hujjatlarda aks ettirilgan turli dalillar va an'analarni aniqlash yoki o'lchash maqsadida ularning mazmunini sifat hamda miqdor ko'rsatkichlari asosida tahlil qilish usuli.

- a) hujjatlarni tahlil qilish metodi;
- b) anketa metodi;
- c) test metodi;
- d) **kontent-tahlil metodi.**

9 Radio, televidenie va matbuot xabarlari, uchrashuvlarga oid bayonnomalar, rasmiy hamda norasmiy xatlar, tashkilotlarning buyruqlari, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar, intervyu va ochiq anketalarning ma'lumotlari. Ular ning ob'ektlari sanaladi.

- a) hujjatlarni tahlil qilish metodi;
- b) anketa metodi;
- c) test metodi;
- d) **kontent-tahlil metodi.**

10.Shaxs faoliyati, ma'lum jarayon, tizimning sifat ko'rsatkichlarining malakali mutaxassislar tomonidan baholanishini ifodalovchi metod - bu ..

- a) diagnostik baholash;
- b) **ekspert baholash**;
- c) miqdoriy baholash;
- d) texnik baholash.

8-Mavzu: Ta'lim-tarbiya jarayonida o'lchash va shkalalashning asosiy yo'nalishlari

Reja:

1. Pedagogik diagnostikada o'lchash va shkalalashning maqsadi va vazifalari.

2. Ma'lumotlarni tahlil qilish hamda vizual ko'rinishda taqdim etish usullari.

3. Diagramma turlari, pedagogik o'lchovlar, sifat-miqdor ko'rsatkichlari va shkalalash turlari.

Tayanch tushunchalar: ma'lumot, empirik dalil, statistik tahlil, o'lchash, shkala, shkalalash, vizualizatsiya, matematik statistika, reliabillik, validlik.

I. Pedagogik diagnostikada o'lchash va shkalalashning maqsadi. Barcha pedagogik jarayonlarda bo'lgani singari, diagnostika va ilmiy tadqiqotda ham to'plangan empirik ma'lumotlarni to'g'ri qayta ishlash, tahlil qilish va ilmiy asosda talqin etish juda katta ahamiyatga ega. O'qituvchi yoki tadqiqotchi qanchalik tajribali bo'lmasin, asosiy omil – dalillarning yetarliligi, to'liqligi va ishonchliligidir. Agar olingan natijalar va ma'lumotlar statistik jihatdan to'g'ri qayta ishlanmasa, ularning soni qanchalik ko'p bo'lmasin, ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini takomillashtirish yoki o'quvchi shaxsini rivojlantirishda real foyda bermaydi. Shuning uchun pedagogik diagnostikaning eng muhim

bosqichi – to‘plangan ma’lumotlarni ilmiy-metodik jihatdan qayta ishlash va statistik tahlil qilishdir.

II. Ma’lumotlarni tahlil qilish va vizual ko‘rinishda taqdim etish

Ma’lumotlarni qayta ishlash – ko‘p bosqichli va mas’uliyatli jarayon bo‘lib, quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. **Birlamchi (xom) ma’lumotlarni to‘plash** – kuzatuv, test, so‘rovnoma va boshqa usullar yordamida dalillarni yig‘ish.

2. **Ilmiy gipoteza shakllantirish** – tadqiqot maqsadi va vazifasiga asoslanib, nol gipoteza (H_0) va muqobil gipoteza (H_1)ni ilgari surish.

3. **Ma’lumotlarni elektron shaklga kiritish** – Excel, SPSS yoki boshqa dasturlarda matritsa ko‘rinishida saqlash.

4. **Ma’lumotlarni tozalash va guruhlash** – takrorlanishlarni olib tashlash, ishonchsiz qiymatlarni filtrlab, mezonga ko‘ra tasniflash.

5. **Vizualizatsiya qilish** – jadval, grafik, diagramma, gistogramma va boshqa vositalar orqali ma’lumotni qulay va tushunarli qilish.

6. **Statistik tahlil o‘tkazish** – tajribadan oldin va keyin olingan ko‘rsatkichlarni solishtirish, H_0 gipotezani rad etish yoki qabul qilish, samaradorlikni isbotlash.

7. **Natijalarni talqin qilish va amaliy xulosa chiqarish** – raqamli dalillarni pedagogik mazmunga aylantirish, tavsiyalar ishlab chiqish.

Vizual taqdimotning asosiy shakllari va qoidalari

- Jadval va matritsa – mantiqiy bog‘lanishlarni aniq ko‘rsatadi.
- Chiziqli grafik, gistogramma, poligon, kumulyativ grafik – dinamika va taqsimotni ochib beradi.
- Sektropoli, ustunli, pufakchali diagrammalar – nisbiy ulushlarni solishtirish uchun qulay. Zamonaviy AKT (PowerPoint, Canva, Google Data Studio, Tableau) yordamida vizualizatsiya qilish bugungi kunning majburiy talabidir.


III. Diagramma turlari, pedagogik o'lchovlar, sifat-miqdor ko'rsatkichlari va shkalalash

Eng ko'p qo'llaniladigan diagramma turlari:

1. **Chiziqli grafik** – vaqt bo'yicha o'zgarishlarni (mas., choraklik baholar dinamikasi) ko'rsatadi.
2. **Gistogramma** – interval chastotasini ustunlar bilan ifodalaydi.
3. **Chastotali poligon** – gistogrammaga o'xshaydi, lekin nuqtalar chiziq bilan bog'lanadi.
4. **Kumulyativ grafik** – jamlovchi tebranishlarni ko'rsatadi.
5. **Sektorli (doira) diagramma** – ulush va foizlarni aniq aks ettiradi.
6. **Graf-modellar** – omillar o'rtasidagi bog'lanishlarni tarmoq shaklida ko'rsatadi.

Pedagogik o'lchovlar O'lchash – ob'ektning muayyan belgisini raqam yoki shartli birlikda ifodalash. Pedagogikada asosan **bilvosita o'lchash** qo'llaniladi (test ballari, to'g'ri javob foizi, xato soni, reyting ballari va h.k.).

Sifat va miqdor ko'rsatkichlari: **Sifat ko'rsatkichi** – hodisaning mohiyati, barqaror xususiyatlari (ijodiy fikrlash darajasi, qiziqish darajasi). **Miqdor ko'rsatkichi** – raqam bilan ifodalanadigan o'lchov (87 ball, 12 ta to'g'ri javob, 95 % davomat). Sifat va miqdor bir-birini to'ldiradi: sifatni aniqlash uchun miqdoriy dalil, miqdorni to'g'ri talqin qilish uchun sifat tavsifi



Pedagogikada qo'llaniladigan o'lshash turlari (S.Stivenson)

Nomlarni bildiruvchi (nominal) shkala. Ushbu shkala ko'proq tasniflash xususiyatiga ega bo'lib, o'lchashdan ko'ra ob'ektlarni muayyan belgi yoki xususiyat bo'yicha guruhlashga xizmat qiladi. Guruhlash qulayligi uchun har bir toifa maxsus raqam (kod) bilan belgilanadi. Bu shkalada ob'ektlar o'rtasida hech qanday miqdoriy yoki tartibiy munosabat mavjud bo'lmaydi. Misol: o'quvchilar jinsi bo'yicha: qizlar – 1, o'g'il bolalar – 2; huquqbuzarlik joyi bo'yicha: dars vaqtida – 1, ko'chada – 2, uyda – 3.

Tartibni ko'rsatuvchi (ordinal) shkala. Bu shkala ob'ektlarni biror sifat yoki xususiyatning ko'proq yoki kamroq darajada namoyon bo'lishi bo'yicha farqlash va tartiblash imkonini beradi. Eng keng tarqalgan misoli – 5 ballik baholash tizimi hisoblanadi. Ushbu shkala o'quv jarayonida samarali bo'lsa-da, shaxsiy fazilatlar va tarbiyaviylik darajasini aniq miqdoriy baholashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Tartib shkala turlari quyidagicha bo'ladi:

Asosiy usullar	Turlari
Oddiy darajalash (rank order)	Guruhlash asosidagi darajalash
Juft-taqqoslash usuli	Reyting tizimi
Qutblarga ajratish (+ va -)	Interval shkala

Oddiy darajali (rank) shkala. Ob'ektlar berilgan sifatning yuqoridan pastga qarab namoyon bo'lish darajasiga qarab tartib bilan joylashtiriladi. Birinchi o'ringa eng yuqori ko'rsatkichga ega ob'ekt qo'yiladi va unga eng katta ball beriladi, keyingi o'rinlarga esa pasayib boriladi.

Guruhlash asosidagi darajali shkala. Belgining turli darajadagi ko'rinishlari oldindan aniqlanadi va barcha o'quvchilar

shu darajalarga mos ravishda guruhlanadi. Masalan, 5 ballik tizimda: “a’lochi”, “yaxshi”, “o’rta”, “qoniqarli”, “qoniqarsiz” guruhlari.

Juft-taqqoslash shkalasi. Har bir juftlik ichida ikki o’quvchi bir xil sifat bo’yicha solishtiriladi. Agar sifat darajasi teng bo’lsa – har ikkisi 1 balldan, agar birida ustunlik bo’lsa – faqat ustun chiqqaniga 2 ball beriladi, ikkinchisiga 0. Umumiy yig’indisi bo’yicha har bir ishtirokchining o’rni aniqlanadi.

Reyting shkalasi. So’nggi yillarda ta’limda keng qo’llanilayotgan yangi baholash tizimi bo’lib, o’quvchilarning bilim darajasini oldindan belgilangan mezonlar bo’yicha ballar yig’indisi orqali aniqlaydi. Reyting tizimida testlardan ham keng foydalaniladi. O’zbekistonda 1993 yildan beri oliy o’quv yurtlariga kirishda ham milliy test (reyting) tizimi joriy etilgan. Reytingning afzalliklari:

- baholash imkoniyatlarini kengaytiradi;
- bilimlarni obyektivroq aniqlashga yordam beradi;
- ta’lim jarayonini standartlashtirishni ta’minlaydi.

1. **Interval (masofali) shkala.** Bu shkalada nafaqat tartib, balki ob’ektlar orasidagi farq (masofa) ham aniq raqamlar bilan ifodalanadi, o’lchov birligi hamma uchun umumiy va barqaror bo’ladi. Nol nuqtasi ixtiyoriy tanlanadi. Misol: testda to’g’ri javoblar soni, yoki bir o’quvchining bir necha oy davomidagi o’zlashtirish dinamikasi. Interval shkalada qo’shish-ayirish, ko’paytirish kabi arifmetik amallar bajariladi, lekin nisbiy ustunlik (“ikki marta yaxshi”) haqida to’g’ri xulosa chiqarib bo’lmaydi.

2. **Nisbat (ratio) shkalasi.** Interval shkaladan farqi – haqiqiy nol nuqtasi mavjud bo’lib, u o’lchanayotgan xususiyatning mutlaqo yo’qligini bildiradi. Bunday shkalada barcha arifmetik amallar (shu jumladan bo’lish) to’liq ma’noli bo’ladi. Misol: sinfdagi o’quvchilar soni, o’tilgan darslar soni, berilgan test savollari soni, to’plangan ballar (agar nol haqiqiy “hech narsa” degani bo’lsa).

Pedagogik o’lchovlarning sifat ko’rsatkichlari Olingan natijalarning ishonchliligi (reliability) – takroriy o’lchovlarda bir xil yoki juda yaqin natija olish darajasi; tasodifiy xatoliklarga

chidamliligi. Natijalarning haqqoniyligi (validity) – qo'llanilgan usul va vositalar qo'yilgan maqsad-va vazifani to'g'ri va aniq o'lchay oladimi degan savolga javob.

Pedagogik diagnostika va ilmiy tadqiqotlarda o'lchov eng muhim bosqich hisoblanadi. To'g'ri tanlangan va metodik jihatdan sifatli tashkil etilgan o'lchov tashxis qo'yish hamda tadqiqotning ishonchli va amaliy ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi. O'lchov turlaridan eng ko'p qo'llaniladigani shkalalashdir. Turli xil shkalalar (nominal, ordinal, interval, ratio) yordamida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsiy-tarbiyaviy sifatlari miqdoriy ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Shuning uchun har bir o'qituvchi va tadqiqotchi pedagogik o'lchov usullari va shkalalash tamoyillarini chuqur bilishi, ularni to'g'ri qo'llay olishi zarur.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik jarayonda o'lchash va shkalalash qanday maqsadlarda amalga oshiriladi?
2. Ma'lumotlarni tahlil qilish deganda aniq qanday jarayon tushuniladi?
3. Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayoni odatda necha bosqichdan iborat bo'ladi?
4. Ma'lumotlarni vizual ko'rinishda taqdim etish nimadan iborat?
5. Qaysi turdagi o'lchovlar pedagogik o'lchovlar deb ataladi?
6. Sifat ko'rsatkichlari qanday holatni ifodalaydi?
7. Miqdor ko'rsatkichlari orqali qanday ma'lumotlar yoritiladi?
8. Shkala deganda pedagogikada nima tushuniladi?
9. Shkalalashning asosiy turlari qanday va nechta?
- 10 Tashxislash natijalarining ishonchli (reliabel) bo'lishi nega juda muhim ahamiyatga ega?

Test topshiriqlari:

1. Pedagogik diagnostika va tadqiqotda ma'lumotlarni tahlil qilish necha bosqichda amalga oshiriladi.

- a) 9;
- b) 8;

c) 7;

d) 6.

2. Dalil, hodisa yoki jarayonning ishonchli va haqqoniy ekanini tasdiqlash, ikki yoki bir necha hodisa o'rtasidagi aloqalarni taxmin qilish maqsadida ilgari suriladigan ilmiy bashorat - bu ...

a) ilmiy xulosa;

b) ilmiy qarash;

c) **ilmiy faraz;**

d) ilmiy dalil.

3. Ma'lumotlarning jadval, tasvir, rasm, sxema, diagramma, gistogramma ko'rinishida ifodalanishi - bu ...

a) obrazlilik;

b) syujet;

c) **vizuallik;**

d) kompozisiya.

4. Chiziqli grafik, gistogramma, tebranishli ko'pburchak, tebranishlarni jamlovchi grafik, diagramma, grafika. Ular - ...

a) diagrammaning shakllari;

b) diagrammaning vositalari;

c) diagrammaning tasnifi;

d) **diagrammaning turlari.**

5. Qandaydir belgining ahamiyati, qiymatini aniqlash jarayoni nima deyiladi?

a) baholash;

b) **o'lchash;**

c) tasniflash;

d) sintezlash.

9-Mavzu: Uzlaksiz ta'limda pedagogik nazoratni tashkil etishning ilmiy asoslari

Reja:

1. Pedagogik nazorat, uning tuzilishi va mazmuni.

2. Pedagogik nazorat turlari.

3. Pedagogik nazorat funksiyalari.

4. Pedagogik nazorat tamoyillari.

Tayanch iboralar: nazorat, pedagogik nazorat, pedagogik nazorat tuzilmasi, nazorat turlari, nazorat funksiyalari, nazorat tamoyillari.

I. Pedagogik nazorat, uning tuzilishi va mazmuni Ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishda pedagogik nazorat olib borish juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun nazorat pedagogik jarayonning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazorat jarayoni o'ziga xos mohiyat va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Agar o'qituvchi nazorat va hisobga olish ishlarini to'g'ri yo'lga qo'ysa, o'quv jarayonining samarasi sezilarli darajada oshadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining yangi materialni qay darajada o'zlashtirganini aniq belgilab berishi zarur.

Nazorat (ta'lim jarayonida) – o'quvchining bilim, ko'nikma va malaka darajasini aniqlash, o'lchash hamda baholash jarayoni. **Pedagogik nazorat** – o'qituvchi rahbarligi va tashkilotchiligi ostida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini o'zaro bog'lagan holda o'quv-tarbiya jarayonlari natijalarini tekshirish va baholashga yo'naltirilgan yaxlit didaktik-metodik tizim.

Nazorat orqali ta'lim muassasasi rahbariyatiga quyidagilar uchun ishonchli ma'lumotlar taqdim etiladi:

- o'quvchilarning yutuqlarini baholash;
- bilim o'zlashtirishdagi muammo va qiyinchiliklarni aniqlash;
- rejalashtirilgan, amalda bajarilgan va haqiqatda erishilgan ta'lim darajalari o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlash;
- yangi innovatsion o'qitish usullarining ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash;
- o'qituvchilar mehnatini solishtirish va tenglashtirish;
- boshqaruv qarorlarini asosli qabul qilish va boshqa ko'plab vazifalarni hal qilish.

Nazorat jarayonida fan mazmunini o'zlashtirish talablarini standartlashtirish alohida o'rin tutadi. Har bir fan bo'yicha

natijalarni nazorat qilish mazmuni Davlat ta'lim standartlarida (DTS) belgilangan bo'lib, unda majburiy minimal mazmun va bitiruvchilar tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar aniq ko'rsatilgan. Ta'lim natijalarini baholaydigan nazorat mazmuni o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini umumiy nuqtai nazardan o'rganishni talab qiladi. O'quvchilar bilimni baholashda o'qituvchining ta'lim mazmuni va o'qitish metodlarini chuqur bilishi juda muhimdir. Nazorat mazmuni nafaqat o'qitilayotgan materialni, balki o'quvchidan kutilayotgan natijalarni va o'qitishdagi ustuvor yo'nalishlarni ham belgilab beradi. Ayniqsa, nazorat tashqi shaklda bo'lib, baholar ma'muriy qaror qabul qilishda ishlatilsa, bu talablar o'qituvchining kundalik faoliyatida asosiy yo'l-yo'riqqa aylanadi.

Nazorat va baholash faoliyati quyidagi tarkibiy bosqichlarga ega:

1. Mavzu, bo'lim va boshqa qismlarni ajratib, tushunarli ko'rsatkichlarni belgilash;
2. Empirik ko'rsatkichlarni yaratish (savol, topshiriq, vazifa va h.k.);
3. Kutilayotgan natijalarni nazorat qilish modeli ishlab chiqish;
4. Nazorat tadbirlarini amalda o'tkazish;
5. Model bilan o'quvchilarning real javoblarini solishtirish;
6. Baholash mezonlarini shakllantirish va ular asosida keyingi nazorat yoki baholash bo'yicha qaror qabul qilish.

Yuqoridagi bosqichlar o'qituvchining nazorat-baholash faoliyatining ichki tuzilmasini tashkil etadi. Pedagogik nazorat an'anaviy vositalar yoki zamonaviy testlar yordamida amalga oshiriladi. Nazoratning asosiy maqsadi – o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda izchil qo'llay olish darajasini aniqlashdir.

O'qituvchining nazorat va baholash faoliyatida nazorat mazmuni va baholashning asosiy mezonlarini aniq ajratib olish muhim ahamiyatga ega. Kundalik dars jarayonida yangi bilimlarni o'zlashtirish natijalarini aniqlash, baholash va tahlil qilish aynan pedagogik nazorat orqali amalga oshiriladi.

II. Pedagogik nazorat turlari. Tashxislashda pedagogik nazoratning turlaridan foydalaniladi. Ularning sirasiga o'z-o'zini nazorat qilish (o'z-o'zini baholash) kiritilmaydi. Pedagogik jarayonda nazoratning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

Asosiy turlari

Boshlang'ich nazorat	Joriy nazorat	Yakuniy nazorat
----------------------	---------------	-----------------

1. Boshlang'ich nazorat. Bu nazorat turi umumiy o'rta ta'lim maktablarida tizimli tarzda amalga oshirilmaydi. U o'quvchilarni tanlov asosida ixtisoslashgan, muayyan kasbga yo'naltirilgan sinflarga tanlab olish davrida o'qituvchining tashabbusi bilan tashkil etiladi va asosiy e'tibor ta'lim jarayonini individuallashtirishga qaratiladi. Shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi ta'limni maktab amaliyotiga tatbiq qilishda boshlang'ich nazorat "o'rtamiyona shaxsni shakllantirishga qaratilgan" an'anaviy o'qitishdan voz kechgan holda yangi o'quv materialining bir qadar kuchli yoki kuchsiz o'quvchilar tomonidan individual o'zlashtirilishi uchun imkoniyat yaratishni ta'minlaydi. Ekspress- nazorat (tezkor nazorat) xarakteriga ega bo'lgan pedagogik testlar boshlang'ich nazoratning samarali bo'lishini xizmat qiladigan vositadir.

2. Joriy nazorat. Bu turdagi nazoratning maqsadi - ta'lim jarayonining borishini kuzatishdan iborat. Uni amalga oshirish o'qituvchiga o'quv jarayonida ko'zga tashlanayotgan kamchilik va muammolarni o'z vaqtida bartaraf qilish hamda zarur yo'nalishda qayta qurish uchun ular to'g'risidagi tezkor axborot (ma'lumot)larni qo'lga kiritish imkonini beradi. Joriy nazorat to'lig'icha diagnostik xarakter kasb etadi.

3. Yakuniy nazorat. Odatda bu turdagi nazorat - bosqichli, chegaraviy hamda yakuniy kabi uch turga ajratiladi. Yakuniy nazorat o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash maqsadida tashkil etilgan muayyan bosqich, ma'lum bo'lim yoki o'quv yilining oxirida tashkil etiladi. O'quvchi tomonidan og'zaki yoki yozma shaklda

tashkil qilingan imtihon yoki sinovlar hamda test natijalarini qayd etish yakuniy nazoratning shakli sifatida namoyon bo'ladi. Yakuniy nazorat natijalarini taqqoslash va taxmin qilish (bashoratlash) o'qituvchiga kelgusida sho' ishini yaxshilash, samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni beradi. Bordi-yu, yakuniy nazoratda qo'lga kiritilgan axborotlar ko'zlangan maqsadga muvofiq kelmasa, u holda tahlil ma'lumotlari o'quvchilarni kasbga, mutaql hayotga tayyorlashdagi muammolarni aniqlash, shuningdek, o'quv jarayonini korreksiyalash bo'yicha boshqaruv harakatlarini amalga oshirish imkonini beradi.

Xarakterli belgilari bo'yicha yakuniy nazorat ichki va tashqi nazorat shakllariga bo'linadi. Ichki yakuniy nazorat umumta'lim maktabining o'z boshqaruvi tomonidan, masalan, davlat attestatsiyasi yoki davlat imtihonidan tashqari muddatlarda o'tkaziladigan sinovlar hisoblanadi.

Attestatsiya (davlat attestatsiyasi) – bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va sifatini rasman belgilangan ta'lim standartlari (DTS) talablariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan maxsus tadbir. Agar DTS mavjud bo'lmasa, attestatsiya amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida tashkil etiladi. Baholarning asosliligi va xolisligini ta'minlash uchun ko'pgina mamlakatlarda test texnologiyalari qo'llaniladi. Ichki yakuniy nazorat odatda fan o'qituvchisi tomonidan mustaqil ravishda tuzilgan topshiriqlar (testlar, yozma ishlar, loyihalar) asosida, masalan, sinfdan sinfga o'tkazish imtihonlari vaqtida amalga oshiriladi.

Tashqi yakuniy nazorat esa davlat miqyosidagi imtihonlar yoki xalqaro monitoring dasturlari shaklida tashkil etiladi. O'zbekistonda bunga misol sifatida quyidagilar keltiriladi:

- PIRLS – 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash;
- TIMSS – 4 va 8-sinflarning matematika va tabiiy fanlardan o'zlashtirish darajasini aniqlash;
- PISA – 15 yoshli o'smirlarning funktsional savodxonlik (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) darajasini o'lchash dasturlari.

III. Pedagogik nazorat funksiyalari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik nazoratni tashkil qilishda muayyan vazifalar hal qilinadi. Sohaga oid adabiyotlarda pedagogik nazoratning asosiy funksiyalari quyidagilar ekani ko'rsatilgan:

Asosiy funksiyalar

Tekshirish	Tashxislash
Ta'lim berish	Tarbiyalash
Rag'batlantirish va rivojlantirish	Axborot berish
Qiyoslash	Bashoratlash

Pedagogik nazoratning asosiy funksiyalari

1. Tekshirish funksiyasi. Bu funksiyasi yakuniy nazoratni tashkil qilnadigan asosiy vazifa hisoblanadi. Ta'limni turli darajada boshqarishda uning tarkibiy qismlari aniq belgilanadi. Shu sababli ta'lim natijalarini tizimli tekshirishni amalga oshirish o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malakalarning holatini aniqlashga imkon beradi, shuningdek, ularning ta'lim olishda erishgan yutuqlarini baholashda aks etadi. Natijalarni qo'llash nuqtai nazaridan tekshirish funksiyasi ta'lim sifatini boshqarishning boshqa darajalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2. Tashxislash funksiyasi. Ushbu funksiya joriy nazoratda to'liq amalga oshiriladi. Tashxislash funksiyasini kuchaytirish, uning ahamiyatini oshirish ta'lim sifatini yaxshilashning muhim shartlaridan biridir. Ta'lim olishda o'quvchilar duch kelayotgan qiyinchiliklarining sabablari, bu jarayonga ta'sir qilayotgan omillarni tahlil qilish orqali o'qitishning individual xarakter kasb etishiga erishiladi. Zero, har bir o'quvchi yangi materialni, muayyan bo'limni o'rganishda muvaffaqiyatga qachonki tegishli bilimlarni o'zlashtirishga to'sqinlik qiladigan kamchiliklar bartaraf etgandan keyingina erisha oladi.

3. Ta'lim berish funksiyasi. O'qituvchi tomonidan berilgan savollariga javob qaytarish, test topshirig'i va nazorat ishiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida o'quvchilar o'zini o'zi nazorat qilish,

o'zini o'zi baholash imkkoniyatiga ega bo'ladi. Shu jarayonda innovatsion xarakterdagi tashxis vositalari va usullar yordamida nazoratning tashkil qilinishi esa o'quvchilar tomonidan bilimlarning mustaqil o'zlashtirilishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Pedagogik testlar bu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

4.Tarbiyalash funksiyasi. Ta'lim muassasalarida pedagogik nazoratning tashkil qilinishi o'quvchilarning u yoki bu turdagi sifat, fazilatlarga egaligini o'rganish va baholashga imkon beradi. Shu bilan birga pedagogik nazorat orqali o'quvchilarning muayyan sifat, fazilatlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarini aniqlash, bu jarayonga ta'sir qilayotgan omillarni belgilash hamda ularni bartaraf qilish imkoniyatlarini izlash uchun sharoit yaratadi. Yaratilgan sharoit o'quvchining bilimga qiziqish, tizimli ishlash qobiliyati, o'zini tuta bilish va o'zini o'zi qadrlash kabi ijobiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi o'quvchilarning ta'lim faoliyatining motivatsion asoslarini shakllantirishda yetakchi o'rin tutishini ta'minlashga yordam beradi. O'qituvchi pedagogik nazoratni tashkil qilish asosida sinf jamoasining o'quvchiga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirini, bu boradagi imkoniyatlarini aniqlaydi, tahlil qiladi va baholaydi. Pedagogik nazoratning tarbiyalash funksiyasi pedagogik jamoa, shuningdek, o'quvchilar jamoasining o'quvchiga nisbatan ijobiy ta'siridan samarali foydalanish uchun qulay muhitni hosil qiladi.

5.Rag'batlantish va rivojlantirish funksiyasi. Ta'lim olishda o'quvchining motivatsiyaga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Agar nazorat ob'ektiv tashkil etilgan, o'qituvchi tomonidan o'quvchining o'quv-bilish va xulq-atvoriga qo'yilgan baholar xolis, adolatli bo'lgan bo'lsa, u holda ta'lim oluvchilarda yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun qo'shimcha rag'batlar paydo bo'ladi. Bordi-yu, o'qituvchining pedagogik nazoratda o'quvchiga nisbatan sub'ektiv munosabatda bo'lsa, u holda bilimlarni tizimli tekshirishga qaratilgan pedagogik nazorat salbiy natijalarga olib keladi. Natijada

o'quvchilarda o'qituvchiga, shu bilan birga o'quv faniga bo'lgan salbiy munosabat shakllanadi. O'quvchi ta'lim olishda va shaxs sifatida rivojlanishini kafolatlovchi o'z ustida ishlashdan soviydi. Qo'shimcha testlarning tashkil qilinishi, nazorat topshiriqlarining berilishi o'quvchilarda ta'limiy motivatsiyaning kuchayishiga yordam beradi.

Pedagogik nazoratni tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilinishi, o'quvchilar faoliyatini samarali uyushtirilishi, o'quvchilarning o'rganilayotgan bilim, ko'nikma, malaka hamda ma'naviy-axloqiy sifatlarga egaligining xolis baholanishi ta'lim oluvchilarni har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi. Xolis tashkil qilingan nazorat o'quvchilarni fikrlashga o'rgatadi, ularning xotirasini kuchaytiradi, mavjud bilimlarni amalda qo'llash ko'nikma va malakalariga ega bo'lishini ta'minlaydi. Test va nazorat topshiriqlarining mohiyati, mazmuni, ularni bajarish uchun yaratilgan sharoit, o'quvchilarning o'quv-bilish faolligi pedagogik nazoratning rivojlantiruvchanlik xarakterini oshiradi.

6.Axborot berish funksiyasi. Raqamli texnologiyalar tezkor rivojlanayotgan mavjud sharoitda axborot barcha sohalarda yetakchi omil sifatida ko'zga tashlanmoqda. Ta'limda ham nafaqat bugungi kunda, balki barcha davrlarda ham axborotga egalik muhim ahamiyatga ega. Binobarin, axborotlar ta'limning mavjud holatini baholash, istiqbolini bashoratlash, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvlarni qaror toptirish imkoniyatini ta'minlaydi. Bunda, eng muhimi, axborotlarning xolis bo'lishi, ularni zarur vaziyatlarga tezkor qo'lga kiritish imkoniyatining mavjudligidir. Pedagogik nazorat jarayonida qo'lga kiritilgan har bir axborot (ma'lumot) u xoh ijobiy, xoh salbiy bo'lsin muhim ahamiyatga ega. Chunki ular asl vaziyatni to'g'ri talqin qilish va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini oqilona belgilashga xizmat qiladi.

7.Qiyoslash funksiyasi. Pedagogik nazoratda boshlang'ich, oraliq va yakuniy nazorat natijalarini o'zaro qiyosiy o'rganish, tahlil qilish ahamiyatli hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich va yakuniy

nazorat natijalarini o'zaro qiyosiy o'rganish o'qituvchi faoliyati samaradorligini belgilashga yordam beradi. Zero, boshlang'ich nazoratda qo'lga kiritilgan ma'lumotlar asosida pedagogik faoliyatning zarur yo'nalishlarini belgilash, mavjud muammolarni bartaraf qilish hamda ijobiy omillar ta'siri kuchaytirishga harakatlangan amaliy harakatning samarasi yakuniy nazorat natijalarida o'z aksini topadi.

8.Bashoratlash funksiyasi. Nafaqat pedagogik nazoratda, balki yaxlit ta'lim jarayoni va tizimida ham bashoratlash o'ziga xos o'rin tutadi. Mavjud vaziyat, uni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda o'qitish hamda tarbiya jarayonida istiqbolni belgilash o'quvchilarga sifatli ta'lim berish, ularni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat pedagogik vazifaning to'laqonli bajarilishini ta'minlaydi.

IV.Pedagogik nazorat tamoyillari.Boshqaruv jarayonining yo'naltiruvchanlik va tartibga solish roli o'qituvchilarning pedagogik jarayonni nazorat qilish va baholashga qaratilgan faoliyatiga rahbarlik qiluvchi tamoyillarni belgilab beradi.

Pedagogik nazorat quyidagi ustuvor tamoyillarga muvofiq tashkil qilinadi:

1.Ilmiylik va samaradorlik tamoyili. Pedagogik nazorat ilmiy asosga ega g'oyalar (tamoyillar, metodlar, vositalar, texnologiyalar) yordamida tashkil etilsagina uning samaradorligini tasdiqlovchi natijalar haqqoniy sanaladi. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonida nazorat ishlarini tashkil etishning konseptual (konsepsiya, rahbariy g'oyalarning mavjudligi) asoslari (etakchi g'oyalari, tamoyillari, mexanizmi, mazmuni, metodikasi, texnologiyasi va mezonlari) ishlab chiqilgan. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari darajasini o'rganish, tahlil qilish va baholash ham o'zining sifat mezonlariga ega.

Pedagogik nazoratni tashkil etishda ilmiylik tashxislash yoki tadqiqot ma'lumotlarining ishonchlilik mezoniga ko'ra tasdiqlangan to'g'riligi, asoslanganligi, shuningdek, haqqoniylik mezoni bo'yicha

tahlil qilingan belgilangan o'lchov birliklariga mosligi inobatga olinadi.

2.Ierarxik tuzilmagan egalik tamoyili. Mazkur tamoyil pedagogik nazorat shakllarini tanlashda bilim, ko'nikma va malakalarning ierarxiyasini shakllantirish zaruriyatini tasdiqlaydi. Ma'lumki, o'qituvchining bir o'zi o'quvchilar tomonidan tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining barcha qirralarini birdek qamrab olgan holda tekshirish va nazorat qilish imkoniyatiga ega emas. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarida yuqori rahbarlik organlari tomonidan tasdiqlangan hamda ierarxiyaga asoslangan nazorat jarayoni tashkil etiladi. Pedagogik nazorat ierarxiyasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini tekshirish va baholash jarayonida bir qancha sub'ektlarning ishtirok etishini anglatadi.

3.Tizimlilik tamoyili. Pedagogik nazorat jarayonida tekshirishlarning muayyan vaqt oralig'ida tashkil etilishi natijalarni har tomonlama tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Qolaversa, o'quvchilarda ruhiy zo'riqishlar kelib chiqishining oldini oladi. Tizimlilik tamoyili pedagogik nazoratlarning izchil, uzluksiz bo'lishini ta'minlaydi. Tekshirish uzoq vaqt oralig'ida bo'lsa, pedagogik jarayonning mavjud holatini xolis baholash imkoniyati kamayadi. Maktab amaliyotining ko'rsatishicha, pedagogik nazoratni inkor qilish, nazorat shakllari hamda metodlarini takomillashtirishga bee'tibor bo'lish ta'lim sifatining yomonlashuviga olib keladi

4.Adolatli yondashuv va xolislik (ob'ektivlik). Mohiyatiga ko'ra adolatli yondashuv va xolislik bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan tushunchalardir. Zero, adolat mezonini asosida qaror qabul qilish har doim xolislikni taqozo etadi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini tekshirish va baholashga adolatli yondashish bir o'quvchiga boshqalardan ko'ra ortiq ko'proq yon bosmaslik, uning imkoniyati aslida yuqori darajada bo'lmasa-da, unga "a'lo" baho qo'ymaslik, aksincha, o'quvchining javoblarini haqqoniy

baholash, kamchilik va yutuqlarini to'g'ri qayd etilishini ta'minlaydi. Pedagogik nazoratda ob'ektiv baholash o'quvchining tayyorgarlik darajasini haqqoniy tavsiflay olish demakdir. O'qituvchining baholashdagi xolisligi, adolatli yondashuvi uning baho mezonlari va ko'rsatkichlaridan yetarli darajada xabardorligini va ularga qat'iy rioya qilishi, shuningdek, o'lchovlarning haqqoniyligini anglatadi.

Baholashda xolislikka erishish o'qituvchi tomonidan natijalarning chuqur tahlil qilinganligidan dalolat beradi. O'quvchining bilim, ko'nikma, malakalariga bahoni qo'yishdagi xolislik imtihon hay'ati a'zolarining kasbiy kompetentligi, ish tajribasi jarayonni tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilishga yordam beradi, oqilona rahbarlikdan dalolat beradi. Ta'lim sifatini baholashdagi xolislikni ta'minlovchi eng muhim mezon - ta'lim standartlarining ishlab chiqilganligi hamda o'quvchining tayyorlik darajasi unga qanchalik mos kelishi hisoblanadi. Qolaversa, nazorat topshiriqlarining o'quvchilarni yosh xususiyatlari hamda fiziologik, aqliy imkoniyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilganligi, sinov (test)larning ishonchliligi, sinov shartlarining standartga mosligi, baholash texnologiyasining samaradorligi, tashqi va ichki omillarni ijobiy xususiyatga egaligi, o'lchashda xatolarga yo'l qo'yilmaganligi kabi holatlar ham ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

5. Keng qamrovlilik va to'liqlik tamoyili. Mohiyatiga ko'ra keng qamrovlilik nazorat tizimining to'la qamrab olinganligini anglatasa, to'liqlik nazorat mazmunining puxta asoslanganligi, tekshirish metodikasining samarali ekani hamda natijalarining yetarli bo'lishini bildiradi. Pedagogik nazorat jarayonida bajariladigan vazifalar bir-birini takrorlamasligi, aksincha, bir-birini to'ldirishi zarur. Zero, shundagina nazorat chog'ida vazifalarning keng doirasi to'liq qamrab olinadi.

Shunday qilib, uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarning o'zlashtirilganligi pedagogik nazorat yordamida aniqlanadi va baholanadi. Pedagogik nazoratni tashkil etishda

o'qituvchining uning asoslari, xususan, turlari, funksiyalari, tamoyillari, mazmuni hamda imkoniyatlaridan xabardor bo'lishi maqsadni to'g'ri shakllantirish, jarayonni tashkiliy-metodik jihatdan oqilona tashkil etishiga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik nazorat qanday maqsadda tashkil etiladi?
2. Pedagogik nazoratning qanday turlari mavjud?
3. Boshlang'ich pedagogik nazorat qachon tashkil etiladi?
4. Attestatsiya deganda nimani tushunasiz?
5. Pedagogik nazoratni tashkil etishda qanday funksiyalar bajariladi?

Test topshiriqlari:

1. O'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatini o'zaro birlashtirgan holda o'quv hamda tarbiya jarayonlarining natijalarini baholashga qaratilgan tekshirish xarakteriga ega yagona didaktik va metodik tizim - bu ...

- a) pedagogik kuzatish;
- b) pedagogik o'rganish;
- c) **pedagogik nazorat;**
- d) pedagogik baholash;

2. Nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o'quv faoliyati hajmini ham aniqlash tekshirishning ... sanaladi.

- a) yo'nalishi;
- b) maqsadi;
- c) shakli;
- d) **vositasi.**

3. Boshlang'ich, joriy va yakuniy nazorat. Ular pedagogik nazoratning ...

- a) ko'rinishlari;
- b) bosqichlari;
- c) shakllari;
- d) **turlari.**

4. Joriy nazoratning maqsadi ...

- a) ta'lim jarayonining mohiyatini o'rganish;
- b) ta'limjarayonining borishini kuzatish;**
- c) ta'lim jarayonining natijalarini tahlil qilish;
- d) ta'lim jarayonining natijalarini baholash.

5. Bosqichli, chegaraviy va yakuniy nazorat. Ular qaysi nazoratning turlari.

- a) boshlang'ich;
- b) joriy;
- c) yakuniy;**
- d) asosiy.

10-Mavzu: O'quv jarayonining umumiy pedagogik diagnostikasi

Reja:

1. Psixologik-pedagogik metodikalar va ularning ta'lim jarayonini tashxislashdagi o'rni.

2. P.I. Tretyakovning "Ta'lim olinganlik darajasini tashxislash" metodikasi.

3. G.A. Russkiy asoslagan "O'quvchilarning o'quv materiali matni bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasini aniqlash" metodikasi.

Tayanch tushunchalar: o'quv jarayoni, pedagogik diagnostika, metodika, umumiy diagnostika, metod, pedagogik mahorat, psixologik testlar, psixologiya.

I. Psixologik-pedagogik metodikalar va ularning ta'lim jarayonini tashxislashdagi ahamiyati Uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida pedagogik diagnostika tashkil etilganda tashxislovchi metodlar bilan bir qatorda mualliflik xususiyatiga ega psixologik-pedagogik metodikalar ham faol qo'llaniladi.

Psixologik-pedagogik diagnostika metodikalari – shaxsning individual psixologik xususiyatlari, axloqiy fazilatlar darajasi va boshqa pedagogik ko'rsatkichlarni o'lchash hamda baholashga

yo'naltirilgan faoliyatning shakllari, metodlari va vositalarining majmuasi hisoblanadi.

Ko'pgina psixologik-pedagogik adabiyotlarda tashxislash maqsadida ishlatiladigan barcha vositalar "psixologik testlar" deb ataladi. Bu nomlash to'g'ri emas, chunki: a) metodikalar faqat testlardan iborat emas; b) "metodika" tushunchasi faqat metodlarni emas, balki ularning tizimli qo'llanilishini ham o'z ichiga oladi.

Shuning uchun "metodika" atamasining mohiyatini to'g'ri tushunish zarur:

Metod (yun. methodos – "yo'l", "tadqiqot usuli") – ta'lim-tarbiya maqsadlariga yetishning aniq yo'nalgan usuli, doimiy rivojlanib boradigan harakatlar va qadamlar tizimi.

Metodika – etimologik jihatdan "metod" + "-ika" qo'shimchasidan kelib chiqqan bo'lib, rus tilidagi "-ika" qo'shimchasi "jamlanma", "saqlanadigan joy" ma'nosini beradi (biblioteka, kartoteka). Shunga ko'ra, **metodika** – ma'lum bir maqsadga erishish yo'lida qo'llaniladigan pedagogik faoliyatning tashkiliy shakllari, metodlari va vositalarining tizimli majmuasi, ya'ni metodlar jamlanmasidir.

Metoddan farqli o'laroq, metodika har doim xususiy, muayyan mualliflik xarakteriga ega. Pedagogik va psixologik diagnostikada ikki asosiy turdagi metodikadan foydalaniladi:

1. Ilmiy-metodik jihatdan asoslangan, keng sinovdan o'tgan va boshqalar tomonidan muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan mualliflik metodikalar;

2. Har bir o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzuning g'oyasi, ta'lim mazmuni, o'quvchilarning xususiyatlari va tashxislanadigan ko'rsatkichlar (bilim, ko'nikma, malaka yoki axloqiy fazilatlar)ni hisobga olgan holda mustaqil ravishda tuzilgan va tizimli qo'llaniladigan metodikalar.

S.L. Rubinshteyn metodikani "xususiy, yordamchi va muayyan vaqt oralig'ida qo'llaniladigan ilmiy-tadqiqot usuli" deb ta'riflagan.

Mualliflik metodikalarini ishlab chiqish – murakkab va mas’uliyatli jarayon. Pedagogik va psixologik muammolarni samarali o’rganish ehtiyoji olimlar va amaliyotchilarni yangi metodikalar yaratishga undadi. So’nggi o’n yilliklarda bu sohada katta tajriba to’plandi va tashxislovchi metodikalar quyidagi guruhlarga ajratila boshladi:

Rasman standartlashtirilgan va e’tirof etilgan metodikalar.

Bu guruhga quyidagilar kiradi:

1. standart testlar;
2. anketalar;
3. proyektiv texnikalar (loyihaviy metodikalar);
4. psixologik-fiziologik o’lchovlar.

Ushbu metodikalarga quyidagi xususiyatlar xos:

1. vaqtning qat’iy belgilanganligi;
2. topshiriqlarning moddiy (vizual) shaklda taqdim etilishi;
3. rag’batlantirish usullarining standartligi;
4. tashxislovchining sub’ektiv ta’sirining minimallashtirilganligi;
5. natijalarni qayta ishlash va talqin qilishning yagona standartga asoslanganligi;
6. yuqori ishonchlilik (reliability);
7. haqqoniylik (validity).

2. Rasmiy standartlashtirish darajasi pastroq metodikalar.

Bu guruhga quyidagilar kiradi:

- pedagogik-psixologik kuzatish;
- suhbat va intervyu;
- o’quvchilar faoliyati natijasida yaratilgan mahsulotlarni (ish daftarlari, loyihalar, ijodiy ishlar) tahlil qilish.

Ushbu metodikalardan pedagogik amaliyotda foydalanish odatda ancha murakkab va vaqt talab qiladi. Masalan, psixologik-pedagogik kuzatish jarayoni bir necha oy davom etishi mumkin. Shu bilan birga, bu metodikalar rasman standartlashtirilganlar bilan qarama-qarshi emas – aksincha, bir-birini to’ldiradi. To’liq va chuqur diagnostika uchun ikkala guruhni majmuaviy qo’llash eng samarali

hisoblanadi. Masalan, test natijalarini sharhlashda qo'shimcha ravishda suhbat, kuzatish va mahsulot tahlilidan foydalanish natijalarning ishonchliligi va haqqoniyligini sezilarli darajada oshiradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonini samarali tashxislashda alohida ahamiyatga ega bo'lgan metodikalar qatorida P.I. Tretyakovning "Ta'lim olinganlik darajasini tashxislash" hamda G.A. Russkiy ishlab chiqqan "O'quvchilarning o'quv materiali bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasini aniqlash" metodikalari yetakchi o'rin tutadi.

II. P.I. Tretyakovning "Ta'lim olinganlik darajasini tashxislash" metodikasi P.I. Tretyakov metodikasi o'quvchilarning turli murakkablik darajasidagi mustaqil topshiriqlarni bajarish ko'nikmasini aniqlash, bilish faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan dasturlarni loyihalashtirish imkonini berishni maqsad qiladi.

Metodika mohiyatiga ko'ra, har bir o'quvchi o'zlashtirgan ilmiy bilimlar tizimi asosida ma'lumotlarni quyidagi bosqichlarda qayta ishlashi kerak:

1. farqlay olish;
2. yodda saqlay olish;
3. qayta eslab chiqarish;
4. amalda qo'llay olish;
5. ijodiy faoliyat ko'rsatish.

Metodika o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka (BKM) darajasini baholash uchun quyidagi mazmundagi mustaqil topshiriqlarni tavsiya etadi.

X»	Topshiriqlar mazmuni	BKMni o'zlashtirish
1	2	3
1.	Taqqoslang, tanlang, qiyoslang, ortiqcha ... ni toping	1-daraja: farqlash

2.	Qayta tasvirlang, chizing, yozing, o'rtog'ingizga qayta hikoya qilib bering	2-daraja: yodda saqlash
3.	Nega, nima uchun, nima bilan bog'liq, sabab-oqibat aloqasini toping, nima umumiy bo'lishi mumkin, yagona birlikni toping, umumlashtiring	3-daraja: qayta yodga olish
4.	Namuna bo'yicha, qoidaga muvofiq, formula asosida bajaring, aytib bering, nimadir nima bilan qiyoslang, qandaydir xossasini aniqlang	4-daraja: amalda qo'llash
5.	Ijod qiling, o'ylab toping, loyihalashtiring, modellashiring, isbotlang, yechimini toping	5-daraja: ijodiy ishni namoyish qilish

O'qituvchi ushbu metodikani qo'llashdan oldin o'quvchilar e'tiboriga o'zlashtirish darajasi va unga mos baho ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi mezonlarni taqdim etishi shart.

O'zlashtirganlik	Baho
Variant I: 1, 2	"3"
Variant II: 2, 3, 4	"4"
Variant III: 4, 5	"5"

Metodikaning afzalligi shundaki, unga ko'ra o'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalar (BKM)ning o'zlashtirganlik darajasini ifodalovchi variantlar va baholar ko'rsatkichlarini o'zlari tanlashi mumkin. Bu degani, ularning o'zlari o'qituvchi tomonidan taklif etilayotgan topshiriqlarni ham mustaqil tanlaydi.

O'qituvchi o'quvchilarning mustaqil tanloviga ko'ra bajargan ishlarini baholab boradi. Uning bu boradagi harakati natijasi quyidagi jadvalda o'z aksini topadi:

O'quvchilarning ismi, familiyasi	Topshiriqlarning to'liq va to'g'ri bajarilganligi					Xulosa
	O'zlashtirganlik darajasi					
	Farqlash	Yodda saqlash	Qayta yodga olish	Amalda qo'llash	Ijodiy mahsulotni namoyish qilishi	
...						

III.G.A.Ruskiyning “O'quvchilarning o'quv materaillari bilan mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini tashxislash” metodikasi.

G.A.Ruskiyning “O'quvchilarning o'quv materaillari bilan mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini tashxislash” metodikasi O'zida o'quvchilar tomonidan mavzu bo'yicha bilimlar tizimini o'zlashtirganlik darajasini aniqlash va ularning bilish faoliyatini takomillashtirish, to'g'rilashga imkon beruvchi individual dasturlar loyihasini tuzishdan iborat maqsadni ifodalaydi.

Bilim - ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, usiz maqsadga muvofiq harakatlarni tashkil etish mumkin emas. Bilimlar tizimining asosiy vazifasi - borliqning umumiy manzarasini hosil qilish, bilish, amaliy va ijtimoiy faoliyat vositasi bo'lishdan iborat. Didaktikada bilimlar tizimi ikki katta guruhga ajratiladi. Ular:

1.amaliy bilimlar (tushunchalar, raqamlar, dalillar, tasavvurlar);

2.nazariy bilimlar (atamalar, sabab-oqibat aloqalari, qonuniyatlar, qonunlar, tamoyillar, nazariyalar).

Murakkablik vektori atamalardan qonunlar va nazariyaga tomon boradi.

Metodikani qo'llashda o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bilimlar tizimi tuzilishiing mantig'ini ifodalovchi savollarni taklif qiladi. Ya'ni:

Amaliy bilimlarni o'zlashtirishga doir:

1.Terminologiyani o'zlashtirish: nomlash, sanash, to'g'ri javobni belgilash, ortiqcha ...ni topish.

2.Raqamli materialni o'zlashtirish: qancha, qachon, raqamlarni sanash, ... tasdiqlovchi raqamli dalillarni belgilash.

3.Dalillarni o'zlashtirish: qanday dalillar ...ni tasdiqlaydi, ... qaerda joylashgan, bu qanday yuz berdi, ... ning asosiy belgilari nimalardan iborat.

4.Tasavvurni o'zlashtirish: ... to'g'risida hikoya qilish, ... ning tashqi belgilarini tasvirlash, ... ga ta'rif berish.

Nazariy bilimlarni o'zlashtirishga doir:

1.Tushunchani o'zlashtirish: tushunchaning mohiyatini yoritish, bu nima?, ... uchun xarakterli belgilar qaysilar?, Tushunchaning ahamiyatli belgilarini sanash.

2.Sabab-oqibat aloqalari (to'g'ri aloqalari)ni bilish: nima sodir bo'ladi, agarda ...?, ... ning qanday oqibatlari mavjud?

3.Sabab-oqibat aloqalari (teskari aloqalari)ni bilish: Nima uchun?, Qanday sababga ko'ra?

4.Qonuniyatlarni bilish: Qanday o'zaro bog'liklarga ega?, Bog'liqlik nimadan iborat?, Qanday bog'lanadi?

5.Qonunlarni bilish: qonunlarni o'qing, ... ni isbotlab bering, ... ning harakatlarini ... qonuniga muvofiq asoslash.

6.Nazariyani o'zlashtirish: nazariyani hikoya qiling, ... nazariyasi nuqtai nazaridan tushuntirish.

O'quvchilar faoliyati natijalarini tekshirishda o'qituvchi quyidagi jadvalni to'ldiradi:

O'quvchilarning ismi, familiyasi	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	Ballar soni	%	Xulos a

...														

Eslatma: garada o'quvchi to'g'ri javob qaytarsa, u holda 1 ball, bordi-yu, xatoga yo'l qo'ysa, unda 0 ball qo'yiladi. To'plangan ballarning yig'indisiga muvofiq o'quvchilar tomondan bilimlar tizimini o'zlashtirish darajasi aniqlanadi.

Ballarning umumiy soni asosida besh balli tizim ko'rsatkichlari (baholari) belgilanadi. Ya'ni:

- 1) 0-8 ball - eng yuqori daraja: "5";
- 2) 7-6 ball - o'rta daraja: "4";
- 3) 5-4 ball - past daraja: "3".

Demak, zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Pedagogik tadqiqotlar ta'lim samaradorligini oshirish ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. So'nggi yarim asrlik vaqt oralig'ida ob'ektiv va sub'ektiv omillarni inobatga olgan holda ta'lim samaradorligini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda bu borada bir qator yondashuvlar (m: texnologik, innovatsion, majmuaviy yondashuv)ning ta'lim samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyati katta ekanligi aytilmoqda. Ana shunday yondashuvlardan yana biri tashxisli yondashuvdir. Pedagogik amaliyot tashxisli yondashuv, shu jumladan, P.I.Tretyakov tomonidan asoslangan "Ta'lim olganlik darajasini tashxislash" va G.A.Ruskiy tomonidan ishlab chiqilgan "O'quvchilarning o'quv materaillari matni bilan mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini tashxislash" kabi metodikalarning ta'lim, tarbiya jarayonini tashkil etishda alohida amaliy qiymatga egaligini tasdiqlaydi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik-psixologik diagnostika metodlari deganda nimani tushunasiz?
2. Metod va metodika tushunchalari o'rtasida qanday farq mavjud?

3.Psixolog S.L.Rubinshteyn “metodika” tushunchasiga qanday ta’rif bergan?

4.Qanday metodikalar rasman e’tirof qilingan metodikalar sirasiga kiradi?

5.Qanday metodikalarni kam darajada rasman e’tirof qilingan metodikalar sirasiga kiritish mumkin?

6.P.I.Tretyakovning “Ta’lim olganlik darajasini tashxislash” metodikasi mohiyatini qisqacha tavsiflang.

7.G.A.Russkiyning “O’quvchilarning o’quv materaillari bilan mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini tashxislash” metodikasi qanday maqsadni ko’zlaydi?

Test topshiriqlari:

1.Shaxsning individual psixologik o’ziga xosliklari hamda axloqiy fazilatlarga egalik darajasini o’lchash va baholashga qaratilgan faoliyatning shakl, metod va vositalari yig’indisi. Ular psixologik-pedagogik diagnostika

a) metodologiyasi;

b) metodlari;

c) **metodikasi;**

d) vositalari.

2... - ta’lim (tarbiya) maqsadiga erishishning yo’li, usuli.

a) harakat;

b) texnologiya;

c) vosita;

d) **metod.**

3.Aniq belgilangan maqsadga erishish yo’lida, ma’lum vazifalarni bajarishda foydalaniladigan pedagogik faoliyatning tashkiliy shakllari, metodlari va vositalari jamlanmasi - bu ...

a) **metodika;**

b) metod;

c) metodologiya;

d) vosita.

4.Metodika ... xarakter kasb etadi.

- a) individual;
- b) ommaviy;
- c) ***umumiy;***
- d) xususiy.

5. Psixolog S.L. Rubinshteynning fikriga ko'ra metodika - bu ...

- a) ikkilamchi metodlar;
- b) ***yordamchi metodlar;***
- c) og'zaki metodlar;
- d) yozma metodlar.

III-BOB. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING AMALIY ASOSLARI.

11-Mavzu: O'quvchilarning aqliy intellektini rivojlantirish diagnostikasi

Reja:

1. O'quvchilarning intellektual (kognitiv) rivojlanish darajasini aniqlash va baholash.
2. P.I. Tretyakovning "Yaqin rivojlanish zonasi va joriy rivojlanish darajasini tashxislash" metodikasi.
3. G.A. Russkiyning "Bilim tizimini o'zlashtirish darajasini aniqlash" metodikasi.
4. O'quvchilarda ijodiy (kreativ) fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan usul va metodlar.

Tayanch tushunchalar: intellektual rivojlanish, kognitiv rivojlanish, diagnostika qilish, intellektual rivojlanish darajasi, joriy rivojlanish darajasi, yaqin rivojlanish zonasi (L.S. Vygotskiyning ZBR termini), o'quvchilarning kognitiv rivojlanish darajasini aniqlovchi metodikalar, ijodiy fikrlash, kreativlik, divergent fikrlash, ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish usullari, kreativ qobiliyatlarni diagnostika qilish va rivojlantirish metodlari

I. O'quvchilarning intellektual rivojlanish darajasini aniqlash va baholash Globalizatsiya sharoitida mustaqil fikrlaydigan, ijodkor shaxsni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik talab doimiy ravishda yangi prinsipial yondashuvlar bilan boyib, takomillashib bormoqda. Agar pedagogik fikr va maktab tizimi rivojlanishining dastlabki bosqichlarida bu talab asosan estetik-idrok va hissiy-emotsional boylikka erishish orqali qondirilgan bo'lsa, keyingi davrlarda shaxs faoliyatining o'ziga xos original va individual g'oyalarga ega bo'lishi mezon sifatida qaraldi.

Intellektual rivojlanish – shaxsning ong darajasi, tafakkur faoliyati, kognitiv qobiliyatlari va intellektual salohiyatining sifat jihatidan o'sishi jarayoni.

Fiziologik va yosh xususiyatlari har xil bo'lgan shaxslarda intellektual rivojlanish darajasi ham turlicha namoyon bo'ladi. Biroq, bu daraja faqat yoshga bog'liq emas. Masalan, 5–6 yoshli bolaning xotirasi, nutqi, mantiqiy mulohazasi va muammoli vaziyatlarni yechish qobiliyati ba'zan 30–50 yoshli kattalarnikidan ancha yuqori bo'lishi mumkin. Bunday holat psixologiyada “noyob qobiliyat” (prodigy) deb yuritiladi. Tarixdagi misollar: Alisher Navoiy 5 yoshida Attorning “Mantiq ut-tayr” asarini to'liq yod bilgan, Aleksandr Pushkin esa 13 yoshidan she'r yozib, nashr etishni boshlagan.

O'quvchining intellektual rivojlanish darajasi – uning fikrlash qobiliyati, tafakkur sifati va kognitiv salohiyatining ma'lum bir vaqtdagi holati va pallasidir.

Uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim sifatini baholashda o'quvchining intellektual rivojlanish darajasi majburiy diagnostika ob'ekti hisoblanadi. Bu jarayon o'quvchining:

- fanlarni o'zlashtirish darajasi,
- turli murakkablikdagi savollarga javob berish qobiliyati,
- topshiriqlarni bajarish sifati,
- muammoli vaziyatlarni yechishdagi layoqati va imkoniyatlari orqali aniqlanadi.

O'quvchining intellektual rivojlanish darajasini diagnostika qilish – o'quv fanlarini o'zlashtirish jarayonida uning fikrlash operatsiyalari, tafakkur sifati va kognitiv salohiyatining hozirgi pallasini tahlil qilish hamda baholash faoliyatidir.

Ushbu diagnostikaning asosiy maqsadi:

- 1.O'quvchining fanlarni samarali o'zlashtirishdagi yutuqlari va muvaffaqiyat darajasini aniqlash;
- 2.O'quv materialini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar va ularning sabablarini ochib berish;
- 3.Fikrlash qobiliyati, tafakkur darajasi va intellektual salohiyatining joriy holatini belgilash.

Diagnostika jarayonida hal qilinadigan asosiy vazifalar:

-maqsadga muvofiq eng samarali metod, vosita va texnologiyalarni tanlash;

- tashxislovchi (diagnostik) materiallarni ilmiy asosda tayyorlash;
- tayyorlangan materiallarni o'quvchi yoki guruhga taqdim etish;
- olingan javob va natijalarni yig'ish hamda umumlashtirish;
- natijalarni chuqur tahlil qilib, ilmiy xulosa chiqarish va baholash.
- baholash natijalari e'lon qilish;
- yakuniy natijalarga tayangan holda ta'limning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash yoki ta'lim sifatini yaxshilashga doir dasturni ishlab chiqish.

Zamonaviy sharoitda shaxsning kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi uning aqliy salohiyatga egaligini ifodalaydi. Shu sababli mavzuni o'rganishda shaxsning kreativ qobiliyatining rivojlanganlik darajasini tashxislovchi metod va kreativ (ijodiy) tafakkur darajasi quyidagi ko'rsatkichlarning samarali sintezida aniqlanadi:

- fikriy tezlik (fluency);
- vaziyatni har tomonlama tahlil qilish qobiliyati (flexibility);
- ko'plab original g'oyalarni ilgari surish (originality);
- g'oyalarni sintezlash va eng maqbul variantni tanlash (elaboration);
- yechimni aniq bayon qilish;
- yechim asosida amaliy ahamiyatga ega mahsulot yaratishga qaratilgan fikriy va kinestetik (harakatli) faoliyatning umumiy samaradorligi.

II. P.I. Tretyakovning “Yaqin rivojlanish zonasi va joriy rivojlanish darajasini tashxislash” metodikasi P.I. Tretyakov tomonidan ishlab chiqilgan ushbu metodika o'quvchining ta'lim-trbiya traektoriyasining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va uning yaqin rivojlanish zonasini (L.S. Vygotskiy ZBR konsepsiyasi) belgilashni maqsad qiladi.

Metodikani amalda qo'llash jarayoni quyidagi ketma-ket bosqichlardan iborat:

1. O'qituvchi 7–8 daqiqada bajarib bo'ladigan o'rtacha hajmdagi yangi o'quv materialini tanlaydi.

2. Yangi ma'lumotni qabul qilishga yo'naltirilgan aniq namunani (algoritm, qoida, misol) taqdim etadi.

3. O'quvchilarga yangi bilimni mustaqil ravishda takrorlash va mashq qilish imkoniyati yaratadi.

4. O'z-o'zini tekshirish imkonini beruvchi mustaqil diagnostik topshiriqni o'tkazadi (vaqt – 10 daqiqa).

Muhim qoida: Agar o'quvchi 10 daqiqa ichida topshiriqni bajara olmasa, o'qituvchi materialni qisqa va aniq tarzda yana bir marta tushuntiradi va faqat shundan keyin qo'shimcha vaqt beradi. Bu qo'shimcha vaqt o'quvchining o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmasini rivojlantirish xarakteriga ega bo'lishi shart.

Natijalarni baholash jadvali (Tretyakov metodikasi bo'yicha):

Natija turi	Vaqt ichida bajarish holati	Yaqin rivojlanish zonasi belgilari	Joriy rivojlanish darajasi
1-palla: Yuqori darajadagi mustaqillik	10 daqiqadan kamroq vaqt ichida to'liq bajardi	Yangi materialni minimal yordam bilan o'zlashtirishga qodir	4–5 (yuqori)
2-palla: O'rtacha mustaqillik	10 daqiqa ichida bajardi	Bir martalik yordam bilan yangi bilimni o'zlashtiradi	3–4 (o'rtacha)
3-palla: Yordamga muhtojlik	Qo'shimcha tushuntirishdan keyin bajardi	Yangi materialni faqat o'qituvchi yordami bilan o'zlashtiradi	2–3 (quyi o'rtacha)
4-palla:	Qo'shimcha	Yangi bilimni	1–2

Natija turi	Vaqt ichida bajarish holati	Yaqin rivojlanish zonasi belgilari	Joriy rivojlanish darajasi
Past darajadagi mustaqillik	tushuntirishdan keyin ham bajara olmadi	mustaqil o'zlashtirishda jiddiy qiyinchilik	(past)

Ushbu metodika o'qituvchiga har bir o'quvchining "joriy rivojlanish darajasi" va "yaqin rivojlanish zonasi"ni aniq belgilab, keyingi ta'lim traektoriyasini individual rejalashtirish imkonini beradi.

O'quvchilar ning ismi, familiyasi	Nazorat vaqtida xatosiz bajarilgan	Xatosiz bajarilgan	Xatolar mavjud	FRH va YaRH bo'yicha xulosa
...				

Eslatma :

FRH – Faol (joriy) rivojlanish hududi

YaRH – Yaqin rivojlanish hududi (L.S. Vygotskiy ZBR)

Faol rivojlanish hududi (FRH) – o'quvchi tomonidan berilgan mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka (BKM)ning to'liq va puxta o'zlashtirilganligini bildiradi. **Yaqin rivojlanish hududi (YaRH)** – o'quvchi tomonidan shu mavzu bo'yicha BKMning minimal darajada yetarli o'zlashtirilmaganligini, ya'ni o'qituvchi yordami bilan keyingi bosqichga o'tish imkoniyati mavjudligini anglatadi.

Diagnostika natijasi quyidagicha talqin qilinadi:

Topshiriqni qiyinchiliksiz bajarsa → **FRH** (qayta tushuntirish shart emas)

Qiyinchilik cheksa → **YaRH** (qo'shimcha yordam va mashg'ulot zarur)

Agar YaRH aniqlansa, o'qituvchi shu mavzu bo'yicha qo'shimcha individual yoki kichik guruh mashg'ulotlarini tashkil etadi.

II. G.A. Russkiy "Bilim tizimini o'zlashtirish darajasini tashxislash" metodikasi G.A. Russkiy metodikasi o'quvchilarning matnli manbalar (darslik, ilmiy maqola, qo'shimcha adabiyot) bilan mustaqil ishlash ko'nikmasini va bilish faoliyatini takomillashtirish (korreksiya) dasturini loyihalashtirish qobiliyatini aniqlashga qaratilgan.

Metodika bosqichlari (o'qituvchi topshiradigan ketma-ket mustaqil ishlar):

1. Darslikning belgilangan sahifasidagi matnni o'qish (hajmi 8–10 xatboshidan iborat, o'qishga 3 daqiqa).
2. O'qilgan matn bo'yicha qisqa konspekt tuzish.
3. Matn mazmunidan kelib chiqib, 3 ta savol tuzish.
4. O'z tuzgan savollariga qisqa yozma javob berish.
5. Savollarni alohida kartochkaga yozib chiqish.
6. Kartochkalarni juft sherigi bilan almashtirish.
7. Sherigining savollariga yozma qisqa javob berish.
8. Sherigining javobini baholash va zarur bo'lsa to'g'rilash/qo'shimcha qilish.

O'qituvchi tahlil qiladigan ko'nikmalar (2 qismga bo'lingan):

I qism – Asosiy ko'nikmalar

1. Matnning asosiy mazmunini to'g'ri ajratib olish.
2. Konspektni lo'nda va tuzilgan holda yozish.
3. Savol tuzish uchun matn mohiyatini chuqur tushunish.
4. Mazmunli va aniq savollar tuzish.
5. O'z savollariga to'g'ri va to'liq javob berish.

II qism – Yuqori tartibdagi ko'nikmalar

1. Muammoli (yuqori kognitiv darajadagi) savollar tuzish.

2. O'zi yoki sherigi tuzgan muammoli savollarga asosli javob berish.

3. Sherigining javobini xolis baholash.

4. Javobdagi kamchiliklarni to'g'rilash yoki yetarli qo'shimcha keltirish.

5. Mustaqil ish jarayonida vaqtni oqilona taqsimlash va boshqarish.

Natijalarni qayd etish jadvali (Russkiy metodikasi bo'yicha misol):

F.I.Sh.	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	Umumiy ball	Xulosa (FRH / YaRH)
Aliyev A.	+	+	++	+	+	+	+	+	+	+	10/10	FRH
Karimova S.	+	+	++	-	+	-	+	-	+	+	7/10	YaRH

Jadval asosida o'qituvchi har bir o'quvchining matn bilan mustaqil ishlash darajasini aniq belgilaydi va agar kerak bo'lsa, individual korreksion dastur tuzadi.

O'quvchilarning ismi, familiyasi											10	Ballar soni	%	Xulosa
...														

Eslatma: Har bir ko'nikma bo'yicha baholash mezonlari:

- 3 ball – ko'nikma to'liq shakllangan (mustaqil va xatosiz bajaradi);
- 2 ball – qiyinchilik bilan bajaradi (qisman yordam zarur);

- 1 ball – xato qiladi, lekin qanday harakat qilish kerakligini biladi;

- 0 ball – ko‘nikma umuman shakllanmagan.

Umumiy ballga ko‘ra baholash shkalasi (5 balli tizimga o‘tkazilgan):

- 30 ball – eng yuqori daraja → “5”
- 27–29 ball – yuqori daraja → “5”
- 25–26 ball – o‘rta daraja → “4”
- 20–24 ball – past daraja → “3”
- 20 balldan kam – qoniqarsiz → “2”

Talqin:

- Agar 1-qism bo‘yicha yuqori ball to‘plagan bo‘lsa → samarali asosiy ko‘nikmalar shakllangan, o‘quvchi o‘qituvchisiz mustaqil ishlay oladi.

- 1- va 2-qism bo‘yicha yuqori ball → ijodiy (kreativ) ko‘nikmalar mavjud, murakkab va muammoli topshiriqlarni mustaqil yechadi.

IV. O‘quvchilarda ijodiy (kreativ) fikrlash qobiliyatini rivojlantirish usullari

Kreativlik muammosini tizimli o‘rganish XX asrning 60-yillaridan boshlab iqtisodiy yetakchi davlatlarda (AQSh, Yaponiya, Germaniya) boshlandi. Aynan shu davrda kompyuter texnologiyalarining paydo bo‘lishi insoniyat tarixida yangi bosqichni boshlab berdi va intellektual salohiyat jamiyat rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida tan olindi.

Bir g‘oya bilan butun sohalarni o‘zgartirish, ko‘p yillik monitoring jarayonlarini soniyalarda amalga oshirish, vaqtni tejash va mehnat unumdorligini keskin oshirish imkoniyati isbotlandi. Natijada, yangi g‘oyalarni yaratish orqali qo‘l mehnati va texnik vositalarni optimallashtirishga ustuvor ahamiyat berildi.

“Kreativlik” (ingl. creativity ← creative – yaratmoq) tushunchasi lug‘aviy jihatdan “yaratuvchanlik”, “ijodkorlik” ma’nolarini anglatadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tashqi va ichki omillarning ta'siriga qaramay, kutilmagan original fikrlarni ilgari surish;
- muammoli vaziyatlarda o'ziga xos, takrorlanmas yechimlarni topish;
- yangi, amaliy qiymatga ega mahsulot yoki natijalarni yaratish qobiliyati.

Bugungi kunda kreativlik jamiyatning barcha sohalari rivojida “tayanch nuqta” (key driver) hisoblanadi. Bu esa ijodiy fikrlovchi shaxsni maqsadli shakllantirish masalasini dolzarb vazifaga aylantirdi.

O'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning eng samarali metod va usullari :

№	Usul/metod	Mohiyati	Qo'llanilishi (sinf/mavzu misoli)
1	“Aql bosimi” (Brainstorming)	Tez va erkin g'oya ishlab chiqarish, tanqid taqiqlanadi	Yangi mavzuni kashf qilish, loyiha mavzusi tanlash
2	SCAMPER texnikasi	Mavjud ob'ekt/yechimni o'zgartirish (Substitute, Combine, Adapt...)	Texnologiya, adabiyot, tarix loyihalari
3	“Olti shlyapa” (E. de Bono)	Bir muammoni 6 xil nuqtai nazardan ko'rib chiqish	Ijtimoiy muammolar, adabiy asar tahlili
4	TRIZ elementlari (ziddiyatlar matritsasi)	Ziddiyatni foydaga aylantirish	Matematika, fizika muammolarini yechish

No	Usul/metod	Mohiyati	Qo'llanilishi (sinf/mavzu misoli)
5	Dizayn-tafakkur (Design Thinking)	Empatiya → Muammoni aniqlash → G'oya → Prototip → Test	Loyiha haftaligi, STEAM darslari
6	"Kreativ yozuv" (Creative Writing)	Erkin mavzuda hikoya, she'r, ssenariy yozish	Ona tili, adabiyot, chet tili darslari
7	"Boshqa ko'z bilan" (Role Play)	Boshqa shaxs, hayvon, narsa nuqtai nazaridan fikrlash	Tarix, biologiya, adabiyot
8	Mind Mapping + Assotsiatsiyalar zanjiri	Markaziy tushunchadan erkin assotsiatsiyalar qurish	Har qanday mavzuni chuqur o'rganish oldidan

Ya'ni, **kreativ mahsulot** yaratish uchun mutaxassisga tashqi (ob'ekt, predmet, hodisa) yoki ichki (hissiy kechinmalar: quvonch, qayg'u, hayajon va h.k.) omillarning majburiy ta'siri shart emas. U faqat o'zining yuqori darajadagi kompetentligi, chuqur bilim va ko'nikmalari tufayli original va amaliy ahamiyatga ega natijaga erisha oladi.

Boshqacha qilib aytganda:

Ijodkorlik – yangi, takrorlanmas, asosan hissiy-estetik ta'sirga ega mahsulot yaratish;

Kreativlik – ijodkorlikning yuqori bosqichi bo'lib, yaratilgan mahsulot nafaqat hissiy-estetik ta'sir ko'rsatadi, balki amaliy qiymatga ham ega bo'ladi (foydalanish, ishlab chiqarish, iqtisodiy samara berish, muammoni real hal qilish va h.k.). "Kreativlik" atamasi ilk bor 1922 yilda amerikalik psixolog Ray M. Simpsonning "Creative Imagination" ("Kreativ tasavvur") nomli asarida ilmiy muomalaga kiritilgan va u yuqori tartibdagi fikrlash jarayoni sifatida ta'riflangan.

“Aqliy hujum” (Brainstorming) metodikasi

Ushbu metod **Aleks Osborn** tomonidan 1950 yilda ishlab chiqilgan va ommalashtirgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi o‘quvchilarda yangi, ko‘p sonli g‘oyalarni erkin va tez ishlab chiqarish ko‘nikmasini shakllantirish hamda tanqidiy baholash jarayonini keyingi bosqichga ko‘chirishdan iborat.

Qo‘llash tartibi :

- Muammo yoki vazifa barchaga ochiq va aniq shaklda taqdim etiladi.
- Har bir ishtirokchi navbatma-navbat yoki erkin tartibda o‘z fikrini aytadi, yechim variantini taklif qiladi.
- Boshqa o‘quvchilar bildirilgan taklifni to‘ldiradi, kengaytiradi yoki yangi yo‘nalishda rivojlantiradi.
- Jarayon davomida hech qanday fikrga tanqidiy munosabat bildirish, rad etish yoki masxara qilish qat’iyan man etiladi.
- Barcha ishtirokchilar o‘z variantlarini to‘liq taqdim etgandan so‘nggina g‘oyalar umumiy muhokamaga qo‘yiladi, tahlil qilinadi va eng samarali, amaliy yoki original yechim tanlab olinadi.

Natijada, ushbu metod divergent fikrlashni faollashtirib, qisqa vaqt ichida o‘nlab, hatto yuzlab yangi g‘oyalarni ishlab chiqarish imkonini beradi va o‘quvchilarda “tanqid qo‘rquvi”ni yo‘qotishga yordam beradi.

“Tasodifiy assosiatsiyalar” metodi. Pedagogik tashxislash jarayonida “Tasodifiy assosiatsiyalar” metodidan quyidagicha foydalaniladi:

1-bosqich. Har bir o‘quvchi o‘zi istagan kitob (u lug‘at, badiiy adabiyot, turli sohalarga oid qiziqarli jurnal)ni qo‘lga olib, uning sahifalarini tasodifiy ochadi.

2-bosqich. Ochilgan sahifaning raqamiga e’tibor qaratmay, ko‘rsatkich barmoq ixtiyoriy so‘zning ustiga qo‘yiladi, aniqlangan so‘z qog‘ozga qayd etiladi.

3-bosqich. Bu harakat yana bir bor qayta takrorlanib, yana bir so‘z aniqlanadi.

4-bosqich. Aniqlangan har ikki soʻz oʻrtasidagi oʻzaro aloqadorlik topiladi va u asosida original hikoya toʻqiladi.

“Oltita rangli qalpoqcha” metodi. Ushbu metod Edvard de Bono tomonidan taklif etilgan. Metod xayolan turli rangdagi oltita qalpoqchani kiyish yordamida ijodiy jarayonni tartibga solishga imkon beradi. Turli rangdagi qalpoqchalar shaxs tomonidan quyidagi harakatlarning tashkil etilishini ifodalaydi:

oq qalpoqcha - raqamlar va dalillar tahlil qilinadi;

qora qalpoqcha - tegishli masala boʻyicha faqat salbiy fikrni bildirish;

sariq qalpoqcha - muammoning ijobiy tomonlarini izlash;

yashil qalpoqcha - yangi gʻoyalarni ishlab chiqish, ilgari surish;

qizil qalpoqcha - muammo yuzasidan oʻzining hissiy kechinmalarini bayon qilish;

yashil qalpoqcha - natijalarni umumlashtirish.

“Morfologik quti” (“Morfologik tahlil”) metodi. Muallifi Fris Svikki boʻlgan “Morfologik quti” (“Morfologik tahlil”) metodi oʻz mohiyatiga koʻra tanlangan obʻekt unga xos boʻlgan bir nechta belgini saralab olish orqali bir necha tarkibiy qismlarga ajratiladi. Soʻngra ular mohiyatan oʻzgartiriladi va qayta birlashtiriladi. Natijada yangi obʻekt paydo boʻladi. Mazkur metod XX asarning 30-yillarida shveyratsiyalik astrofizik Fris Svikki (Fritz Zwicky) tomonidan asoslangan. Grafik organayzer gʻoyasini asoslashda Fris Svikki quyidagi misolni keltiradi: parfyumeriya kompaniyasi uchun yangi tashrif qogʻozini tayyorlash talab qilinsin. Odatdagi toʻgʻri toʻrtburchakli boʻladigan tashrif qogʻozi shakli oʻzgartilib, yoqimli hid tarqatuvchi uchburchak holatda tayyorlansa, uning shaxs ongiga taʼsiri boshqacha boʻladi.

Qariyb bir asrdan “Morfologik quti” metodi - obʻektning tarkibiy tuzilmasini tahlil qilishga asoslanuvchi metod boʻlib, u qabul qilingan qarorning nazariy imkoniyatlarini ifodalovchi barcha variantlarni tizimlashtirishni taqozo etadi. Maʼlumki, odatda qutilarga narsalar muayyan tartib bilan joylashtiriladi. Agarda quti

katta hajmli bo'ladigan bo'lsa, unga bir necha turdagi narsa, buyum yoki jihozlar turiga qarab, alohida-alohida joylashtirildi. Ya'ni qutida narsalarga ularning turi bo'yicha ma'lum joy ajratiladi. Muammoli vaziyatlarni tadqiq qilish va yechimlarni tanlashga xizmat qiluvchi ushbu metodning didaktik ahamiyati shundaki, u muayyan jarayon, tur, hatto sohalar bo'yicha ham tizimli fikrlash, g'oyalarni tahlil qilish, jarayon, tur, hatto sohalarning umumiy mohiyatini yorituvchi har bir holatni ko'rib chiqish imkonini beradi. O'z mazmuniga ko'ra tahliliy xarakterga ega ushbu metod tizim va uning tarkibiy asoslari to'g'risidagi fikrlarni ham oydinlashtirishga yordam beradi

Ayni o'rinda "Morfologiya" tushunchasining mohiyatini yetarli darajada anglab olish maqsadga muvofiq sanaladi.

Morfologiya: 1) *biologiya fanida tirik organizmning tashqi (shakli, tarkibiy tuzilmasi, rangi, obrazlari) hamda ichki tuzilishi (masalan, odamning tashqi (eydonomiya) va ichki (anatomya) morfologiyasi); 2) tilshunoslikda: tabiiy tillarga xos so'zlar, ularning ahamiyatli qismlari va morfologik belgilarini aks ettiruvchi grammatikaning bo'limi.*

Har qanday holatda ham morfologik orzanizm, jism, jarayonning tarkibiy tuzilmasining to'liq yoritilishini ifodalaydi.

Fris Svikki g'oyasiga asoslangan bu metod "Morfologik tahlil" ham deb nomlanadi. Metod ob'ektning tarkibiy tuzilmasini tahlil qilishga asoslanuvchi metod bo'lib, u qabul qilingan qarorning nazariy imkoniyatlarini ifodalovchi barcha variantlarni tizimlashtirishni taqozo etadi. Metod jadval shakliga ega. Odatda qutilarga buyum, predmetlar tartib bilan joylashtirilgani kabi "Morfologik quti" grafik organayzerida ham o'rganilayotgan mavzuga doir tayanch tushunchalar jadvalining muayyan kataklariga tartib bilan, o'zaro izchillik asosida joylashtiriladi. Mazkur grafik organayzer talabalarni erkin, tanqidiy fikrlashga o'rgatadi.

Muammoni hal qilishga nisbatan tizimli yondashuvning o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan morfologik tahlil qisqa vaqt oralig'ida orginal

yechimlarni topish imkonini beradi. Ta'lim jarayonida foydalanadigan morfologik tahlil turli ramziy belgilarga asoslangan yozuvlar, rasmlardan tarkib topgan jadval ko'rinishiga ega bo'ladi. Jadval tabiiy ravishda bo'yiga va eniga ega. Odatda bo'yicha predmet, buyumlar tegishli bo'lgan umumiy tur (masalan, kiyim-kechak, oziq-ovqat, dori-darmon va hokazolar qayd etiladi. Eniga ega har bir turga taalluqli bo'lgan narsa, buyum yoki jihozlarning nomlari ko'rsatiladi. Ular iloji boricha rasm, shartli belgi yoki logotiplarda aks etishi kerak. "Bu kabi ko'rsatkichlar sifatida format, ranglar, asosiy muammoni aks ettiruvchi ramzlar, tasvirning tarkibiy qismlari to'g'risidagi tasavvurni oydinlashtirishga yordam beruvchi ramzlarni tanlash mumkin".

"Fokal ob'ektlar" metodi. Lug'aviy mazmuniga ko'ra "fokal" atamasi (ing. "focal" - "o'zak", "manba", "o'choq" ma'nolarini anglatadi. Asoschi Charlz Vayting bo'lgan ushbu metodning g'oyasi - turli ob'ektlarga xos bo'lgan belgilarni birgina predmetda aks etishiga erishish. Muallifning o'zi metod g'oyasini tushuntirishda quyidagi misoldan foydalanadi: oddiy sham va "Yangi yil" tushunchasi qabul qilinadi. Odatda "yangi yil" tushunchasi bengal olovlari bilan assosiatsiyalanadi. Bu belgi (bengal olovi) shamni yodga soladi. Agarda bengal olovi kir yuvish vositasida artilib, unga mum qo'shilsa, ichida juda kichik uchqunlanadigan "yangi yil" shami hosil bo'ladi.

"Sinektika" metodi. Uilyam Gordon asoslangan mazkur metod muallif kreativlikning asosi deya e'tirof etgan - muqobillar (o'zaro o'xshash jihatlar)ni izlashga xizmat qiladi. Metodni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1-bosqich: zarur ob'ekt (mavzuga oid muhim tushuncha) tanlanadi;

2-bosqich: tanlangan ob'ektning muqobil (o'zaro o'xshash jihat)larini topish uchun ikki bo'limdan iborat jadval shakllantiriladi;

3-bosqich: jadvalning 1-ustunida tanlangan tushunchaga to'g'ri muqobil bo'lgan tushunchalar qayd etiladi;

4-bosqich: 1-ustunda qayd etilgan har bir tushuncha asosida maqsad, tushunchaning mohiyati va noto'g'ri muqobillar belgilanadi.

Bu o'rinda U.Gordon shunday misol keltiradi: ob'ekt - qalam; vazifa - qalamning turlarini ko'paytirish; to'g'ri muqobil - bo'rtma qalam; noto'g'ri muqobil - yassi qalam; natija - qalamni ishlab chiqarish.

“Mental xarita” (yoki “Idrok xaritasi”) metodi. Muallif - angliyalik psixolog Toni Byuzen. Muallifning fikriga ko'ra, kreativlik xotira bilan bog'liq. Shunday ekan, xotirani kuchaytirish kreativ fikrlash jarayonining sifatini yaxshilaydi. Sarlavha va abzaslar bilan yozishlarning an'anaviy tizimi eslab qolishga to'sqinlik qiladi.

1974 yilda ilk bor T.Byuzen qog'ozning o'rtasiga asosiy tushunchani markazdan chiqargan holda uning atrofida “shox”lar hosil qilish orqali ularga eslab qolinishi zarur bo'lgan assosiatsiyalarni qayd etgan holda o'rganilayotgan muammoni tahlil qilishni taklif etadi. Fikrlarni grafikaviy (turli geometrik, arifmetik, fizik formulalar, shartli belgilar yordamida) ifodalash taqiqlanmaydi. “Mental xarita” (“Idrok xaritasi”)ni “chizish” yangi assosiatsiyalarning yuzaga kelishiga imkon yaratadi, hosil bo'lgan umumiy obraz esa muammo mohiyatini ifodalovchi tushuncha (bilim)larning uzoq vaqt yodda saqlanishiga yordam beradi.

“Bilvosita strategiyalar” metodi. Mualliflari Brayen Eno hamda Piter Shmidt bo'lgan bu metod turli topshiriq (buyruq)lar yozilgan kartochkalar to'plamiga tayangan holda yangi g'oyalarni izlash, asoslash va ilgari surishga qaratilgan harakatlar amalga oshiriladi. Yangi g'oyani ishlab chiqishdan avval o'quvchi kartochkalardan biri tanlaydi va unda ko'rsatilgan topshiriq asosida muayyan xatti-harakat (masalan: “Uch yo'l bilan yechimni top!”, “Echimni yangi g'oyalar bilan boyit!” bajariladi.

Shunday qilib, global axborotlashuv sharoitida shaxsning ta'lim olganlik darajasini tashxislash, unda kreativlik sifatlarini rivojlantirish dolzarb pedagogik masala sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Ushbu vazifaning samarali hal qilishda pedagogik

tashxislash muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida P.I.Tretyakovning "Yaqin va bevosita rivojlantiruvchi hududni tashxislash" hamda G.A.Ruskiyning "Bilimlar tizimini o'zlashtirganlik darajasini tashxislash" metodikasi, shuningdek, o'quvchining kreativ fikrlash qobiliyatiga egaligini tashxislovchi metodlar: "Aqliy hujum", "Oltita rangli qalpoqcha", "Morfologik quti" ("Morfologik tahlil"), "Fokal ob'ektlar", "Sinektika", "Mental xarita" ("Idrok xaritasi"), "Bilvosita strategiyalar" kabilarning didaktik imkoniyatidan foydalangan holda tashxislashni amalga oshirish samarali natijalarni beradi.

Nazorat savollari:

1.O'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini tashxislash qanday maqsadda amalga oshiriladi?

2.P.I.Tretyakovning "Ta'lim olganlik darajasining tashxisi" metodikasi qanday maqsadni ko'zlaydi?

3."Aqliy hujum" metodi o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini tashxislashda qanday ahamiyatga ega?

4."Tasodifiy assosiatsiyalar" metodi o'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatadi?

5"Oltita rangli qalpoqcha" metodining mohiyati nimadan iborat?

6."Morfologik quti" ("Morfologik tahlil" metodi o'quvchilarda qanday sifatlarni shakllantirishga yordam beradi.

7."Fokal ob'ektlar" deganda nimani tushunasiz?

8.O'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishda sinektika qanday o'rin tutadi?

9."Mental xarita" ("Idrok xaritasi") metodining o'quvchilarda aqliy qobiliyatni rivojlantirishdagi ahamiyati qanday?

Test topshiriqlari:

1.Shaxs fikrlash qobiliyati, tafakkurining rivojlanishi, intellektual salohiyati darajasining oshishi - uning ni ifodalaydi.

a) ma'naviy rivojlanish;

b) axloqiy rivojlanish;

c) **aqliy rivojlanish;**

d) fiziologik rivojlanish.

2.Shaxs fikrlash qobiliyati, tafakkuri, intellektual salohiyatining muayyan pog'onasi, holati uning aqliy rivojlanishni belgilaydi.

a) ***darajasi;***

b) bosqichi;

c) davri;

d) natijasi.

3.O'quvchi tomonidan o'quv fanlarini o'zlashtirish asosida uning fikrlash qobiliyati, tafakkuri, intellektual salohiyatining muayyan pog'onaga egaligini, holatini tahlil qilish hamda baholash - bu

a) o'rganish;

b) nazorat qilish;

c) tekshirish;

d) ***tashxislash.***

4.... - "Yaqin va faol rivojlantiruvchi hududni tashxislash" nomli metodikasining muallifi.

a) G.A.Russkiy;

b) ***P.I.Tretyakov;***

c) E.P.Torrens;

d) J.P.Gilford.

5."Yaqin va faol rivojlantiruvchi hududni tashxislash" (P.I.Tretyakov) nomli metodikasi maqsadi ...dan iborat.

a) ta'lim sifatini baholash;

b) ***ta'lim istiqbollari aniqlash;***

c) ta'limning darajasini belgilash;

d) ta'lim natijasini o'rganish.

12-Mavzu;O'quvchilarning axloqiy tarbiyalanganlik darajasini tashxis etish.

Reja:

1.O'quvchilarning axloqiy tarbiyalangan darajasini tashxislash mohiyati.

2.O'quv-tarbiyalovchi vaziyatlar va ularning turlari.

3. Tarbiyalovchi vaziyatlarning tashkil etilishi va namoyon bo'lishi.

Tayanch so'zlar: *didaktika, tarbiya, shaxs, o'quvchi, tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiyalash, axloqiy tarbiya, mezon, tashxis etish vositalari.*

I. O'quvchilarning axloqiy tarbiyalangan darajasini tashxislash mohiyati. Pedagogik faoliyatning ikki muhim yo'nalishi mavjud ekani barchaga ayon: 1) ta'lim (didaktika); 2) tarbiya. Pedagogik diagnostikada ham ana shu ikki yo'nalish inobatga olinadi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish darajasi - ma'lumotga egalik holati xususida avvalgi mavzuda so'z yuritildi. Ushbu mavzuda esa bevosita o'quvchining axloqiy tarbiyalanganlik (yoki tarbiyalangan) darajasi va uni tashxislash to'g'risida to'xtalib o'tiladi. Aksariyat o'rinlarda sub'ektiv xarakterga ega "o'quvchining tarbiyalanganlik darajasi" (yoki o'quvchining tarbiyalanganlik darajasi) iborasi o'rniga umumiy tarzda "shaxsning tarbiyalanganlik darajasi" (yoki shaxsning tarbiyalanganligi) tushunchasi ishlatiladi. Qolaversa, shaxs (o'quvchi)ning tarbiyalanganligi tahlil qilinar ekan, ayni o'rinda "tarbiya", "tarbiyalash", "tarbiyalanganlik" tushunchalari ham qo'llaniladi. Shu bois ushbu tushunchalarga izoh berib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Shaxs - *jamiyatning psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari, xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadigan, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega azosif*

O'quvchi — *umumiy o'rta yoki o'rta-maxsus ta'lim muassasasida tahsil olayotgan shaxs.*

Tarbiya - *1) shaxsga bilim berish orqali unda axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikma-malakalarini, hayotiy tajribani hosil qilish, orqali uni voyaga yetkazish; 2) shaxsda axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikma- malakalarini, hayotiy tajribani hosil qilishga qaratilgan amaliy harakat, pedagogik faoliyat.*

Tarbiya jarayoni - *1) muayyan, aniq maqsad va ijtimoiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'qitish, uning ongi, xulq-atvori, dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni; 2) o'qituvchi va o'quvchi*

(tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etilib, aniq maqsadga yo 'naltirilgan hamkorlik jarayoni.

Tarbiyalash -1) o 'quvchini tarbiyalab voyaga yetkazish, ulg'aytirish; 2) shaxsni tarbiyalash yo'lida amaliy pedagogik harakatlarni, faoliyatni tashkil qilish.

Tarbiyalanganlik - o'quvchida axloqiy fazilatlar, mehnat ko'nikmalari hamda hayotiy tajribaning shakllanganligi yoki rivojlanganligi.

Shaxsning tarbiyalanganlik darajasi - o 'quvchining axloqiy fazilatlar, mehnat ko'nikma-malakalari hamda hayotiy tajribaga egaligining muayyan ko'rsatkichi.

Shaxs tarbiyalanganlik darajasining ko'rsatkichi - o'quvchining muayyan darajada axloqiy fazilatlar, mehnat ko'nikma-malakalari hamda hayotiy tajribaga egaligining o'lchovi.

Pedagogik jarayonda, shuningdek, tarbiyaning faoliyat sifatidagi darajasi ham belgilanadi. Mohiyatiga ko'ra, **tarbiyaning muayyan darajasi** - o'qituvchi, ota- onalar, kattalar yoki mutaxassislar tomonidan tashkil etilgan pedagogik faoliyat samaradorligining asosiy ko'rsatkichi sanaladi.

Shaxsning muayyan yosh davrlari tarbiyaning ma'lum darajasini ifodalaydi. Masalan, maktabgacha ta'lim muassasasining tarbiyalanuvchisi muayyan axloqiy fazilatlarga ega bo'lsa ham hali ularda mehnat ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi. Ammo u shu yoshda kattalar va tengdoshlari bilan ijobiy munosabatda bo'lish, salomlashish, minnatdorchilik bildirish, iltimos qilish, o'ziga yoqmagan holatlarni ayta olish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Tarbiya darajasining dinamik holati, ya'ni, o'quvchining axloqiy fazilatlari, mehnat ko'nikma-malakalari hamda hayotiy tajriba "hajmi"ning ko'payib borayotganligi uning shaxsida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'layotganligini, borliqqa, atrofdagilarga va o'ziga nisbatan qadriyat sifatida yondashayotganligini anglatadi.

Ta'limda ma'lum ma'lumot darajasiga ega bo'lishning aniq vaqt chegarasi, muddati (boshlang'ich sinf - boshlang'ich ma'lumot olish

uchun, umumiy o'rta ta'lim - o'rta ma'lumotga ega bo'lish uchun, o'rta maxsus ta'lim - o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lish uchun, oliy ta'lim - oliy (kasbiy) ma'lumotga ega bo'lish uchun) belgilanadi. Tarbiyada ta'limdan farqli ravishda shaxsda ma'lum sifatni hosil qilish uchun muddat, vaqt chegarasi belgilanmaydi. Ayrim sifatlar shaxsning 80-90 yoshida ham hosil bo'lishi mumkin. Ba'zan shaxsda keksalikda ham avval ega bo'lgan ijobiy sifat o'rnida salbiy odatlar, yoki aksincha, salbiy illatlar o'rniga ma'naviy-axloqiy xislat namoyon bo'ladi.

Buning sababi tarbiyalovchi vaziyatlar, ichki (shaxsning hayotiy intilishlari, maqsadlari, tamoyillari, borliqqa, atrofdagilar va o'ziga bo'lgan munosabati) hamda tashqi (jamiyatda shakllangan qarashlar, ularning rasman yoki norasman tan olinishi, shaxs mansub bo'lgan mikromuhitdagi psixologik holat, shaxslararo munosabatlar va boshqa) omillarning shaxs tarbiyasiga ko'rsatayotgan ta'siri bilan izohlanadi.

Shaxsni tarbiyalash (yoki shaxsning tarbiyalanish) jarayoni umr bo'yi davom etadi. Ammo, shaxsni tarbiyalashda "qiyin o'tish davri" hisoblanadigan o'smirlik davri alohida o'rin tutadi. Aynan shu yosh davrida o'quvchi shaxsda hayotiy maqsadlar, intilishlar, ijtimoiy qarashlar shakllanadi.

O'smirlikning "qiyin yosh davri" bo'lishi o'quvchi organizmida kechadigan keskin fiziologik o'zgarishlar va uning shaxsga psixologik ta'siri bilan bog'liq. Shu sababli oilada, ta'lim muassasalarida o'smir bilan ishlashga yanada jiddiy yondashishga e'tibor qaratiladi. Bunda o'quvchi shaxsi, uning xatti-harakatlari va faoliyatiga nisbatan oqilona pedagogik talablarni qo'yish, ularning izchil bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Har qanday pedagogik talab keskin taqiqlar va cheklovlardan xolis bo'lishi lozim. Qolaversa, imkon qadar uning qo'yilayotgan talabning o'quvchi tomonidan qabul qilinishi borasida fikrini bilish muhim. O'quvchining fikri, o'qituvchi, ota-onalar va mutaxassislarining yondashuvlari o'zaro qiyosiy o'rganilgan holda tarbiyaviy faoliyat

rejalashtirilishi zarur. Tarbiya jarayonida imkon qadar har bir o'quvchi uchun individual yondashuv bo'lishi kerak. Zero, o'quvchilar turlicha psixologik xarakter, fizologik imkoniyat (ayniqsa, mehnat ko'nikma, malakalarini shakllantirishda inobatga olinadi), hayotiy maqsadlar, muayyan darajada ma'naviy-axloqiy fazilatlar, hayotiy tajribaga ega.

Pedagogik diagnostika yordamida o'quvchi shaxsning tarbiyalanganlik darajasiga oid ma'lumotlarga ega bo'lish "Individual rivojlanish dasturi"ni ishlab chiqish, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, hayotiy tajribaning dinamik o'sishini kuzatib borishga yordam beradi. Boshlang'ich nazorat yordamida qo'lga kiritilgan o'quvchining rivojlanganlik darajasiga oid ma'lumotlar pedagogik diagnostikada orqaliq va yakuniy nazorat muddatlarini belgilash, tarbiyalovchilik faoliyatini rejalashtirish hamda tarbiya jarayonini izchil kuzatib borish uchun imkoniyat yaratadi

Ta'lim jarayonida bo'lgani kabi tarbiyada ham yakuniy nazorat natijalari boshlang'ich nazoratning natijalari bilan o'zaro taqqoslanadi. Ular o'rtasidagi farq tarbiyaviy faoliyat samaradorligini belgilashga xizmat qiladi.

O'quvchining tarbiyasini tashkil etayotgan o'qituvchi, eng avvalo, tarbiya va ta'lim maqsadlarini ajratib olishi zarur. Tarbiya jarayonida o'quvchini intellektual rivojlantirish asosiy maqsadga aylanmasligi kerak. Zero, agar to'g'ri rejalashtirilsa va oqilona tashkil etilsa, o'quvchini intellektual rivojlantirish ta'lim jarayonida ta'minlanadi. Eng muhimi, tarbiya jarayonida o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlarini, fiziologik-jismoniy imkoniyatlarini inobatga olishdir.

Tarbiya jarayonida tarbiyalovchi vaziyatlardan foydalanish kutilgan natijalarga erishishni ta'minlaydi.

II. Tarbiyalovchi vaziyatlar va ularning turlari. Pedagogik jarayonda o'quvchilarni tarbiyalashda tarbiyaviy xarakterdagi vaziyatlarda maqsadli, o'rinli foydalanish o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni samarali rivojlantirishga imkon beradi.

O'quvchilarning tarbiyalanganligi ularning tarbiyalovchi vaziyatlardagi holatida yaqqol ko'rinadi.

Tarbiyalovchi vaziyat - o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro muloqot, hamkorlik asosida tarbiya jarayonining muayyan bosqichlarida turli qarorlar qabul qilinishini taqozo etadigan holat.


Tarkibiy tuzilmasiga ko'ra tarbiyalovchi vaziyatlarning asosiy elementlari quyidagilardan iborat: tarbiyaviy maqsadlar; tarbiyaviy ta'sir ob'ektlari; pedagogik jarayonni harakatga keltiruvchi va uning yechimini topishda asosiy rolni o'ynaydigan tarbiyaviy ta'sir sub'ektlari.

Tarbiyalovchi vaziyatlar turli mazmunga ega bo'ladi. Ular o'rtasida o'zaro muloqotga kirishayotgan o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorligi asosida yuzaga keladigan holat eng universal sanaladi. Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish joizki, o'quv-tarbiyalovchi vaziyatlarning yuzaga kelishiga ishtirokchi taraflarning barchasi u yoki bu darajada o'z hissalarini qo'shadi.

Odatda tarbiyalovchi vaziyat shaxsni o'qitish va tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayonining o'lchov birligi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, u o'qituvchi va o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatlarini baholash, aniq sharoitlarda yuzaga kelgan muammoning yechimini topishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim muassasalarida yuzaga kelgan bir muammo o'qituvchi, o'quvchilar yoki alohida o'quvchining faoliyatida turlicha ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi yoki o'quvchi tomonidan o'rta tashlanayotgan masala tashkiliy shakliga ko'ra, biror bir shaxsning ta'siri bilan esa ichki mohiyatiga ko'ra o'zgarishi mumkin. Shu bilan birga ta'lim jarayonining ishtirokchilaridan biri masalaning mohiyatini, g'oyasini o'zgartirganda mazmunan o'zgaradi. Masala mohiyatining o'zgarishi natijasida yangi vaziyat yuzaga kelib, rivojlanib boradi.

Garchi tarbiyalovchi vaziyatlar turlicha bo'lsa-da, ularning xarakteri, murakkablik darajasiga ko'ra muayyan guruhlariga ajratish mumkin.



Odatda o'qituvchi-talaba; o'qituvchi-talabalarning kichik guruhi; o'qituvchi- talabalar jamoasi; o'qituvchilar-talabalar; o'qituvchi(lar) - talaba(lar) - uchinchi shaxs tarbiyalovchi vaziyatlarning ishtirokchilari bo'ladi. Pedagogik jarayonda yuzaga kelgan vaziyatda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakatlari quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

1. Hamkorlik - tarbiyalovchi vaziyatning o'zaro harakati bo'lib, unga ko'ra sub'ektlardan biri ikkinchisining ruhiy-jismoniy holatini to'la xis etadi va voqelikka, masalaga nisbatan o'zining salbiy munosabatini o'zgartirgan holda, vaziyatning rivojlanishi va ijobiy tus olishiga sabab bo'lishi mumkin. Hamkorlik asosida sherigi bilan o'zaro harakat qilish, kayfiyati qanday bo'lishidan qat'iy nazar uning osoyishtaligi haqida qayg'urish yotadi.

2. O'zaro ziddiyatga borish (konfrontatsiya) - ikki qarama-qarshi taraflar tomonidan bir-birlarining ob'ektiv va sub'ektiv xarakterga ega pozitsiyalarini qabul qilmaslik sanalib, vaziyatni ijobiy hal qilishni qiyinlashtiradi. Tarbiyalovchi vaziyatlar uzoq muddatli pedagogik faoliyat strategiyasini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lib, ular tarbiyaviy masalalarning yechimini topishni taqozo etadi. Tarbiyalovchi vaziyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: ma'lum bir davr yoki o'quv yili mobaynida tarbiyaviy jarayonning maqsadini aniqlash; turli yoshdagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan o'quv muassasalarida tashkillashtirilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning metod va shakllarni aniqlash.

Pedagogik vaziyatlarning tahlili masalalarni yechishda

kelgusidagi faoliyat jaryonida turli variantlarni izlashga imkon beradi. Biroq, o'quv tarbiyalovchi vaziyatlar tahlilining murakkabligi shundaki, pedagogning faoliyati mazkur vaziyatni yechish uchun belgilangan vaqt omiliga bog'liq. Doimiy ravishda masalalarni yechish bilan band bo'lib qolgan o'qituvchi haddan tashqari charchashi mumkin. Bu esa o'z o'rnida tarbiyalovchi vaziyatning tahlilini qiyinlashtiradi.

Tarbiyalovchi vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish lozim: o'quvchining ta'lim olish va bilimlarin boyitishga nisbatan munosabati; talabaning bilim va ko'nikma darajasi; konkret pedagog, o'qituvchi bilan o'zaro munosabatlar; pedagog muloqoti uslubi; ma'lum bir sinf yoki guruhda o'zaro munosabatlar xarakteri; ota onalarning ma'lum bir fan va ta'lim olish jarayoniga nisbatan munosabati; pedagoglar o'rtasidagi muloqot, ta'lim berish uslubi; u yoki bu o'quv fanining kerak yoki kerak emasligi haqidagi jamoat fikrining ijtimoiy yo'nalishi.

Barcha omillar talaba xatti-xarakati, xulqi, muloqot xarakteri, ta'lim jarayonidagi munosabatiga katta ta'sir o'tkazadi

III. Tarbiyalovchi vaziyatlarning tashkil etilishi va namoyon bo'lishi. O'quv-tarbiyalovchi vaziyatlarni namoyon bo'lishi va tashkil etilishining shakllari turlicha bo'lishi mumkin. Ularning yuzaga kelish va rivojlanish jarayonida ko'p omillar o'quv jarayonining ob'ektiv holatlari hamda pedagogik faoliyat sub'ekti - o'qituvchiga bog'liq.

Rag'batlantiruvchi vaziyat; tanlov vaziyati; muvafaqqiyat vaziyati; ziddiyatli vaziyat; o'quv masalalarning yechimini topish vaziyatlari; tavakkal kilish vaziyatlari; tanqid va o'z o'zini tanqid kilish vaziyatlari; yordam va uzaro yordam kursatish; tahdid va jazolash vaziyati; o'z-o'zini baholash vaziyati; muloqot vaziyati; bo'ysindirish vaziyati; ishonish vaziyati; ayblash vaziyati; bir ish(muloqot)dan boshqasiga o'tish vaziyati; kurashish va raqobat vaziyati; dalda berish vaziyati; e'tiborsizlik qilish vaziyati; chegaralash vaziyati; o'yin vaziyatlari; javobgarlik va mas'uliyatni sezgan holda qaror

qabul qilish; faoliyatning yangi usullarini uzlashtirish vaziyatlari; ishonch bildirish vaziyatlari; talab qilish vaziyati; trening vaziyati; tartibsizlik vaziyati kabilar tarbiyalovchi vaziyatlarning ko'inishlari sanaladi.

Mazkur holatlarni o'quv-tarbiyaviy faoliyat jarayonida eng ko'p yuzaga keluvchi alohida o'quv-tarbiyalovchi vaziyatlar misolida ularning namoyon bo'lish shakllari, mohiyati va xususiyatlarini ko'rib chiqish mumkin.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vaziyatlar o'quv-tarbiyalovchi vaziyatlarning yana bir shakli bo'lmish muvaffaqiyatli vaziyatni rivojlanishi uchun zamin yaratadi. V.A.Suxomlinskiyning aytishiga ko'ra, "qiyinchiliklarni yengib o'tish, bilim olish xohishi uchun energiya hosil qiluvchi ichki kuchning yagona manbai" - o'qishdagi muvaffaqiyatdir.

Tarbiyaviy xarakterdagi muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish. Pedagogik jarayonda muvaffaqiyatlarni kafolatlaydigan vaziyatlar ham namoyon bo'ladi. O'qituvchilar imkon qadar ana shunday vaziyatlarning ko'proq yuzaga kelishini ta'minlashga e'tibor qaratishlari lozim. Bu boradagi harakatlar muvaffaqiyatli vaziyatlarni loyihalashtirish deb nomlanadi.

Muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish - *muvaffaqiyatli vaziyatlarni kafolatlovchi sharoitlar jamlanmasi yoki ana shu maqsadga yo'naltirilgan amaliy harakatlarni tashkil etish.*


Muvaffaqiyat mazkur vaziyatning natijasidir. Pedagogikada tarbiyaning universal vosita va metodlari mavjud emas. Bu tom ma'noda muvaffaqiyatli vaziyatga ham taaluqlidir. Bir ko'rishda, pedagog uchun o'quvchilarni muvaffaqiyatga erishishga undovchi bir-ikki vaziyatni o'zi yetarlidек. Biroq, vaziyatga nisbatan bunday munosabatda bo'lish ba'zan mutlaqo teskari natijaga olib kelishi mumkin: doimiy muvaffaqiyat o'quv faoliyatiga nisbatan turg'un, o'zgarmaydigan munosabatli vaziyatning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Qolaversa, muvaffaqiyatli natijani doimiy kutish qiyinchiliklarni yengib o'tishda layoqatsizlikning rivojlanishi,

murakkab o'quv va hayotiy vaziyatlarda harakat qilishdan voz kechishga sabab bo'ladi.

Muvaffaqiyatli vaziyatning ijobiy jihatlarini ham aytib o'tish lozim. Ya'ni, muvaffaqiyatga erishish insonning o'z kuchiga bo'lgan ishonchini ortiradi; yana bir bor muvaffaqiyat lazzatini totish uchun, talabalarda yangi marralarga erishish xoxish istagi paydo bo'ladi; muvaffaqiyatli faoliyat natijasi sifatida ichki osoyishtalik xissini yuzaga keltiruvchi ijobiy his-tuyg'ular, o'z o'rnida, insonning atrof-muhit, dunyoga nisbatan munosabatiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyaviy xarakterdagi muvaffaqiyatli vaziyatlar pedagogik faoliyatda o'qituvchi tomonidan shakllantiriladi. Har qanday faoliyat kabi tarbiyani oddiy izchil zanjir ko'rinishida tashkillashtirish mumkin: o'quvchilarni ijtimoiy topshiriqlarni bajarishga ematsional tayyorlash; ijtimoiy faoliyat tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; olingan natijalarni taxmin qilingan natijalar bilan taqqoslash (o'z o'quv mehnati natijasiga nisbatan idrokli munosabatda bo'lish).

Tarbiyalovchi vaziyatni loyihalashtirishda shuni esda tutish kerakki, har qanday o'quv masalasining yechimi tayyorgarlik ko'rish, bajarish va baholashni taqozo etadi. Muvaffaqiyatli vaziyatning rivojlanishi bir nechta bosqichda kechadi



1.Motivatsiya (faoliyatga o'zini tayyorlash) bosqichi.

O'qituvchi o'quvchilarda berilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga bo'lgan intilish, o'zini mazkur vaziyatning hokimi deb his qilish, qiyinchiliklarni yengib o'tish istaklarini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bir so'z bilan aytganda muvaffaqiyatga erishish sabablarini shakllantiradi.

Muvaffaqiyatga erishish sababi (motivi)ni shakllantirib, o'qituvchi ularning turli variantlarini taklif etishga haqlidir: barcha

ish va masalalarni mustaqil bajarishga intilish, tengdoshlari oldida uz maqomini ko'tarish, birinchi bo'lish, o'z faoliyatini boshqalarga foydali jihatlarini nuqtai nazaridan ko'ra bilish, boshqalar bilan faol muloqotga kirishish va h.k.

Oqibatda, motivatsion bosqichda o'qituvchi talabalardagi hissiyotlarni uyg'otish va faollashtirish uchun ma'lum bir vaziyatlarni tashkil qiladi. Shuni aytib o'tish kerakki, motivatsion soha bilan bog'liq muvaffaqiyatli vaziyat mazkur bosqichda psixologik jihatlar bilan aniqlanadi. Keyingi bosqichlarda yuzaga keluvchi vaziyatlardan ham asosiy farqi ana shunda.

2.Tashkillashtirish (yoki faoliyatni ta'minlash) bosqichi.

O'qituvchining vazifasi - o'quvchilarning individual qobiliyatlari, bajarilayotgan ish ularga quvonch va rohat olib kelishi holatlarini inobatga olgan holda topshiriqlar berishdir. Bosqichda ba'zi o'quvchilarda shunday davr boshlanadiki, unda faoliyatga nisbatan salbiy munosabat kuzatiladi, ularni bajarishga bo'lgan qiziqish yo'qoladi. O'quvchilarda ishni bajarish majburiyati susayadi, qolaversa, ijtimoiy topshiriqlarni bajarish uchun yetarli sharoit bo'lmaydi.

Psixologiya va pedagogikada muvaffaqiyatsiz vaziyatni shakllantiruvchi shart-sharoitlar sifatida quyidagi to'rt jihat e'tirof etiladi: qobiliyatning yetishmovchiligi; masalaning murakkabligi; muvaffaqiyatning yo'qligi; irodaning sustligi. O'qituvchi o'quvchining qobiliyatlariga mos ravishda vazifalarni tanlay olishi muhim.

Omad tashqi sharoitlarga bog'liq bo'lib, qobiliyat, omad va vazifaning murakkabligidan farqli iroda nazorat qilish faktori sifatida xizmat qiladi. Shu bois, iroda va chidam yoki o'z-o'zini tashkil etish faoliyat natijasini yaxshilashda yagona urinish omillaridir.

Muvaffaqiyatli vaziyatni yuzaga keltirish metodlari quyidagilardir:

1.Tashkiliy nazorat (ishning boshlanishi, tanaffuslar, ishning yakunlanishi);

2.Tarkibiy nazorat (ishning mohiyati bo'yicha maslahat tashkil etish).

3.Natija (samara)li bosqich yoki taxmin qilingan baholarni real baholar bilan taqqoslash.

O'qituvchi o'z oldiga oldingi faoliyat natijasini emosional stimulga, ya'ni, keyingi tarbiyaviy vazifani bajarish uchun motivga aylantirish vazifasi yotadi. Buning uchun o'qituvchi faoliyatning oldingi bosqichlarida qo'lga kiritilgan natijalarni idrok etishi va tahlil qilishi lozim.

O'quvchiga beriladigan individual topshiriqlar tizimini ularning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqish lozim. Hayotiy tajriba, ijtimoiy malakalarga ega bo'lib borgan sayin o'quvchining zimmasiga bir qadar murakkab, mas'uliyatli ijtimoiy vazifalar yuklatilishi zarur. Ularni bajarish chog'ida o'quvchi ma'lum qiyinchiliklarni yengishni o'rganadi.

Muvaffaqiyatni ta'minlovchi tarbiyalovchi vaziyatlar o'quvchida ijtimoiy faoliyatga bo'lgan ijobiy munosabatni tarbiyalash bilan birga, unda ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi. Bu esa global axborotlashuv, shaxslararo munosabatlar jarayoniing murakkablashuvi sharoitida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni kirishimli bo'lishga, atrofdagilar bilan hech bir qiyinchiliksiz, psixologik to'siqlarsiz muloqot qilishga o'rgatadi.

Shunday qilib, tarbiyaning mazmunida shaxsni har tomonlama tarbiyalash uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyat mohiyati namoyon bo'ladi. O'quvchilarning axloqiy tarbiyalanganlik darajasini tashxislash va natijalarni tahlil qilish bir qator afzalliklarni kafolatlaydi. Tashxislash orqali o'quvchining tarbiyalanganlik darajasi - unda ma'lum sifatning mavjudlik holati to'g'risidagi ma'lumot qo'lga kiritiladi. Qolaversa, tashxislash natijasida olingan natijalarga tayangan holda o'quvchida yangi ma'naviy-axloqiy sifatlarni

tarbiyalash, ana shu maqsadda individual ishlash dasturini ishlab chiqishga muvaffaq bo'linadi. Tarbiyalovchi vaziyatlar o'quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, tarbiyalovchi vaziyatlarga tahliliy yondashish pedagogik jarayonning yutuq va kamchiliklarini o'rganish imkonini beradi. Muvaffaqiyatli vaziyat o'quvchilarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tarbiya qilish, o'z-o'zini baholash va boshqarishda asosiy omillardan biri bo'lib qoladi.

Nazorat savollari:

1.O'quvchilarning axloqiy tarbiyalangan darajasini tashxislash qanday maqsadda amalga oshiriladi?

2.Tarbiyalovchi vaziyatlar deganda nimani tushunasiz?

3.Tarbiyalovchi vaziyatlarning qanday turlari mavjud?

4.O'quvchilarning tarbiyalangan darajasini tashxislashda tarbiyalovchi vaziyatlar qanday ahamiyatga ega?

5.Tarbiyaviy xarakterdagi muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish nima uchun zarur?

6.O'quvchilarning tarbiyalangan darajasini tashxislash usullari nima?

7.O'quvchilarning tarbiyalangan darajasini tashxislash qanday usullarni bilasiz?

Test topshiriqlari:

1.O'quvchida axloqiy fazilatlar, mehnat ko'nikmalari hamda hayotiy tajribaning shakllanganligi yoki rivojlanganligi ...ni anglatadi.

a) ma'lumotlilik;

b) tarbiyalanganlik;

c) yetuklik;

d) onglilik.

2.O'qituvchi, ota-onalar, kattalar yoki mutaxassislar tomonidan tashkil etilgan pedagogik faoliyat samaradorligining asosiy ko'rsatkichi - ... sanaladi.

a) tarbiyaning muayyan darajasi;

b) ta'limning muayyan darajasi;

- c) faoliyatning muayyan darajasi;
- d) muloqotning muayyan darajasi.

3.Shaxsda ma'lum sifatni hosil qilish uchun muddat, vaqt chegarasi ...

- a) belgilanadi;
- b) qisman belgilanadi;
- c) ba'zan belgilanadi;
- d) **belgilanmaydi.**

4.Tarbiyada ham ... boshlang'ich nazoratning natijalari bilan o'zaro taqqoslanadi.

- a) oraliq nazorat natijalari;
- b) joriy nazorat natijalari;
- c) **yakuniy nazorat natijalari;**
- d) muddatli nazorat natijalari.

5.O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro muloqot, hamkorlik asosida tarbiya jarayonining muayyan bosqichlarida turli qarorlar qabul qilinishini taqozo etadigan holat - bu ...

- a) o'quv vaziyati;
- b) **tarbiyalovchi vaziyat;**
- c) ijtimoiy vaziyat;
- d) ta'sir ko'rsatuvchi vaziyat.

13-O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda pedagogik diagnostika

Reja:

- 1.Kasb tanlash jarayonining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.
- 2.O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda pedagogik diagnostikaning maqsad va vazifalari

3.Kelajakda kasb tanlash jarayonini ilmiy asoslashning zarurligi

Tayanch tushunchalar: Kasbga yo'naltirish, pedagogik diagnostika, kasbiy qiziqish, kasbiy layoqat, shaxs rivojlanishi, mehnat ta'limi, psixologik tayyorgarlik, kasbiy yo'nalish, ijtimoiy moslashuv, o'quvchi shaxsi, individual yondashuv, kasbiy motivatsiya, mehnat

tarbiyasi, o'zini anglash, kasb tanlash, kasbiy maslahat, kasbiy orientatsiya, qobiliyat, iste'dod, diagnostik metodlar, so'rovnoma, test, kuzatuv, suhbat, pedagogik tahlil, kasbiy maqsad, mehnat faoliyati, ta'lim tizimi

I.Kasb tanlash jarayonining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni kelajak kasbiga yo'naltirish masalasi muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Kasb tanlash inson hayotidagi eng mas'uliyatli qarorlardan bo'lib, shaxsning kelgusidagi faoliyati, ijtimoiy mavqei va shaxsiy baxt-saodati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan kasbga yo'naltirish jarayonida pedagogik diagnostika alohida o'rin tutadi.

Pedagogik diagnostika — bu o'quvchining bilim, ko'nikma, malaka, shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari va psixofiziologik xususiyatlarini aniqlash jarayonidir.

U kasb tanlash jarayonida shaxsning individual imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Diagnostika orqali o'quvchi nafaqat o'zini, balki mehnat bozorining talablarini ham anglab yetadi. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim-tarbiya jarayonining eng muhim yo'nalishlaridan biri o'quvchilarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish hisoblanadi. Insonning kasbi uning jamiyatdagi mavqei, ijtimoiy faoliyati, moddiy ta'minoti va shaxsiy baxtiyorligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham kasb tanlash jarayoni tasodifga emas, balki ilmiy asoslangan, puxta o'ylangan pedagogik diagnostikaga tayangan holda olib borilishi lozim. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim-tarbiya jarayonining eng muhim yo'nalishlaridan biri o'quvchilarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish hisoblanadi. Insonning kasbi uning jamiyatdagi mavqeyi, ijtimoiy faoliyati, moddiy ta'minoti va shaxsiy baxtiyorligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham kasb tanlash jarayoni tasodifga emas, balki ilmiy asoslangan, puxta o'ylangan pedagogik diagnostikaga tayangan holda olib borilishi lozim.

Uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan eng muhim vazifa - bu umumiy fanlar hamda kasbiy bilim asoslarini puxta o'zlashtirgan,

har qanday vaziyatda faollik ko'rsata oladigan, mavjud raqobatga bardoshli hamda doimiy ravishda ijodiy izlanishda bo'la oluvchi, shuningdek, jahon ta'limi va ishlab chiqarish sohalar standartlariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash dan iborat. So'nggi chorak asr mobaynida O'zbekiston Respublikasida o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish, ularning muayyan kasb yoki hunar yo'nalishida qiziqish, intilish, tegishli yo'nalishlarda amaliy faoliyatni tashkil qilish ko'nikma, malakalarini tashxislash orqali boshlang'ich kasbiy sifatlarni rivojlantirish xalq ta'limi tizimining muhim tarkibiy elementiga aylandi. Bu borada bajarilgan ishlar o'zini tarixiy xronologiyasiga egadir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 may (203-sonli) Qaroriga binoan Xalq ta'limi vazirligi qoshida "O'quvchilarni kasb- hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi" tashkil etildi. Respublika Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan "O'quvchilarni kasbga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish to'g'risida" 64-sonli (2001 yil 23 aprel) buyruq asosida tashxis markazi faoliyatining istiqbolli yo'nalishlari belgilandi. O'tgan vaqt mobaynida mazkur markaz faoliyati mohiyatini yorituvchi "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish to'g'risida", "O'quvchilarni kasb- hunarga yo'naltirish xonasi to'g'risida" hamda "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik hududiy tashxis markazi to'g'risida"gi namunaviy Nizom, "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazining Ustavi", shuningdek, "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazining Ilmiy Kengashi to'g'risida"gi Nizom kabi me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 916-son (2017 yil 1 dekabr) Qaroriga muvofiq qabul qilingan "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi"ning Ustavida quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

-o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, psixologik-pedagogik tashxis qo'yish va tibbiy-defektologik xizmat ko'rsatish sohasida ilmiy asoslangan metodikalarni ishlab chiqish va xalq ta'limi muassasalarining o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish;

-kasb-hunarga yo'naltirish, psixologik-pedagogik tashxis qo'yish xizmati faoliyatini tashkiliy, ilmiy-metodik, axborot bilan ta'minlash;

-xalq ta'limi muassasalari o'quvchilarining qobiliyatlari, kasbiy moyilliklari, qiziqishlari va ko'nikmalarini inobatga olgan holda ta'lim olishni maktabning yuqori sinflarida, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida davom ettirishlarini tanlashlariga ko'maklashish va hisobini yuritish;

-bolalarning psixologik-pedagogik jihatdan rivojlanishiga tashxis qo'yish, ularning qobiliyat va moyilliklarini aniqlash, 1-sinf o'quvchilarining maktab ta'limiga moslashuvi jarayonini nazorat qilib borish, o'quvchilar bilan korreksion- rivojlantiruvchi ishlarni amalga oshirishda maktab psixologlari va o'qituvchilariga metodik yordam ko'rsatish;

-iqtidorli va iste'dodli bolalar va yoshlarni aniqlash bo'yicha ilg'or tajribani o'rganish, tizimlashtirish va xalq ta'limi tizimiga joriy etishni tashkil etish, iqtidorli bolalar ma'lumotlar bazasini yaratish, iqtidorli va iste'dodli, shuningdek, jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar bilan ishlash bo'yicha metodikalarni ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish, mazkur sohadagi ilg'or tajribani o'rganish va joriy etish.

Bolalarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash markazlari tashkil etish zarurligi ko'rsatildi. "Bolalarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash" Markazlarining asosiy vazifalari qatorida "xalq ta'limi tizimida kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik xizmat ko'rsatish, ilg'or tajribalarga asoslangan kasb-hunarga yo'naltirishning zamonaviy shakl va uslublarini joriy etish" muhim ekanligiga e'tibor qaratilgan.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularning muayyan kasb yoki hunar yo'nalishida kasbiy faoliyatni tashkil qilish layoqati,

qobiliyatiga egaliklarini tashxislash masalasini yoritishdan avval “kasb”, “hunar”, “ixtisos”, “ixtisoslik”, “faoliyat”, “kasbiy faoliyat”, kasbiy layoqat (qobiliyat”) kabi tayanch tushunchalarning mazmunidan xabardor bo’lish maqsadga muvofiq. Lug’aviy ma’nosiga ko’ra “**kasb**” tushunchasi lotin tilidan tarjima qilinganda, “rasmiy mashg’ulot”, “mutaxassislik” ma’nosini anglatadi.

Kasb - 1) maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma’lum bir sohada mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun lozim bo’lgan nazariy bilimlar, amaliy ko’nikma, malakalar majmuasini egallagan, jismoniy, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlari ta’minlangan mehnat faoliyati (mashg’uloti)ning turi³; 2) muayyan shaxsiy sifatlarga tayanilgan

holda tashkil etiluvchi mehnat faoliyati, mashg’ulotning ko’rinishidir⁴. **Hunar** - 1) muayyan ko’nikma, mahorat talab qilinadigan, tirikchilikning asosiy manbai hisoblanuvchi ish, mashg’ulot, kasb⁵; 2) asosan qo’l kuchi bilan harakatlantiriladigan ish qurollari yordamida, ya’ni, qo’l mehnatiga asoslanib mahsulotlarni tayyorlashga qaratilgan faoliyat.

Mutaxassislik - biror kasb doirasida ma’lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va tajribasi bilan erishilgan zarur bilim, ko’nikma va malakalar majmuasi⁶.

Yo’naldirish — shaxsning ish-harakati yoki faoliyatini aniq maqsad asosida muayyan tomonga burish, ma’lum yo’lga solish.

Kasbiy qiziqish - o’quvchilarning muayyan kasb yoki hunar asoslarini o’rganishga bo’lgan intilishi, havasi.

Kasbiy qobiliyat — o’quvchilarning u yoki bu kasb, hunar yo’nalishida amaliy faoliyatni tashkil eta olish layoqati.

Kasbga yo’naldirish - yoshlar, shu jumladan, o’quvchilarning shaxsiy layoqat, qiziqish va qobiliyatlari, shuningdek, ayni vaqtning o’zida jamiyatning turli kasb mutaxassislari va ularning malaka darajasiga bo’lgan talablarini inobatga olgan holda aniq maqsadga

*yo'naltirilgan faoliyat asosida tashkil etiluvchi ularni muayyan kasbga tayyorlash jarayoni*⁷.

O'quvchilarning kasbga yo'nalganligini tashxislash - tashxis metodlari yordamida o'quvchilarning u yoki bu kasb, hunar asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, qobiliyat darajasini aniqlash.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish - ularning qiziqish, qobiliyatini aniqlash orqali ongli ravishda kasb yoki hunar yo'nalishlarini tanlashiga ko'maklashish va harakatlarini tegishli yo'nalishga solish.

II. O'quvchilarni kasbga yo'nalganligini tashxislash: maqsadi, vazifalari. Pedagogik diagnostikaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan o'quvchilarni kasbga yo'nalganligini tashxislash ham aniq maqsad asosida tashkil etiladi.

O'quvchilarni kasbga yo'nalganligini tashxislashdan ko'zlangan maqsad - ularning qiziqish, qobiliyatini aniqlash orqali ongli ravishda kasb yoki hunar yo'nalishlarini tanlashiga ko'maklashish hamda ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yuzasidan o'quvchilar, uning ota-onalarga tavsiyalar psixologik-pedagogik tavsiya, maslahat berish.

Bu yo'nalishda tashxislashni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

o'quvchilarga turli kasblar, ixtisosliklar, mansab lavozimlari, tanlangan kasbni, ixtisoslikni egallash mumkin bo'lgan ta'lim muassasalari hamda kasbning insonga, uning jismoniy, psixologik va shaxsiy sifatlariga, salomatligiga qo'yadigan talablari haqida ma'lumotlar berish;

o'quvchilarning bilish (o'quv predmetlariga, fanga) va kasbiy (kasblarga, mutaxassisliklarga) qiziqishlarini, kasb tanlash motivlari va kasbiy rejalarini aniqlash hamda baholash;

o'quvchilarga ularning individual xususiyatlari va mehnat bozori talablarini, ta'lim olish hamda kelgusida ishga joylashish

imkoniyatlarini hisobga olgan holda kasb va ta'lim muassasasini tanlashga ko'maklashish;

o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini, kasblarga qiziqish, mehnatsevarlik, ishchanlik va mas'uliyatni shakllantirish hamda rivojlantirish. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirishga faratilgan faoliyatni tashkil qilishda o'quvchilarini quyidagi sohalar bilan yaqindan tanishtirish orqali ularda dastlabki kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiq sanaladi

Kasbiy faoliyat turlari

X	Turlari	X	Turlari
1.	Sanoat	13.	Aloqa
2.	Mashinasozlik	14.	Qurilish
3.	Samoliyotsozlik	15.	Uy-joy kommunal xo'jaligi
4.	Avtomobilsozlik	16.	Qishloq va o'rmon xo'jaligi
5.	Metallurgiya	17.	Sog'liqni saqlash
6.	Geologiya va foydali qazilmalarni qazib chiqarish	18.	Savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish sohalari
7.	Kimyo sanoati	19.	Madaniyat va san'at
8.	Engil sanoat	20.	Ijtimoiy-iqtisodiy soha
9.	Poligrafiya ishlab chiqarishi	21.	Ta'lim-tarbiya
10.	Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab	22.	Axborot-kommunikatsi on texnologiyalari
11.	Transport	23.	Filologiya
12.	Ijtimoiy faoliyat	24.	Hunarmandchilik

III.Kelajakda kasb tanlash jarayonini ilmiy asoslashning zarurligi. Pedagogik diagnostikaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish muammolarini tadqiq qilish ana shu maqsadga xizmat qiladigan tashxislovchi metodlarni asoslash imkonini bergan.

A. ***E.Golomshtok tomonidan asoslangan "Qiziqishlar xaritasi"***. Pedagogik manbalarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda A.E.Golomshtok tomonidan asoslangan "Qiziqishlar xaritasi" o'ziga xos metodik manba bo'la olishiga alohida urg'u berilgan. "Qiziqishlar xaritasi" o'quvchilarning turli kasb yoki hunar asoslarini o'rganish hamda bu borada amaliy faoliyatni tashkil etishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqish darajasini o'rganishga xizmat qiladi. Mazkur metodika mazmunida asosiy e'tibor o'n uch mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha o'quvchilarni kasb yoki hunar faoliyatini tashkil etishga yo'naltirish mumkinligiga qaratiladi.

YE.A.Klimov tomonidan asoslangan "Tabaqalashtirilgan tashxis so'rovnomasi"^{X107} o'quvchilarni nafaqat kasb yoki hunarga yo'naltirish vazifasini ijobiy hal etishga xizmat qilmaydi, balki ularning istiqbolda muayyan yo'naltishda kasbiy faoliyatni samarali tashkil eta olishi uchun amaliy ahamiyati yuqori yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur so'rovnoma o'quvchilarning qiziqish va moyilliklarini aniqlash borasida eng mashhur metodlardan biri sanaladi. Metodning mohiyati mavjud kasb va hunarlarni ularning mazmuni va yo'nalishiga ko'ra quyidagi 5 tipga muvofiq ravishda o'rganishni anglatadi:

inson - tabiat (mehnat manbai sifatida - o'simlik, hayvon va mikroorganizmlar e'tirof etiladi)

inson - texnika (mashina va mexanizmlar);

inson - inson (odamlar guruhi, jamoalar);

inson - belgilar tizimi (raqamlar, tillar, ramzlar, kodlar);

inson - badiiy timsol (tasviriyy san'at, badiiy asarlar va ularda ifoda etilgan obrazlar).

“Tabaqalashtirilgan tashxis so'rovnomasi” kasb yoki hunarlarning yuqorida qayd etilgan tasnifi doirasida o'quvchilarning qiziqish va layoqatlari xususida taxminiy dalillarga ega bo'lish uchun muhim ma'lumotlarni beradi. “Men afzal ko'raman” nomli tashxis so'rovnomasi. So'rovnomadan foydalanish asosida o'quvchilarning muayyan kasb yoki hunarlar asoslari bo'yicha ma'lumotlarni egallaganlaridan so'ng har qanday faoliyatni yo'lga qo'yishlari mumkinligi aniqlanadi. O'quvchilarning ma'lum kasb yoki hunar yo'nalishi bo'yicha o'z oldilariga qo'yilgan maqsad va intilishlarining qay darajada qat'iy ekanliklarini aniqlash maqsadida ularning e'tiboriga ikki imkoniyatdan birini tanlashni taqozo etuvchi variantlar havola etildi. O'quvchilarning mazkur savollarga bo'lgan munosabatlari ham uning hayotiy maqsadining aniqligi borasida ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi. Shunday qilib, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonining yaxlit tizimini yaratish, tizim asosida pedagogik faoliyatni olib borishda pedagogik diagnostika tamoyillariga tayanish ko'zlangan maqsadning ijobiy yechimini topishga yordam beradi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ular o'rtasida kasb-hunar asoslari borasidagi nazariy bilimlarni targ'ib etish, ularda ma'lum kasb yoki hunar yo'nalishida dastlabki ko'nikma va malakalarni hosil qilishga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Inson kapitali va undan samarali, oqilona foydalanishga bo'lgan ehtiyojning yuzaga kelishi ayni vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablari oldiga o'quvchilarni kasbga samarali yo'naltirish vazifasini qo'ymoqda. O'quvchilarning muayyan kasb yoki hunarga bo'lgan qiziqish va qobiliyatini tashxislash ularni kasbga yo'naltirish jarayonining samarali kechishiga yordam beradi. Tashxis xarakteriga ega metod va mualliflik metodiklari ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1.O'quvchilarni kasbga yo'naltirish qanday ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega?

2.Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish qanday huquqiy asosga ega?

3.O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ustuvor tamoyillari qaysilar?

4.O'quvchilarning kasbga yo'nalganligini tashxislash qanday maqsadda amalga oshiriladi?

5.O'quvchilarning kasbga yo'nalganligini tashxislashga qanday vazifalarni hal etish asosida erishiladi?

6.O'quvchilarning kasbga yo'nalganligini tashxislashda qanday metod va metodikalar qo'llaniladi?

Test

1. "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi"ning Ustavi ...da qabul qilingan.

- a) 2019 yil 1 dekabr;
- b) 2018 yil 1 dekabr;
- c) **2017 yil 1 dekabr;**
- d) 2016 yil 1 dekabr.

2. ... - muayyan shaxsiy sifatlarga tayanilgan holda tashkil etiluvchi mehnat faoliyati, mashg'ulotning ko'rinishidir.

- a) hunar;
- b) mutaxassislik;
- c) **kasb;**
- d) faoliyat.

3. Asosan qo'l kuchi bilan harakatlantiriladigan ish qurollari yordamida, ya'ni, qo'l mehnatiga asoslanib mahsulotlarni tayyorlashga qaratilgan faoliyat - bu ...

- a) **hunar;**
- b) mutaxassislik;
- c) kasb;

d) faoliyat.

4. ... - o'quvchilarning muayyan kasb yoki hunar asoslarini o'rganishga bo'lgan intilishi, havasi

a) kasbiy mayl;

b) kasbiy ehtiyoj;

c) kasbiy qobiliyat;

d) ***kasbiy qiziqish.***

5. O'quvchilarning u yoki bu kasb, hunar yo'nalishida amaliy faoliyatni tashkil eta olish layoqati - bu ...

a) kasbiy mayl;

b) kasbiy ehtiyoj;

c) ***kasbiy qobiliyat;***

d) kasbiy qiziqish.

6. Tashxis metodlari yordamida o'quvchilarning u yoki bu kasb, hunar asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, qobiliyat darajasini aniqlash - bu ...

a) o'quvchilarning kasbga yo'nalganligini korrektsiyalash;

b) ***o'quvchilarning kasbga yo'nalganligini tashxislash;***

c) o'quvchilarning kasbga yo'nalganligini tahlil qilish;

d) o'quvchilarning kasbga yo'nalganligini tekshirish.

14-mavzu: Sinf (guruh) jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxis etish

Reja:

1.Sinf (guruh) jamoasining "tarbiyaviy imkoniyatlari" tushunchasining mohiyati.

2.Sinf (guruh) jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxis etish metodikasi.

3.Sinf(guruh)jamoasida qo'llaniladigan metodlar.

Tayanch tushunchlar: Sinfjamoasi, tarbiya, tarbiyaviy imkoniyat, tashxis, pedagogik diagnostika, jamoaviy munosabat, jamoa ruhiy

iqlimi, sinf yetakchisi, o'quvchi faolligi, ijtimoiy-psixologik muhit, jamoa qadriyatlari, o'zaro hurmat, hamkorlik, shaxslararo munosabat, tarbiyaviy salohiyat, jamoaviy faoliyat, ijtimoiylashuv, o'quvchi shaxsi, jamoa faolligi, jamoaviy mas'uliyat, tarbiyaviy ta'sir, pedagogik tahlil, kuzatuv, so'rovnoma, test usuli, tarbiyaviy mezon

I.Sinf (guruh) jamoasining “tarbiyaviy imkoniyatlari” tushunchasining mohiyati. Zamonaviy talqinda “jamo” tushunchasi ikki xil ma'noda ishlatiladi: 1) bir necha kishilarning muayyan maqsad yo'lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o'quv yurti jamoasi, xo'jalik jamosi va hokazo); 2) yuqori darajada uyushtirilgan guruh. Sinf - yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan muayyan o'quvchilar guruhi.

Sinf - yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan muayyan o'quvchilar guruhi⁸.

Guruh — tarbiyalanuvchilarning yosh, psixologik xususiyatiga ko'ra shakllantirilgan yoki o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilarining akademik jamoasi.

Jamoa (lot. “kollektivus”) - yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh.

O'quvchilar jamoasi — ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida bir necha o'quvchilardan tashkil topgan guruh.

Tarbiyaviy imkoniyat - shaxs yoki jamoaning individga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish quvvati va qobiliyatlari.

O'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlari - sinf (guruh) jamoasining har bir o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish quvvati va qobiliyatlariga egaligi.

O'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash - sinf (guruh) jamoasining har bir o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish quvvati va qobiliyatlariga egaligini aniqlash va mavjud darajasini baholash.

Guruh — tarbiyalanuvchilarning yosh, psixologik xususiyatiga ko'ra shakllantirilgan yoki o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilarining akademik jamoasi.

Jamoa (lot. "kollektivus") - yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh. O'quvchilar jamoasi — ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida bir necha o'quvchilardan tashkil topgan guruh.

Tarbiyaviy imkoniyat - shaxs yoki jamoaning individga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish quvvati va qobiliyatlari. O'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlari - sinf (guruh) jamoasining har bir o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish quvvati va qobiliyatlariga egaligi.

II. Sinf (guruh) jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxis etish metodikasi. O'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash - sinf (guruh) jamoasining har bir o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish quvvati va qobiliyatlariga egaligini aniqlash va mavjud darajasini baholash. O'quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi. Shu sababli har qanday jamoa kabi o'quvchi shaxsiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta'minlaydi. O'quvchilar jamoasi o'ziga xoslik kasb etuvchi muhim belgilarga egadir. Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me'yorlari o'z ifodasini topadi.

Shu bois jamoa hayotining aniq (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g'oyaviy xususiyat kasb etishi uning yetakchi belgisi sanaladi. Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun ma'suliyat hissini uyg'ota borib, jamoa a'zolarini bir-biriga

yaqinlashtiradi, a'zolarida jamoaga mansublik hissini paydo bo'lishiga ko'maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo'lish ehtiyojini oshiradi. Jamoa a'zolari orasida o'zaro hissiy birlik (bir-birini yoqtirish hissi) yuzaga keladi. Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Jamoaning norasmiy tuzilmasi jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikroguruhni tashkil qiluvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi.

Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. O'quvchining jamoadagi o'rni uning shaxs sifatida shakllanishi va kamolotga erishishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Bola yoshligidan o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlarini tengdoshlari bilan birgalikda tashkil etish asosida ijtimoiy muhitga moslasha boradi. Ijtimoiy muhit bolaga borliqni anglash uchungina emas, balki o'zligini anglash uchun ham imkoniyat yaratadi. Bolaning jamoa orasida bo'lishi, jamoa ta'sirida shakllanishi unda ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi.

Abu Ali ibn Sino ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishdagi rolini yuqori baholaydi. Tashqi muhit va odamlar insonning borliq, unda kechayotgan o'zgarishlar, jarayonlar mohiyatini anglashgagina emas, balki uning xulqida yaxshi va yomon sifatlarning shakllanishiga ham sezilarli ta'sir etishi, shu bois bolalarni tarbiyalashda u mansub bo'lgan mikromuhit xususiyatini inobatga olishni ta'kidlaydi. Jamoa bir necha a'zo (kishi)lardan tashkil topgan muayyan guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon qiladi. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq

muddatli, murakkab jarayon bo'lib, u ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlariga ko'ra to'rt bosqichdan iborat bo'ladi. Jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Jamoaning mustahkam bo'lishi, a'zolari o'rtasida o'zaro yordam hamda hamkorlikning qaror topishida jamoa an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir jamoa o'z-o'zini boshqarish organiga ega va umumiy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog'lanadi. Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir.

Har bir jamoa o'z-o'zini boshqarish organiga ega va umumiy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog'lanadi. Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir.

O'quvchilar jamoasi o'ziga xoslik kasb etuvchi muhim belgilarga egadir.


Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me'yorlari o'z ifodasini topadi. Shu bois jamoa hayotining aniq (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g'oyaviy xususiyat kasb etishi uning yetakchi belgisi sanaladi.

Har bir jamoa boshqa jamoalar bilan uzviy aloqadorlikda mavjud bo'ladi. Muayyan jamoaning har bir a'zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o'z jaomasi bilan birgalikda ishtirok etadi.

Har bir jamoa o'z-o'zini boshqarish organiga ega va umumiy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog'lanadi. Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir.

Maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro ruhiy yaqinlik, ishchanlik, bir-biri uchun g'amxo'rlik, o'zaro yordam,

jamoa manfaati uchun qayg'urish, bu yo'lda amaliy harakatlarni tashkil etish, javobgarlik hissi qaror topadi. Jamoa quyidagi xususiyatlarga ega



Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun ma'suliyat hissini uyg'ota borib, jamoa a'zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, a'zolarida jamoaga mansublik hissini paydo bo'lishiga ko'maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo'lish ehtiyojini oshiradi. Jamoa a'zolari orasida o'zaro hissiy birlik (bir-birini yoqtirish hissi) yuzaga keladi.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. **Jamoaning rasmiy tuzilishi** deganda jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi.

Jamoaning norasmiy tuzilmasi jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikroguruhni tashkil qiluvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. O'quvchining jamoadagi o'rni uning shaxs sifatida shakllanishi va kamolotga erishishiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Yashash joylarida o'zaro birikkan bolalar guruhlari qanchalik ahil va inoq munosabat asosida tashkil topgan bo'lmasin haqiqiy jamoa bo'la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olishi, jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro hamkorlik va ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlarni qaror toptirishi lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga o'qituvchi rahbarligining yo'lga qo'yilishidir.

Jamoa va uni shakllantirish o'qituvchilik faoliyatining maqsadi hisoblanadi. Muhim tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan sub'ektlarning namuna ko'rsatishlari jamoani shakllantirishning muhim vositasi bo'lib, u yordamida jamoaning barcha yoki muayyan a'zosini tarbiyalash mumkin.

Jamoa tomonidan hal etilishi ko'zda tutilgan yetakchi tarbiyaviy vazifa shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni tarbiyalash hamda mustahkam hayotiy pozisiyani qaror toptirishdan iboratdir.

III.Sinf(guruh)jamoasida qo'llaniladigan metodlar. Ta'lim muassasasi tarkibida eng barqaror bo'g'in - bu muayyan guruhlar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Guruh jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyati sanaladi. Aynan guruh jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, guruhlar jamoalari negizida ta'lim muassasasining jamoasi shakllanadi. Muassasa jamoasi ikki muhim bo'g'in - o'qituvchilar jamoasi va o'quvchilar jamoasi asosida tarkib topadi.

O'quvchilar jamoalariga o'qituvchi va rasmiy saylangan (tayinlangan) o'quvchilar yo'l boshchilik qiladi. Ular sirasiga guruh rahbari, guruh faollari (guruh yetakchisi (starosta), "Kamolot" tashkilotining guruh bo'limi raisi, tozalik komissiyasi raisi, devoriy gazeta muharriri va b.).

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan **uzoq muddatli murakkab jarayondir.**

1-variant .Jamoa a'zolarining bir-birini tushunish olish hissiga egaligini aniqlash .

Natijalarni qayta ishlash. Ko'pchilik o'quvchilar tomonidan tasdiqlangan fikr sinf 1. Garchi bu so'ralmasa ham, sinfimizda bir-birimizga yordam beramiz.

2. Sinfimiz o'quvchilar faqat o'ziga do'st deb bilganlarga yordam beradi

3. Sinfimizda, qachonki, o'quvchining o'zi yordam so'rasa, shundagina yordam ko'rsatiladi.

4. Sinfimizda, qachonki, o'qituvchimiz buni so'rasa, bir-birimizga yordam beramiz.

5. Sinfimiz bir-biriga yordam berishga odatlanmagan.

6. Sinfimizda bir-biriga yordam berish inkor qilinadi.

jamoasining bir-biriga bo'lgan munosabatlari to'g'risida ma'lumot beradi. Bir vaqtning o'zida o'quvchi tomonidan bildirilgan fikr uning jamoadagi mavjud munosabatlar tizimida o'zini qanday his qilishidan dalolat beradi.

“Sinf jamoasining jozibasi (o'quvchini o'ziga torta olishi)ni aniqlash” anketasi

Maqsad: sinf jamoasining o'quvchini o'ziga torta olishini aniqlash.
Ko'rsatma: Anketa yordamida o'z sinfingiz jamoasining o'ziga torta olish layoqatiga egaligini baholang. Har bir bo'lim bo'yicha bitta javobingiz bo'lishi mumkin. 1.O'zingizning jamoaga mansubligingizni qanday baholaysiz?

1. O'zimni jamoa a'zosi, uning bir qismi deb bilaman_____5

2. Jamoaning ko'pgina faoliyatida ishtirok etaman _____4

3. Jamoaning birgina faoliyatida ishtirok etib, qolganida ishtirok etmayman _____3

4. O'zimni jamoaning a'zosi deb his qilmayman _____2

5. Sinfda boshqalardan ajralgan holda shug'ulanaman_____1

6. Bilmayman, javob berishim qiyin _____0

II. Bordi-yu, Sizga shunday imkoniyat berilsa, boshqa sinfga o'tgan bo'larmidingiz?

1. Albatta, o'qitishni xohlagan bo'lardim _____1

2. Bu sinfda qolgandan ko'ra o'tishni ma'qul ko'raman_____2

3. Har ikki sinf o'rtasida hech qanday farq yo'q_____3

4. O'zimning sinfimda qolish ehtimolim ko'proq_____4

5. Bilmayman, biror narsa deyishim qiyin_____5

III. Sinfingizdagi o'quvchilarning o'zaro munosabatlari qanday?

A. O'quv mashg'ulotlaridagi munosabatlari:

1. Boshqa sinflarga qaraganda yaxshiroq_____3

2. Taxminan boshqa sinflar bilan bir xil_____2

3. Boshqa sinfdagilarga qaraganda yomonroq_____1

4. Bilmayman_____0

B. Darsdan tashqari sharoitlarda:

1. Boshqa sinflarga qaraganda yaxshiroq_____3

2. Taxminan boshqa sinflar bilan bir xil_____2

3. Boshqa sinfdagilarga qaraganda yomonroq_____1

4. Bilmayman_____o'quvchini o'ziga torta olish layoqatiga egaligini baholang. Har bir bo'lim bo'yicha bitta javobingiz bo'lishi mumkin.

Natijalarni qayta ishlash. Javoblarga tegishli ballarning miqdori (ular ustun sifatida ko'rsatilgan) hisoblanadi. Barcha bo'limlar bo'yicha yakuniy ko'rsatkich 7 ball (juda qoniqarsiz baho)dan 25 ball (sinf jamoasining jozibadorligi juda yuqori ekanligini anglatuvchi baho)gacha bo'lishi mumkin.

Demak, jamoa bir necha a'zo (kishi)lardan tashkil topgan muayyan guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon qiladi. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, u ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlariga ko'ra to'rt bosqichdan iborat bo'ladi. Jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Jamoaning mustahkam bo'lishi, a'zolari o'rtasida o'zaro yordam hamda hamkorlikning qaror topishida jamoa an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.

I. "Guruhdagipsixologik muhitni baholash"

(L.G.Jedunova) so'rovnomasi

Maqsad: sinf jamoasidagi psixologik muhitni o'rganish.

So'rovnomani tashkil etish tartibi: tadqiqotda ishtirok etayotgan o'qituvchi va o'quvchilarga sinfjamoasidagi psixologik muhitni 9 balli tizimda baholash so'raladi.

Topshiriq: sinfdagi psixologik muhit holatidan kelib chiqqan holda qutb ("+" va "-" tomon)larda berilgan sifatlarni belgilang.

Ko'rsatma. Quyida sinfingizdagi muhitni tasvirlash uchun qarama-qarshi juft so'zlar mavjud. Har bir juftlikdagi o'ng yoki chap tomondagi so'z Sizga qanchalik yaqin bo'lsa, u holda "X" belgisini qo'ygan holda buni tasdiqlang (tegishli raqamning ustiga "X"ni chizing). Shu orqali sinfingizdagi muhit haqidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Demak, sinfingizdagi psixologik muhit quyidagi holatlar bilan tavsiflanadi:

1.	Do'stona munosabat										Dushmanlik
X	Holatlar	O'lchov ko'rsatkichlari									Holatlar
2.	O'zaro kelishuv										Kelishmovchilik

3.	Qoniqish									Qoniqmaslik
4.	Bir-biriga qiziqish									Befarqlik
5.	Natijaga intilish									Natijaga intilmaslik
6.	Munosabatlardagi iliqlik									“Hamkorlikdagi” sovuqqonlik
7.	Hamjihatlik									Hamjihatlikning yo‘qligi
8.	Bir-birini qo‘llab- quvvatlash									Bir-biriga yaxshilikni ravo ko‘rmaslik
9.	Jamoa hayotining zavqligi									Jamoa hayotining zerikarliligi
10.	Jamoa hayotining yutuqlarga boyligi									Jamoa hayotida omadsizliklarga boyligi

Javoblarni tahlil qilish: ballar qanchalik yuqori bo‘lsa, sinf jamoasidagi psixologik muhit shunchalik yuqori bo‘ladi yoki aksincha. Natijalarning tahlili sinf jamoasidagi psixologik muhit holatini, jamoa a‘zolarining bir-birlariga munosabatini sub’ektiv baholashga imkon beradi. Raqam ko‘rsatkichlari respondentlarning sinf jamoasida qaror topgan psixologik muhitni belgilovchi o‘rtacha qiymatni qabul qilish imkonini beradi.

Demak, jamoa bir necha a‘zo (kishi)lardan tashkil topgan muayyan guruh bo‘lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Jamoa o‘zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon qiladi. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo‘lib, u ko‘pchilik tadqiqotchilarning e‘tirof etishlariga ko‘ra to‘rt bosqichdan iborat bo‘ladi. Jamoani

shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Jamoaning mustahkam bo'lishi, a'zolari o'rtasida o'zaro yordam hamda hamkorlikning qaror topishida jamoa an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyati nimalarda namoyon bo'ladi?
2. O'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislashda qanday maqsad ko'zlanadi?
3. O'quvchi shaxsini tarbiyalashda sinf (guruh) jamoasi qanday o'rin tutadi?
4. Jamoa an'analari tarbiyaviy ta'sir vositasi sifatida qanday ahamiyatga ega?
5. O'quvchilar jamoasining qanday tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi?
6. O'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislashda qanday tashxislovchi metod va metodikalar qo'llaniladi?

Test

1. ... – yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan muayyan o'quvchilar guruhi.
a) jamoa;
b) guruh;
c) **sinf**;
d) uyushma.
2. Tarbiyalanuvchilarning yosh, psixologik xususiyatiga ko'ra shakllantirilgan yoki o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilarining akademik jamoasi – bu ...
a) jamoa;
b) **guruh**;
c) sinf;

d) uyushma.

3. Shaxs yoki jamoaning individga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish quvvati va

qobiliyatlari – bu ...

a) pedagogik imkoniyat;

b) **tarbiyaviy imkoniyat;**

c) ta'limiy imkoniyat;

d) texnologik imkoniyat.

4. O'quvchilar jamoasining har bir o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish

quvvati va qobiliyatlariga egaligi – bu

a) o'quvchilar jamoasining pedagogik imkoniyati;

b) o'quvchilar jamoasining ta'limiy imkoniyati;

c) **o'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyati;**

d) o'quvchilar jamoasining texnologik imkoniyati.

5. Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash – bu ...

a) muhim tarbiyaviy omil;

b) muhim tarbiyaviy g'oya;

c) muhim tarbiyaviy nazariya;

d) **muhim pedagogik tamoyil.**

15-mavzu. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxis qilish

Reja:

1. Oilaning shaxsni shakllantirishdagi o'rni.

2. Oilaning asosiy funksiyalari va tarbiyaviy imkoniyatlari.

3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash.

Tayanch tushunchalar: Oila, tarbiya, tarbiyaviy imkoniyat, tashxis, pedagogik diagnostika, oilaviy muhit, ota-ona, bolalar tarbiyasi, psixologik iqlim, ijtimoiy munosabat, oila qadriyatlari, tarbiyaviy vositalar, pedagogik hamkorlik, ijtimoiylashtirish, oilaviy

tarbiyaviy muhit, ota-onalik mas'uliyati, tarbiyaviy salohiyat, kommunikatsiya, o'zaro munosabat, psixologik qo'llab-quvvatlash, tarbiyaviy nazorat, oilaviy qadriyatlar, farzand tarbiyasi, ijtimoiy muhit, oilaviy muloqot, pedagogik yondashuv, shaxs rivojlanishi, tarbiyaviy diagnostika,

I.Oilaning shaxsni shakllantirishdagi o'rni. Oila har inson uchun muqaddas maskan sanaladi. Uning muqaddasligi bu maskanda shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo'lgan omil va sharoitlarning mavjudligi, shuningdek, oilaga xos bo'lgan psixologik iqlimni boshqa biror bir ijtimoiy muhitda topib bo'lmasligi bilan belgilanadi. Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. Bir-birlari bilan qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langanligi oila a'zolarining doimo o'zaro yordamga tayyor turishlari, sulola sha'ni, or-nomusi va obro'sini birgalikda himoya qilishlariga imkon beradi.


Oila — kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Oilaning yana bir ustuvor jihati – uning shaxsda ma'naviy-axloqiy, jismoniy, aqliy, estetik va mehnat sifatlarini tarbiyalash imkoniyatiga egaligi bilan bog'liq. Zero, “oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi”. Farzand tarbiyasini tashkil etishda oila qanchalik imkoniyatga ega bo'lmasin uning bu boradagi faoliyatida muvaffaqiyat ta'lim muassasalari tomonidan ko'rsatilayotgan amaliy-metodik yordam bilan ham bog'liqdir. Chunki, ta'lim muassasasi o'qitish va tarbiya ishlarini tashkil etish yuzasidan boy ilmiy-nazariy va metodik ta'minotga, shuningdek, mazkur jarayonni pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil

etilishiga mas'ul bo'lgan malakali mutaxassislar ega. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasida u yoki bu yo'nalishlarda pedagogik faoliyatni olib borishda o'zaro hamkorlikka erishilishi yosh avlodni har tomonlama komil shaxs bo'lib tarbiyalash uchun zarur bo'lgan sharoitni yaratadi. Ijtimoiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar sanaladi.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish va faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini kurish holati ro'y beradi.



II. Oilaning asosiy funksiyalari va tarbiyaviy imkoniyatlari. Oiladagi tarbiyaviy munosabatlar kelgusida o'rnatiladigan munosabatlarga mustahkam zamin yaratadi. "Oilada yuz beradigan turli holatlar orqali bola o'zida boshqalarga ishonish,

do'st orttirish va hurmat qilish kabi fazilatlarni shakllantiradi. Bunday birinchi saboqlar bolaning kelgusida munosabatlar o'rnatishiga poydevor yaratadi"Oilaning tarbiyaviy imkoniyati u tomonidan asosiy funksiyalaridan birining bajarilishida ko'zga tashlanadi.

Imkoniyat (lot. "potentia" – kuch) – har qanday muammoni hal qilish, aniq maqsadga erishish uchun qo'llash mumkin bo'lgan manba, vosita hamda resurslar; ma'lum bir shaxs, jamiyat, davlatning muayyan soahdagi vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga bo'lgan quvvati, kuchi, qobiliyati.

Oilaning tarbiyaviy imkoniyati – oilaning farzandlarni har jihatdan sog'lom qilib tarbiyalovchi omillar, sharoitlarga, oilaning sog'lom muhit, sog'lom turmush tarzi ega bo'lishi hamda farzandlarni oilaviy hayotga samarali tayyorlashdagi kuch-quvvati, qobiliyati.

Oilaning tarbiyaviy imkoniyati murakkab tuzilmaga, tuzilmaning o'zi esa muhim tarkibiy qismlarga egaligida aks etadi. Mavjud qismlar oilaning pedagogik, ijtimoiy-psixologik, madaniy va qadriyatli, ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va gigiyenik hamda demografik xarakterga ega imkoniyatini yoritadi. Ularning barchasi oilada farzandni har tomonlama sog'lom qilib voyaga yetkazish uchun zarur bo'lgan sharoitlar sanaladi. Farzandlarning jismoniy, ruhiy va ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lib kamol topishlarida oilaning iqtisodiy ta'minlanganligi, ota-onalar hamda oilada yashovchi keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligi, oila a'zolarining o'zaro va atrofdagilar (qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar, hamkasblar, tengdoshlar) bilan o'zaro samimiy munosabati, ota-onalarning o'z farzandlarining hayotiy intilishlari, xohish-istaklarini tushuna olishi, shuningdek, ularning muayyan qobiliyatga egaliklarini o'z vaqtida anglashi, oilada mehnat taqsimotining to'g'ri, oqilona tashkil etilganligi, ota-onalar va keksa avlod vakillarining farzandlarga teng huquqlilik asosida munosabatda bo'lishi, yoshligidan farzandlarni oilaviy hayotga har tomonlama tayyorlay olishi, ularda oila

xo'jaligini yuritish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratishi muhim ahamiyatga ega.

III. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash. O'z mohiyatiga ko'ra oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari tashxislash quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi.

***Oilaviy tarbiya mexanizmlari** –individual tarbiyaviy imkoniyatlari asosida oila tomonidan farzand tarbiyasini samarali tashkil etishda qo'llaydigan vosita va usullari¹⁰⁶. Ota-onalarning vakolatlari, oilaviy ta'lim uslublari, oilaviy an'analar, bo'sh vaqtni tashkil etish uslubi oilaviy tarbiyaning asosiy mexanizmlari hisoblanadi.*

***Oila an'analari (yoki oilaviy an'analar)** – oilaning tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, avloddan avlodga meros sifatida o'tish orqali oila a'zolarining ma'naviy shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-madaniy hodisa.*

Oilaning sog'lomligi – uning ijtimoiy ko'rsatkichi bo'lib, jamiyat, mahalladagi o'rni, mavqeini ham belgilab beradi. Sog'lom oilalarda, odatda, uning a'zolari bir-birlariga hurmat bilan munosabatda bo'ladi, har bir subyektning qiziqishlari, xohish-istaklaridan xabar bo'linadi, ijobiy mazmunga ega hayotiy intilishlari o'zaro qo'llab-quvvatlanadi. Qolaversa, farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan oila an'analari shakllanadi. Oilaviy qadriyatlar ota-onalar, farzandlar, keksa yoshli oila a'zolari o'rtasida hamjihatlik, ahillikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Shaxslararo munosabatlar ma'naviy-axloqiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi. Bunday oilada har qanday zo'ravonlik, kamsitish, huquqiy tengsizlik, kimgadir alohida imtiyoz berish kabi holatlar inkor qilinadi. Aksincha, oilaga taalluqli bo'lgan barcha masalalar imkon qadar ota-onalar, oilaning keksa yoshli a'zolari o'rtasida, ayrim holatlarda farzandlar ishtirokida o'zaro maslahat asosida hal qilinadi. Odatda, sog'lom oilaning a'zolari ijtimoiy jihatdan ham faol bo'ladi. Eng muhimi, sog'lom oilaning a'zolari ularning axloqan yetuk, jismonan, ruhan tetik bo'lishlariga yordam beradigan odatlarni o'zlashtiradi.

Boshqacha aytganda, sog'lom oilalarda ijtimoiy axloq talablariga rioya qilinadi. Ya'ni, oila a'zolari tomonidan spirtli ichimliklarni, giyohvand, tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, tartibsiz jinsiy hayot, ishratparastlik, bir- birlariga qo'pol muomalada bo'lish, jismoniy hamda ruhiy zo'ravonlik inkor qilinadi. Bu kabi ijtimoiy axloq talablariga bo'ysunmaslik, ularga zid ish ko'rish oilaning nosog'lomligidan dalolat beradi.

Nosog'lom oila – oila a'zolari axloqiy e'tiqod, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalariga ega bo'lmagan, aksincha, tartibsiz hayot kechiradigan, shaxslararo munosabatlarda axloqsizlik, qo'pollik, ruhiy bosim ustuvor bo'lgan, psixologik jihatdan bir-birini tushunmaydigan va o'zaro qo'llab-quvvatlamaydigan, moddiy jihatdan ta'minlanmagan oila.

“Oiladagi psixologik muhit holatini o'rganish”

Testi.

1. Bizning oila juda inoq.

a) ha;

v) ba'zan;

s) yo'q.

2. Dam olish kunlari nonushta, tushlik va kechki ovqatni birga tanovul

qilish odat tusiga kirgan.

a) ha;

v) ba'zan;

s) yo'q.

3. Oilada uning ba'zi a'zolarining xatti-harakatlari menda norozilik

uyg'otadi.

a) ha;

v) ba'zan;

s) yo'q.

4. O'z uyimizda men o'zimni juda yaxshi his qilaman.

- a) ha;
- v) ba'zan;
- s) yo'q.

5. Oilaviy hayotimizda shunday holat borki, u oila ahilligini buzib turadi.

- a) ha;
- v) ba'zan;
- s) yo'q.

6. Uy sharoitida men juda yaxshi dam olaman.

- a) ha;
- v) ba'zan;
- s) yo'q.

7. Oilada norozilik paydo bo'lsa, hamma bu norozilikni tezda tushanadi.

- a) ha;
- v) ba'zan;
- s) yo'q.

8. Oilamizda quvnoq, ko'tarinki kayfiyat hukmronlik qiladi.

- a) ha;
- v) ba'zan;
- s) yo'q.

9. Oilada og'ir, tushkun va tajang muhit yuzaga kelgan.

- a) ha;
- v) ba'zan;
- s) yo'q.

10. Oilamizda ba'zi bir a'zolarining yoki hammaning baland ovozda

gapirishlari menga yoqmaydi.

- a) ha;
- v) ba'zan;
- s) yo'q.

Farzandlarning jismoniy, ruhiy va ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lib kamol topishlarida oilaning iqtisodiy ta'minlanganligi, ota-onalar hamda oilada yashovchi keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligi, oila a'zolarining o'zaro va atrofdagilar (qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar, hamkasblar, tengdoshlar) bilan o'zaro samimiy munosabati, ota-onalarning o'z farzandlarining hayotiy intilishlari, xohish-istaklarini tushuna olishi, shuningdek, ularning muayyan qobiliyatga egaliklarini o'z vaqtida anglashi, oilada mehnat taqsimotining to'g'ri, oqilona tashkil etilganligi, ota-onalar va keksa avlod vakillarining farzandlarga teng huquqlilik asosida munosabatda bo'lishi, yoshligidan farzandlarni oilaviy hayotga har tomonlama tayyorlay olishi, ularda oila xo'jaligini yuritish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratishi muhim ahamiyatga ega.

O'z mohiyatiga ko'ra oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari tashxislash quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Asosiy yo'nalishlar

Ota-onalarning pedagogik madaniyatga egaligini tashxislash		Oilaning sog'lom psixologik muhitga egaligini tashxislash
Ota-onalar va farzandlarning sog'lom turmush tarzi ko'nikmalariga egaligini tashxislash		Farzandlarning oila qurishga ruhiy, ma'naviy-axloqiy jihatdan tayyorligini tashxislash

Farzandlarning oila xo'jaligini yuritishga tayyorligini tashxislash

Xulosa qilib aytganda, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarga egaligi shaxsning

ruhiy, jismoniy, axloqiy jihatdan kamolga etishida muhim o'rin tutadi. Shu

sababli pedagogik diagnostikada har oilaning tarbiyaviy imkoniyatga egaligini

o'rganish, uning darajasini tashxislashga e'tibor qaratiladi. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarga egaligini tashxislashda uning farzandlarni har jihatdan sog'lom qilib tarbiyalovchi omillar, sharoitlar, xususan, sog'lom muhit va sog'lom turmush tarzi ega bo'lish hamda farzandlarni oilaviy hayotga samarali tayyorlashdagi kuchquvvati, qobiliyati o'rganiladi. Bu yo'nalishda tashxislashni amalga oshirish oilaning farzandlar tarbiyasidagi o'rni va rolini kuchaytirish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish choralarini belgilashga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. "Oila" tushunchasini siz qanday ta'riflagan bo'lardingiz?
2. Oilaviy munosabatlar nima?
3. Tarbiya maskani sifatida oilaviy munosabatlarni qanday turlarga ajratish mumkin?
4. Oila tomonidan qanday funksiyalar bajariladi?
5. Oila an'analari nima?

Test

1. Kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi – bu ...
 - a) sulola;
 - b) nasl;
 - c) **oila**;
 - d) shajara.
2. ... – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.
 - a) iqtisodiy munosabatlar;

- b) ijtimoiy munosabatlar;
- c) mehnat munosabatlari;
- d) **oilaviy munosabatlar.**

3. Iqtisodiy, tarbiyaviy, reproduktiv, regulativ, rekreativ, kommunikativ,

relaksatsiya, feliosilogik. Ular oilaning ...

- a) munosabat yo'nalishlari;
- b) **asosiy funksiyalari;**
- c) faoliyat turlari;
- d) munosabatlar mazmuni.

4. Oilaning farzandlarni har jihatdan soglom qilib tarbiyalovchi omillar,

sharoitlarga, oilaning sog'lom muhit, sog'lom turmush tarzi ega bo'lishi – bu ..

- a) oilaning huquqiy maqomi;
- b) oilaning iqtisodiy salohiyati;
- c) oilaviy tarbiya mexanizmlari;
- d) **oilaning tarbiyaviy imkoniyati.**

5. ... – individual tarbiyaviy imkoniyatlari asosida oila tomonidan farzand

tarbiyasini samarali tashkil etishda qo'llaydigan vosita va usullari.

- a) oilaning huquqiy maqomi;
- b) oilaning iqtisodiy salohiyati;
- c) oilaviy tarbiya mexanizmlari;
- d) **oilaning tarbiyaviy imkoniyati.**

IV-BOB. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKADA KORREKSION FAOLIYATNING O'ZIGA XOSLIKLARI.

16-mavzu. Pedagogik diagnostika asosida uzluksiz ta'limda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.

Reja:

1. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda pedagogik diagnostika imkoniyatlaridan foydalanish.
2. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni tashxis etish metodikasi.
3. Uzluksiz ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlarning o'rni.

Tayanch tushunchlar: *Pedagogik diagnostika, uzluksiz ta'lim, tarbiyaviy ishlar, rejalashtirish, ta'lim jarayoni, shaxs rivojlanishi, tahlil, baholash, tarbiyaviy ehtiyoj, o'quvchi shaxsi, individual yondashuv, monitoring, natijadorlik, o'z-o'zini anglash, pedagogik tahlil, ijtimoiy faoliyat, tarbiyaviy maqsad, tarbiyaviy vazifa, tarbiyaviy metod, shakl va vositalar, o'quvchi faoliyati, motivatsiya, tarbiyaviy natija, uzviylik, hamkorlik, o'qituvchi faoliyati, diagnostik mezonlar,*

I. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda pedagogik diagnostika imkoniyatlaridan foydalanish. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlar tarbiyasi, ularning manaviy-axloqiy shakllanishi, mustahkam dunyoqarashini rivojlantirish ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Shu maqsadda tarbiyaviy ishlar samaradorligini ta'minlash uchun ilmiy asoslangan yondashuv – pedagogik diagnostika muhim ahamiyat kasb etadi. U o'quvchi-talabalarning tarbiyaviy rivojlanish darajasi, qiziqishlari, ehtiyojlari va muammolarini o'rganish orqali tarbiya jarayonini to'g'ri rejalashtirishga yordam beradi.

Pedagogik diagnostika tushunchasi ilk bor G'arb pedagogikasida keng qo'llanila boshlagan. “Diagnostika” so'zi yunoncha “diagnostikos” – “aniqlash, farqlash” degan ma'noni anglatadi. Ta'lim sohasida bu atama shaxsning bilim, ko'nikma va malakalari bilan bir

qatorda, uning tarbiyaviy darajasini ham baholash jarayonini ifodalaydi.

O'zbekistonlik olimlardan A. Avloniy, A. Qodiriy, K. Abdullayev hamda zamonaviy pedagog-psixologlarning asarlarida tarbiya jarayonida o'quvchilarni kuzatish, ularning qobiliyat va xulq-atvorini tahlil qilishning zarurligi qayd etilgan. Bu esa diagnostikaning qadimdan tarbiya amaliyotida qo'llanilganini ko'rsatadi.

II. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni tashxis etish metodikasi. Pedagogik diagnostikada ko'plab metodlar mavjud bo'lib, ular quyidagicha guruhlanadi:

Kuzatuv – tarbiyalanuvchining tabiiy sharoitdagi xatti-harakatlarini baholash.

So'rovnoma va anketa – qiziqish va ehtiyojlarni aniqlash.

Suhbat – shaxsning qarash va qadriyatlarini bilish.

Psixologik testlar – qobiliyat, xarakter va shaxsiy sifatlarni o'rganish.

Portfolio – shaxsiy yutuqlarni yig'ish va tahlil qilish.

Bu metodlar tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Yuqoridagilarni aniqlashda suhbat, anketa usullaridan foydalanish o'rinlidir. Shundagina har bir o'qituvchi-tarbiyachilarning betakror, bir-biriga o'xshamagan tarbiyaviy tadbir rejalari bunyodga keladi. Bunday rejalar tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lib, ko'zlangan maqsadga erishtira oladi.

Diagnostika natijalari asosida tarbiyaviy ishlarning maqsad, vazifa va yo'nalishlari belgilanadi. Tarbiyaviy ishlar yillik, oylik yoki tematik rejalar shaklida tuziladi. Rejada quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- tarbiyaviy maqsadning aniq va o'lchovli bo'lishi;
- o'quvchi ehtiyojlari va ijtimoiy talablar uyg'unligi;

-zamonaviy texnologiyalarni qo'llash (media, loyiha, trening va h.k.).

beradi.

III.Uzluksiz ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlarning o'rni.Uzluksiz ta'lim tizimi — bu bolalikdan tortib, kattalik davrigacha bo'lgan barcha yosh guruhlarini qamrab olgan, uzviy bog'langan ta'lim jarayonidir. Ushbu tizimda tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish uchun pedagogik diagnostika muhim vosita hisoblanadi. Pedagogik diagnostika yordamida o'quvchilarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasi aniqlanadi, bu esa tarbiyaviy ishlarni shaxsga mos ravishda rejalashtirish imkonini beradi. Pedagogik diagnostika — bu o'quvchilarning psixologik, intellektual, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishini o'rganish, tahlil qilish va baholash jarayonidir. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Uzluksiz ta'lim bosqichlarida tarbiyaviy yo'nalishlar:

1.Maktabgacha ta'limda: axloqiy, madaniy, estetik tarbiya asoslarini shakllantirish;

2.Umumiy o'rta ta'limda: ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, ekologik va mehnat tarbiyasini rivojlantirish;

3.O'rta maxsus va oliy ta'limda: kasbiy madaniyat, fuqarolik mas'uliyati va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash;

Tarbiya jarayonining mazmunini bolalarga beriladigan ma'naviy-axloqiy bilimlar tizimi, ishonch, e'tiqod, intizom, xulq-atvorning bir butun holati tashkil etadi. Mustaqil O'zbekistonning istiqbol va istiqboli uchun fidoyilik ko'rsatuvchi avlodni tarbiyalash mazmuni tamoman o'zgacha xarakter kasb etmoqda:

— fuqarolik demokratik jamiyatini barpo etish mohiyatini anglab oluvchi;

— vatanini har doim turli oqimlardan himoya etuvchi;

— diniy bag'rikenglik va mehr-muravvatli bo'lish;

— davlat siyosatini tushunish, unga fidoyi bo'lish;

— o'zligini anglash, ajdodlar merosini qadrlash;

- yuqoridagi komil insonga xos sifatlarni tarbiyalash;
- maqsadning aniqligi, uni to'g'ri yo'naltirish madaniyati;
- tarbiyachi-o'qituvchi va tarbiyalanuvchining hamkorlik faoliyati;
- o'zini anglash, mustaqil fikrlovchi, e'tiqodlilik.

Ta'lim muassasasi tarbiyachilarining tarbiyachilik faoliyati va uni amalga oshirish metodikasini „Uchinchi ming yillikning bolasi“ qo'llanmasidan foydalanishni tavsiya etamiz. Tarbiyaviy ishlarning mazmunida bir butun yondashishdan bosh maqsad — „Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari dasturi“dagi g'oyalarni bolalarning ongida o'ziga xos va mos ravishda singdiradi:

- xalqimizning boy an'ana, udum, urf-odatlar va ajdodlarimiz merosidan foydalanish.
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan adolat, haqiqat va erkinlikni, ishonch-e'tiqodni tarbiyalash.
- yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi mohiyatini izohlash.
- mehr-muruvvatlilik va bag'rikenglik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonida tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish o'ziga xos qoidalarga ega:

- a) sinf jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganish.
- b) o'quvchilarning oilavny hayoti, ota-onaning farzand tarbiyalashdagi burchi va vazifasini o'rganish.
- d) kundalik o'zgarishlarga o'quvchilarning munosabati.
- e) o'quvchilarning sharqona milliy urf-odat, an'analar haqidagi bilim darajasi.
- f) qomusiy ma'rifatparvar, mutafakkirlar hamda hozirgi zamon shoir, yozuvchilarning ijodiyotidan namuna bilishlari.

Nazorat savollari:

1. „Pedagogik diagnostika“ tushunchasiga qanday ta'rif beriladi?
2. Pedagogik diagnostikaning asosiy maqsadi nimalardan iborat?
3. Diagnostikaning axborot, baholash, tuzatish va prognozlash funksiyalari mohiyatini tushuntiring.
4. Uzluksiz ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlarning o'rni nimada?

5. Tarbiyaviy jarayonni rejalashtirishda pedagogik diagnostikaning roli qanday?

6. Uzluksiz ta'limning qaysi bosqichlarida tarbiyaviy ishlar amalga oshiriladi?

7. Diagnostika natijalariga asoslangan rejalashtirishning afzalliklari nimalarda ko'rinadi?

8. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda qanday mezonlar va tamoyillar e'tiborga olinadi?

9. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini qanday baholash mumkin?

10. Pedagogik diagnostika bilan monitoring o'rtasida qanday farq bor?

Test

1. Pedagogik diagnostikaning asosiy maqsadi nimadan iborat?

a) o'quvchilarni baholash uchun nazorat topshiriqlari tuzish

b) ***o'quvchi shaxsini, rivojlanish darajasini va ehtiyojlarini aniqlash***

c) tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish

d) o'quvchilarga intizom o'rgatish

2. Pedagogik diagnostikaning qaysi funksiyasi tarbiyaviy jarayonni tahlil qilish va natijalarni aniqlash bilan bog'liq?

a) ***axborot funksiyasi***

b) tuzatish funksiyasi

c) baholash funksiyasi

d) prognozlash funksiyasi

3. Uzluksiz ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlarning asosiy maqsadi nima?

a) o'quvchilarga mustaqil bilim olishni o'rgatish

b) ***komil insonni shakllantirish***

c) texnik ko'nikmalarni rivojlantirish

d) faqat fanlarga oid bilimlarni oshirish

4. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda diagnostika natijalaridan foydalanish qanday afzallikni beradi?

a) tadbirlarga ko'proq vaqt ajratish imkonini yaratadi

- b) rejalashtirishni tezlashtiradi
 - c) ***tarbiyaviy ishlarni maqsadli va individual yo'naltirish imkonini beradi***
 - d) o'quvchilar sonini kamaytiradi
5. Pedagogik diagnostika jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biri qaysi?
- a) eksperiment
 - b) ***kuzatish va so'rovnoma***
 - c) dars tahlili
 - d) yozma ish

17-mavzu: Korreksion faoliyatning mazmuni va mohiyati

Reja:

1. "Korreksion faoliyat" tushunchasi.
2. Korreksion faoliyatning maqsad va vazifalari.
3. Korreksion faoliyatni samarali tashkil etish shartlari.

Tayanch tushunchalar: *Korreksion faoliyat, pedagogik yordam, psixologik qo'llab-quvvatlash, shaxs rivojlanishi, individuallashtirish, insonparvarlik, tizimlilik, uzluksizlik, hamkorlik, adaptatsiya, ijtimoiy moslashuv, tuzatish jarayoni, diagnostika, kuzatuv, tahlil, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, o'quvchi shaxsi, tarbiyaviy ta'sir, o'zaro ishonch, psixopedagogik yondashuv, rivojlantiruvchi muhit.*

I. "Korreksion faoliyat" tushunchasi. Korreksiya-hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyatdir. Bir qator olimlar: R.S.Nemov, D.V.Olshanskiy, G.Broyer, G.Matteslar: "Pedagogik korrektsiya-tarbiya jarayonida yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi oldindan yo'l qo'yilgan nuqsonlarni bartaraf etish jarayonidir" l- deb hisoblaydilar.

N.V.Kuzmina bu jarayonni: «Korreksiyalash jarayoni-o'quvchilarning ongiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi va turli ijobiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi faoliyat turidir¹» -deb tavsiflaydi. Korreksiyalash ta'sirida o'quvchi-yoshlarning g'oyaviy, axloqiy,

irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi va shu bilan birgalikda tarbiya masalalan amalga oshiriladi.

II.Korreksion faoliyatning maqsad va vazifalari. Korreksiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyuShtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Demak, pedagogik diagnostika va korrektsiya jarayonida bulardan birortasi (tafakkuri, ongi, hissiyoti, irodasi, qarashlari) e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

«Muayyan bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi²» - deb yozadi Fleyk Xobson fikricha, muayyan hislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi va belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi. Bunday reja asosida olib borilgan tarbiya mohiyati ta'lim - tarbiya tizimini, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyatini tashkil qiladi.

Demak, pedagogik diagnostika va korreksiya jarayoni ham reja asosida, tizimli va maqsadli olib borilsa, komil insonni tarbiyalashdek asrlardan beri azaliy orzuni amalga oshirish istiqbollari kengayadi. Uzlaksiz ta'lim tizimida pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya ishlari metodik jihatdan to'g'ri yo'naltirilganda jamiyaming har bir a'zosi ongiga milliy istiqloq g'oyalarini singdirishda, mafkuraviy immunitet hosil qilishda, o'quvchilarning o'zligini anglashda, vatanparvarlikni, millatlararo totuvlikni, diniy bag'rikenglikni, tolerantlikni shakllantirishda hamda komil insonga xos bo'lgan fazilatlarini: sofdillik, to'g'riso'zlik,

adolatparvarlik, saxovatlilik, or-nomuslik, tantilik va boshqa sifatlarni tarkib toptirishda ijobiy samara beradi. Pedagogik tashxislash va yoshlarning xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash masalalari bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo'lib borishi mustaqil

O'zbekistonning har tomonlama rivojlanishidan, jamiyat a'zolarning ma'naviy-ma'rifiy hayotida paydo bo'lgan muammolarini hal etilayotganidan dalolatdir. Uyg'onish davridan boshlab XIX asrning o'rtalarigacha Yevropa defektologiya fani va amaliyotida bolaning aqliy rivojlanishidagi nuqsonlar muammosi borasidagi qarashlarning evolyusion xarakterini anglash mumkin. Ruhiy kasallarga nisbatan insonparvarlik yondashuvi ilk bor fransuz shifokori, psixiatri Filipp Pinel (1745-1826 yillar) tomonidan ilgari surilgan. U ruhiy kasalliklarni klassifikatsiyalagan (turlarga ajratgan). Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarga nisbatan pedagogik yondashuv XVIII asr oxirlari – XIX asr boshlarida yuzaga keladi. Aqli zaif bolalarni maxsus usullar yordamida o'qitish va tarbiyalash g'oyasini Iogan Genrix Pestalossi (1746-1827 yillar) asoslagan bo'lsada, biroq, o'z davrida bu fikr qo'llab-quvvatlanmadi.

I.G. Pestalossi —aqli zaiflar|| bilan ishlash tamoyilining mohiyatini asoslab berdi: bolaning imkoni yetgan bilimlarni berish, didaktik materiallardan foydalanishda aqliy va jismoniy tarbiya uyg'unligiga erishish, ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog'liq holda tashkil etish. Aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalashga nisbatan tibbiy-pedagogik yondashuv asoschisi fransuz psixiatri Jan Itar (1775-1838 yillar) hisoblanadi. U aqli zaifligi murakkab bo'lgan bolaga ta'lim va tarbiya berishga urindi. Garchi kutilgan natijaga erisha olmasada, bunday toifa bolalarni sezgi va motorika organlarini mashq qildirish yordamida rivojlantirish yo'lini ko'rsatib berdi.

Anatomik-fiziologik yondashuv rivojiga nemis psixiatri Emil Krepelin (1856-1926 yillar) katta hissa qo'shdi. U birinchi

bo'lib —psixik rivojlanishdan ortda qolish|| (PROQ (ZPR)) hamda —oligofreniya|| (yunoncha olygos – kam va phren-aql) tushunchalarini qo'lladi.Fransuz psixologi Alfred Bine va vrach-psixiatr Tomas Simon test sinovlari metodini asoslaydilar.

Shu bois ular intellektual zaiflikni o'rganishning psixometrik yo'nalishi asoschilari hisoblanadilar.Yuqorida qayd etilgan yondashuvlar asosida XX asr boshiga kelib quyidagi uch asosiy yondashuv qaror topdi:

1) Tibbiy-klinik yondashuv aqli zaiflarning etimologiyasini bilish, intellektining buzilishiga sabab bo'lgan omillar, shuningdek, anatomik- fiziologik va genetik buzilishni o'rganish g'oyasini ilgari sura

2) Psixologik yondashuv psixikasi buzilgan bolalarning psixik faoliyati, emosional holati hamda shaxsini o'rganishga yo'naltirilgan.

3) Pedagogik yondashuv intellekti buzilgan bolalarni o'qitish hamda tarbiyalashning pedagogik tamoyillari, metodlari, shuningdek, nuqsonlarni bartaraf etish yo'llarini o'rganish g'oyasiga tayanadi.

III.Korreksion faoliyatni samarali tashkil etish shartlari.Rossiya korreksion pedagogikasi tarixi Yevropa defektologik fani bilan uzviy bog'liq.Petr I, Yekaterina II lar anomal bolalar uchun davolash muassasalari, mehribonlik uylari va maxsus maktablarni barpo etish haqida farmon chiqarganlar.

Korreksion pedagogika quyidagi pedagogik kategoriyalarga ega:

1.Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta'lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqti alohida ahamiyatga ega.

Anomal bolaning rivojlanishi normal boladan ko'ra ko'proq darajada o'qitishga bog'liq. Shuning uchun anomal bolalar o'qitil masa yoki o'qitish kech boshlansa uning rivojlanishiga jiddiy zarar yetkaziladi, psixik funksiyalarning shakllanishi ortda qoladi, normal tengdoshlaridan ortda qolishi darajasi oshadi, nuqsonlar o'ta jiddiy bo'lsa aqliy rivojlanishi imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin.

Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Maxsus maktablarda uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayonda o'quvchilar ijtimoiy hayot, shuningdek, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funksiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlarining darajasini pasaytirishga yordam beradi.

2. Anomal bolalarni tarbiyalash - korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat.

Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o'ziga xizmat ko'rsatish, mehnat ko'nikmalari, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash atrofdagilarning uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o'rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy

baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim. Reabilitasiya nuqsonlarini yo'qotish va yumshatishga yo'naltirilgan maxsus tibbiy vositalar hamda maxsus ta'lim, tarbiya va kasbiy tayyorlash yordamida amalga oshiriladi. Reabilitasiya jarayonida kasallik oqibatida buzilgan funksiyalarning o'rni to'ldiriladi. Reabilitasiya vazifalari anomal bolalarning turli kategoriyalari uchun maxsus o'quv muassasalari tizimida hal etilib, unda o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik faoliyatni tashxislash qanday ahamiyatga ega?
2. Tashkiliy-metodik tashxislash nima?
3. Attestatsion tashxislashning muhim xususiyati nimadan iborat?
4. Pedagogik nazoratni tashkil etishda qanday funksiyalar bajariladi?
5. Pedagogik nazoratning axborot berish tamoyili qanday g'oyani ifodalaydi?
6. Pedagogik nazorat ustuvor tamoyillari qaysilar?
7. Pedagogik nazorat o'quvchi uchun qanday ahamiyatga ega?

18-mavzu: Korreksion faoliyatning asosiy tamoyillari va bosqichlari

Reja:

1. Korreksion faoliyatning umumpedagogik tamoyillari
2. Korreksion faoliyatning maxsus tamoyillari
3. Me'yordan xulqiy og'ish nuqsonlarini korreksiyalash bosqichlari

Tayanch tushunchalar: *Korreksiya, faoliyat, insonparvarlik, individuallashtirish, tizimlilik, uzluksizlik, faollik, mustaqillik, hamkorlik, ijtimoiy moslashuv, pedagogik yondashuv, tarbiyaviy ta'sir, o'quvchi shaxsini hurmat qilish, individual imkoniyat, korreksion yordam, rivojlantiruvchi muhit, tarbiyaviy*

hamkorlik, o'quvchi-o'qituvchi munosabati, pedagogik tizim, adaptatsiya

I. Korreksion faoliyatning umumpedagogik tamoyillari. Ta'lim-tarbiya jarayonida korreksion faoliyat — bu o'quvchi shaxsining rivojlanishida kuzatilgan kamchilik, nuqson yoki cheklanishlarni bartaraf etish, ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga qaratilgan tizimli pedagogik ishdur.

Korreksion faoliyatda asosiy maqsad — bolaning shaxsiy imkoniyatlarini to'liq ochish, uning ta'linga va jamiyat hayotiga faol qo'shilishini ta'minlashdir.

Bugungi kunda ta'lim tizimida har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy va ta'limiy jarayonni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda korreksion faoliyat o'quvchilarning aqliy, jismoniy, ruhiy yoki ijtimoiy rivojlanishidagi muammolarni bartaraf etish, ularni jamiyatga to'laqonli qo'shish va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Pedagogik diagnostika va korreksiyada o'quvchining salbiy nuqsonlarini bartaraf qilishda o'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish kutilgan natijani beradi. Korreksiyalashda o'quvchilar jamoasi tomonidan ko'rsatiladigan quyidagi tarbiyaviy ta'siri muhim ahamiyatga ega:

ishonch bildirish - bunda o'quvchi o'z bilim va ko'nikmalarini namoyish etgan holda jamoaning muhim ijtimoiy topshirig'ini bajaradi;

doimiy ravishda ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni tashkil qilishga odatlantirib borish - bu jarayonda o'quvchiga jamoa tomonidan beriladigan

topshiriqlar takrorlanadi, murakkablashtiriladi va o'quvchi tomonidan ularning umumiy ahamiyatini anglash rag'batlantiriladi;

o'quvchida jamoa bilan birlikning namoyon bo'lishini qo'llab-quvvatlash - bunda o'quvchining ijtimoiy ishlarni bajarishga

bo'lgan sa'y-harakatlari rag'batlantiriladi va ma'qullanadi, unga nisbatan sinfdoshlarning xayrixohligi kuchaytiriladi;

ishonchsizlik bildirish - bu jarayonda jamoa tomonidan o'quvchining xatti- harakati, xulqi salbiy baholangani sababli unga biron bir ijtimoiy topshiriqni berish borasida shubha bildirilib, shu orqali u o'zini o'zi tanqidiy tahlil qilishga undaladi;

vijdonan yondashmagan holda va sifatsiz bajarilgan ishni qabul qilishdan bosh tortish - bunda jamoa o'quvchidan ishni qayta bajarishni talab qiladi, o'quvchining ishni yaxshiroq bajarishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi;

o'quvchining xudbinona munosabati va qarashlari ijtimoiy axloq me'yorlariga mos kelmasligini qoralash - bu jarayonda o'quvchining xulqi bevosita tanqid qilinadi;

jamoaviy tanqid o'rniga o'quvchida o'z-o'zini tanqid malakalarini shakllantirish - bunda o'quvchi o'z harakatlariga ob'ektiv baho berishga, sinfdoshlar uning harakatidan noroziligi ekani sababini o'ylab ko'rishga undaladi,

o'quvchini jamoaviy ijtimoiy ahamiyatli faoliyatga jalb qilish - bu jarayonda o'quvchi jamoaviy ishlarga o'z munosabatini bildiradi, sinfdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat yurita olish qobiliyatiga egaligini ko'rsata olishi talab qilinadi.

Korreksiyalashda o'quvchining salbiy nuqsonlarini bartaraf qilish maqsadida u bilan individual ishlash foydali sanaladi. O'quvchi bilan individual ishlashda quyidagi usullar qo'llaniladi:

ijtimoiy topshiriqni bajarishga o'quvchining ichki imkoniyatini safarbar qilish - buning natijasida o'quvchining ichki imkoniyatlari yuzaga chiqadi, ijtimoiy-foydali ko'nikma, malakalar o'zlashtiriladi, unda ijtimoiy topshiriqlarni bajarishga nisbatan ehtiyoj yuzaga keladi;

hayotiy maqsadni aniqlashtirishga bo'lgan intilishni faollashtirish - bunda o'quvchi bilan birgalikda kundalik faoliyat tartibi (boshlangan ishni oxiriga yetkazish, bir vaqtning o'zida ko'p

vazifalarni bajarmaslik, har qanday ishni sifatli bajarish, uning samaradorligini baholash, yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qilish);


o'rin almashtirish - o'quvchi faoliyatidagi doimiy muvaffaqiyatsizlik negizida yutuqlarga erishishni ta'minlash;

o'quvchining qadr-qimmatini rag'batlantirish, o'zini o'zi hurmat qilishini yoqlash - unga imkoniyatlariga mos keladigan faoliyat turini taklif qilish, muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan ishonchini qo'llab-quvvatlash, qiyin vaziyatlarga ko'mak berish;

talabchan ohangda ishonch bildirish - bunda o'quvchiga ijtimoiy topshiriqni bajarish muhimligini tushuntirish bilan birga uning yondashuvi qo'llab-quvvatlanadi, bu faoliyatda o'quvchining u tomonidan nimaningdir o'zlashtirib olishga bo'lgan umidi mustahkamlanadi;

o'quvchini ijtimoiy faoliyatga jalb qilganda izchillikka erishish - bunda uning faoliyati rag'batlantiriladi - e'tirof qilinadi - qo'llab-quvvatlanadi, e'tirof qilinadi - topshiriqni bajarish, ijtimoiy-foydali ish jarayonida ixtiyoriy qatnashishi yuzasidan qaror qabul qilishiga imkon beriladi.

II.Korreksion faoliyatning maxsus tamoyillari.Pedagogik diagnostika va korreksiyada o'quvchining salbiy nuqsonlarini bartaraf qilish muayyan tamoyillarga muvofiq tashkil qilinadi. Ular :



1.Maqsadga muvofiqlik tamoyili. Ijtimoiy faoliyatda maqsad qonun maqomiga ega bo'lib, shaxs harakatlarining xarakteri va uslubini belgilaydi. Korreksiyalashda shaxsni tarbiyalash va

rivojlantirishning umumiy maqsadlari inobatga olingan holda o'quvchining ijtimoiy me'yordan og'ish holati kuzatilgan xulqni tuzatish asosiy maqsad sifatida belgilanadi.

1. *Korreksion jarayonining tizimligi va yaxlitligi tamoyili.*

Agarda pedagogik jarayon yaxlit tizim sifatida qaralsa, korreksiyalash o'zaro bog'liq tarbiyaviy xarakterdagi elementlardan biri hisoblanadi. Yaxlitlik korreksion faoliyatni tashkil etishda ichki va tashqi omillarni, o'quvchining ichki imkoniyati, mavjud pedagogik shart-sharoitlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqligini ifodalaydi.

2. *Korreksion jarayonni insoniylashtirish tamoyili.* Ushbu ***tamoyil*** jamiyat va shaxs maqsadlarining uyg'unlashtirish zarurligini, ta'lim jarayonining bolaning shaxsiy imkoniyatlari, uning qiziqishlari va ehtiyojlariga yo'nalishini belgilaydi. Korreksion jarayonning markazida o'quvchi shaxsi turishi, shu sababli rivojlantiruvchi dasturlarning o'quvchining ichki imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishga xizmat qilishiga erishish asosiy vazifa ekanini anglatadi.

3. *Korreksion jarayonda insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligi tamoyili.* O'quvchi shaxsini hurmat qilish, unga oqilona, talabchanlik asosida yondashishni ifodalaydi. Oqilona ifodalangan talab o'quvchining shaxsiy fazilatlarini ijobiy rivojlantirish imkonini beradi. Binobarin, o'quvchining ehtiyojlari avvaldan belgilangan pedagogik jarayonning ob'ektiv maqsadiga muvofiq kelishi tarbiyaning muhim sharti sanaladi. O'quvchi nafaqat ijtimoiy talabni anglashi, balki uni sifatli, kutilganidek puxta bajara olishi ishonishi zarur.

O'quvchining xulqiga nisbatan pedagogik talabni qo'yishda uning qadr- qimmat, g'ururiga dalh qilinmasligi, haq-huquqi poymol bo'lmasligi muhim.

4. *O'quvchining ichki imkoniyatiga tayanish tamoyili.*

O'qituvchi va ota- onalar o'quvchiga nisbatan insonparvarlik ruhida, hurmat bilan munosabatda bo'lishi, uning fe'l-atvori, xulqidagi


salbiy xususiyatlarini o'z vaqtida anglay olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Korreksion jarayonda eng to'g'ri yo'l - o'quvchining salbiy odatlarini uning ijobiy fazilatlariga tayangan holda nuqsonlarni bartaraf qilib borish hisoblanadi.

Korreksiyalash jarayonida muvaffaqiyatga erishgan o'quvchida o'ziga, o'z kuchiga bo'lgan ishonch shakllanadi. U quvonch hissini tuyadi, o'zini o'zi hurmat qila boshlaydi. O'quvchi ichki qoniqishni his qiladi, muvaffaqiyatga ishonchi ortadi. Natija uning oldiga qo'yiladigan ijtimoiy vazifalarni sidqidildan bajaradi.

5. ***O'quvchining ijtimoiy faolligi tamoyili.*** Pedagogik tuzatish jarayonining muhim bo'g'ini o'quvchining ijtimoiy faolligini oshirishdir. Bordi-yu, o'quvchi ijtimoiy jihatdan faollashsa, xulqidagi nuqsonlarni bartaraf qilish zarurligini o'zi anglab yetadi. Ana shu maqsadda tashkil etilayotgan jarayonni tezlashishini istaydi. Korreksiyalash natijasida ijtimoiy faoliyatda, sub'ektlar, xususan, sinfdoshlari bilan munosabatning yaxshilanishiga umid qiladi. Natijada o'quvchi ob'ektdan pedagogik faoliyat sub'ektiga aylanadi. Bu jarayon uzoq va murakkabdir. Shunga qaramay, o'qituvchi korreksion faoliyatda ijobiy natijaga erishishni umid qilishi lozim.

6. ***Korreksion faoliyat yo'nalishlarining o'zaro uyg'unligi.*** Mazkur tamoyil ijtimoiy ahamiyatli omillarni yagona nuqtada birlashtirish, barcha imkoniyatlarni o'quvchi xulqidagi nuqsonlarni bartaraf qilishga safarbar etish orqali pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. Zero, korreksiyalash vaqtida o'qituvchi o'quvchilar jamoasi hamda ota-onalarning tarbiyaviy ta'sirini, jamoatchilik fikrini o'zaro uyg'unlashtiradi. Buning natijasida ulkan pedagogik ta'sir maydoni yaratiladiki, bu maydonda o'quvchining xulqidagi nuqsonlarni samarali bartaraf etish mumkin bo'ladi.

III.Me'yordan xulqiy og'ish nuqsonlarini korreksiyalash bosqichlari.Me'yordan xulqiy og'ish nuqsonlari mavjud o'quvchilar bilan ishlash muayyan bosqichlarda amalga oshiriladi. Ular :



Me'yordan xulqiy og'ish nuqsonlarini korrektsiyalash bosqichlari

Shunday qilib, global axborotlashuv, marginallik ("marginalis" - chekkada turadigan; turli madaniyatlar qorishmasi)ning keskin rivojlanayotganligi, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotga nisbatan qat'iy ijtimoiy-axloqiy talablarning belgilanmaganligi, "ommaviy madaniyat" ta'sir ko'lamining kengayishi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari orasida me'yordan xulqiy og'ish ko'rinishlarining faol kuzatilishiga sabab bo'lmoqda. Me'yordan xulqiy og'ishning asosiy turlari (jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va pedagogik)ning xususiyatlarini o'rganish, ularni tashxislash hamda korrektsiyalash "Pedagogik diagnostika va korreksiya" fanining tadqiqot predmeti sanaladi. Korrektsiyalash jarayonida ustuvor tamoyillarning aniqlanishi, pedagogik shartlarning inobatga olinishi kutilgan natijani qo'lga kiritish imkonini beradi.

Nazorat savollari

1. Korreksion mashg'ulotlar uchun insonparvarlik tamoyiliga asoslangan amaliy usulni tavsiflab bering.
2. O'quvchilarni ijtimoiy moslashtirishga qaratilgan mashg'ulot namunasi tuzing.
3. Har bir tamoyilga mos pedagogik vaziyatni ishlab chiqing.
4. O'quvchi bilan ishlashda differensial yondashuv asosida individual reja namunasi tuzing.

5. Hamkorlik tamoyiliga asoslangan korreksion dars uchun “o‘qituvchi–ota-ona–psixolog” ishtirokidagi reja loyihasini yarating.
6. Korreksion faoliyat samaradorligini baholash uchun 3 mezon taklif qiling.
7. Korreksion faoliyatda motivatsion muhit yaratish uchun qanday shartlar zarur?
8. Tizimlilik tamoyiliga asoslangan monitoring jadvalini ishlab chiqing.

Test

1. Korreksion maqsadga muvofiqlik tamoyilining amaliy ifodasi qaysi holatda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) **shaxs harakatlarining xarakteri va uslubini belgilash**
- b) bola yutug‘ini e‘tirof etish, qiyinchilikni sabr bilan tushuntirish
- c) faoliyatni faqat baholashga yo‘naltirish
- d) kamchiliklarni yashirish

2. Yaxlitlik tamoyilida nimaga e‘tibor qaratish kerak.

- a) barcha o‘quvchilarga bir xil topshiriq beradi
- a) o‘quvchilarning qobiliyat darajasiga qarab turli usullarni qo‘llaydi
- c) o‘quvchilarni raqobatga undaydi
- d) **ichki va tashqi omillarga**

3. Korreksion faoliyatda tizimlilik va izchillik tamoyili buzilsa, natijada:

- a) bola o‘qishga yanada qiziqadi
- b) **rivojlanish natijalari beqaror bo‘ladi**
- c) ijobiy o‘zgarish tezlashadi
- d) bola mustaqillikka o‘tadi

4. Quyidagi holatlardan qaysi biri faollik va ongli ishtirok tamoyiliga zid?

- a) o‘quvchining o‘z faoliyatini anglab bajarishi
- b) o‘quvchiga mustaqil qaror qabul qilish imkonini berish
- c) **o‘quvchini passiv tinglovchi sifatida saqlab qolish**
- d) faoliyatni qiziqarli o‘yinlar bilan boyitish

5. Korreksion faoliyatda ijtimoiy moslashuv tamoyilining maqsadi:

- a) ***bolani mustaqil hayotga, muloqot va jamoaga tayyorlash***
- b) o'qishdagi natijalarni yaxshilash
- c) kamchiliklarni yashirish
- d) individual mashg'ulotlar tashkil etish

19-mavzu. Korrektsion faoliyatni tashkil etish bosqichlari.

Reja:

- 1.Korreksion faoliyatning mazmuni va strukturasi.
- 2.Korreksiyalash va korrektsiyalashning ustuvor tamoyillari.
- 3.Korreksion faoliyatning tashkil etish bosqichlari.

Tayanch tushunchalar: *Korreksion faoliyat, individual yondashuv, struktura, korreksion dastur, didaktik o'yinlar, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv, refleksiya, natijadorlik ko'rsatkichlari, ijtimoiy moslashuv, oraliq va yakuniy baholash.*

I.Korreksion faoliyat mazmuni. To'liq holda korreksion faoliyatning mohiyati "Korreksion pedagogika" ("Maxsus pedagogika") fani negizida ochib berilgan. "Korreksion pedagogika" ("Maxsus pedagogika") pedagogik turkum fanlar orasida alohida o'rin tutadi.

"Korreksion pedagogika" ("Maxsus pedagogika") – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, imkoniyatlari cheklangan bolalarni rivojlantirish jarayonini boshqarishni o'rganuvchi fan. Inklyuziv ta'lim (ing. "inclusion" - o'z ichiga olish, kiritish, uyg'unlashtirish) davlat siyosati bo'lib, nogironligi yoki boshqa sabablar tufayli (tarbiyasi og'ir, yetim bolalar, turli hil kasalliklarga chalingan ijtimoiy himoyaga muhtoj mayda millat bolalari) maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan birga umumta'lim muassasalarida o'qitish va tarbiyalashni ko'zda tutadi. Respublika OTMda

Pedagogik turkum fanlar doirasida “Korreksion pedagogika” mustaqil fan sifatida o‘qitilgani sababli ayni o‘rinda ushbu fan asoslari xususida batafsil to‘xtalmay, asosiy e‘tiborni umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida kuzatiladigan korreksion hodisalar va ularning pedagogik tuzatish yuzasidan so‘z yuritiladi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida pedagogik jarayonida o‘quvchining o‘qishi va xulqi ‘liq salbiy holatlarni bartaraf qilishda o‘qituvchi, maktab psixologi, tibbiyot xodimi tomonidan korreksion faoliyat tashkil etiladi. Korreksion faoliyatning asosini korreksiyalash tashkil qiladi.

Korreksiya (yun. “correctio ” - tuzatish; pedagogikada - pedagogik tuzatish) — pedagogik uslub, tibbiy choralardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik, jismoniy rivojlanish kamchiliklarining qisman yoki to‘liq tuzatilishi.

Korreksiyalash (pedagogik tuzatish) — o‘quvchi shaxsida kuzatilayotgan og‘ishlarni tashxislash asosida ularni bartaraf qilishga qaratilgan maxsus hamda umumiy pedagogik chora tadbirlar tizimi; sabablarini tashxislash asosida o‘quvchi shaxsida kuzatilayotgan og‘ishlarni bartaraf etishga qaratilgan harakat; maxsus hamda umumiy pedagogik chora-tadbirlarning ko‘rilishi. Korreksion faoliyat — pedagogik uslub, tibbiy choralardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini qisman yoki to‘liq tuzatishga qaratilgan pedagogik faoliyat. O‘z mohiyatiga ko‘ra korreksiyalash mustaqil pedagogik hodisa hamda maxsus harakatlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, korreksiyalash muayyan pedagogik hodisaga yondashuv nuqtai nazardan to‘liq yoki qisman amalga oshirilishi ham mumkin. Aksariyat holatlarda korreksiyalash yaxlit pedagogik hodisaganisbatan amalga oshiriladi va bunda ko‘p omillilik inobatga olinadi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida pedagogik tuzatishlar korreksion- rivojlantiruvchi ta‘lim negizida amalga oshiriladi. Bunda quyidagilarga e‘tibor qaratiladi: tashxislash natijalarini tahlil qilish

va baholash asosida ularda kuzatilayotgan o'quv va xulqiy nuqsonlarni bartaraf qilish orqali o'quvchi shaxsini rivojlantirish maqsadi, vazifalarini aniq belgilash; rivojlanish (o'qish, murakkab bo'lmagan matematik amallarni bajarish, nutq, fikrlash qobiliyati, fikrlarni mantiqiy bog'lay olish, fikrni og'zaki va yozma tarzda bayon qilish)da muammolari bo'lgan o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi uchun "Individual rivojlanish dasturi"ni ishlab chiqish: o'quvchi yoki o'quvchilar guruhini korreksion rivojlantirish metodikasini puxta asoslash, samarali shakl, metod, vosita, texnologiyalarini tanlash; ta'lim mazmunini, o'quv materiallarini o'quvchining mavjud rivojlanish darajasini to'ldiradigan, u tomonidan qabul qilinadigan bir muncha murakkab o'quv axborotlari bilan to'ldirish; shartli tabaqalashtirgan o'quvchilar guruhlarining bilim darajasiga mos holda o'quv materiallarini taqdim qilish; o'quvchi yoki o'quvchilar guruhining "yaqin rivojlanish hududi"ni belgilagan holda imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish choralarini belgilash hisoblanadi. K Zamonaviy ta'lim tizimida bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olish, ularning shaxsiy rivojlanishida yuzaga keladigan cheklovlarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, korreksion faoliyat maxsus pedagogikaning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida, nogironligi yoki rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayonining markaziy bo'g'inini tashkil etadi.

Korreksion faoliyatning asosiy maqsadi — bolaning psixik, nutqiy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish, yumshatish yoki ularni kompensatsiya qilishdir. Bu jarayon pedagogik, psixologik, tibbiy va ijtimoiy ta'sirlarning kompleks uyg'unligini talab etadi. Korreksion faoliyat, birinchi navbatda, o'quvchi shaxsida u yoki bu fazilatga nisbatan e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. E'tiqod - bu muayyan xarakterning zarurligi va to'g'riligini tushuntirish va isbotlash bo'lib, shaxs ma'naviy bilimlarining haqiqiyliги va adolatli ekanligiga qat'iy ishonch, axloqiy faoliyatiga va xarakteriga nisbatan shakllangan ichki

xohishdir. E'tiqod ishontirish zaminida shakllanadi. Masalan, yoshlarda moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligining muhimligiga nisbatan e'tiqodni shakllantirish uchun eng avvalo bu uyg'unlik ularning barkamol bo'lishlarida qay darajada zarur ekanligini anglab yetishlari kerak bo'ladi. Ishontirish jarayonida pedagog o'quvchi shaxsining ongi, his-tuyg'ulari va irodasiga ta'sir o'tkazadi. Ishontirishning asosiy vazifasi - ijtimoiy va axloqiy me'yorlarning mazmunini shaxs ongiga yetkazish va kelgusi faoliyat mazmunini aniqlashdan iborat. Ishontirish metodi orqali, korrektsiya maqsadiga erishish uchun shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, xulqi, qiziqishlari, qadriyatlari, shaxsiy tajribasi kabi omillarni hisobga olish zarur. Ishontirish pedagogika sohasidagi hikoya, suhbat, kirish ma'ruzasi, videoma'ruza, illyustratsiya kabi metodlar orqali amalga oshiriladi. Ishontirish - bu ma'lum fazilatning to'g'riligi va zarurligini tushuntirish hamda isbotlash bo'lib, kishi ongini "dasturlashtirilsa", mashq qilish kishida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Ishontirish va mashq qilish metodlari o'zaro chambarchas bog'liqdir. Mashq qildirish - shaxs faoliyati va harakatlarida zarur bo'lgan ko'nikma hosil qilish usuli bo'lib, mustahkamlanishga qadar bo'lgan ko'p marta takrorlanuvchi harakatga aytiladi.

Ko'nikmalarning shakllanishi quyidagi ketma-ketlikda sodir bo'ladi: vazifa qo'yiladi;

vazifaning bajarilish qoidalari tushuntiriladi;

vazifalarni bajarishga shaxsda ehtiyoj uyg'otiladi;

vazifa amalda bajarib ko'rsatiladi, amaliy mashq tashkil qilinadi;

to'g'ri bajarishga talablar qo'yiladi;

talablarni bajarib zarurligi eslatiladi;

vazifaning qay darajada talablarga muvofiq va to'g'ri bajarilishi kuzatib boriladi.

Pedagogik korrektsiya faoliyatida rag'batlantirish va jazolash metodlaridan ham foydalaniladi.

II.Korreksiya va korrektsiyalashning ustuvor tamoyillari.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik jarayonida o'quvchining o'qishi va xulqi bilan bog'liq salbiy holatlarni bartaraf qilishda o'qituvchi, maktab psixologi, tibbiyot xodimi tomonidan korreksion faoliyat tashkil etiladi. Korreksion faoliyatning asosini korreksiyalash tashkil qiladi.

Korreksiya (yun. "correctio" – tuzatish; pedagogikada – pedagogik tuzatish) – pedagogik uslub, tibbiy choralardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik, jismoniy rivojlanish kamchiliklarining qisman yoki to'liq tuzatilishi.

Korreksiyalash (pedagogik tuzatish) – o'quvchi shaxsida kuzatilayotgan og'ishlarni tashxislash asosida ularni bartaraf qilishga qaratilgan maxsus hamda umumiy pedagogik chora tadbirlar tizimi; sabablarini tashxislash asosida o'quvchi shaxsida kuzatilayotgan og'ishlarni bartaraf etishga qaratilgan harakat; maxsus hamda umumiy pedagogik chora-tadbirlarning ko'rilishi.

Korreksion faoliyat – pedagogik uslub, tibbiy choralardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatishga qaratilgan pedagogik faoliyat.

O'z mohiyatiga ko'ra korreksiyalash mustaqil pedagogik hodisa hamda maxsus harakatlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, korreksiyalash muayyan pedagogik hodisaga yondashuv nuqtai nazardan to'liq yoki qisman amalga oshirilishi ham mumkin. Aksariyat holatlarda korreksiyalash yaxlit pedagogik hodisaga nisbatan amalga oshiriladi va bunda ko'p omillilik inobatga olinadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik tuzatishlar korreksionrivojlantiruvchi ta'lim negizida amalga oshiriladi. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratiladi: tashxislash natijalarini tahlil qilish va baholash asosida ularda kuzatilayotgan o'quv va xulqiy nuqsonlarni bartaraf qilish orqali o'quvchi shaxsini rivojlantirish maqsadi, vazifalarini aniq belgilash; rivojlanish (o'qish, murakkab bo'lmagan matematik amallarni bajarish, nutq, fikrlash qobiliyati, fikrlarni mantiqiy bog'lay olish, fikrni og'zaki va yozma tarzda bayon

qilish)da muammolari bo'lgan o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi uchun "Individual rivojlanish dasturi"ni ishlab chiqish; o'quvchi yoki o'quvchilar guruhini korreksion rivojlantirish metodikasini puxta asoslash, samarali shakl, metod, vosita, texnologiyalarini tanlash; ta'lim mazmunini, o'quv materiallarini o'quvchining mavjud rivojlanish darajasini to'ldiradigan, u tomonidan qabul qilinadigan bir muncha murakkab o'quv axborotlari bilan to'ldirish; shartli tabaqalashtirgan o'quvchilar guruhlarining bilim darajasiga mos holda o'quv materiallarini taqdim qilish; o'quvchi yoki o'quvchilar guruhining "yaqin rivojlanish hududi"ni belgilagan holda imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish choralarini belgilash.

Korreksiyalashning ustuvor tamoyillarini quyidagilar tashkil qiladi.

1. Tuzatish va rivojlanish birligi. Unga ko'ra pedagogik tuzatishning zarurligi haqidagi qaror faqat o'quvchi shaxsi rivojlanishining ichki va tashqi sharoitlarini psixologik-pedagogik tahlil qilish asosida qabul qilinadi.

2. O'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi yosh birligi. Bu o'quvchiga uning yoshi rivojlanishi nuqtai nazaridan individual yondashuvni bildiradi.

3.O'quvchi shaxsini rivojlantirishni tashxislash va tuzatish birligi.Tuzatish va rivojlanish birligi O'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi yosh birligi Pedagogik tuzatishni izchil amalga oshirish tamoyili O'quvchining individual xususiyatini inobatga olish tamoyili "Yuqoridan pastgacha" tuzatish tamoyili (L3. O'quvchi shaxsini rivojlantirishni tashxislash va tuzatish birligi. Tuzatish ishlari mavjud muammolarni faqat o'quvchining keyingi "rivojlanish hududi"ni uning o'ziga xosligi asosida kelib chiqadigan keyingi ehtimoliy rivojlanishini bashoratlashni yaxlit holda tashxislash hamda baholashdan iboratligini anglatadi. Pedagogik tuzatish va rivojlanish bir-biri bilan o'zaro bog'liq. Zero, pedagogik tuzatishning natijasi o'quvchi shaxsini rivojlantirishni anglatadi.

4. Pedagogik tuzatishni izchil amalga oshirish tamoyili.

O'quvchining faolligi uni rivojlantirishda asosiy harakatlantiruvchi kuchdir. Shu sababli o'qituvchi, psixolog hamda ota-onalar o'zaro hamkorlikda o'quvchini ma'lum faoliyat turlariga jalb qilish, unda faollik ko'rsatishini ta'minlash orqali psixologik-pedagogik tuzatishni tashkil etishi zarur. Ushbu tamoyil maqsadga erishishning samarali yo'l, metod, vositalarini tanlash muhimligini ko'rsatadi.

5. O'quvchining individual xususiyatini inobatga olish tamoyili. Bu tamoyil har bir o'quvchining ichki imkoniyatlarini aniqlash asosida pedagogik tuzatish ishlarini rejalashtirish, amalga oshirish lozimligini belgilab beradi. Tamoyilning mohiyatiga ko'ra o'quvchilar bilan psixologik-pedagogik tuzatish olib boriladigan o'quvchilarga "ikkinchi toifali o'quvchilar" singari munosabatda bo'lmaslik kerak. Shundagina ularda kuzatilayotgan "ta'limiy og'ish"ni bartaraf qilish mumkin.

6. "Yuqoridan pastgacha" tuzatish tamoyili.O'qituvchi va psixologning diqqati o'quvchining "ertangi rivojlanishi"ga qaratilishi lozim. Shunga ko'ra, bordi-yu, pedagogik tuzatishning maqsadi "pastdan" boshlangan, ya'ni, quyi ko'rsatkichlarga tayanilgan bo'lsa, u holda uning mazmunini o'quvchilarning "keyingi rivojlanish hududi"ni shakllantirish tashkil qiladi. O'quvchi tomonidan erishilgan natijalarni o'rganish va baholash uning keyingi rivojlanish hududini "yuqoridan pastgacha" tamoyili bo'yicha tuzatish maqsadga muvofiqligini ifodalaydi.

Korreksion faoliyat quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

o'quvchini ijtimoiy muhitga moslashtirish (ayniqsa, bolalar bog'chalariga qatnamay, uy sharoitida tarbiyalanganlarni, chunki ularning aksariyati odamovi bo'lib, ijtimoiy muloqotga kirishga qiynaladi);

o'quvchini ta'lim jarayoniga moslashtirish;

o'quvchida ijtimoiy faollikni rivojlantirish;

o'zlashtira olmaslik sabablarini aniqlash va ularni bartaraf qilish;

o'quvchida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
o'quvchining nutqidagi nuqsonlarni bartaraf qilish, nutq boyligini oshirish;

o'quvchining xulqidagi kamchiliklar (tajovuzkorlik, yuqori darajadagi ta'sirchanlik, tushkunlikka beriluvchanlik, hissiyotni sust namoyish qilish, salbiy odatlar – tamaki mahsulotlarini chekish, giyohvand moddalar yoki spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, jinoyatga moyillik kabilar)ni tuzatish;

o'quvchi mansub bo'lgan oiladagi nosog'lom muhitni bartaraf qilish va oilaga ijtimoiy yordam ko'rsatish choralari belgilash.

Fanlarni o'zlashtira olmaslik va uni korreksiyalash .
Pedagogik tuzatish o'quvchi shaxsida kuzatilayotgan ma'lum xususiyat (xossa, jarayon, holat)larni sinfda yoki darsdan tashqari sharoilarda pedagogik ta'sir ko'rsatish orqali to'liq yoki qisman o'zgartirishga qaratilgan pedagogik faoliyat tizimi sifatida e'tirof qilinadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "o'zlashtira olmaslik" tushunchasi negizida ikki holat: o'quv fanlarini o'zlashtira olmaslik; ijtimoiy xulq ko'nikmalarini o'zlashtira olmaslik tushuniladi. Har ikki holat ham bevosita korreksiyalash (pedagogik tuzatish)ga qaratilgan maqsadli pedagogik faoliyatning tashkil etilishini taqozo qiladi.

Fanlarni o'zlashtira olmaslik – o'quvchi tomonidan qayd etilgan natijalarning ta'lim, didaktik hamda DTS talablariga mos kelmasligi. Odatda fanlarni o'zlashtira olmaslik o'quvchining o'qish, hisoblash, tahlil qilish va sintezlash qobiliyatining pastligi, mantiqiy fikrlash olmaslik, fikrni og'zaki hamda yozma bayon qila olmaslik kabilar bilan izohlanadi.

O'quvchining doimiy ravishda fanlarni o'zlashtira olmasligi bir qator omillarga bog'liq. Xususan:

- pedagogik nazoratning sustligi;
- pedagogning o'quvchi bilan individual ishlash tajribasining yetishmasligi;
- pedagogning kasbiy kompetentligining pastligi;

o'quvchiga, uning faoliyatiga nisbatan adolatsiz yondashuv;
ota-onalarning pedagogik madaniyat, psixologik bilimlarga ega emasligi;

o'quvchida muayyan kasallik (masalan, organizmda yod moddasining yetishmasligi bilan bog'liq bo'qoq kasalligi, kalsiy moddasining yetishmasligi tufayli kelib chiqadigan suyak kasalliklari, temir moddasining yetishmasligi bilan bog'liq kamqonlik, miyaning yengil darajada jarohatlanganligi, nimjonlik va hokazolar)ning mavjudligi; o'quvchilar jamoasining nosog'lom psixologik muhiti; o'quvchining anomal (turli og'ishlarga asoslangan) xulq (tajovuzkorlik, giyohvand va tamaki mahsulotlari, spirtli ichimliklarga ruju qo'yishi, jinoyat sodir etishga moyillik kabilar)ga egaligi; o'quvchining kamsitilishi, unga nisbatan zo'ravonlik va ta'ziqning mavjudligi; o'quvchining melanxolik (ruhiy siqilish, tushkunlik, g'amginlikka moyillik, yuqori darajadagi ta'sirchanlik, hissiyotni sus ifodalash – "ichimdagini top"lik); sifatli ta'lim olish uchun zarur sharoitning yaratilmaganligi va boshqalar. O'quvchining tizimli ravishda fanlarni o'zlashtira olmasligi o'qituvchining pedagogik e'tiborsizligiga ham olib keladi. Pedagogik nazoratdan chetda qolgan o'quvchilar ko'p holatlarda nosog'lom psixologik muhitga ega mikro guruhlariga qo'shilib ketadi. Psixolog A.Gelmontning fikriga ko'ra, fanlarni o'zlashtira olmaslik – o'quvchining murakkab va ko'p qirrali faoliyati bo'lib, uni to'liq o'rganish uchun 174 turli xil yondashuvlar talab qilinadi¹. Qolaversa, fanlarni o'zlashtira olmaslik – o'quvchilarning mavjud tayyorgarligi maktabning majburiy talablarini bajarishga, bilim, rivojlanishning amaliy ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish, ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish, ijtimoiy munosabat malakalariga mos kelmasligini ifodalaydi. O'zlashtirmovchilikni o'z vaqtida payqash va barcha elementlarini bartaraf qilish uning oldini olishga yordam beradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fanlardan o'zlashtira olmaslik boshlang'ich sinflarda ko'proq ko'zga tashlanadi. Buning sababi ko'pchilik o'quvchilar maktab ta'limiga psixologik hamda

jismonan tayyor bo'lmaydi. Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasalari hamda oilalarda 6-7 yoshli bolalarni ta'lim olishga, o'qish hamda maktab hayoti bilan bog'liq ijtimoiy talablarni bajarishga samarali tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Bunda tashxislash natijalariga tayanish, ta'limiy muvaffaqiyatsizlikka olib keluvchi sabablarni o'rganish va ularni bartaraf qilish choralari belgilashga alohida e'tibor qaratiladi. Fanlarni o'zlashtira olmaslikni bartaraf etishga oid turli nazariyalar mavjud: biologik nazariya (L.S.Slavina), ijtimoiy-genetik yondashuv (I.A.Armyanov, P.P.Blonskiy, L.S.Vygotskiy), ijtimoiy nazariya (Dembele Baboy). Psixolog va pedagog olimlar o'quvchi tomonidan fanlarning o'zlashtira olmaslik holatini bir necha guruhlariga ajratadi. Jumladan: Fanlarni mutlaq o'zlashtira olmaslik (o'quvchi doimiy ravishda fanlar bo'yicha "2" hamda "1" baho oladi; maktab o'quv dasturining minimal talablarini deyarli bajara olmaydi) va fanlarni nisbiy o'zlashtira olmaslik (o'quvchi DTS talablarini qoniqarsiz ravishda bajaradi; o'quv dasturi hamda didaktik talablarni minimal ravishda bajaradi; o'quvchining imkoniyatlari kognitiv yuklama (o'quv materialini nazariy jihatdan o'zlashtira olish)ni ko'tara oladi) (A.A.Budarniy); Fanlarni oshkora o'zlashtira olmaslik va fanlarni yashirin o'zlashtira olmaslik (bu holat ko'pincha o'quvchining ta'lim olishga bo'lgan munosabatini belgilaydi) (V.S.Setlin); A – ahmoqlik olib keladigan umumiy fanlarni o'zlashtira olmaslik; B – umumiy (tuzatilgan va tuzatilmagan) yoki maxsus (tuzatilgan va tuzatilmagan) fanlarni o'zlashtira olmaslik; C – o'quvchining qobiliyati to'la ro'yobga chiqarilmaganligi sababli yuzaga kelgan fanlarni o'zlashtira olmaslik (P.P.Borisov tomonidan ingliz yozuvchisi F. Shonellning qarashlariga muvofiq asoslangan). o'qishdagi umumiy kechikish va ayrim fanlarni o'zlashtirishdagi kechikish (N.P.Lokalova); patologik irsiyat (asab va yurak kasalliklari), homiladorlikning og'ir kechishi, ota-onalarning fanlarni yomon o'zlashtirganligi bilan bog'liq o'zlashtirmovchiliklar (P.P.Blonskiy). P.P.Borisov o'tgan asrning 80-yillarida fanlarni

o'zlashtira olmaslikning barcha sabablarini tahlil qilgan holda quyidagi to'rtta katta guruhga ajratadi.

1) pedagogik sabablar: ayrim fanlarni o'qitishdagi kamchiliklar, oldingi yillardagi bilimlardagi bo'shliqlar, keyingi sinfga noto'g'ri o'tish bilan bog'liq o'zlashtira olmaslik;

2) ijtimoiy va maishiy sabablar: oiladagi nosog'lom turmush tarzi, otaonalarining anomal (ijtimoiy axloq me'yorlariga mos kelmaydigan) xatti-harakatlari, oilaning moddiy ta'minoti, o'quvchida kuzatilgan muayyan ruhiy holatlarning o'z vaqtida davolanmaganligi, o'quvchining umumiy holatiga beparvolik;

3) fiziologik sabablar: turli kasalliklar – umumiy salomatlikning zaifligi, yuqori nafas yo'llari kasalliklari, yuqumli kasalliklar, markaziy asab tizimi, tayanch-harakat tizimining funksional buzilishi, asab tizimi kasalliklari.

4) psixologik sabablar: diqqat, xotira, tushunishning sekinligi, nutq rivojlanishi darajasining pastligi, kognitiv qiziqishning mavjud emasligi, dunyoqarashning torligi.

Pedagogik diagnostika va korreksiyada o'quvchilarning fanlarni o'zlashtira olmasligini korreksiyalash muhim ahamiyatga ega.

Fanlarni o'zlashtira olmaslikni korreksiyalash (pedagogik tuzatish) o'quvchi tomonidan qayd etilgan natijalarning ta'lim, didaktik, DTS talablariga mos kelmasligini bartaraf qilishga qaratilgan pedagogik faoliyatni tashkil qilish. Ana shu maqsadda pedagogik faoliyatni tashkil qilish uchun muayyan shartsharoitlarning mavjud bo'lishi taqozo qilinadi. Ular: 1. Fanlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar bilan ishlash uchun qulay, sog'lom psixologik muhitni yaratish. 2. Bu toifadagi o'quvchilar bilan ishlashda ularda o'qishga bo'lgan motivlarning shakllanganlik darajasini aniqlash hamda hisobga olish. 3. Korreksion faoliyat jarayonida fanlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarda o'qishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirish, shuningdek, ularda o'z-o'zini, o'z imkoniyatlarini yuqori baholash qobiliyatini rivojlantirish.

III.Korreksion faoliyatning tashkil etish bosqichlari.

1.Korreksion faoliyatning tayyorlov bosqichi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashda kuzatish va o'zini kuzatish, bu metodlarning bilishdagi roli, savol-javob, tajriba va pedagogik testlardan foydalanish o'rinli. Bunda empirik va nazariy tadqiqotlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini tashxislashda asosan: tanishish, ilmiy-izlanuv, tadbiiy rasmiylashtiriluvchi bosqichlaridan iborat tajribalami o'tkazdik. Bunda bolalarning tarbiyalanganlik darajasini o'rganish bilan birga ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilishni ham maqsad qilib quydik. 7-11 yoshdagi bolalarning tashxislashda va ularning xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashda tarbiyaviy maqsadlarni aniq belgilash lozim. Buning uchun diagnostika va korreksiya o'tkazuvchi shaxs mazkur jarayonning tarkibini, uning ta'sir mexanizmini to'laqonli bilishi shart.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilari diagnostika va korreksiyalash asosan quyidagi tarkibda amalga oshadi: diagnostika va korreksiyalashning maqsadi va vazifalarini to'g'ri belgilab olish: bolada muloqot ko'nikmalarini shakllantira boshlashda, yangi pedagogik muhitda adaptatsiyaga o'rgatishdan boshlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning tarbiyalanganlik darajasiga, ularning kelgusi hayotdagi yo'riqnomalariga oila tarbiyasi katta ta'sir ko'rsatadi. Odamning yuksak psixik funksiyalari tariqasida bolalikda berilgan idrok, diqqat va tafakkur borliqni bilish formalari sifatida qaralishi shak-shubhasizdir. Faoliyatning bilish manbai, muloqotning esa odamning shaxsiy taraqqiyoti manbai ekanligi ma'lum. Odam faoliyatining bir-biridan farq qiladigan asosiy belgilari ustida fikr yuritish ekanmiz, bunda yosh davridanoq bir-biridan ajralib turadigan o'quvchilarni ko'z oldimizga keltirishimiz lozim. Kichik maktab yoshidagi bolaning bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tafakkur, xayol va xotira)ni o'rganish

tashxislashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolanmg individual jamoatchilik xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy va tabiiy (tug'ma) xulq- atvori, hatti-harakatlarini tushuntirib va uni oldindan aytib berishda uning tabiatini hisobga olish zarurligi o'rganiladi.

Ma'lumki, bola markaziy nerv tizimining tuzilishi, uning ishi (vazifalari) va xususiyatlari, uning markaziy va pereferik qismi, bosh miyaning tuzilishi, xar bir neyronning tuzilishi va uning ish tartibi, "retseptor" tushunchasi va uning turlari, "analizator" tushunchasi, odam bosh miya qobig'ining tuzilishi va uning asosiy maydonlari sathi qismlari ustida, bosh miya qobig'ida sodir bo'ladigan asosiy psixik jarayonlar va kishining psixik holatlari, retikulyar fonnatsiyalarining markaziy nerv tizimida tutgan o'mi, uning roli va vazifalari to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lish pedagogik tashxislashni oqilona tashkil qilishga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchisini pedagogik diagnostika qilishda bola psixikasi, unda nerv bog'lanishlarining prinsipi va umumiy mexanizmlari, psixik hodisalaming miya ishi bilan bog'liqligi, ulaming psixik jarayonlari bilan aloqasi va xulq-atvor, hatti-harakatlarini boshqarishdagi, psixik hodisalar va miyaning ayrim tuzilishining bir xildagi o'zaro ta'siri, muammolari xaqida ma'lumotga ega bo'lgani afzal. Shu bilan bir qatorda, bola miyasida sodir bo'ladigan psixik holatlaning anatom-fiziologik xususiyatlari bunda sezgilaming tarkib topishida ishtirok etadigan miya tuzilishi va tanamizdagi a'zolarining fiziologik mexanizmlari ustida o'ylanib ko'rishi zarur. Tashxislash ayrim paytlari xulk-atvoming genetik ildizi bunda odam psixologiyasi va uning xulq-atvori, hatti-harakatlari rivojlanishida genetika va muhit, biologik va ijtimoiy omillami tushuntirish muammolari, irsiyat mexanizmlari xaqidagi tasawurlar asosida hal qilishga yordam beradi.

Korreksion faoliyatni tashkil etishning yakuniy bosqichi. Hozirgi vaqtda bolaning xulq-atvorini korreksiyalashda qo'yidagi jihatlar hisobga olinishi zarur: -jismoniy jihat;

-tabaqalashtirish (farqlash) qobiliyatiningma'lum darajasini, shuningdek, xotiraning rivojlamsh darajasini inobatga oluvchi intellektual jihat;

- diqqatni, sabr-toqatni boshqarish, topshiriqlami bajarish tayyorgarligi ifodalangan
ishga munosabat.

-bir qadar tarbiyachidan holi bo'lish guruh bilan aloqa o'matish qobiliyatini ko'rsatuvchi ijtimoiy jihat. Albatta, bolada bu ko'rsatkichlar o'z-o'zidan shakllanmaydi, ular pedagogik jarayon mahsulidir, Shu boisdan tarbiyachi bolalar ongini o'stiradigan, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradigan real muhit yaratishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, maktabda olib borilayotgan mashg' ulotlar-yangi pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirilishi kerak.

Bugun bolalarning aqliy, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi chet-el metodlan («Montessori», «Breynring», BreynShtorming»)dan qator ta'lim muassasalarida foydalanishmoqda va yaxshi natijalarga erishilmoqda. Shuningdek, «Bolalarni rivojlantirish» tayanch dasturi ishlab chiqilganligi va tajriba sinovdan o'tayotganligi ham ma'lum. Shu bilan bir qatorda hali-hanuz «Boshlang'ich sinflarda pedagogik tashxislash va korreksiyalash nima degani?:» deb hayratda yurganlar ham bejis emas.Shu o'rinda pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiyalashni boshlang'ich ta'lim muassasalari uchun o'ziga xos tomonlarni ko'rsatib o'tish joizdir:

Har bir mashg'ulotdan ko'zda tutilgan maqsad aniq qo'yiladi, o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari albatta inobatga olinadi; mashg'ulot mazmunini saralashda bir tomondan bolalarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyatlari, ikkinchi tomondan-tarbiyachining ijodkorligi, mahorati, uchinchidan- mavjud shar-sharoitlar hisobga olinadi didaktik jarayon tuzilmasi keskin farqlanadi, ya'ni uning motivatsion bosqichi kuchaytiriladi. Boshqacha qilib aytganda, o'yinli didaktik jarayon loyihalanayotgan

texnologiyaning asosini tashkil etadi; didaktik jarayon ikkinchi bosqichi- bolalarning o'quv bilish faoliyati; uchinchi bosqich- boshqaruv faoliyati (B) funksiyasi ham o'zgaradi. Agar o'quv jarayonida o'qituvchi o'quvchining bilish faoliyati bosqichiga aralashmaydigan bo'lsa, tarbiyachi faoliyati didaktik jarayonning ustivorlik kasb etadi; texnologiyalarni qo'llash samarasi yoki yakuniy daraja- bu shaxsni rivojlantirish va katta sinflarda o'qishga tayyorlash ekanligiga o'qituvchi alohida e'tibor qaratishi lozim. Bola tarbiya jarayonining sust, harakatsiz ob'ekti bo'lib qolmasdan, balki faol ishtirokchisiga- sub'ektga aylanishi kerak. O'yinli vaziyatlardan maqsadli foydalanish g'oyasi birmuncha ilg'or va samaralidir. «O'yin kichkintoylar yaxshi o'zlashtira oladigan faoliyat hisoblanib, bu faoliyat jarayonida ular o'qishga, mehnatga badiiy ijodga qiziqadilar, hayotiy muammolarni tezda ilg'ab oladilar»¹. Shu boisdan o'yinga tayanib ish ko'rish- bola xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga, uni o'qishga qiziqtirishga eng maqbul yo'l, tarbiyaviy ta'sirga hayajonli javob berishni ta'minlash uslub bo'lib hisoblanadi. Turli yoshdagi odamlar faoliyatini o'yin tarzida tashkil etish va kasb mahoratini takomillashtirish tajribasi pedagogika fani uchun yangilik bo'lmasa-da, o'yinli didaktik jarayonni loyihalash texnologiyasi yetarlicha ishlanmagan mavjud.

Adabiyotlarda o'yinning ishbilarmonlik, rol, ishlab chiqarish, tadqiqotchilik va o'qishga oid turlari mohiyati va mazmuni uchrab turadi, biroq hanauzgacha kompyuterli, «ishbilarmonlik», turli tarbiyaviy ahamiyatga molik o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablarga javob beruvchi metodikaning ishlab chiqilmaganligini qayd etish o'rinlidir, ya'ni: o'yin jarayonining kuchaytirilgan va turg'un motivatsiyasi, o'yinning bajaruvchi bosqichida (B) ishtirokchilarning muvaffaqiyatga erishish va qanoat hosil qilishi, bilish faoliyatini maqsadli boshqarish va o'yin so'ngiga faoliyatni o'zlashtirish sifatining ta'minlanishiga erishish. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yinning quyidagi turlari mavjud: mavzuli- rol o'yinlar, o'yin-mehnat, didaktik o'yinlar harakatli o'yinlar vaqti-

xushlik o'yinlari, sayr-tomosha o'yinlari. majmualiy bayram o'yinlari. «Mavzulli rolly o'yinlar bolalarning mustaqil yoki kattalar yordamida ijtimoiy tajribani, moddiy ob'ektni hayotiy va badiiy taassurotlar asosida ijodiy qayta yaratish faoliyatidir¹», -deb ta'kidlaydi o'zbek olimi Nurali Sayidaxmedov. Bu faoliyat natijasida bolalar nutqi, fikrlashi, xayol surishi va boshqa axloqiy sifatleri tarkib topadi. Buning uchun bola yoshiga xos kichik hajmdagi hayotiy mavzular sahna ko'rinishida ijro etiladi. Misol uchun, «Toshkent akvoparkida», «Sport maydonida», «Musobaqadan oldin», «Yangi yil arafasida», «Bozor», «Sayohatchilar bilan suhbat» sahnasini ijro etishi bilan bolalar yangi tushuncha va munosabatlarga duch kelishadi va ularni binoyidek o'zlashtiradilar (munosabat, axloq, odob, madaniyat, o'yin, xaridor, sotuvchi, narx, savdo, qiymat, pul, an'analar va boshq). O'yin-faoliyat jarayonida bolalar atrof-olam to'grisida chuqurroq tasavurga ega bo'ladilar, ish jarayoni va harakatlarining umumiy ko'rinishini o'zlashtiradilar. Didaktik o'yinlar bolalarning aqliy rivojlanishida, ularni bilishga undashda birmuncha afzalliklarga ega. Bu o'yinlar pedagog tomonidan o'quv-tarbiyaviy maqsadlar uchun maxsus tashkil etiladi. Foydalanilayotgan materiallar turiga qarab didaktik o'yinlar predmetli- didaktik o'yinchoqlar va materiallar;- «qiyin sayohat», «labirint», so'zli- o'yin-topishmoqlar, masalalar, o'yin-sayohatlar va boshqa. Bugungi kunda xalq-atvordagi umumiy munosabatlarni diagnostika va korreksiya qilish uchun yagona nazariya mavjud bo'lmasada, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar jamoasidagi ijtimoiy munosabatlarni quyidagi xususiy komplekslar orqali aniqlash mumkin: 1) guruhni normalar; 2) guruhni tarkib va 3) guruhdagi munosabatlar. Keyingilari o'z navbatida formal va noformal kabi guruhlariga bo'linishi mumkin. Formal guruh o'qituvchi tomonidan nazorat ostiga olingan ta'lim-tarbiya maqsadlariga xizmat ko'rsatsa, noformal muhitda, o'qituvchining aralashuvisiz turli jarayonlar kechishi mumkin, bunda do'stlik, mehr-oqibat, sabr-toqat, mehnatsevarlik bilan birga o'jarlik,

yolg'onchilik subutsizlik kabi hislatlar ham shakllanishi hech gap emas. Ammo shu narsani ta'kidlash joizki, noformal guruhlarning paydo bo'lishi-tabiiy hodisa, chunki o'kuvchi o'zining ma'lum jamoaga taalluqliligi, o'z hohish-irodasini namoyon qila oladigan guruhga aloqador ekanligi

shukuhi bilan yashashi zarur. Kichik maktab yoshidagi bolaning xulqidagi nuqsonlarni korrektsionalayotgan

o'qituvchi bolaning qaysi noformal guruhga aloqadorligini, uning ta'sir kuchini bilishi kerak. Yuqori sinf o'kuvchilari formal guruhlardan asta-sekinlik bilan yiroqlashadilar. Mazkur guruhlarda o'z qonun-qoidalari, baholash mezonlari mavjud. bo'ladi.

Test

1. Korrektsion faoliyat deganda nima tushuniladi.

A) Ta'lim jarayonini faqat nazorat qilish

B) O'quvchilarning rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan tizimli faoliyat

C) O'quvchilarni baholash faoliyati

D) Faqat psixologik maslahat berish

2. Korrektsion faoliyatda diagnostika bosqichi nimani o'z ichiga oladi?

A) O'qituvchining dars rejasini tuzish

B) Bolaning psixologik va pedagogik xususiyatlarini aniqlash

C) O'quv jarayonini tahlil qilish

D) Faoliyat natijalarini baholash

3. Korrektsion ishlarni amalga oshirishda qaysi bosqichda individual dastur tuziladi?

A) Nazorat bosqichi

B) Diagnostika bosqichi

C) Rejalashtirish bosqichi

D) Baholash bosqichi

4. Korrektsion faoliyatning yakuniy bosqichida nima amalga oshiriladi?

A) O'quvchilarni dastlabki tahlil qilish

B) Faoliyatni rejalashtirish

C) Natijalarni tahlil va baholash

D) Psixologik suhbat o'tkazish

5. Korreksion faoliyatni tashkil etishda o'qituvchi va psixologning hamkorligi qaysi bosqichda muhim ahamiyatga ega?

A) Diagnostika va rejalashtirish bosqichlarida

B) Faqat nazorat bosqichida

C) Faqat yakuniy bosqichda

D) Faqat kuzatuv bosqichida

Nazorat savollari.

1. Korreksion faoliyatni tashkil etishning asosiy maqsadi nimadan iborat?

2. Korreksion faoliyatning asosiy bosqichlarini sanab bering.

3. Diagnostika bosqichining mohiyati nimada?

4. Korreksion faoliyatni rejalashtirish bosqichida qanday ishlar amalga oshiriladi?

5. Amalga oshirish (amaliy) bosqichida qanday faoliyatlar bajariladi?

6. Nazorat va tahlil bosqichi qanday maqsadga xizmat qiladi?

7. Korreksion ishlarni tashkil etishda o'qituvchi va psixologning o'zaro hamkorligi qanday ahamiyatga ega?

8. Individual yondashuvning korreksion faoliyatdagi o'rni qanday?

9. Korreksion faoliyatni tashkil etishda pedagogik diagnostikaning roli qanday?

V-BOB. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA KORREKSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.

20-mavzu: Korreksion faoliyatning umumpedagogik va maxsus metodlari.

Reja:

1. Korreksion faoliyat jarayonida ta'lim-tarbiyaning umumiy metodlarini o'rni.
2. Tarbiya jarayonida o'rta va katta pog'ona(konsentr)dagi o'quvchilarning xulqatvorini korreksiyalash yollari.
3. Yoshlarda ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi bosqichlar.

Tayanch tushunchalar: *Tushuntirish vositalari, Ijobiy motivatsiya, Psixokorreksion metodlar, Kompensator metodlar, Integratsiya, Adaptiv texnologiyalar, Kichik matorik metodlar.*

I. Korreksion faoliyat jarayonida ta'lim-tarbiyaning umumiy metodlarini o'rni. Ijtimoiy pedagogning ishi, awalambor pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish, o'quvchining umumiy madaniyatini shakllantirish orqali ularda muloqot madaniyati va empatiya (hamdardlik, o'zgarlar o'm iga o'zini qo'ya olish xususiyati)ni shakllantirish orqali kechadi. «Pedagogik e'tiborsizlik» natijasida vujudga kelgan nuqsonlarni bartaraf qilish quyidagi korreksion metodlar orqali amalga oshiriladi. Umumiy metodlar: Oilada, maktabda, mahallada mikromuhitni vujudga keltirish uchun harakat qilish; Ruhiy-hissiy zuriqishning oldini olish. Maxsus metodlar: bolaning asosiy faoliyat yo'nalishlaridagi (o'yin, dars, mehnat) muvaffaqiyatini ta'minlash; Ijobiy fazilatlariga tayangan holda xulq-atvorini boshqarish; Tengdoshlari bilan muloqot madaniyatini shakllantirish; Hissiy olamini kengaytirish orqali intellektual jihatdan o'sishini ta'minlash; Xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etishda intellektual jihatdan o'sish orqali erishish; Axloqiy fazilatlarini kamol toptirishga qaratilgan kompleks topshiriqlardan foydalanish;

Maktabda o'quvchilarga axloqiy tarbiya berishda xilma-xil usullardan foydalanish lozim: - dars, ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyani qo' shib olib borish; - ahil, inoq uyuShtirilgan intizomli jamoa orqali axloqiy tarbiya berish; - to'g'ri rejalShtirilgan tarbiyaviy tadbirlami tashkil etish orqali; - Maktabda ijobiy emotsional Sharoit yaratish orqali. Masalan, Mustaqillik kuni, Navro'z bay rami;

Maktabda o'quvchilarga axloqiy tarbiya berishda xilma-xil usullardan foydalanish lozim: - dars, ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyani qo' shib olib borish;

- ahil, inoq uyuShtirilgan intizomli jamoa orqali axloqiy tarbiya berish; - to'g'ri rejalShtirilgan tarbiyaviy tadbirlami tashkil etish orqali;

- Maktabda ijobiy emotsional Sharoit yaratish orqali. Masalan, Mustaqillik kuni, Navro'z bay rami;

- Barcha o' quvchilaming maktabdagi umumiy va yagona tartib qoidasiga rioya qildirish orqali;

- Turli tushuntirish, uqtirish, suhbat, munozara, rag'batlantirish, jazolash usullaridan foydalanish orqali; - Tarbiyaviy soatlar, «Odobnoma» darslari saviyasini oshinsh orqali;

- Mehnat, sport ilg'orlari, ilm-fan xodimlari, san'at yulduzlari, mehnat faxriylari, hojilar bilan uchrashuvlar uyushtirish orqali;

- Maktabda turli kechalar, olimpiada, festival, musobaqalar o'tkazish, turli axloqiy-ma'rifiy, badiiy-estetik tele-radio eShittirishlaridan foydalanish;

- Dars va tarbiyaviy tadbirlar jarayonida milliy qadriyat va an'analarimiz aks etgan asarlami o'qib-o'rganish orqali.

«Axloq tarbiyasi insonni axloqiy barkamollikka yetkazish va uning baShariyat jamiyatiga foydali inson qilib tarbiyalash dan iboratdir... Bolalar suvga o'xShaydilar. Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'Sha rangda tovlangani kabi, bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar o'sha muhiming O'xshash odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk Sharti Shundan iboratki, bolalar

ko'proq yaxshi va yomon axloqni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchilardan qabul qiladilar¹», - deb yozadi buyuk ma'rifatparvarlarimizdan biri Abdurauf Fitrat. Pedagogik korreksiyalashda axloqiy tarbiya mazmuni asosan quyidagilarda o'z ifodasini topishini unutmasligimiz kerak: 1. Jamiyatga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu xildagi munosabatlar shaxsning vatanparvarligi, fuqaro yetukligi, baynalminallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida Vatan boyliklarini ko'paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. 2. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash. Bu axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayonida namoyon bo'ladigan yuksak ongida, mehnatning hayotdagi rolini anglashida, xususiy va jamoa mehnatiga tayyorlik, mehnatsevarlikda ifodalandi. 3. Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat. shaxsning jamoatchilik, ko'pchilik manfaatini o'z shaxsiy manfaatidan ustun qo'yishidir. 4. Shaxsning o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashi - bu o'quvchini ongli intizom ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Maktabda axloqiy mavzularga oid tadbirlar sinfdan va maktabdan tashqari turli - tuttitan shakllarda olib boriladi. Bolalar yoshiga, saviyasiga qarab «Inson go zalligi nimada?», «Axloq va qonun», «Ona yurtning omon bo'lsa», «Inson odobi bilan», «Jannat onalar oyog'i ostida» va boshqa mavzularda suhbatlar, munozaralar o'tkazish mumkin. Sharq qadriyatlari va milliy an'analarni dars va tadbirlar jarayonida o'quvchilarga o'rgatib borish lozim. Maktabda mehnat ilg'orlari, faxriylar, hurmatli qariyalar bilan uchrashuvlar, adabiy kechalar, musobaqalar o'tkazish, turli matbuot materiallaridan foydalanish ham mumkin. Har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirishda lim-tarbiya jarayonidan kutilgan asosiy natija ekan, yoshlarimizga kompleks tarbiya berishimiz lozim. Ayniqsa, ularda fuqarolik hissini shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini o'stirish, vatanparvar va baynalminalinsonlar qilib yetishtirishga, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini o'stirishga alohida

ahamiyat qaratishimiz lozim. O'quvchilarga huquqiy tarbiyani berishda va ulami vatanni sevishga o'rgatishda davlat ramzlaridan foydalanishning ahamiyati kattadir. Davlat ramzlaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish, ta'lim va tarbiya jarayonida ulaming ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirish, tarbiyalanuvchilar xulqatvoriga chuqur ta'sir etadi. Hayotga qadam qo'yib kelayotgan har bir o'quvchi davlatimiz Konstitutsiyasini, bayroggerbi va madhiyasini yaxshi bilishi kerak. O'quvchilarda Shu ramzlarga chuqur hurmat-ehtirom tuyg'ularini tarbiyalash tarbiyaviy ishlarimizning uzviy qismini tashkil etishi lozim. Davlat ramzlarini o'rganish pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilsa, u o'quvchilarning xuquqiy va axloqiy his-tuyg'ulariga, vatanparvarlik qarashlariga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Bu borada o'quvchilar bilan olib boriladigan jamoa tarbiyaviy ishlarining imkomiyatlari beqiyosdir. Davlat gerbi, bayrog'i, madhiyasi hamda o'quvchilar tashkilotlari ramzlarining axloqiy, siyosiy, huquqiy mazmuni haqida uyushtirilgan xilma-xil munozara va suhbatlar shubhasiz samarali natijalar beradi. Davlat ramzlari faqat ta'sirchan tarbiyaviy vosita bo'lib kolmay, balki ta'limiy jihatdan ham muhim omillardandir. Davlat gerbi va bayrog ining tasviri, Davlat madhiyasining matni bilan tanishish jarayonida o'quvchilarda davlat hokimiyati ramzlariga hurmat his-tuyg'usi qaror topadi. Davlat ramzlarini o'rganishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini albatta hisobga olish, mavjud darslik, uslubiy ko'rsatma va qo'llanmalardan o'z o'lchamida foydalanish lozim. O'zbekiston fuqarosi o'z Vatanini sevishi, xalqiga cheksiz sadoqatli bo'lishi, O'zbekiston Respublikasining qonun va qoidalarini, ramzlarini yaxshi bilishi va ularga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'lishi Shart. O'quvchilarda Shu his-tuyg'ulami tarbiyalash o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. Davlat ramzlarini o'rgatish faqat gumanitarfanlami o'qitish jarayonidagina emas, balki har bir fanni o'qitishda ham, ayniqsa, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar jarayonida xam keng olib borilishi kerak. Davlat ramzlarining mohiyatini o'rgatish, ularga hurmat ruhini

tarbiyalashda sinf rahbarining o'rnini ham ahamiyatlidir. O'quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashda axloqiy tarbiyaning o'rnini o'ziga xos va juda muhim. Axloqiy tarbiyaning mazmunida jamiyatga, Vatanga muhabbatni tarbiyalash va baynalmilallikni targ'ib qilish birinchi o'rinida turadi. Vatanga muhabbat va sadoqat Shaxsning vatanparvarligi, fuqaro yetukligi, baynalmilallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida, Vatandan boyliklarini ko'paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik va baynalmilallik axloqiy tarbiyada alohida o'rin tutadi. Hadisi Shariflarda ham «Vatanni sevmok iymondandir», «Vatan ostonadan boshlanadi» deb bejiz aytilmagan. «Vatanparvarlik- kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va tarbiyaviy axloqiy xislatlari, fazilatlardir»¹. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Vatanga muhabbat tuyg'usini bolaga ona suti bilan, allasi bilan kiradi. Bu aziz tuyg'u bir umr unutilmaydi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi hamma zamonlarda ulug'langan. Vatanparvarlik Shaxsni axloqiy shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Maktabda vatanparvarlikni shakllantirish quyidagi mezonlar asosida tashkil etiladi:

- Vatanga muhabbat hissi;
- Milliy g'urur;
- Davlatimizning milliy istiqlol majkurasi va uni ilmiy idrok etish;
- Davlatimiz ramzlariga sadoqat;
- Millatlararo madaniy muomala (bayanalmilallik).

Vatanparvarlik hissini har bir Jandan dars o'tish jarayonida, ayniqsa, ijtimoiygumanitar fanlarni (Tarix, Inson va jamiyat, Davlat va huquq asoslari, Adabiyot) va mustaqillikdan keyin ta'lim jarayoniga kirib kelgan «Odobnoma», «Vatan tuyg'usi». «Ma'naviyat asoslari», «Konstitutsiya asoslari», «Milliy istiqlol g'oyasi» va boshqa ko'plab fanlarni o'qitish jarayonida Shakllantirish ijobiy

samara beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik va baynalmilallik tuyg'usini Shakllantirishda darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning va sinf rahbarining o'rnini ham o'ziga xosdir. «Vatan tarixini bilmay turib, uni to'la sevib bo'lmaydi», «Vatan ostonadan boshlanadi», «Vatan- yagonadir, Vatan - bittadir» va Shunga o'xshash boshqa ko'plab mavzularda boshqaruvlar, tarbiyaviy soatlar, ko'rik-tanlovlar o'tkazish bilan ham Vatanga muhabbat, istiqloлга o'z o'ylariga sadoqatni tarbiyalash mumkin. Yuqori sinf o'quvchilari bilan esa tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda siyosiy axborotlarning o'rnini salmoqlidir. Bolalar bunda mamlakatimiz va chet ellardagi siyosiy voqealar bilan tanishib boradilar. Jahon pedagogikasida e'tirof etilishicha, tarbiya jarayonida mustaqil davlat timsollarining asosiy mafkura va ma'naviy xislatlarni Shakllantirishdagi ahamiyati nihoyatda beqiyos. Davlat timsollari insonda eng avvalambor milliy g'urur va iftixor hissini Shakllantirishning zaminlandan biri bo'lib hisoblanadi. Millatning shakllanishi, ayni vaqtda millat tomonidan o'z o'tmishining, o'z tarixini, ajdodlarning mehnati, qahramonligi, milliy ma'naviyat va madaniyatining barcha yo'nalishlari tarmoqlari xilmaxilligini hamda o'ziga xosligini o'rganish- davlat ramzlariga bo'lgan hurmatdan boshlanadi. O'zbekiston Respublikasi mustakillikni qo'lga kiritgach davlatimizdagi eng muhim va jiddiy muammolardan biri- yoshlarimizni milliy qadriyatlarimiz, davlat timsollariga hurmat ruhida tarbiyalash bo'lib qoldi. Bu muammoning ahamiyati shundaki, mustaqillikkacha, chorakam bir asr davomida, fuqorolarimiz yagona hukmron mafkura tazyiqida tarbiyalanib, loqaydlik, qaramlik, mutelik va norasolik ruhining ta'sirida o'sganlar. Bu narsa hozirgi hayotimizda har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Shu boisdan O'zbekistonning kelajagi, uning istiqboli, birinchi navbatda, yoshlarni tarbiyalash, sog'lom qilib o'stirish, ularning ongini o'tmish ta'siridan ozod ravishda Shakllantirish mustaqil davlatimizning dolzarb vazifalardan biridir. Davlat timsollari, xususan madhiya- jamiyat a'zolarining, ijtimoiy guruhlar siyosiy partiya,

jamoat tashkilotlari, millatlar va elatlar, yoshlar ommaviy harakatlari, diniy uyushmalari, xotin-qizlar, faxriylar, tadbirkorlar va boshqa ijtimoiy sub'ektlarning umumiy manfaat muddaolarini o'ziga aks ettiruvchi mujassamlashtiruvchi, ularning xatti-harakatlarini, faoliyatini, fikr- zikrini yagona bir maqsadga-mustaqillikka erishish hamda uni mustaxkamlashga yo'naltiruvchi g'oyalarni o'z O'xshash qilib, o'quvchilarni milliy madhiyamiz, davlat ramzlari ruhida g'oyaviy tarbiyalashda maxsus metodikadan foydalanish ijobiy samaralar keltiradi. Maktab yoshidagi o'quvchilarga huquqiy tarbiya berish ham ularning xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga zamin yaratadi.

II. Tarbiya jarayonida o'rta va katta pog'ona(konsentr)dagi o'quvchilarning xulqatvorini korrektsiyalash yollari.

Tarbiya jarayonida jamiyat tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlar, qoidalar va me'yorlardan chekingan o'smirlarning xulqidagi nuqsonlarni korrektsiyalash ular to'g'risida to'liq axborotga ega bo'lishni talab qiladi. Deviant xulqli o'smir va o'spirinlarning paydo bo'lishi bu hodisaning ob'ektiv va tarixiy vujudga kelishi jamiyatimiz oldida, ijtimoiy harakat va ta'lim-tarbiya muassasalari oldiga ulkan vazifani- dezadaptatsiyalashgan(xulq normalaridan chetlashgan) yoshlar bilan ishlashda tarbiyaviy shakl, metod, texnologiyalarni to'g'ri tanlashni, tarbiyaviy ta'sir kuchini jamlashni taqozo etadi. Bu sa'y-harakatlar balog'atga yetmaganlarning reabilitatsiyasiga va shu bilan birga, ularning axloqlarini profilaktikasiga qaratilishi zarur.

***Deviant xatti-harakat**-bu psixik sog'lom Shaxslar tomonidan me'yoriy qoidalarni buzish holatlaridir.*

***Deviatsiya**-bu ijtimoiy pedagogik muammo bo'lib, inson ruhiy olamidagi, uning atrofidagi muhim o'zgarish hollari bilan bog'liq.*

Bu hoi, ayniqsa, o'smir yoshidagi bolalarga xosdir. Chunki bu yosh eng qiyin va murakkab davr bo'lib, bu yoshdagi bolalarning anatomo-fiziologik, intellektual, axloqiy va boshqa jihatlarida o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlar o'z navbatida ularning psixikasida o'zgarishlar ro'y berishiga zamin yaratadi.

Ularining ijtimoiy statusida, jamoada o'zini tutishida o'zgarishlar ro'y berib, ularni ko'proq «Men kimman?»-degan savol qiynaydi. Jamiyatda o'rnatilgan me'yor va qoidalarga rioya qilmaydigan O'xshash tarbiyasi og'ir o'smirlarni ilmda deviantsiya deb atashadi. Deviantsiya o'z ichiga deviant, delinkvent va kriminal hatti-harakatlarni birlashtiradi. Deviant hatti-harakat- bu kichik ijtimoiy munosabatlar (oilalar, maktab) hamda xarakter, jinsiy va yosh xususiyatlari jihatidan yaqin kichik ijtimoiy guruhlariga xos ijtimoiy me'yorlardan, hatti-harakatlar va qoidalaridan og'ish, chekishning bir turidir. Ya'ni bu turdagi harakatni intizomsizlik deb ham atash mumkin. Agressiya, chaqiriq ishda va mehnat faoliyatida o'z boshimchalikkayo'l qo'yish, bolalar va o'smirlarning ichkilikka berilishi, daydib yurishlari, oliftachilik qilishlari, assotsial harakatlarga berilish kabi deviant harakatlarning asosiy ko'rinishlaridir. Ma'lum vazivalalarda bolalar va o'smirlarning shu kabi hatti-harakatlarni namoyon etishi deviant harakatlarning tipik xususiyatidir.

Deviant hatti-harakat-deviant harakatlardan farqli ularoq, ular vaziyat ta'sinida emas, balki yuqoridagi kabi assotsial harakatlarning doimiy xarakterga ega bo'lishidir. Delinkvent harakatlarning quyidagi turlari mavjud:

- Haqoratlash, xo'rlash, azoblash va undan huzurlanish kabi agressiv bosqinchilik harakatlari,
- Kichik o'g'irliklar, ta'margarlik, avtotransport va boshqada kerakli buyum va anjomlarni o'g'irlash kabi moddiy foyda ko'rishga qaratilgan o'z shaxsiy manfaati yo'lidagi harakatlari;
- Narkotiklar sotish va tarqatish. Kriminal hatti-harakat-bu jinoiy javobgarlikka tortilishga yoshi yetgan Shaxslarning

huquqlarga zid harakatlari bo'lib, ular ustidan jinoiy ish qo'zg'atilish jarayonidir. Kriminal harakatlarga deviant va delinkvent harakatlar asos yaratadi.

Yoshlarning asotsial xulqi va g'ayriqonuniy harakatlari salmog'i kamayishiga muammoning holati davlat organlari, hokimiyatlar, jamoat tashkilotlari, uzluksiz ta'lim tizimi tuzilmalarining diqqat markazida turishi kerak. Shu sababli mazkur masala pedagogikaning eng murakkab va ko'pqirrali muammolaridan hisoblanadi. Shu sababli bugungi kunda yoshlarning xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashda ikki xil texnologik yondoshuvdan foydalanish zarur: -profilaktik; -reabilitatsion. Profilaktika-balog'atga yetmaganlarning xulqidagi ijtimoiy og'ish holatlarini keltirib chiqaruvchi sabablarni oldini olishga, ularni bartaraf etishga, asosiy sabab va shartlarni neytrallashtirishga qaratilgan davlat, jamoa, mahalla, oilaviy, ijtimoiy-tibbiy, tashkiliy-tarbiyaviy tadbirlarning majmuasi.

Profilaktik tadbirlar deganda ijtimoiy pedagogikada ilmiy asoslangan va o'z vaqtida amalga oshiriladigan hatti-harakatlar tushuniladi. Ular quyidagilarga qaratiladi:

- ijtimoiy risk guruhiga kiruvchi bolalarning jismoniy, ruhiy, sotsiomadaniy vaziyatlarning oldini olishga qaratiladi;

- bolaning normal hayotini himoyalash va salomatligini mustahkamlash;

- bolaning ijtimoiy maqsadlarga erishuvi yo'lidagi salbiy harakatlarga yordam berish, uning ichki salohiy qudratini yuksaltirish; «Profilaktika» atamasining o'zi salbiy holatning oldini olishga qaratilishi bilan uyg'unlashadi. Ijtimoiy og'ish turli sabablarga ko'ra vujudga kelishini inobatga oladigan bo'lsak, profilaktik tadbir o'tkazish bir necha ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. Neytrallashtiruvchi;

2. Muvofiqlashtiruvchi;

3. Ijtimoiy og'ish oldini oluvchi, salbiy holatlarning vujudga kelishiga to'sqinlik qiluvchi tadbirlar;

4. Salbiy vaziyatlarni bartaraf qiluvchi tadbirlar;
5. O'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni va ularning natijalarini nazoratga oluvchi tadbirlar;

Profilaktik tadbirlarning samaradorligi quyidagilarga e'tibor berilganda yuqori bo'lishi ko'zda tutiladi:

-Boladagi, ijtimoiy muhitdagi diskomfort hissiyotlarini bartaraf qilishga qaratilgan tadbirlar va ularning balog'atga yetmaganlar tomonidan vujudga kelgan muammo yechimini topishga bo'lgan qiziqishini, motivatsiyani tajribani shakllantirish;

-Bolaning sog'ligini, ma'naviy qiyofasini mustahkamlaydigan maqsadlarga qaratilgan yangi ko'nikmalarga o'rgata borish;

-Hali paydo bo'lmagan muammolarning yechimini topishga o'rgatish, ularning paydo bo'lishiga yo'l qoymaslik malakalarini shakllantirish;

Profilaktik texnologiyalarga asoslanib tuzilgan tarbiyaviy ishlar rejalarida avvalambor, o'spirinlar bilan ishlashda axborot yo'nalishiga alohida e'tiborni qaratish kerak. Bu yo'nalish mohiyatiga ko'ra balog'atga yetmaganlar ijtimoiy xulq normalaridan og'ishiga sabab: ularning muhim axborotdan chetlashtirilganligi sabab bo'ladi. Demak, bu yo'nalish bo'yicha ish olib borilganda, balog'atga yetmaganlarga ularning haq-huquqlari, mas'uliyatlari, jamiyat va davlat oldidagi ijtimoiy burchlari va vazifalari to'g'risida axborot berish lozim bo'ladi. Buni ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televizor), kino, teatr, badiiy adabiyot, Internet hamda ijtimoiy ta'lim tizimi orqali amalga oshirib, o'spirin va o'spirinlarning huquqiy ongini shakllantirish, ularda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini kamol toptirish mumkin bo'ladi. Ijtimoiy-profilaktik yo'nalishga asoslangan tadbirlar maqsadi salbiy holatlarning oldini olishga, ularning vujudga kelishini bartaraf qilishga qaratiladi. Mazkur yo'nalishning mohiyati davlat, jamiyat, muayyan ijtimoiy pedagogik muassasa tomonidan o'tkaziladigan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy, huquqiy, tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan

tadbirlar tizimi bo'lib, ular deviant xulqning pay do bo'lishiga to'sqinlik qilishga, uni minimizatsiyalashga(past darajadagi ko rinishga kelishga),bartaraf qilishga qaratiladi. Maqsadli axborotning yo'qligi sababli, masalan, giyohvand moddalarni nafaqat tarqatish, balki ularni iste'mol qilish ham jinoiy javobgarlikka olib kelishi mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lmagan yoshlar ko'p hollarda O'xshash jinoyatga qo'l o'rishlari aniqlandi. Deviant xulqlilar bilan profilaktik ishlarni o'tkazishda asosiy yo'nalishlardan yana tibbiy-biologik yo'nalish hisoblanadi, Bu yo'nalishning mohiyati maqsadli tibbiy-profilaktik xarakterga ega bo'lgan chora-tadbirlar orqali ruhiy anomaliyali, biologik sathda patologiyalarga duch bo'lganlarning ijtimoiy normalardan og'ishining oldini olishga qaratilgan. Ma'lumki, ruhiy sog'lom o'smirlar, o'spirinlar o'zining irodaviy kuchi va ma'naviy va axloqiy qadriyatlari tufayli turli jinoiy hatti-harakatlardan o'zini tiya oladi. Ammo ruhiy patologiyalarga duch bo'lganlar mayjud bo'lgan ma'naviyaxloqiy, huquqiy normalarga zid ish qila olishi qiyin bo'lmaydi. Sub'ektning bu holati «o'z faoliyatiga javob bera olmaslik»(nevmenyayemost) deb qaraladi. Shu sababli, o'smir va o'spirinlarning ruhiyatidagi patologiyalarini vaqtida aniqlay olish o'ta zarur deb hisoblanadi. O'smirlarni o'z vaqtida psixoterapevt ko'rigidan o'tishi lozim bo'lib, unga tegishli tibbiy yordam ko'rsatilishi shart. Keyingi yo'nalish- ijtimoiy-pedagogik yo'nalish bo'lib, uning mohiyati: ichki irodaviy xislatlariga tayangan holda shaxs sifatlarini qayta tiklash yoki korreksiyalashni nazarda tutadi. Akademik I. P. Pavlov fikricha, «. . . ongli, fikr mulohazali inson- o'z hohish-istaklarni jilovlay oladigan, o'z hatti-harakatlarini ma'naviy-ma'rifiy maqsadga yo'naltirgan, qonunga xilof ish qilmaydigan fuqaro hisoblanadi»(). Shu fikrdan kelib chiqqan holda, o'sib kelayotgan o'smir va o'spirinlarda quyidagi irodaviy hislatlarni shakllantirish lozim: o'z so'zining va qilayotgan ishining egasi bo'lishga o'rgatish; jamiyatga, tevarakatdagi insonlarga ziyon keltiruvchi hatti-harakatlardan o'zini tiya olishga o'rgatish. Buning uchun salbiy tasnifga ega bo'lgan

motivlardan saqlanish, ulami jilovlaSh; hozirgi paytdagi faoliyatda asosiy va muhim narsalar(o'qish, sport bilan shug'ullanish, ishlash va h.k.lar)ga diqqatni qarata olish ko'nikmasini shakllantirish; qonunga xilof bo'lmagan tizimli va rejali maqsadni o'z oldiga qo'ya olishni o'rgatish. Bunda ikkinchi darajali vayo'l-yo'lakay paydo bo'luvchi istaklami asosiy maqsadga bo'ysundira olish ko'nikmalarini shakllantirish; Iroda hamisha maqsadli va ongli regulyatsiya qila oladigan faoliyatda namoyon bo'ladi. Irodasiz, kuchsiz xarakterga ega bo'lgan yoshlar ko'p hollarda o'zgalar hohish-istagini bajaruvchilariga aylanib qolishadi. Shu sababli ular turli nojo'ya qiliqlar qilishga moyil bo'ladilar. Ularda irodalilik, sabr, matonat kabi xislatlami Shakllantirish kelajakda jamiyatda faol, axloqiy, ma'naviy qiyofali Shaxs Shakllanishiga sabab bo'ladi. Deviant xulqli yoshlarda iroda zaifligi, asotsial xatti-harakat qilishlariga sabab bo'ladi. Bunday salbiy xususiyatlar kelgusida ulaming axloqi va xulqida o'z aksini topadi. Yoshlarda ijobiy xislatlami shakllantirish, ulaming sog'lom irodali bo'lishlari uchun tarbiyaviy tadbirlami yosh xususiyatlariga mos ravishda bir qator bosqichlarda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir . Axloqiy tushunchalami o'zlashtirish jarayoni maxsus rahbarlik qilishni talab etadi. O'quvchi laming tasodifiy hollar, kuchadagilaming bema'ni ta'siri, kattalaming yaramas hatti-harakatlari ta'sirida tarkib topadigan axloqiy tushunchalari va jamoa tomonidan to'g'ri g'oyaviy rahbarlik qilinmasa, xato, noto'g'ri, buzuq tushunchalarga aylanib qolishi mumkin.

III.Yoshlarda ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi bosqichlar.Ba'zan o'quvchi turmushdagi biror fakt yoki voqeani, adabiy asarlardagi mazmunni, kinokartinalami o'zi mustaqil tushuna olmay noto'g'ri xulosalarga kelib qoladi. Juda og'ir sharoitlarda o'quvchida xato fikrlargina emas, balki ma'naviy tamoyillar va ustanovkalar ruhiga ko'ra bizga yot bo'lgan xatolar ham yuzaga kelishi mo'mkin. Ko'pchilik noto'g'ri hatti-harakatlaming yuz berishiga ana Shular sabab bo'ladi. Axloqiy ongni

tarkib toptirishning eng muhim yo'li o'quvchilarning o'zlarida to'g'ri xulq-atvomi yuzaga keltirish bilan axloqiy tajribani boyitish va umumlashtirish yo'lidir, albatta. O'quvchilardagi axloqiy bilimning turli-tuman formalari ularning ongi va his-tuyg'ulariga jonli, yorqin, otashin so'zning (jamoalarda uyushtiriladigan etik suhbatlar, leksiyalar, munozaralar) ta'siri bu ishm mazmunan boyitishi mumkin. Axloqqa doir suhbatlar qo'yidagi tamoyillar asosida tuzilishi kerak:

1. Axloqiy mavzudagi suhbatlar mazmuni jihatidan tegishli yoshdagilarga tushunarli bo'lishi lozim. Mavhum va abstrakt tushunchalar, murakkab mulohazalar bilan toliqtirib quyishgayul qo'yib bo'lmaydi.

2. Suhbat o'tkaziladigan jamoani, uning yo'nalishini bu jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlarini, o'qituvchiga, o'qishga va boshqalarga munosabatini yaxshi bilish zarur.

3. Suhbatlarni nihoyatda tez-tez o'tkazib turmaslik kerak, chunki psixologik nuqtai nazardan ular kishini toliqtirib quyishi mumkin. Agar suhbatlar konkret sabablar bilan mamlakat yoki jamoa hayotidagi biror voqeaga moslab o'tkazilsa, samarali natija beradi.

4. Suhbatni yorqin, yaxshilab tanlab olingan konkret misollar, hayotiy voqealar yoki adabiy asarlardagi faktlarni hamda kuzatishlarni tahlil qilishdan boshlab umumlashtirish hamda xulosalar chiqarishga o'tish tavsiya etiladi.

5. Emotsional tarzda keltirilgan yorqin va ta'sirchan obrazga oqilona tayanish (nafis san'atdan, adabiyot asarlaridan foydalanish. Kinofilmlar yoki teatr asarlariga kollektiv bo'lib borish yohud ularni jamoada muhokama qilish) zarur.

6. O'quvchilarning ongiga singdiriladigan qoidalarni asoslab berilishi, isbotlangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bu hamma narsani tushunib olishga va buning oqibatida dalil qabul qilishga, uning asoslanganligiga ishonch hosil qilishga oqilona isbotlarga rozi bo'lishga qodir bo'lgan o'smirlar va o'spirinlar bilan suhbat o'tkazish paytida juda muhimdir.

Boshqa tomondan, bu yoshda so'z ta'sirining samaradorligi pasayib ketishi mumkin, chunki yoshlarda rivojlanib boradigan tanqidiy tendensiyalar ko'pincha uni kattalarning dalillariga ehtiyotkorlik bilan ishonmasdan va noto'g'ri tushunib qabul etishga, ularning dalillarini rad qilishga, biror qoida bilan kelishmaslikka, kattalarning iltimoslari va talabalariga qarshi chiqishga majbur etishi mumkin. yana shuni inobatga olish lozimki, o'smirlar ko'pincha kattalarning o'ziga aql-idrokli kishi deb murojaat qilishlaridan mag'urlanib yuradi. Unda bu ishonchni oqlash, ana O'xshash munosabatga munosib kishi bo'lish istagi yuzaga keladi.

7. O'smirlarda maksimal darajada faollik, jonli ravishda fikr almashish istagini uyg'otish, ularning fikrini avj oldirish va o'zlarini axloq masalalari ustida o'ylab ko'rishga majbur qilish zarur. O'smirlarga tayyor haqiqatni zo'rlab qabul qildirish yaramaydi, axloq normalari xaqidagi xulosalami ularning faol ishtirokida (ammo o'qituvchining rahbarligida) chiqartirish kerak. Buning uchun suhbat jarayonida muhokama qilish kerak bo'lgan masalalami oldindan tayyorlab qo'yish tavsiya etiladi.

8. O'smirlarda chuqur va ta'sirchan emotsiyalami uyg'otishga intilish lozim. Bunda o'qituvchi suhbatni befarq va Shavq-zavqsiz emas, balki emotsional tarzda jonli kilib o'tkazgandagina erishish mumkin. O'qituvchi o'zining ehtirosli e'tiqodi o'smirlarga utishini unutmasligi darkor.

O'smirlarning o'zlari his etadigan to'yg'ulami taxminan qo'yidagi formada anglab olishlariga erishish juda muhimdir: "Nima uchun bu hodisa menda shunchalik g'azab va nafrat uyg'otadi?", "Nima uchun men bu xatti -harakatlardan shunchalik hayratlandim?" Tarbiyachilarning shaxsiy namunasi o'smir shaxsini tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi ko'pincha o'qituvchiga taqlid qilib, unga o'xshashga harakat qiladi, lekin birinchidan, buni ko'pincha tushunib yetmasdan qiladi, ikkinchidan o'qituvchining tashqi ko'rinishiga va qiliqlariga taqlid qiladi, chunki u Shaxsning namoyon bo'lishini tahlil

qilishini va Shaxsni barqaror hislatlarini anglab yetishga qodir emas. O'smir va o'spirin yoshidagilar esa ko'p hollarda namunaga ongli ravishda taqlid qiladilar. O'smir o'zini katta deb hisoblay boshlagandan e'tiboran kattalaming hatti- harakatlari va ishlariga taqlid qilishga intiladi. Shuning uchun unda tevarak- atrofdagi kishilaming, ayniqsa o'ziga eng yaqin va o'zi uchun eng obro'li kishilaming hatti- harakatiga qiziqish hamda e'tibor berish yuzaga keladi.

O'qituvchi qanchalik obro'li bo'lsa, uning e'tiqodi, bilimlari, fikrlari, didi o'quvchilarga Shunchalik ko'p ta'sir qiladigan bo'ladi. O'smir kattalaming biror hislatlariga taqlid qilayotib, ko'pincha bu hislatlarni Shunchalik ilib olish bilan birga, ulaming salbiy hislatlari va hatti -harakatlarini ham o'ziga singdirib oladi. Agar o'qituvchi muayyan maqsadni ko'zlaydigan va prinsipial matonatli, o'z burchini qat'iyat bilan bajaradigan bo'lsa, xuddi Shu narsalarni o'z tarbiyalanuvchisidan ham talab qilish unga oson bo'ladi. Aksincha, o'quvchining tajangligi, qo'polligi, o'zini qo'lga ola olmasligi, manmanligi o'quvchilarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar va otanonalar ba'zan tarbiyaviy ishlarda o'zlarining shaxsan namuna ko'rsatishlarining ta'sirigayetarlicha baho bermaydilar. Holbuki, ulaming qilayotgan ishlar, o'zlarining qanday tutishlari ulaming aytgan gaplariga, o'rgatgan narsalariga qaraganda kamroq emas, balki ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi.

XX asrning 20-30 yillaridayoq A. S. Makarenko Shaxs tarbiyasini pedagogik texnologiyalar tizimida o'ta dolzarb muammo, deb qaragan. Pedagogika fanining rivojlanishi «Shaxsni loyihalashni qay darajada bajarganligi bilan o'lchanadi», ya'ni tarbiya jarayonida tarbiyachi Shaxsni Shakllantirar ekan, pedagogika oldindan yangi avlod kishisini-barkamol insonni voyaga yetkaza olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak,- degan fikmi ilgari surgan. Demak, pedagogik texnologiyalarga tayanilgan holda jamiyatga zarur bo'lgan komil inson Shaxsini tarkib toptirish ,ko'p jihatdan tarbiyaviy maqsad hamda vazifalar tizimini ishlab chiqishni, tarbiyaviy metodlarni

to'g'ri tanlashni, tarbiyaviy maqsadlarni nazorat qilishni, tarbiyaviy maqsadlarga erishilganlikni baholashni taqozo etadi. Ko'rib turganimizdek, pedagogik texnologiya ikkita turli soha: texnik fanlarda-ta'lim tizimini mukammallashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv vositalari bilan ta'minlashni nazarda tutsa, gumanitar sohada, ya'ni pedagogikada ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni oldindan oydinlashtirishni taqozo etadi.

Abdulla Avloniy fikricha, «...tarbiyalash o'xshash individual tahririy dastur bilan olib borilishi kerakki, u shaxs sifatlarini tarkib toptirishda jamiyat talablaridan birmuncha ilgarilab ketgan bo'lishi zarur».To'g'ri hatti-harakatlarda amaliy tajribani uyuShtirish yuqorida ta'kidlab o'tilgandek shaxsni tarbiyalashda muhim va asosiy omildir. Tarbiyachi o'quvchilarda hattiharakatlarning o'xshash shakl va metodlarini tarkib topdirmog'i kerakki, bu shakl va metodlarda tarbiyaning hal qiluvchi ta'siri ostida yuzaga keladigan yoshlarning e'tiqodlari amalga oshsin. Hatti - harakatlarning aytib o'tilgan shakllari motivlarni, tarbiyalanuvchining ehtiyoj va munosabatlarini "moddiylashtirish" ifodasi, vositasi, shakliga aylanib qolgandagina barqaror omil bo'lib mustahkamlanadi.

A.S.Makarenko xuddi ana Shu ma'noda xulq- atvor gimnastikasi to'g'ri hatti - harakatlarni mashq qilishni uyuShtirish zamrligi to'g'risida gapirgan edi. Axloqiy xatti- harakatlarni mashq qilish-bu turli variantlardagi hatti -harakatlarni aslida bir- biriga o'xshash vaziyatlarda uyuShgan va muayyan maqsadni ko'zlagan holda takrorlashdir. Faqat ana O'xshash qilingandagina hatti - harakatlarning barqaror va ayni vaqtda umumlashgan formalarni tarkib topadi.

Sun'iy mashqlar emas, balki o'quvchi hayoti va faoliyatining tabiiy Sharoitlari nazardatutiladi. O'smirlik yoshidan boshlab, tarbiyaning yangi omili o'z- o'zini tarbiyalash vujudga keladi. O'quvchilar o'zlaridan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan Shaxs hislatlarini tarkib toptirish sohasida xulq-atvoridagi kamchiliklarga

salbiy hislat va sifatlarga barham berish sohasida ongli ravishda yondashsalar maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunda o'z ustida muntazam ravishda ishlash «. . . odamning yuksak darajada o'z - o'zini idora qiluvchi, o'z-o'zini kamol toptiruvchi birdan bir tizimdir¹»- degan edi L.I. Bojovich.

Demak, agar o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan intilishni kattalar, jamoa yetarli darajada tashxislab, boshqarib va tashkil qilib turmasalar unda o'quvchi o'zo'zini tarbiyalash mazmunida (mmani tarbiyalashda) hamda uning Shaklida (qanday tarbiyalashda) jiddiy xatolargayo'l qo'yishi mumkin.

Uzluksiz ta'lim tizimida xizmat qilayotgan o'qituvchi, tarbiyachi tashxislash jarayonida quyidagi vazifalami nazarda tutishi kerak:

birinchidan, - o'quvchida shaxsning ijobiy hislatlarini taraqqiy ettirib, o'z xulqatvoridagi yomon tomonlaridan xalos bo'lishga intilish istagini uyg'otish.

ikkinchidan, - o'smir shaxsiga tanqidiy munosobatda bo'lishda, o'z xulq-atvori dagi xususiyatлами diqqat bilan va odilona tushunib olishda, o'z kamchiliklarini yaqqol ko'rishda, o'z nuqsonlarini fahmlab olishda yordamlashish.

uchinchidan - o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalash dasturini tuzishda, Shaxs xulq-atvori hislatlarining qaysi xususiyatlarini (masalan, o'zini qo'lda tuta olish, qat'iylik, empatiya, sovuqqonlik (yaxshi ma'noda) va Shuning singarilami) taraqqiy ettirish, qaysilarga (masalan, o'jarlik, yalqovlik, qo'pollikka) barham berish kerakligini belgilab, hamda hal qilib olishda o'quvchi-yoshlarga yordam beradilar.

Xuddi shu yerda shaxs sifatlarini to'g'ri va ob'ektiv baholashda, hulq-atvordagi nuqsonlaming kelib chiqish sabablarini mohiyatan baholashda ham o'quvchilarga ko'maklaShish muhimdir. Nihoyat, to'rtinchidan - o'qituvchi, tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalashning oqilona yo'llarini ko'rsatib beradilar, Shaxsning ijobiy hislatlarini tarkib toptirish va kamchilikliriga barham berishga oid eng maqsadga muvofiq va samarali yo'llami ko'rsatadilar.

O'qituvchilik- inson jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq e'zozlab kelingan kasbdir. "O'qituvchi-deydi **A1 Forobiy**, - aql- farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur". U o'z fikrini davom ettirib: "O'qituvchi va rahbaming vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, Shu sababli o'qituvchi eShitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, yoshlarga aytmoqchi fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. shu bilan birga o'z or -nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim.

Ana Shundagina u insonlikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi¹", deb ta'kidlaydi.

Abu Ali Ibn Sinoning fikricha "O'qituvchi matonatli sof vijdonli, rostgo'y, bolani tarbiyalash yo'llarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. Muallim o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kirolmog'i lozim".

Nasriddin Tusiy o'zining "O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida" degan asarida o'xshash deydi: "O'qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo'lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi nutqi esa mutlaqo toza, jummalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim. O'qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharhandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchining o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin".

Yusuf Hojib Qoshg'ariy: "Men a'zolar kasalligini davolashdan oldin odamlarning ruxiyatini davolashni zarur deb topdim. Bunga men o'qituvchilik yo'li bilan erishaman, bunga mening ishonchim komil. Chunki a'zolar kasalligi bilan yuzlarcha, minglarcha odamlar halok bo'lsalar, nodonlik, bilimsizlik tufayli o'n ming vayuz minglarcha odamlar halok bo'ladilar>,- deb ta'kidlashlan bejiz.

Ulug mutafakkir **Alisher Navoiy** ham o'qituvchining yoshlarga ta'sir o'tkazish mehnatini xolisona baholab: "Agar Shogird nodonlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi", "Xalq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila3" - kabi satrlar bitgan. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbiq etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda jamiyat oldidagi javobgarligi yanada ortib boraveradi. Zamonaviy maktab o'qituvchisi kator vazifalami bajaradi. O'qituvchi - sinfdagi o'quv jarayonining tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars payti, qo'shimcha darslarda va Shu bilan birga darsdan tashqan hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaiidan biridir. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy pedagog-psixolog bo'lmasligi mumkin emas. shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlami yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Ma'lumki, pedagogik faoliyat - kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiyat tomonidan quyiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining Shaxsi va uning kasbiga bog'liq hislatlarga qaratilgan.

O'qituvchining eng muhim Shaxsiy hislatlari quyidagilardir:

- o'qituvchining o'z Vataniga sodiqligi, bolalami sevishi, ulami insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatning mustaqilligi g'oyasidayashashidan iboratdir;

- ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;

- oliyjanoblighi, aql-farosatli, ma'naviy pok - ma'naviyat va ma'rifat buyicha yuksak maqsadlarga mos kelishi, hislatlami jamiyat hohishi bo'yicha bolalarga singdirib borishi;

- o'zini qo'lga olabilishi, sabr-toqatli, bardam, matonatligidir.

Jamiyaming o'qituvchilik kasbigaqo'yadigan asosiy talabalari quyidagichadir:

- Shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalami mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o'z Vatani tabiatiga va oilasiga bo'lgan muhabbati:

- keng bilim saviyasiga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

- yoshlar pedagogikasi, psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;

- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasida jahon famda erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;

- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi; - bolalami bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi, empatiya hissiyatlariga ega bo'lishi;

- pedagogik texnikani (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik takt (nazokat)ga ega bo'lishi; - o'qituvchining o'z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o'qituvchi ana shu talablarga eng yuqori darajada mos keladigan bo'lishiga intilishi kerak. O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xildagi ijtimoiy kuzatishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga sub'ektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatiga naqadar tayyorligidan dalolat beradi. O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Bo'lajak o'qituvchi u yoki bu xildagi fan tomonidan qanday talablar quyilishini bilishi va Shu asnoda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogik oliy o'quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qituvchi professiogrammasi ishlab chiqilishi zarurdir. Professiogramma psixologik nuqtai nazardan ishlab chiqarish faoliyati xarakteristikasining (anik birorta kasb bo'yicha) kelgusi amaliy

ishlar uchun zarur bo'lgan mazmundagi barcha tomonlarini o'z ichiga olishi kerakligi ustida boradi.

Professiogrammada muhim hislatlarning borgan sari bir muncha ortib borishini hisobga olgan holda o'qituvchining qo'yidagi hislatlari ko'rsatib borilishi lozim:

- 1) O'qituvchining shaxsiy xislatlari:
- 2) Kasbigaxos bilimi:
- 3) O'z kasbiga xos xislatlari:
- 4) Shaxsiy-pedagogik uddaburonligi:
- 5) Tashkilotchilik malakalari:
- 6) Kommunikativ malakalari:
- 7) Gnostik malakalari:
- 8) Ijodiy hislatlari:

Professiogrammani kasbga hos ravishda tashkil qilishda ta'limning samaradorligi va uning muvaffaqiyati shaxsning qanday qobiliyat va Shaxsiy hislatlarini o'stirishda yordam berganligi inobatga olinadi. Ma'lumki, qobiliyat- bu kishining biror faoliyatiga yaroqliligi va shu faktomi muvaffaqiyati amalga oshirishidir. «Pedagogik qobiliyat- bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatii shug'ullana olishini aniqlab beradi».

Hududiy rehabilitatsion xizmat xodimlarining faoliyati qo'yidagi mexanizm asosida yuritilganda samarali kechadi:

- Rehabilitatsion xizmat ko'rsatishda muassasalararo umumhamkorlik
- Rehabilitatsion xizmat ko'rsatishni ilmiy metodik ta'minlash
- Rehabilitatsion xizmatda kadrlar masalasi
- Rehabilitatsiya qilish ob'ektlarini tanlash va diagnostika qilish
- Rehabilitatsiya sub'ektlarning kelishuvi asosida faoliyat ko'rsatish.

O'xshash qilib, nazariy va eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabdagi ta'lim tizimida o'quvchilarning umumiy tarbiyalanganlik darajasini tashxislashga qadar e'tibor berilmaydi.

Jamiyatimizdagi yoshlarni tarbiyalashda optimal uslub va vositalardan foydalanishimiz lozim, buning uchun esa avvalambor ularning tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilishimiz kerak. Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirganimizda siyqallash qolgan tadbirlardan voz kechishimiz shart. Pedagogik omillarining sotsiumga hamda har bir shaxsga ta'sir ko'rsatishini pedagogik diagnostika va korrektsiyalashda inobatga olish zarur. O'quvchi-yoshlarning yosh davrlarini hisobga olgan holda o'tkazilgan pedagogik diagnostika va korrektsiya ishlari ularning egallagan bilim sifatiga va kasbiy yo'naltirilishiga ijobiy ta'sir etadi. Maktab tizimidagi ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy tomonlarini tahlil etish shundan dalolat beradiki, pedagogik diagnostika va korrektsiyalashga qaratilgan prinsipial yangi adabiyotlar, XXI asr adabiyotlar majmualarini ishlab chiqish va tajribadan o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim beruvchi o'qituvchilar tomonidan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy fanlar blokiga kiruvchi darslarda didaktik vazifalar bilan bir qatorda tarbiyaviy masalalarning tugunini topishga harakat qilinganda tadqiq qilinayotgan muammo doirasida qo'yilgan vazifalar o'z yechimini topadi. Maktab yoshidagi o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi tashxislangandan so'ng, ularga axloqiy, huquqiy, mehnat, jismoniy va hokazo tarbiya turlari bo'yicha korrektsiyalash ishlari olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'quvchilar tarbiyalanganligining tizimlilikini, yaxlitligini va puxtaligini ta'minlaydi. Pedagogik korrektsiyalash ishlarini amalga oshirganda muassasalararo umumhamkorlikka erishish lozim. Bunda pedagogik diagnostika va reabilitatsion ishlarni amalga oshiruvchi mutasaddi kadrlarni voyaga yetkazishni nazarda tutish lozim.

Mavzu yuzasidan testlar

1. Korrektsion faoliyatda umumpedagogik metodlarning asosiy vazifasi nimadan iborat?

A) Bolaning ijtimoiy muhit bilan moslashuvini ta'minlash.

B) Ta'lim jarayonini to'liq avtomatlashtirish.

C) Tibbiy tashxisni o'zgartirish.

D) Psixologik testlarni almashtirish.

2. Korreksion faoliyatda informatsion metodlarning asosiy afzalligi nimada namoyon bo'ladi?

A) Bilimlarni mexanik yod olishga imkon yaratadi.

B) O'qituvchining nazoratini butunlay kamaytiradi.

C) O'quvchining individual rivojlanish sur'atiga moslashtirilgan ta'limni ta'minlaydi.

D) Ta'lim jarayonini faqat passiv qabulga asoslaydi.

3. Tushuntiruvchi-suhbat metodi korreksion faoliyatda qanday psixologik mexanizmga asoslanadi?

A) Ijtimoiy modellashtirish va o'zaro ta'sir mexanizmi.

B) Shaxsiy anglash va refleksiya mexanizmi.

C) Yodlash va takrorlash mexanizmi.

D) Tasodifiy muloqot mexanizmi.

4. Korreksion faoliyatda informatsion metodlardan foydalanishning ilmiy asoslari kimlarning nazariyalariga tayanadi?

A) J. Piaget va B. Skinner

B) A. Maslou va K. Yung

C) L.S. Vygotskiy, A.R. Luriya, A.N. Leontyev

D) D. Dewey va J. Bruner

5. Pedagogik shart-sharoitlarda tushuntiruvchi-suhbat metodining samaradorligini oshirish uchun birinchi navbatda nimalar zarur?

A) Qattiq intizom va standart nazorat

B) Bolaning psixologik xavfsizligini ta'minlovchi ijobiy muhit

C) Faqat o'qituvchining monologik nutqi

D) Rag'bat va jazoga asoslangan tizim

Nazorat savollari.

1. Korreksion faoliyat tushunchasining mazmunini ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan izohlang.

2. Umumpedagogik metodlarning korreksion faoliyatdagi o'рни va ularning maxsus metodlardan farqini tushuntiring.

3. Korreksion faoliyatda informatsion metodlar deganda nimani tushunasiz? Ularning asosiy turlari va qo'llanilish sohalarini keltiring.

4. Informatsion metodlarning korreksion ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirishdagi ilmiy asoslarini tushuntiring.

5. Korreksion faoliyatda tushuntiruvchi-suhbat metodining mohiyati va didaktik ahamiyatini tahlil qiling.

6. Suhbat metodi orqali bolaning kognitiv va nutqiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatish mumkin?

7. Tushuntiruvchi-suhbat metodini qo'llashda pedagogning kommunikativ kompetensiyasi qanday rol o'ynaydi?

8. Korreksion faoliyatda informatsion texnologiyalarni joriy etishning afzallik va cheklovlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qiling.

21-mavzu: Pedagogik korreksiya metodlari. Pedagogik korreksiyaning guruhli va individual tarzda tashkil etish.

Reja:

1. Pedagogik korreksiyada umumtarbiyaviy, interfaol, ta'limning ma'lumot beruvchi metodlar va ularni qo'llanilishi.

2. Maktab o'quvchilarini tarbiyaviy korreksiya qilishda qo'llaniladigan metodlarning turlari.

3. Pedagogik korreksiyaning guruhli va individual tarzda tashkil etish.

Tayanch tushunchalar: Individual yondashuv, guruhli korreksiya, faoliyatga yo'naltirilgan metod, psixopedagogik yondashuv, didaktik o'yin metodi, tashxis va monitoring. ko'rsatmalilik metodi.

I. Pedagogik korreksiyada umumtarbiyaviy, interfaol, ta'limning ma'lumot beruvchi metodlar va ularni qo'llanilishi.

Bugunning dolzarb muammolaridan biri ta'lim tizimi sifatini yaxshilash va o'quvchilarga sifatli ta'lim berish. Buning uchun pedagoglardan interfaol metodlardan unumli foydalanish, to'g'ri tanlov va o'quvchilarda qiziqish uyg'otish talab etiladi. Shu bilan birga pedagog ko'proq o'z ustida ishlashi, yangi interfaol metodlarni izlab topishi asosiy masalalardan biri bo'lib xisoblanadi. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash

talab etiladi . Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahsmunozarada fikrlash asnosida, hamjixatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi .

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lim metodlarini tegishli tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltirib o'tamiz. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar,

interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi [3]: ∞ Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va b. ∞ Interfaol ta'lim strategiyalari: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va boshqalar. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategic yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. ∞ Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va boshqalar. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezonlari ularning ta'lim mazmuni xususiyatiga mos kelishidir. Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu boisdan bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to'laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobiy o'zlashtirishga imkon tug'diradi. Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezonlari ularning talabalar o'quv imkoniyatlariga to'liq mos kelishi, ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart-sharoitlarining birligini ta'minlashdir. Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu

pedagogning o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o'qitish jarayoning qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta'lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasini hisobga oladi. Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisi-ularning o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. O'qitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi. Misol uchun debat metodi ikki talaba o'rtasidagi bahs hisoblansa, "aqliy hujumda" guruhdagi barcha talabalarning ishtiroki zarur bo'ladi. Interfaol metodlarning pedagogik texnologik prinsiplariga mos kelishi umumlashtiruvchi mezon hisoblanadi.

II.Maktab o'quvchilarni tarbiyaviy korreksiya qilishda qo'llaniladigan metodlarning turlari.

Tarbiyaviy korreksiya jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Ular quyidagilar:

1. Kuzatish metodi — o'quvchining xulq-atvori, sinfdagi o'rni, muloqot madaniyati va hissiy holatini o'rganishga yordam beradi.

2. Suhbat metodi — o'quvchi bilan samimiy muloqot orqali uning ichki kechinmalari, muammolari va fikrlarini bilish imkonini beradi.

3. Psixologik test va so'rovnomalar — o'quvchilarning psixologik holatini, ijtimoiy moslashuv darajasini va shaxsiy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

4. O'yinli metodlar — o'quvchilarni ijtimoiy moslashuvga, o'zaro hamkorlikka, ijobiy emotsiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

5. Rol o'ynash (dramatizatsiya) — o'quvchi o'zini boshqa obrazda tasavvur qilib, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishni o'rganadi, empatiya rivojlanadi.

6. Ishontirish va namuna metodi — ijobiy xulq namunalarini ko'rsatish orqali o'quvchida to'g'ri xatti-harakatlarni shakllantirishga qaratilgan.

7. Art-terapiya (ijodiy usullar) — rasm chizish, qo'shiq aytish, ertak tuzish, loy yoki bo'yoq bilan ishlash orqali o'quvchining hissiy kechinmalarini yumshatadi.

8. Sotsiometriya — sinf jamoasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlash va ijtimoiy aloqalarni yaxshilashga yordam beradi.

9. Trening metodi — maxsus mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning muloqot madaniyati, o'zini tutish qobiliyati va ijtimoiy moslashuvini rivojlantiradi. --- Tarbiyaviy korreksiya guruhli tarzda tashkil etish Guruhli korreksiya — bu bir necha o'quvchilar bilan birgalikda olib boriladigan psixologik-pedagogik faoliyat bo'lib, o'quvchilarning o'zaro hamkorligi va jamoada o'zini tutish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Guruhli korreksiya metodlari: Psixologik treninglar va o'yinlar; Guruhli suhbatlar va muhokamalar; Jamoaviy ijodiy ishlar; Sotsiometrik o'yinlar va mashqlar.

Afzalliklari: O'quvchilar bir-biridan o'rganadi;

Jamoada muloqot qilish va o'z fikrini bildirish ko'nikmalari shakllanadi;

Jamoaviy ruh, hamkorlik va o'zaro hurmat mustahkamlanadi.

Tarbiyaviy korreksiya individual tarzda tashkil etish. Individual korreksiya — bu o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, psixologik holati va muammolarini hisobga olib, u bilan alohida ishlash jarayonidir.

Individual korreksiya metodlari: Individual suhbatlar; Kuzatish va shaxsiy tahlil; Art-terapiya va musiqiy mashg'ulotlar; Rol o'ynash; Ishontirish va maslahat berish. Afzalliklari: Bola bilan chuqur muloqot o'rnatiladi; O'quvchining individual muammolari tezroq aniqlanadi; O'qituvchi bolaning shaxsiy rivojlanishini kuzatib boradi. Tarbiyaviy korreksiya o'quvchilarning ijtimoiy-axloqiy, hissiy va shaxsiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Guruhli va individual korreksiya shakllari o'zaro bir-birini to'ldiradi: individual yondashuv orqali o'quvchining shaxsiy muammolari hal qilinsa, guruhli ish orqali jamoaviy ruh va ijtimoiy faollik rivojlanadi.

Pedagog va psixologning hamkorlikdagi faoliyati o'quvchining shaxs sifatida shakllanishiga, ijobiy o'zgarishlarga erishishiga xizmat qiladi.

Testlar.

1. Pedagogik korreksiya jarayonida umumtarbiyaviy metodlarning asosiy vazifasi nimadan iborat?

A) O'quvchilarga nazariy bilim berish

B) O'quvchilarning xulqini nazorat qilish

C) Shaxsning ijtimoiy va axloqiy fazilatlarini shakllantirish

D) Faoliyatni baholash mexanizmini yaratish

2. Interfaol metodlardan foydalanish pedagogik korreksiya samaradorligini qanday oshiradi?

A) O'qituvchining nazorat funksiyasini kuchaytiradi

B) O'quvchilar orasidagi raqobatni kuchaytiradi

C) O'quvchilarni faol subyekt sifatida ishtirok etishga jalb etadi

D) O'qituvchining monologik faoliyatini kengaytiradi

3. Ma'lumot beruvchi metodlarning pedagogik korreksiya tizimidagi o'рни nimani ifodalaydi?

A) Faqat nazariy ma'lumot yetkazish vazifasini bajaradi

B) O'quvchilarga ijtimoiy me'yorlar haqida axborot beradi va anglashni shakllantiradi

C) Psixologik muammolarni tashxislaydi

D) Individual motivatsiyani pasaytiradi

4. Tarbiyaviy korreksiya metodlarining asosiy maqsadi qaysi?

A) O'quvchilarning bilish jarayonini rivojlantirish

B) Xulqdagi og'ishlarni tuzatish va ijtimoiy moslashuvni ta'minlash

C) Fikrni erkin ifoda etish ko'nikmasini rivojlantirish

D) O'quvchilarga yangi mavzu o'rgatish

5. Quyidagi metodlardan qaysi biri tarbiyaviy korreksiyada emosional-ta'sirga asoslanadi?

A) Suhbat

B) Ma'ruza

C) Kuzatish

D) O'yinli trening

Nazorat savollar.

1. "Pedagogik korreksiya" tushunchasini ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan izohlang.
2. Umumtarbiyaviy metodlar korreksion pedagogik faoliyatda qanday didaktik vazifani bajaradi?
3. Interfaol metodlarning pedagogik korreksiyadagi afzallik jihatlarini ilmiy asosda tushuntiring.
4. Ta'limning ma'lumot beruvchi (informatsion) metodlari korreksion faoliyatda qanday qo'llaniladi?
5. Korreksion jarayonda informatsion metodlarni qo'llashda o'qituvchidan qanday kompetensiyalar talab etiladi?
6. Tarbiyaviy korreksiya jarayonida qo'llaniladigan metodlarning turlari va ularning psixologik asoslarini tahlil qiling.

22-mavzu: Pedagogik korreksiyada neyrolingivistik dasturlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish. Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi

Reja:

1. Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi: fazalar, bosqichlari. Neyrolingivistik dasturlashtirish to'g'risida umumiy tushunchalar.
2. Neyrolingivistik dasturlashtirishning asosiy tamoyillari va prinsplari. Neyrolingivistik dasturlashtirishning asosiy texnikalari: langar tashlash, smart, qayta ramkalash hamda ularni amaliyotda qo'llash yo'llari.
3. Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi va texnologiyaning tayyorgarlik ko'rish fazasi.

Tayanch tushunchalar : Neyrolingivistik dasturlashtirish, Sensor tizimlari, Reframing, Til va nutq orqali ta'sir, Vizual, Audial, Kinestetik, Qayta talqin qilish, Tayanch nuqta yaratish, Emosional aloqa o'rnatish.

I.Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi: fazalar, bosqichlari. Neyrolingvistik dasturlashtirish to'g'risida umumiy tushunchalar.Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi: mohiyati va nazariy asoslariFaoliyat samaradorligi tushunchasiShaxs faoliyati samaradorligi — bu insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishdagi natijadorligi, energiya sarfi, vaqt boshqaruvi va psixologik barqarorlik o'rtasidagi optimal muvozanatni ifodalovchi psixologik-pedagogik kategoriya hisoblanadi. U insonning motivatsiyasi, o'zini boshqarish malakalari, kognitiv jarayonlar faolligi va emotsional intizomiga bevosita bog'liq.Samaradorlikni oshirish texnologiyalari shaxsning kognitiv, affektiv va ijtimoiy sohalarini uyg'unlashtirishga, shuningdek metakognitiv nazorat (ya'ni "o'z fikrlashini boshqarish")ni rivojlantirishga qaratilgan. Insonning aqli bor. Bu ko'pincha otalar, o'qituvchilar va butun jamiyat tomonidan shakllantiriladi. Agar inson qanday dasturlashtirilganligini tushunsangiz, unga ta'sir qilishingiz mumkin. Fikrlash faoliyatining xususiyatlari ham hisobga olinadi. Siz odamni mutlaqo tanimaysiz, lekin uning fikrlash jarayoniga tabiiy ravishda mos keladigan tarzda ta'sir qilishingiz mumkin. Veb-sayt psixologik yordam sayt ko'plab o'quvchilar ta'sir qilish sirlarini bilishni xohlashlarini tushunadi. Biroq, neyrolingvistik dasturlash doimiy ravishda o'qitilishi kerak, chunki bu nazariyaning izdoshlari ham hali barcha sirlarni ochib berishmagan. Har kuni inson dasturlash uchun ob'ekt hisoblanadi. U xuddi robot yoki kompyuter kabi dasturlashtirilgan , bu o'ziga emas, balki uni dasturlashtirgan boshqa odamlarga ma'qul. Ular buni qanday qilishadi? Asosiy usullar qo'rquv yoki takrorlashda manipulyatsiyadir. Qo'rqqaningizda, siz o'zingizni boshqarolmaysiz, ya'ni siz odatda qiladigan ishni qilasiz, vahima qo'yasiz. Agar siz doimo bir xil narsani takrorlasangiz, vaqt o'tishi bilan siz bu fikrga ko'nikasiz va ular sizga aytadigan yoki sizga qilgan ishlariga rozi bo'lasiz. Siz yozma yoki og'zaki so'z bilan ifodalagan g'oya orqali odam muayyan harakatlar uchun dasturlashtirilishi mumkin.

Odamga faqat uning boshiga qanday g'oyani ekmoqchi ekanligingizni ayting. Vaqt o'tishi bilan, ongsiz darajada, u buni eslab qoladi va o'rnatilgan fikrga muvofiq harakat qiladi. Bu erda printsip qo'llaniladi: siz qilayotgan, ko'rgan, gapirgan, eshitgan va hokazolar sizning kelajagingizni shakllantiradi. Va bu erda kelajak so'zlar yordamida shakllanadi, uning ma'nosini siz boshqa odamning boshiga kiritmoqchisiz. Aksariyat odamlar aniq vaziyatni - falsafiy fikrni emas, balki sodir bo'layotgan voqealarning rasmini yoki tasvirini osonroq idrok etadilar. Boshqacha qilib aytganda, rasmni ko'rsatish yoki odam uni eslab qoladigan va ongsizligida qoladigan shunday vaziyatni yaratish yaxshiroqdir. Bundan tashqari, odamlar uzoq nutqlarni yoki matnlarni yoqtirmaydilar. Qisqa iboralar, shiorlar yoki iboralar esda qolarliroq. Shuning uchun, agar siz odamlarga so'z bilan ta'sir qilmoqchi bo'lsangiz, aniq va aniq tildan foydalanib, kamroq gapiring.

II. Neyrolingivistik dasturlashtirishning asosiy tamoyillari va prinsplari. Neyrolingivistik dasturlashtirishning asosiy texnikalari: langar tashlash, smart, qayta ramkalash hamda ularni amaliyotda qo'llash yo'llari. Neyro-lingvistik dasturlash nima?

Neyro-lingvistik dasturlash (NLP) - bu yaqinda paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, u asosan insonning fikrlash faoliyatiga kerakli harakatlarni amalga oshirishga kirishadigan tarzda ta'sir qiladigan texnika va texnikalar to'plamini anglatadi.

Odatda odamlar boshqa odamlarni boshqarish va manipulyatsiya qilish istagi bilan NLPga murojaat qilishadi. Aslida, psixologlar ushbu usullarning samaradorligiga shubhaqilishadi. Albatta, inson o'z xohishiga qarshi ta'sir qilishi mumkin. Biroq, u erkin odam bo'lishda davom etmoqda. Agar u hushyor bo'lib qolsa va taslim bo'lishni istamasa, unda hech qanday NLP texnikasi ishlamaydi. Dastlab, Neyro-lingvistik dasturlash insonning o'zini o'zgartirishga qaratilgan edi. Inson muvaffaqiyatga erisha oladi va agar foydalansa, o'z hayotini o'zi yoqtirgandek qiladi maxsus

texnikalar va o'ziga ta'sir qila boshlaydi. NLP-da qo'llaniladigan ko'plab texnikalar mavjud, ulardan ba'zilari mashhur:

1. So'zdan foydalanish. Odamlar bu so'zning ma'nosini hali to'liq anglab etishmagan, bu aslida juda kuchli ta'sir ko'rsatadi.

2. Og'zaki bo'lmagan darajada sozlash. Har bir o'quvchi tushunishi kerakki, uning miyasi ma'lum naqshlar, stereotiplar, e'tiqodlar, qo'rquvlar, komplekslar, his-tuyg'ular, tajriba va boshqalar joylashtirilgan kompyuter turidir.

Bularning barchasi endi insonning xulq-atvoriga, uning tanlov qilish va tanlash strategiyasiga ta'sir qiladi. qarorlar, uning turmush tarzi va hokazo. Agar inson o'z hayotidan yoki o'zidan norozi bo'lsa, unda u, birinchi navbatda, barcha muammolar uning boshida ekanligini tushunishi kerak. Odamni harakat qilishdan baxtsiz qilgan boshqa dasturlarni oldini olish uchun siz o'zingizni sozlash uchun maxsus usullardan foydalanishingiz mumkin. Neyro-lingvistik dasturlash usullari Neyro-lingvistik dasturlash Bandler, Erikson va Grinder tomonidan ishlab chiqilgan. Dastlab, psixiatriya amaliyotida qo'rquv, fobiya, stressli vaziyatlar va boshqalarni yo'q qilish uchun usullar qo'llanilgan. Biroq, NLP mashhurlik kasb etdi. oddiy odamlar ular ham o'zlarining ongsizligiga mustaqil ravishda ta'sir qilishni xohlashdi. Boshqalarga neyrolingvistik ta'sir natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgarlikni o'z zimmangizga olishingiz kerak. NLP texnikasi ham foydali, ham zararli bo'lishi mumkin. Reklama texnikasi juda keng tarqalgan bo'lib, bu erda mutaxassislar barcha to'siqlarni va himoya psixologik mexanizmlarini chetlab o'tishga harakat qilishadi. Avvalo, odam ma'lumotni qanday qabul qilishi hisobga olinadi va keyin tegishli so'zlar allaqachon qo'llaniladi:

Vizual tasvirlarga (ma'lumotni asosan ko'zlari bilan idrok etadigan odamlar) "qarang", "e'tibor bering", "nigohingizni aylantiring" kabi so'zlar ta'sir qiladi. Audiallarga (asosan ma'lumotni quloqlari orqali qabul qiladigan odamlarga) "tinglash", "eshitish", "tinglash" kabi so'zlar ta'sir qiladi. Kinestetik (ma'lumotni taktil

sezgilar orqali qabul qiladigan odamlar) "tegish", "yumshoq", "his qilish" kabi so'zlar bilan ta'sirlanadi. Neyro-lingvistik dasturlash inson hayotini o'zgartirishi mumkin. Bularning barchasi insonning kuchlarni qanday yo'naltirishiga bog'liq. Siz qo'rquv va salbiy his-tuyg'ulardan xalos bo'lishingiz mumkin. Siz o'zingizning hurmatingizni oshirishingiz mumkin. Muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun yangi ko'nikmalarni rivojlantirishingiz mumkin. Muayyan hodisalarga yoki umuman hayotga munosabatingizni o'zgartirishingiz mumkin. Rashk tuyg'usining paydo bo'lishi misolidan foydalanib, neyrolingvistik dasturlash qanday ishlashini ko'rib chiqaylik:

1. Birinchidan, odam sherigining xiyonatining rasmlarini tasavvur qiladi. Ya'ni, vizual kanal mavjud.

2. Keyin odam xiyonat paytida (eshitish kanali) nola va xo'rsinishlarini tasavvur qila boshlaydi.

3. Rashk rivojlanadi (kinestetik kanal). Sizning his-tuyg'ularingizni o'zgartirish uchun birinchi yoki ikkinchi bosqichda skriptni o'zgartirishingiz kerak: Misol uchun, vizualizatsiya bosqichida siz rasmlarning yolg'on, isbotlanmagan, yolg'on ekanligini bilishingiz kerak. Eshitish idroki bosqichida siz sevishganlar hazil dasturi yoki multfilm musiqasi bilan jinsiy aloqada bo'lishlarini tasavvur qilishingiz kerak. Uchinchi bosqichda, agar dastlabki ikki bosqich to'g'ri bajarilgan bo'lsa, rashk paydo bo'lmaydi. NLP sizning maqsadingizga erishishga imkon beradigan ko'plab usullarni taklif qiladi. Mana ulardan ba'zilari: "Filmni yoqing" - qo'yib yuborish yoki biron bir xotirani unutish kerak bo'lganda. Har safar xotiralar rasmini butunlay yo'qolguncha yorqinroq va yorqinroq qilish kerak. Unutilgan narsalarni eslab qolish uchun siz xotirani imkon qadar tez-tez boshingizda aylanib chiqishingiz, "bo'rttirib yuborishingiz", nima bo'lganligi haqida taxminlar qilishingiz kerak, xotira o'chirilguncha buni bajaring. "Yigirma yildan keyin" - hozirgi tajribalarning kuchini kamaytirish kerak bo'lganda. Buning uchun yigirma yil o'tgach, o'zingizni, joyni

yoki boshqa odamni tasavvur qilishingiz va unga nisbatan qanday his-tuyg'ularga ega ekanligingizga (vaziyatga) e'tibor berishingiz kerak.

NLP-ning muhim usuli - bu munosabatlar - odamni suhbatdosh bilan ishonch va xayrixohlik bilan aloqa o'rnatish uchun unga moslashtirish. Bu odamning pozasini olish, imo-ishoralar va yuz ifodalarini bajarish orqali amalga oshiriladi. Neyro-lingvistik dasturlash odamlarni xuddi istalgan natijaga erishilgandek harakat qilishga taklif qiladi. Bu odamga ko'plab qisqichlardan va ichki qo'rquvlardan xalos bo'lishga imkon beradi. Inson hozirgi paytda eng foydali harakatni amalga oshiradi va har doim yaxshi niyatlardan kelib chiqadi, deb ishoniladi. Salbiy natija yomon narsa emas, balki insonning keyingi safar boshqacha harakat qilish qobiliyatini ko'rsatadi, chunki u salohiyatga ega. NLP ning yana bir usuli - bu "Anchor" - bu odam o'zida yoki boshqa shaxsda shartli stimulyordamida ma'lum bir holatni keltirib chiqarishni xohlasa. Demak, odam boshdan kechirayotganda doimiy ravishda qandaydir harakatni bajaradi, biror so'z aytadi yoki biror narsani kuzatadi ijobiy his-tuyg'ular. Ushbu jarayonni bir necha marta takrorlagandan so'ng, siz shunchaki bir so'z aytishingiz, harakat qilishingiz yoki ob'ektga qarashingiz mumkin, shunda ijobiy his-tuyg'ular paydo bo'ladi. shartli refleks.

Neyrolingvistik dasturlash misollari .Neyrolingvistik dasturlash odamlar ta'sir qilishni va kerakli natijalarga erishishni xohlaydigan ish joyida mashhurlikka erishdi. Shunday qilib, eng mashhur sohalar menejment, savdo, reklama va hatto siyosatdir. Biroq, NLP-dan foydalanadigan odamlar bor sevgi munosabatlari, shuning uchun, masalan, pikap kabi yo'nalish ma'lum, qaysi taklif etadi turli yo'llar bilan qizlarni tezda jalb qilish. Nima uchun odamlarni biror narsa uchun dasturlashtiring? Har bir inson boshqalarga ta'sir o'tkazishni xohlaydi, shunda ular o'zi xohlagan narsani qiladilar. Albatta, faqat bir nechtasi bunday ta'sirga ega. Ammo agar siz qattiq harakat qilsangiz, o'zingiz boshqalar bilan bunday aloqaga

yaqinlasha olasiz, shunda ular sizning istaklaringizni amalga oshirishni boshlaydilar. O'z so'zlaringiz bilan odamlarni qanday dasturlash mumkin? Eng oddiy va oson qoida: faqat sizning xohishingizga bevosita tegishli bo'lgan narsani aytishingiz kerak. Bajarishni istamagan narsangizni ayt mang. Esda tutingki, sizning barcha so'zlaringiz suhbatdoshingizning boshida muhrlangan va keyin uning harakatlari orqali amalga oshiriladigan dasturlardir. Nima xohlaysiz? Siz nima haqida gapiryapsiz. Qolgan hamma narsani unut. Hayotingizda nimani ko'rishni xohlamasligingiz haqida bir og'iz so'z ayt mang. Haqiqatan ham odamni shu tarzda dasturlash mumkinmi? mumkin. Axir, ular "agar siz boshqalarga uning cho'chqa ekanligini doimo aytsangiz, u tez orada xirillab qoladi", deyishadi.

III.Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi.

Bu insonning bilish, mehnat, o'qish va ijodiy faoliyatini yuqori natijalarga yo'naltirishga qaratilgan tizimli pedagogik-psixologik jarayondir. Mazkur texnologiya shaxsning imkoniyatlarini aniqlash, ularni rivojlantirish va faoliyatda optimal natijaga erishishni ta'minlaydi. Bu texnologiyaning asosiy maqsadi — o'quvchi yoki shaxsning faol fikrlashi, tashabbuskorligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishdir. U insonning o'z ustida ishlash, maqsad qo'yish, natijani tahlil qilish va o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasining asosiy yo'nalishlari: Motivatsiyani shakllantirish — shaxsni faoliyatga undovchi ichki ehtiyoj va qiziqishlarni rivojlantirish. Maqsadga yo'naltirish — faoliyatni aniq maqsad va natija sari yo'naltirish. O'zini boshqarish va nazorat qilish — shaxsning o'z xatti-harakatlarini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirish. Refleksiya (o'z faoliyatini tahlil qilish) — bajarilgan ishni baholash, kamchiliklarni aniqlash va keyingi bosqich uchun xulosalar chiqarish. Hamkorlikda o'rganish va tajriba almashish — jamoaviy faoliyat orqali bilim va ko'nikmalarni boyitish.

Texnologiyaning natijasi: Shaxsda o'z kuchiga ishonch ortadi; Faoliyatda mas'uliyat va tashabbuskorlik rivojlanadi; O'quvchi yoki xodimning mehnat unumdorligi oshadi; O'z-o'zini rivojlantirishga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Texnologiyaning tayyorgarlik fazasi. Har qanday pedagogik yoki rivojlantiruvchi texnologiya singari, shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi ham tayyorgarlik bosqichi (fazasidan) boshlanadi. Bu bosqich texnologiyani samarali amalga oshirish uchun zarur sharoit va omillarni yaratishga qaratilgan. Tayyorgarlik fazasining asosiy vazifalari:

1. Ma'lumot to'plash va tahlil qilish – shaxsning hozirgi faoliyat holati, psixologik xususiyatlari, motivatsiyasi, kuchli va zaif tomonlari o'rganiladi.

2. Maqsadni aniqlash – texnologiyani qo'llashdan kutilayotgan asosiy maqsad va natija belgilanadi (masalan, o'quvchilarda mas'uliyatni oshirish yoki mustaqil fikrlashni rivojlantirish).

3. Sharoit yaratish – moddiy, ma'naviy va tashkiliy omillar tayyorlanadi: muhit, vositalar, o'quv material, vaqt va joy belgilanadi.

4. Ishtirokchilarni tayyorlash – texnologiyada qatnashuvchi shaxslar (o'quvchilar, pedagoglar, psixologlar) faoliyatga ruhiy va metodik jihatdan tayyorlanadi.

5. Dastur tuzish – amalga oshiriladigan ishlar ketma-ketligi, metodlar, vositalar va baholash mezonlari belgilanadi. Tayyorgarlik bosqichining ahamiyati: Bu bosqich texnologiyaning keyingi bosqichlarida muvaffaqiyatli natijaga erishish uchun asos yaratadi. Agar tayyorgarlik fazasi puxta tashkil etilmasa, faoliyat jarayonida qiyinchiliklar, motivatsiya pasayishi yoki kutilgan natijaning chiqmasligi mumkin. Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi insonning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bu texnologiyaning tayyorgarlik fazasi esa jarayonning poydevorini tashkil etadi — u maqsadni aniqlashtirish, ishtirokchilarni tayyorlash va sharoit yaratish orqali faoliyatni

samarali boshlash imkonini beradi. Natijada shaxs o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqaradi, o'z faoliyatida yuqori natijalarga erishadi.

Testlar.

1.Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi asosan nimaga qaratilgan?

- A) Ijtimoiy munosabatlarni kuchaytirishga
- B) Shaxsning ichki resurslarini faollashtirishga
- C) Yangi fanlarni o'qitishga
- D) Nazorat tizimini takomillashtirishga.

2.Neyrolingvistik dasturlashtirish termini ilk bor kimlar tomonidan kiritilgan?

- A) J. Piaje va L. S. Vygotskiy
- B) R. Bandler va J. Grinder
- C) A. Leontyev va S. Rubinshteyn
- D) D. Kolb va A. Bandura

3."Langar tashlash" texnikasining mohiyati nimada?

- A) Hissiy holatni ma'lum tashqi stimullar bilan bog'lash
- B) Harakatni to'xtatish
- C) Maqsadni o'lchash
- D) Qarorlarni tahlil qilish

4.Kognitiv tayyorgarlikda asosan nimalar amalga oshiriladi?

- A) Fikr va hissiyotlarni nazorat qilish
- B) Zarur bilim va malakalarni shakllantirish
- C) Stressni kamaytirish
- D) Rag'batlantirish tizimini yaratish

5.Pedagogik korreksiyada NLP texnologiyalarini qo'llashning asosiy vazifasi:

A) O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida psixologik to'siqlarni bartaraf etish

- B) Nazoratni kuchaytirish
- C) Faoliyatni avtomatlashtirish

D) O'quv dasturini qisqartirish

Nazorat savollar.

1.Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?

2.Neyrolingvistik dasturlashtirish atamasi kimlar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan?

3.NLPda "Har bir xatti-harakatning o'z ijobiy niyati bor" tamoyili qanday izohlanadi?

4.Tayyorgarlik fazasida amalga oshiriladigan asosiy faoliyat turlari nimalardan iborat?

5.Kognitiv tayyorgarlik jarayonida shaxsda qanday o'zgarishlar kuzatiladi?

6.Pedagogik korreksiya va NLP o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qiling.

23-mavzu: Pedagogik diagnostika va korreksiyaning samarali tashkil etish va umumta'lim maktablari o'quvchi qizlarni ijtimoiy faolligini oshirishda tarbiyaviy diagnostika metodlaridan foydalanish.

Reja:

1.Ta'lim muassasida tarbiyaviy diagnostika va korreksiya faoliyatini

tashkillashtirish yo'llari.

2.Pedagogik korreksiyaning samarali tashkil etishning shart-sharoitlari.

3.O'quvchi - qizlarni ijtimoiy faolligini oshirish-tarbiyaviy muammo sifatida.

Tayanch tushunchalar: Tarbiyaviy diagnostika, ijtimoiy faollik, korreksion yondashuv, diagnostic metodlar, motivatsion qo'llab-quvvatlash, hamkorlik va muloqot madaniyati, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, monitoring va tahlil.

I.Ta'lim muassasida tarbiyaviy diagnostika va korreksiya faoliyatini

tashkillashtirish yo'llari.Qomusiy lug'atda "korreksiya" so'zi "tuzatish" deb talqin qilingan. Maxsus pedagogikaga oid darslik va o'quv qo'llanmalarda "korreksiya" tushunchasiga "anomal bolalarning psixik va fiziologik rivojlanishidagi tafovutlarni bartaraf qilish yoki kamaytirishga qaratilgan jarayon, chora-tadbirlar tizimi" deb qaraladi (V.V. Voronkova, I.G.Eremenko, S.D.Zabramnaya, V.A.Lapshin, B.P.Puzanov, P.M.Pulatova va boshqa.). Korreksiya - hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyatdir (M. Quronov). Pedagogik korreksiya - tarbiya jarayonida yoshlarning ma'naviy- ma'rifiy sohalarda oldin yo'l qo'ygan nuqsonlarini bartaraf etish jarayonidir (R.S.Nemov, D.V.Olshanskiy G.Broer, G.Mattes). Pedagogik korreksiyaning mohiyati - o'quvchilar shaxsiy sifatlarining rivojlanganlik darajalarini tahlil qilib, ularning ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash hamda tuzatishga, ijtimoiy va kasbiy zarur fazilatlarni yanada rivojlantirishga maqsadli yo'naltirilgan pedagogik tadbirlar tizimidan iboratdir. O'quvchilar bilan pedagogik korreksiya faoliyatini tashkil etishning, pedagogik faoliyatning boshqa turlari kabi o'z maqsadi, obyekti, sub'ekti, vazifalari, metodlari va vositalari mavjud.

II.Pedagogik korreksiyaning samarali tashkil etishning shart-sharoitlari.Ta'lim muassasalarida pedagogik korreksiyaning asosiy maqsadi - o'quvchi- yoshlar shaxsini maqsadli rivojlantirish, ularning istiqboldagi ijtimoiy- psixologik va kasbiy adaptatsiyasi jarayoni samaradorligini oshishiga ijobiy ta'sir qiluvchi sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish, mazkur jarayonga salbiy ta'sir etuvchi omillarni tuzatish va bartaraf etishdan iborat. Shu sababli ta'lim muassasalarida o'quvchilar bilan pedagogik korreksiya faoliyatini tashkil etishning asosiy vazifalari deb quyidagilarni belgilash mumkin:

- deviant xulqli o'quvchilardagi mavjud og'ishlarni korreksiya qilish;

- o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish samaradorligi hamda ijtimoiy faolligini maqsadli oshirish;

- o'quvchilarda ijtimoiy me'yorlarga mos keladigan ijobiy fazilatlarni shakllantirish;

- o'quvchilarning samarali ijtimoiylashuviga yordam beradigan (kompensator) fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish;

- o'quvchilarda bo'lajak kasbiy faoliyatiga salbiy ta'sir qiluvchi (yoki qilishi mumkin bo'lgan) sifatlarni bartaraf etish;

- o'quvchilarda bo'lajak kasbiy faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantirish;

- o'quvchilarda mustaqil ta'lim olishga intilishni shakllantirish;

- o'quvchilarni individual tarzda korreksiya qilish va rivojlantirishda

- ta'limning differentsiallashgan pedagogik sharoitlarini yaratish;

- ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari faoliyatini psixologik- pedagogik

- ta'minotini amalga oshirish;

- ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari - ma'muriyat, pedagoglar,

o'quvchilar hamda ularning ota-onalari bilan in-klyuziv ta'lim masalalari

bo'yicha informatsion-ma'rifiy tadbirlarni olib borish.

Pedagogik ta'sir samaradorligi ta'sir obyekti va ta'sir subyektlarining o'zaro munosabatiga bog'liq bo'lib, bu hol tarbiyaviy ta'sir obyektining o'zi tarbiya jarayonida faol ishtirok etishini, uning o'zi barkamol bo'lishga intilishini hamda pedagog tomonidan bo'ladigan ta'sirga ongli munosabat shakllarini taqozo etadi. O'quvchining ta'lim- tarbiya jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlikni, barkamol bo'lishga intilishni hamda pedagog tomonidan bo'ladigan tarbiyaviy ta'sirlarga ongli munosabatda bo'lishni shakllantirish "tarbiyaviy mobillikni shakllantirish jarayoni" deb

nomlanadi. O'quvchida bo'lajak korreksioyalarga nisbatan ehtiyojning shakllanganligini esa "tarbiyaviy mobillik" deb yuritiladi. Yoshlarda tarbiyaviy mobillikni shakllantirishda ulardagi mavjud qobiliyat va fazilatlarning shakllanganlik darajalaridan kelib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shaxsda u yoki bu fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish, ko'p jihatdan, korreksiya jarayonidagi maqsadli ko'rsatmalarga bog'liq bo'ladi. Bu ko'rsatmalar shaxsni bo'lajak faoliyatga psixologik tomondan tayyorlanib borishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham pedagogik korreksiya faoliyatini "shaxsni tarbiyalanish jarayonini boshqarish, unda zarur bo'lgan ijtimoiy, psixologik va kasbiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish" deb ham qarash mumkin.

Shaxsning alohida olingan fazilatini rivojlantirish nihoyatda katta muammo hisoblanadi. Masalan pedagogik korreksiya jarayonida o'quvchidagi "jur'atsizlik" sifatini (aslida buni illat deb hisoblash mumkin) kamaytirish yoki "ijtimoiy faollik" fazilatini rivojlantirish maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa, korreksion faoliyat jarayonida yaxlit shaxs sifatleri tizimini, uning xarakteridagi barcha kuchli va ojiz tomonlarini hisobga olishga to'g'ri keladi, Bunda korreksion ta'sirning yo'llari va vositalarini tanlashda ham o'quvchi shaxsining individualligini, uning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish lozim bo'ladi. Bu esa, o'z o'rnida korreksion tadbirlarning o'quvchini shaxsiy, axloqiy va kasbiy xislatlarini, hayotiy tajribasini hamda tuzatilishi rejalashtirilgan sifatlarga nisbatan undagi munosabatni hisobga olgan holda individuallashtirilishi talab qilinadi.

- o'quvchida korreksiyaning maqsadi tog'risida aniq tushunchaning shakllanganligi;

- o'quvchi belgilangan maqsadga erishish uchun korreksiya jarayonida bajarilishi zarur bo'lgan vazifalarni hamda ularning ketma-ketligini bilishi;

- pedagog va o'quvchining korreksiya jarayoniga tayyor bo'lishi;

- korreksiya jarayonida o'quvchining faolligiga erishish;

- pedagog tomonidan o'z tajribasini tahlil qilib, uning ijobiy va salbiy jihatlarini farqlashga intilishi;
- korreksiya jarayonida vaqt me'yorlariga rioya qilish;
- zarur moddiy-texnika bazasining mavjudligi.

III.O'quvchi - qizlarni ijtimoiy faolligini oshirish-tarbiyaviy muammo

Sifatida.Bugungi zamonaviylashuv jihatidan rivojlanayotgan davlatda hotin-qizlarga ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod o'quvchi qizlariga globallashuvning tobora yuqorilashayotgan tizimiga ko'ra tarbiyaga alohida yangicha yondashuvlar olib kirgan holda ijobiy fazilatlarni shakllantirishda, hunar o'rgatishda ota-ona, oila a'zolari va mahalla bilan bir qatorda maktablar ham samarali ta'sirini o'tkazmoqda. Chunonch, ijtimoiy faoliyatini shakllantirishda keng ko'lamli chora-tadbirlar olib borilib, ko'zlanga maqsadlarga o'rinma-o'rin erishib kelishilmoqda. Jumladan, maktablarda yo'lga qo'yilgan to'garaklar, yutuqli bellashuvlar, ko'rik-tadbirlar, kreativlikni shakllantiruvchi yig'ilishlar o'tkazilib, maktab reytingini ko'tarib bermoqda. Bu kabi foydali ishlar ham maktab reytingi uchun, ham o'quvchi qizlarining keyingi hayoti uchun juda katta hissa qo'shmoqda. Bundan tashqari Respublikamizda qizlarni sog'lom va barkamol avlodni shakllantirish, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish dolzarb mavzuga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu sababdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 3 -maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 -dekabrdagi 1059-son qaroriga ko'ra, «Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasi» qabul qilindi. «Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontseptsiyasi»da belgilangan vazifalardan kelib chiqib, xotin-qizlarda jamoatchilik, siyosat, huquq-tartibot, ishlab chiqarish,

ta'lim, sanoat, tadbirkorlik, boshqaruv sohalarida o'ziga ishonchni hamda faollikni oshirishni oldilariga maqsad qilib olishadi. Shundan kelib chiqib, har bir millatning kelajagini ta'minlashda qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, to'g'ri yo'nalish bera olish, foydali shaxs qilib ta'minlashni ustivor vazifa sifatida olish mumkin. Ularga yoshlariga mos faoliyat turlarlarini tanlab berish har bir pedagogning burchi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchi qizlarida «Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontseptsiyasi»ning gender pedagogik imkoniyatlari hamda qizlar tarbiyasining milliy-pedagogik negizlari ochib berilgan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev: «Ma'lumki, har qanday mustaqil davlat mustahkam ma'naviy poydevorga ega bo'lgandagina yuksak taraqqiyotga erisha oladi. Shu maqsadda biz «Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontseptsiyasi» doirasida umumta'lim maktablarida birinchi marta «Tarbiya» fanini joriy etmoqdamiz», deya ta'kidladi. Bugungi kunda O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshiralayotgan islohotlar hamda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarning muhim ahamiyati orqali vazifalarni amalga oshirishda tariximiz va bugungi kunimizdagi holatini e'tiborga olgan holda o'rganish, tahlil qilish hamda kerakli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

O'quvchi qizlarni ijtimoiy faolligini oshirish uchun albatta ularni rag'batlantirish maqsadga muvofiq. Rag'batlantirishni 2 asosiy turi bor. Bular:

1) Moddiy 2) Ma'naviy

Moddiy rag'banlantirishga faollikka erishgan o'quvchi qizlarga qimmatbaho sovg'alar, pul mukofotlari va hakoza hisoblanadi. Ma'naviy rag'batlantirishga diplom, faxriy yorliqlar, tashakkurnoma va boshqalar. Hozirga kunda ma'naviy mukofotlarning turlari va imtiyozlari ko'paygan. Bunga misol qilib, "Zulfiyaxonim" nomidagi davlat mukofoti, "To'maris qizlari" sport mukofoti va olimpiadalardagi mukofotlarni olsag bo'ladi. Ya'ngilalanayotgan O'zbekistonda yoshlar, ayniqsa xotin-qizlarning o'rni beqiyos. Yangi

avlodni yetishtirib, tarbiyalash ayollar zimmasida, shunday ekanmaktab yoshidagi qizlarga alohida e'tibor zarur. Jumladan, ularning sog'liqlari, yashash tarzi, qiziqishlari, kelajakda jamiyatda o'z o'rnini topish uchun muhim omillar hisoblanadi. Hozirda davlat boshqaruv organlarida, tibbiyotda, yuridik sohada, tadbirkorlikda peshqadam bo'lib kelayotgan xotin-qizlarni uchratish mumkun. Yurtimizda akademik, proffessor, fan doktorli bo'lgan ayollar ko'p. Maktab o'quvchi qizlariga ular bilan uchrashuv, yaqindan suhbatlar tashkil qilish qizlarni ijtimoiy faolligini yanada oshiradi. Ularda intiluvchanlikni shakllantiradi. O'quvchi qizlar bizning faxrimiz, yurtimiz kelajagi!

Testlar.

1.Tarbiyaviy diagnostika va korreksiya o'zaro qanday bog'liq?

- A) Mustaqil jarayonlar
- B) Diagnostika korreksiyaga asos yaratadi
- C) Korreksiya diagnostikasiz amalga oshiriladi
- D) Ular bir-biriga ta'sir qilmaydi

2. Korreksion ishlar kim tomonidan olib boriladi?

- A) Faqat sinf rahbari
- B) Psixolog, pedagog va ota-onalar hamkorligida
- C) Faqat maktab rahbari
- D) Faqat o'qituvchi

3.O'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini aniqlashda sotsiometriya metodi nimalarni o'rganadi?

- A) O'quvchilarning bilim darajasi
- B) Guruhdagi shaxslararo munosabatlar tizimi
- C) Fikrlarni yozma tarzda ifoda etish
- D) Axloqiy qadriyatlarni baholash

4.O'quvchi qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda eng samarali yondashuv qaysi?

- A) Ma'muriy talablar orqali faollikni oshirish

- B) O'zini-o'zi boshqarish va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish
- C) Faqat nazariy suhbatlar tashkil etish
- D) Rag'batlantirish tizimini kamaytirish

5. Tarbiyaviy diagnostika samaradorligini ta'minlovchi asosiy omil:

- A) O'quvchiga shaxs sifatida yondashish
- B) Qattiq intizom va nazorat
- C) Boshqa o'qituvchilarni jalb qilmaslik
- D) Faqat testlar o'tkazish.

Nazorat savollar.

1. Pedagogik diagnostika tushunchasiga qanday ta'rif beriladi?
2. Tarbiyaviy diagnostika jarayoni qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
3. Pedagogik korreksiya faoliyatining mazmuni nimalardan iborat?
4. Tarbiyaviy diagnostika va pedagogik korreksiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntiring.
5. Umumta'lim maktabida tarbiyaviy diagnostika faoliyatini tashkil etishda kimlar ishtirok etadi?
6. Tarbiyaviy diagnostika jarayonida qo'llaniladigan asosiy metodlar qaysilar?
7. Anketalashtirish metodining afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
8. Sotsiometriya metodi orqali qanday ma'lumotlar aniqlanadi?
9. Tarbiyaviy kuzatish metodi qanday sharoitlarda samarali hisoblanadi?
10. Suhbat metodi tarbiyaviy diagnostikada qanday maqsadda qo'llaniladi?
11. O'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligi tushunchasini izohlang.
12. O'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik korreksiyaning o'rni qanday?

24-mavzu: Bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlarning psixologik-pedagogik tashxis qilish metodologik tamoyillar.

Reja:

1.Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlar tushunchasining ilmiy-pedagogik talqini.

2.Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning tasnifi va diagnostik mezonlari

3.Psixologik-pedagogik tashxis natijalarini tahlil qilish va ularni amaliyotda qo'llash.

Tayanch tushunchalar. Kompleks yondashuv, ob'ektivlik tamoyili, dinamik yondashuv, individuallashtirish, ilmiy asoslanganlik, insonparvarlik tamoyili, amaliy yo'naltirilganlik, tashxislash, diagnostik natijalarni aniqlash.

I.Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlar tushunchasining ilmiy-pedagogik talqini. Oliy psixik funksiyalar yillar davomida shakllanadi. U nutqiy muloqot bilan tug'ilib, faoliyatning to'liq ramzi (simvolik faoliyat) bilan tugallanadi. Bolaning psixik rivojlanishi va shaxsini shakllanishi ta'lim va tarbiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Oliy psixik funksiyalarni shakllanishida nutq hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Psixofiziologik mexanizmlarni tushuntirish uchun P.K.Anokhinning funksional tizimlar haqidagi konsepsiyasi qo'llaniladi. A.R.Luriyaning ko'rsatishicha, funksional tizim bolani tug'ilish davrida tayyor holda bo'lmasdan, balki uning psixik funksiyalari predmetlar hamda materiallar bilan o'zaro munosabatga kirishganida shakllanib boradi. Funksional tizim - bu bir vazifani bajarish uchun bir qancha anatomik hamda fiziologik tuzilmalarni birlashtiradigan dinamik tuzilma bo'lib, turli nerv sistemalarida joylashgan. Psixologlar

(A.R.Luriya, A.N.Leontev) doimiy ravishda oliy psixik funksiyalarining fiziologik negizi markaziy nerv sistemasi yoki uning alohida qismlari bo'lib qolmasdan, balki miya qobig'idagi funksional sistemaning birgalikda ishlashi deb ta'kidlaganlar. Bola

hayot faoliyati jarayonida ushbu funksional sistemaning shakllanishi, sekin-astalik bilan murakkab xarakterga ega bo'lib, funksional bog'liqlik kasb etadi. Ushbu ilmiy tasdiq inson psixikasini rivojlanishi haqidagi tasawurlarni o'zgartirdi. Fiziolog va psixologlarning tadqiqotlari- dan ko'rishimiz mumkinki, alohida funksiyalar sistemasining etil- ganligi ma'lum bir rivojlanish davrida bir xil emas: ba'zi sistemalar shakllanib bo'lgan, ba'zilari esa endi shakllanadi. Shunga ko'ra, funksiyalarning rivojlanish tizimi bir xil emas ekan, deb xulosalash mumkin. Har bir funksional sistema, xatto alohida zonalar o'zining rivojlanish dasturiga ega, lekin ular bir butunlikda ish olib borishadi. Har bir yosh davrda ma'lum bir funksional sistema etuklik daraja- sida bo'lishi kerak, aks holda ushbu sistemalar faoliyati o'zaro aloqadorlikda amalga oshirila olmaydi (L.O.Badalyan). Shunday qilib, psixik jarayonlar va shaxs xususiyatlari bosh miyaning alohida qism yoki zonalarida etuklik natijasi hisoblanmaydi. Ular ontogeneza to'planadi hamda bolaning ijtimoiy rivojlanish vaziyatiga bog'liq bo'ladi. L .S. Vigotskiy o 'zidan oldingilarni (G. Ya.Troshin, A. S .Griboedov, E.Segen, M.Montessori va boshqalar) ishlarini umumlashtirdi ham- da anomal rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqdi. Ushbu konsepsi- yaning asosiga psixologik rivojlanishning madaniy-tarixiy nazariya- si kiradi, buni L.S.Vigotskiy rivojlanishning me'yordagi xususiyat- larini o'rganib ishlab chiqqan. L.S.Vigotskiyning anomal rivojlanish konsepsiyasining asosiy belgilari hozirgi kunda ham o'z ahamiyat- ini yo'qotmagan. Ular XX asrning 50-90 yillardagi T.A.Vlasova, J.I.Shif, V.I.Lubovskiy, V.V.Lebedinskiy, E.M.Mastyukova va boshqa olimlarning ishlarida o'z rivojini topgan. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar (rivojlanishida psixik- jismoniy kamchilikka ega, rivojlanishdan orqada qolish, rivojlan- ishida muammoga ega, alohida yordamga muhtoj) - sensor organizmlarning markaziy nerv sistemasi yoki harakat-tayanch a'zolarining orttirilgan yoki tug'ma organik jarohatlanishi natijasida psixik funksiyalarining rivojlanishida kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar kiradi. Ba'zi

hollarda rivojlanishdagi kamchiliklar markaziy nerv sistemasi yoki analizatorlardagi nuqsonlar bilan bog'liq bo'lmasdan, mikroijtimoiy muhit sabablari natijasida kelib chiqadi. Bularga oiladagi tarbiya salbiy shakllari, ijtimoiy va hissiy deprivatsiyani kiritishimiz mumkin. G.Ya.Troshin me'yorida va anomal rivojlanishning umumiy qonuniyatlari haqidagi fikmi ilgari surgan, buni esa ko'pgina tadqiqotchilarning (T.A.Vlasova, J.I.Shif, V.I.Lubovskiy) keyingi ishlarida ham ko'rishimiz mumkin. L.S.Vigotskiy me'yorida va anomal rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini izohlab, ular uchun psixik rivojlanishning ijtimoiy xarakterdaligi umumiydir: pedagogik ta'sir me'yorda ham shuningdek rivojlanishning buzilishida ham oliy psixik funksiyalarning shakllanish manbai hisoblanadi, deb ta'kidlagan. Ammo, me'yorida rivojlanayotgan bolalarda kuzatilmaydigan, lekin rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda uchraydigan bir qator qonuniyatlar ham ajratiladi.

T. A.Vlasova, V.I.Lubovskiy ishlarida anomal rivojlanuvchilarning umumiy qonuniyatlari bir tizimga keltirilgan. L.S.Vigotskiy nuqsonlarni tuzilishini sistemaliligi haqidagi fikrlari unga anomal rivojlanishni ikki guruhga ajratish imkonini bergan. Bu kasallikning biologik xarakteriga ko'ra kelib chiqadigan birlamchi nuqson, bolaning ijtimoiy rivojlanishida, uning atrofdagi o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan ikkilamchi nuqsondir. Anomal rivojlanish birlamchi nuqsonning kelib chiqish vaqti va uni ifodalashining qay darajada og'irligi bilan aniqlanadi. Ikkilamchi nuqsonlarning shakllanish mexanizmi turli xil bo'lishi mumkin, ammo unda doimo ijtimoiy omillar muhim rol o'ynaydi. Ko'ruv, eshituv organlarining yoki bosh miyaning u yoki bu tuzilmalaridagi jarohatlar natijasida kelib chiqadigan nuqsonlar xarakteri, chuqurligi bo'yicha turli toifadagi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda turlicha bo'ladi. Biroq ushbu holatlarning umumiy tomoni shundaki, ularning barchasi bolani keyingi rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatib boradi.

Psixodiagnostik va psixologo-pedagogik korreksion ta'sirning ob'ekti bo'lib asosan ikkilamchi nuqsonlar xisoblanadi. Bir qancha etakchi mutaxassislarning ishlarida ko'rsatilishicha, bolalardagi birlamchi nuqsonlar aqliy qobiliyatning buzilishiga, aloqada bo'lishdagi qiyinchiliklarga, kommunikativ muloqot vositalarini o'zgarishiga, so'zlashuv nutqining etarlicha bo'lmasligiga, atrof-muhitni idrok etishni qiyinlashishiga, ijtimoiy tajribani kambag'allashuviga olib kelishi mumkin ekan. Nuqsonlarning o'zaro ta'siri ijtimoiy muhit bilan ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar tug'dirishini L.S.Vigotskiy ham ta'kidlagan. Anomal rivojlanishning yana bir qonuniyatlaridan biri-nutqiy faoliyatning buzilishidir, bu so'zlashuvni bivosita ifodalay olmasligida namoyon bo'ladi. Ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlay olmaslik, muloqotdagi qiyinchiliklar, materiallarni eslab qola olmaslik rivojlanishning fikrlash, umumlashtirish va farqlash kabilarni shakllanishida to'sqinlik qiladi. Ushbu tasavvur va nutqdagi kamchiliklarning barchasi atrof-muhitni idrok etish, tasavvuridagi bilimlarini saqlash kabilarning shakllanishi ushbu muammoli bolalarda doimo etarlicha emasdir. Biroq rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning muhitga moslashtirish va o'qitish qiyinchiliklaridan iborat o'ziga xos xususiyatlari bilan birgalikda, ijobiy qonuniyatlar ham mavjud. Ulardan biri L.S.Vigotskiy tomonidan rivojlanishning yaqin zonasi ko'rinishida nuqsonli bolalarda psixikasini shakllantirishning potensial imkoniyatlar sifatida mavjudligi qayd etilgan. Yana bir konuniyat V.L.Lubovskiy tomonidan bolalar harakatlarini so'z orqali boshqarishni o'rganish davomida ifoda qilingan. U nutq ishtirokisiz yoki qisman so'z bilan ifodalovchi yangi shartli bog'liqliklarni ishlab chiqish imkoniyatini ko'rsatgan. Shunday qilib, nuqsonli rivojlanish psixikaning shakllanishida orqada qolishni ham va buzilishni kompensatsiya qilish konuniyatlarga ega. Umumiy qonuniyatlardan tashqari o'ziga xos qonuniyatlar ham mavjud, ular rivojlanishida nuqsoni bo'lgan ba'zi bolalarga xosdir. Ushbu o'ziga xos qonuniyatlar bizga

diffFerensial diagnostik mezonlar orqali rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar toifalarini ajratish

mumkin.Hozirgi paytda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bir qancha kategoriyalarga ajratilgan:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan (kar va zaif eshituvchilar);
- ko'rishda nuqsoni bo'lgan (ko'r va zaif ko'ruvchilar);
- harakat-tayanch a'zolarida nuqsoni bo'lgan;
- og'ir nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar;
- psixik rivojlanishi orqada qolganlar;
- aqli zaiflar;
- hissiy-iroda doirasida og'ir nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar;
- xulq buzilishlariga ega bo'lgan bolalar;
- rivojlanishda murakkab nuqsonlilar, ularda ikkita yoki undan

ko'p birlamchi nuqsonlar kuzatiladi.

II.Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning tasnifi va diagnostik mezonlari.Psixodiagnostika boia rivojlanishining nuqsonlami va uning o'ziga xos psixologo-pedagogik xususiyatlarini aniqlaydi. Boladagi ushbu xususiyatlami bilish bolaning imkoniyatlariga mos maktabgacha va maktab ta'lim dasturini, ta'li muassasining turini, individual tibbiy psixologo-pedagogik dastumi ishlab chiqishga yordam beradi.Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga samarali ta'lim, tarbiya berish, ijtimoiy moslashuvini yaratish uchun uning rivojlanish imkoniyat va xususiyatlarini to'g'ri baholay olishga bog'liqdir. Bu vazifani rivojlanish nuqsonlarini kompleks psixologo-pedagogik diagnostika qilish orqali amalga oshirish mumkin. Psixologo-ped-agogik diagnostika rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning kamchiliklarini aniqlash, bolaning psixik-jismoniy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda unga individual psixologo-pedagogik yondashuvni ta'minlaydi.

Bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlarini psixologik-pedagogik tashxis qilishning metodologik tamoyillari

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga samarali ta'lim, tarbiya berish, ijtimoiy moslashuvini yaratish uchun uning rivojlanish imkoniyat va xususiyatlarini to'g'ri baholay olishga bog'liqdir. Bu vazifani rivojlanish nuqsonlarini kompleks psixologo-pedagogik diagnostika qilish orqali amalga oshirish mumkin. Psixologo-pedagogik diagnostika rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning kamchiliklarini aniqlash, bolaning psixik-jismoniy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda unga individual psixologo-pedagogik yondashuvni ta'minlaydi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha va maktab ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadi. Ushbu bolalami psixik va jismoniy rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim sharoitlari yaratilgan. Bunday sharoitlar awalo har bir bolaning xususiyatlari e'tiborga olgan xolda yakka yondashuvni talab etadi. Ushbu yondashuv maxsus dastur, metod, kerakli maxsus texnik vositalari, maxsus tayyorgarlikga ega pedagog, psixolog, defektolog va boshqalar bilan birgalikda kerakli tibbiy - profilaktik hamda davolash tadbirlarini, maxsus ijtimoiy yordamni, maxsus ta'lim muassasalarini texnik va ilmiy-metodik jihatdan ta'minlashni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda turli xil maxsus ta'lim muassasalari mavjud. Bolalar puxta saralash natijasida qabul qilinishi mo'ljallangan va O'zbekiston respublikasi xalq ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus ta'lim dasturlarini amalga oshiradigan maxsus ta'lim muassasalar bilan bir qatorda turli rehabilitatsiya markazlari, rivojlantirish markazlari, aralash guruhlar ochilgan. Shuningdek, umuta'lim maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarda psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalami uchratish mumkin. Ushbu nuqsonlarning ko'rinishi turlicha bo'lishi mumkin. Son jihatdan yirik bo'lgan guruhni harakatlanish, sensor yoki intellektual sohalarda nuqsonlari aniq ifodalangan: eshitishda, ko'rishda, fazoviy-idroq tasavvurlarida, harakat-tayanch apparatida, fonematik idrokida nuqsoni bolalar hissiy-irodaviy buzilishli, nutqiy rivojlanishida kamchiliklarga ega, xulq buzilishlariga ega, psixik

rivojlanishi orqada qolgan, somatik sust bolalar tashkil etadi. Yaqqol ifodalangan psixik yoki jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlar maktabgacha yoshda aniqlansa, yengil nuqsonlar uzoq vaqt mobaynida e'tiborsiz qoladi. Rivojlanishdagi nuqsonlarni tashxis qilish uch bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich - skrining nomini olgan. Ushbu bosqichda bola rivojlanishdagi orqada qolish, psixik -jismoniy kamchiliklari aniqlanadi, lekin ularning xarakteri va chuqurligi belgilash murakkab bo'ladi. Ikkinchi bosqich — rivojlanishdagi nuqsonlarni differensial tashxis qilish. Ushbu bosqichning maqsadi rivojlanish nuqsonini turini (xil, toifasini) aniqlash. Uning natijalariga ko'ra bolaning imkoniyat va xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning ta'lim olish ishlari uchun ta'lim muassasasini turi va dasturi, optimal pedagogik yollanmasi aniqlanadi. Psixologo-tibbiy-pedagogik komissiyaning faoliyati differensial diagnostikada etakchi rolni egallaydi. Uchinchi bosqich — fenomenologik. Uning maqsadi — bolaning individual xususiyatlari, ya'ni tafakkur faoliyatining xarakteristikasi, hissiy-iroda doirasi, ishchanlik qobiliyati, shaxsi o'rganilib u bilan ishlash bo'yicha korreksion-rivojlantiruvchi individual shart-sharoitni tashkillashtirishdir. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan psixologo-pedagogik diagnostikani samarali amalga oshirish uchun "Rivojlanishdagi nuqson" tushunchasiga alohida e'tibor qaratish zarur.

III. Psixologik-pedagogik tashxis natijalarini tahlil qilish va ularni amaliyotda qo'llash. Rivojlanishda nuqsoni bo'lganlarni tashxis qilishda olimlari (L.S.Vigotskiy, V.L.Lubovskiy, S.D.Zabramnaya) tomonidan ko'rsatilgan bir qancha tamoyillarga amal qilish muhim. Rivojlanishda nuqsoni bo'lganlarni tashxis qilishning asosiy tamoyillaridan biri bu — kompleks yondashuv bo'lib unda bolani rivojlanish xususiyatlarini barcha kerakli mutaxassislar tomonidan (vrach, defektolog, psixolog) uning faqatgina bilim olish faoliyatinigina emas, balki xulki, hissiy irodasi,

shuningdek ko'ruv, eshituv, harakat doirasi, nevrologik statusi, somatik holatini har tomonlama tekshirib baholashdir. Bolani tibbiy hamda psixologo- pedagogik tekshirishlar tizimlilik asosida olib boriladi. Tibbiy tekshiruv vrachlar (pediatr yoki terapevt, nevropatolog, bolalar psixiatri, oftalmolog, otolaringolog, zarur hollarda audiolog) tomonidan o'tkaziladi. Bolani psixologo- pedagogik o'rganish pedagog-defektolog va psixolog tomonidan amalga oshiriladi. TPPKlar (tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya) maxsus (kor- reksion) muassasalami komplektlash masalasini hal etishadi, hamda zarur bo'lganda maslahat-tashxis va korreksion yordam ko'rsatadi. TPPKga yordam so'rab alohida ta'lim va tibbiy idoralar ham, ota- ona, pedagog, o'smirlar o'zining tashabbusi bilan ham murojaat qilishga xaqlidir. O'z faoliyatida TPPK defektologiya sohasida ishlab chiqilgan tamoyillarga amal qiladi. Asosiy tamoyillardan biri - bu har bir bolaga o'z imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirish uchun o'z vaqtida kerakli sharoitlarni tashkil etishdan iborat bo'lgan insonparvarlik tamoyilidir. Bu tamoyil bolani chuqur va diqqat bilan o'rganish, yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etishni talab etadi. Agar umurtaki maktab sharoitida ko'rsatilgan barcha kerakli va mavjud bo'lgan choralar ijobiy natijalar bermasa, bolani maxsus muassasaga o'tkazish masalasi qo'yiladi va bunga ota-onalarning roziligi kerak bo'ladi. Bajarilishi shart bo'lgan tamoyil — bu bolalarni kompleks o'rganish tamoyilidir. Defektologlar, psixologlar tomonidan tekshirish natijasida olingan ma'lumotlarni e'tiborga olishni shart deb belgilaydi. Agar mutaxassislarning fikri turlicha bo'lsa, bolani yana bir bor tekshirish belgilanadi. Eng muhim masalalarni hal etishda bolaning manfaatlari birinchi o'rinda turish zarur. Ta'kidlash joizki, bolani o'rganishda ko'rsatilgan tamoyilga amal qilish uning holatini komissiyadan oldin aniqroq bilib olish, rivojlanishidagi nuqsonlar sababtarini aniqlab olish imkonini beradi. Misol uchun, pedagog birinchi bo'lib kuchayib borayotgan parishonlik, charchashlik, yig'loqilik alomatlariga e'tiborini qaratadi. Vrach esa o'z navbatida

bu o'zgarishlarning sabablarini aniqlashga yordam beradi va ularni bartaraf etish uchun kerakli tavsiyalar beradi.

Har tomonlama va to'liq o'rganish tamoyili ham katta ahamiyatga ega. Bu tamoyillar bolaning bilish faoliyati, hissiy-idoraviy doirasi va xulqini tekshirishni nazarda tutadi. Shuningdek, bolalarning aqliy qobiliyatlarning shakllanishiga ta'sir etadigan jismoniy rivojlanishi ham e'tiborga olinadi. To'liq o'rganish deganda bolaning psixik rivojlanishi alohida olingan qobiliyatlarni rivojlanishini- ing yig'indisi emasligini, shuning uchun bola haqida uning idroki, xotirasi yoki psixik funksiyalarning holatini tekshirish asosidagina xulosa chiqarib bo'lmasligini esda tutish lozimligini tushunamiz. Bolani har tomonlama, to'liq o'rganish agarda u bolaning faoliyati jarayonida: o'qish, mehnat yoki o'yin faoliyatlarida amalga oshirilsa, muvaffiqiyatli bo'lishi mumkin. Bolani o'rganish, tekshirishda foydalaniladigan metodlar ham, materiallar ham ularning yosh va xarakterologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda maksimal darajada individuallashtirilishi lozim. Komissiya a'zolari bola bilan aloqa o'rnatishlari lozim. Bu bolaning shaxsi sifatlarini: qiziqishlarini, irodaviy harakatlarning holati harakatlaridagi maqsadga yo'nalganlik, asosiy psixik jarayonlarning o'tishi xususiyatlarini yaxshiroq anglashga yordam beradi. Dinamik o'rganish tamoyili. Defektologlar uchun eng o'ziga xos hisoblangan tamoyil— bu bolalarni dinamik o'rganish tamoyilidir. Unga binoan tekshirish jarayonida bola bilgan va bajara oladigan vazifalargagina emas, balki uning ta'lim olishdagi imkoniyatlariga ahamiyat qaratish kerak. Bu tamoyil asosida L.S.Vigotskiyning bolalarning "yaqin rivojlanish zonasi" to'g'risidagi nazariyasi, ularning ta'lim olishdagi potensial imkoniyatlari yotadi. Bolaning aqliy rivojlanishi qancha yuqori bo'lsa, u yoki bu vazifani bajarish, olingan tajribani yangi vaziyatda qo'llashni shuncha muvaffaqiyatli o'rganadi. Aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalarni meyorida rivojlanayotgan bolalarga nisbatan bo'lgan farqlaridan biri bu ular yordamdan yaxshi foydalana olmaydilar. Mana shuning uchun

tekshirish davomida pedagog doim o'z e'tiborini vazifa tushuntirilganidan so'ng uni echilishi yaxshilandimi, shunga o'xshash vazifani qanday bajarganligiga qaratish lozim. Barcha tekshirishlarni ta'limiy eksperiment tamoyilini e'tiborga olib o'tkazish tavsiya etiladi. Bola tomonidan bajarilgan ishni baholash davomida sifat-sonli yondashish tamoyilini qo'llash muhimdir, ya'ni faqatgina yakuniy natijanigina emas, balki topshiriqlarni bajarish usuli va muvofiqligi, harkatlarning mantiqiy ketma-ketligi, maqsadga erishishda qat'iyatligi baholash kerak. Bunda baholash differensiallashgan bo'lishi lozim. Faqatgina oxirgi natijanigina emas, balki topshirish usulini ham e'tiborga olish lozim. Bunda quyidagilar inobatga olinadi:

- vazifa va tekshirish xolatiga munosabati
- vazifani shartlaridan mo'ljallan olishi hamda, vazifani bajarish yollari
- vazifa shartlaridagi material va ko'rsatmalarga bolaning unga mos harakatlari
- kattalar yordamidan samarali foydalanishi
- vazifani bajarishda taqqoslay olishi
- faoliyat natijalari va o'zining baholariga munosabati.

Bolani erta tashxis qilib o'rganishning muhimligi shundaki, u orqali bolani korreksion ta'limga vaqtida yo'naltirib, ikkilamchi nuqsonlarni paydo bo'lishini oldini olish mumkin. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlariga korreksion va diagnostik yordam. Bola imkoniyatlariga baho berish hamda psixik rivojlanishini aniqlash orqali korreksion pedagogik ishning vazifalarini xal etish mumkin. Yuqoridagilarning barchasi TPPKda bolalarni o'rganish davomida amal qilinishi lozim bo'lgan tamoyillardir. Avval ko'rsatib o'tilganidek, rivojlanishida nuqsoni bo'lganlar psixodagnostikasi uch bosqichda olib boriladi:

- Skrining-tashxis;
- Differensial tashxis;

Individual -korreksion dastur ishlab chiqish maqsadida bolani chuqur psixologo-pedagogik o'rganish; Har bir bosqich o'ziga xos vazifalarga ega hamda har bir bosqichda uni zamonaviy psixodiagnostika xolatini xarakterlovchi bir qator muammolar bilan bog'liq. Skrining — tashxisning asosiy maqsadi psixologik rivojlanish davridagi turli nuqson va kamchiliklarga ega bolalarni erta aniqlash, bois rivojlanishidagi psixologo-pedagogik muammosini aniqlab, unga umumta'lim muassasalarida sharoitlar yaratishdir. Bundan tashqari skrining-tashxis ta'lim muassasalaridagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga sifatli baholashga doir vazifalarni hal etishga yordam beradi: bolalarga ta'lim-tarbiya dasturlarining u yoki bu kamchiliklarini, aniq ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya jarayonidagi kamchiliklarini aniqlash. Skrining — tashxisni tashkil etish va o'tkazish muammosi hozirgi kunda turlicha amalga oshiriladi. Masalan bolani ta'lim-tarbiyasi jarayonida qiyinchiliklarga uchragan pedagoglar ta'lim muassasasidagi psixologga bolaning xususiyatlariga baho berib, unga mos keluvchi ishlar tavsiyasini ishlab chiqishini so'raydi. Boshqa hollarda ota-onalar psixologga murojat etadilar: boia tarbiyasi jarayonida xulqi bo'yicha duch kelingan muammolarga o'z bahosini,unga xos ta'lim-tarbiya tadbirlari bo'yicha tavsiyalarini berishi so'raladi. Shuni aytish joizki, murojaatlar asosan katta maktabgacha yoshdagi bolalar ko'proq uchraydi, chunki ota-onalar maktabga "tayyorlov davri"da bolada u yoki bu psixologik muammolarni seza boshlaydilar. Vanihojat maxsus tashkil etilgan skrining-tekshiruv natijalari orqali boia rivojlanishidagi muammolarni aniqlash mumkin. Skrining-tekshiruv shaqli bo'yicha individual va frontal bo'lishi mumkin.Ushbu yondashuv rivojlanishida nuqsonni bo'lgan bolalarni aniqlash bo'yicha zamon talablariga javob beradi, ammo har doim ham foydalanilmaydi. Skriningda foydalaniladigan metodikalar har doim ham skrining tekshiruv vazifalariga mos kelmaydi, mutaxassis psixolog-pedagoglarning rivojlanishdagi nuqsonlarni aniqlashda tayyorgarligi

ko'pincha etarlicha bo'lmaydi. Hozirgi kunda "talablarga" ko'ra skrining-tashxis etakchi o'rinda kelmoqda, lekin u bola xususiyatlarini har tomonlama o'rganib unga psixologik va pedagogik yordamni bera olmaydi. Shunday qilib, skrining tashxisda ham bir qator muammolar ham mavjud.

1. Bolalami tekshirish bo'yicha metodikalarning ko'p bo'lishiga qaramasdan, skring tekshimvda qo'llaniladigan tashxislari ilmiy jihatdan talablari asoslanmagan. Ayniqsa bu, birinchi 3 yoshgacha bo'lganlarga tegishlidir. Ilk va maktabgacha yoshdagi psixik rivojlanishi me'yorida bo'lgan hamda psixologo-pedagogik va tibbiy- ijtimoiy yordamga muhtoj bolalami ajratish uchun skrining-tashxisni ishlab chiqishda uning mezonlari tizimini ishlab chiqish juda qiyindir. Skrining-tekshiruvning o'tkazishda tekshiriluvchining shaxsiy hususiyatlarini va hissiy holatini o'rganish muhim muammolardan biridir. Oldingi tajribalariga salbiy qarashi, yutuq va kamchiliklariga bo'lgan asi kabilar vazifani bajarish sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida qiyinchiliklar tug'diradi, chunki skrining-tekshiruv davomida vaqt chegaralangan va kerakli ma'lumotlarni olishga imkoniyat bermaydi. Differensial tashxis rivojlanish nuqsonini aniqlaydi, va uning natijalari orqali bolaning imkoniyatlariga xos ta'lim shakllari aniqlanadi. Differensial tashxisning vazifalari quyidagilar:

- bola rivojlanishidagi aqliy, nutqiy va hissiy nuqsonlar xarakteri va darajasini aniqlash;

- birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarini aniqlash hamda buzilishni tizimli taxlil qilish;

- harakat - tayanch apparati, ko'ruv, eshituv kamchiliklarida psixik rivojlanish nuqsonlarining xususiyatlariga baho berish;

- pedagogik tashxisni aniqlash va uni asoslash. Ushbu ma'lumotlarga tayangan holda korreksion-pedagogik jarayonni, ta'lim dasturini, ta'lim muassasasi turini aniqlash va tashkillashtirish mumkin. Differensial tashxis psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyada amalga oshiriladi. Rivojlanishida nuqsoni

bo'lgan bolalami bir gurux mutaxassislar kompleks o'rganib tashxis natijasini kelishgan holda qo'yadilar. Ish bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda aniq bir tizimda tuziladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lganlami differensial tashxis qilish, hozirgi kunda bir qator muammolarga duch keladi. Ma'lumki, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning har bir turida psixologik xususiyatlarining o'xshash jihatlari ham kuzatiladi. Masalan, rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarning deyarli barchasida nutq kamchiliklar yoki ta'lim olishida sustliklar xarakteridir. Rivojlanish nuqsonini, darajasini aniqlovchi o'ziga xos xususiyatlar, differensial tashxisning asosi bo'lib hisoblanadi (V.I.Lubovskiy). Bu hozirgi kunda maxsus psixologiyada anomal rivojlanishlami taqqoslash xarakteriga ega ilmiy izlanishlarning etarlicha emasligi bilan bog'liq. Bunday ilmiy ishlarni olib borish differensial tashxis imkoniyatlarini yanada kengaytirar edi. Yana bir muammo TPPK amaliy faoliyati bilan bog'liqdir. Hozirgi kunda tashkiliy xarakterga ega ko'pgina savollar yechilmagan, hususan doimiy faoliyat ko'rsatuvchi bir qator metodologik va terminologik muammolarni hal qiluvchi tashxis muassasasini tashkil etish, uni kerakli kadrlar bilan ta'minlash. Metodologik muammolar ichidan bolani differensial tashxis maqsadida psixodiagnostika natijalarini taxili hamda sifatli bajarishlariga imkon beruvchi samarali va ishonchli metodlarni ishlab chiqish muammosini alohida ta'kidlash joiz. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalami chuqur psixologo-pedagogik o'rganish tashxis natijalariga asoslanib, korreksion dasturi ishlab chiqish maqsadini qo'yadi. Bunda o'rganish vaqt talab etadi, u asosan ta'limda, ba'zida esa konsultativ muassasalarda o'tkaziladi. Bunday o'rganishning aniq vazifalari turli; yotsh davrlari uchun ko'p taraflama va o'ziga xosdir. Ular ichida qo'yidagilarni ajratish mumkin: Bolaning individual psixologo-pedagogik xususiyatlarini aniqlash; Rivojlantiruvchi va ta'limiy korreksion individual dasturlarni ishlab chiqish; Oilasidagi ichki munosabatlarni o'rganish va tarbiya sharoitlarini aniqlash;

o'qishdagi murakkab sharoitlarda yordam. Mutaxassislar u yoki bu fiinksiyadagi kamchilik yoki rivojlan- maganlikda samarali tavsiyalar bermoqdalar, lekin boladagi ijobiy hislatlami aniqlashdagi, ayniqsa shaxs hususiyatlari ya'ni bolaning tasavvuri, nutqi, ijtimoiy shaxsiy muammosi hal etishga qaratilgan ishlari yetarlicha rivoj topmagan. Ammo, samarali korreksion-pedagogik jaray- on faqatgina salbiy omillarga emas, balki birinchi o'rinda bolani psixolog-pedagogik individual imkoniyatlarini aniqlash ham qaratilgan. Shunday qilib, rivojlanishida nuqsoni bo'Mgan bolalarni psixolog-pedagogik tashxis qilishning muhim vazifalari quyidagilardir:

- boia rivojlanishidagi nuqsonlami erta aniqlash;
- nuqsonning sababi va xarakterini aniqlash;
- bolaning pedagogik yo'llanmasini aniqlash;
- rivojlanishidagi nuqsonlari bo'lgan bolalaming individual psixologik xususiyatlarini aniqlash;
- ta'limiy va rivojlantiruvchi dasturlami ishlab chiqish.

Testlar.

1."Rivojlanish nuqsoni" tushunchasi qanday talqin qilinadi?

A) Bola o'qishdagi muvaffaqiyatsizlik holati

B) Bola psixik yoki jismoniy rivojlanishida me'yordan og'ish

C) O'quv jarayonida o'zlashtira olmaslik

D) Tarbiyaviy muammolar mavjudligi

2.Rivojlanishdagi nuqsonlar asosan nechta turga bo'linadi?

A) 2 tur – yengil va og'ir

B) 3 tur – fiziologik, psixologik, ijtimoiy

C) 4 tur – eshitish, ko'rish, nutq, aqliy rivojlanishdagi

D) 5 tur – harakat, nutq, ko'rish, eshitish, aqliy rivojlanishdagi

Psixologik-pedagogik tashxis natijalarini tahlil qilish va ularni amaliyotda qo'llash

3.Tashxis natijalarini tahlil qilishning asosiy maqsadi nima?

A) Bolaning bilim darajasini aniqlash

B) Nuqsonni chuqur o'rganib, korreksion ish yo'nalishini belgilash

- C) O'qituvchi faoliyatini baholash
- D) Dars sifatini o'lchash.

4. Psixologik-pedagogik tashxis natijalarini amaliyotda qo'llashda eng muhim tamoyil bu:

A) Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv

- B) Jamoaviy baholash
- C) Ijtimoiy nazorat
- D) Yagona standartlashtirish.

5. Tashxis natijalarini tahlil qilishning asosiy maqsadi nima?

- A) Bolaning bilim darajasini aniqlash

B) Nuqsonni chuqur o'rganib, korreksion ish yo'nalishini belgilash

- C) O'qituvchi faoliyatini baholash
- D) Dars sifatini o'lchash.

Nazorat savollari

1. Psixologlar funktsional tizimga qanday ta'rif beradilar?
2. Rus psixologi L.S.Vigotskiy qanday konsepsiyani ishlab chiqardi?
3. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar toifalariga qanday bolalar kiritiladi?
4. Bolalar rivojlanishidagi birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarga nimalar kiradi?
5. Psixodiagnostik va psixologo-pedagogik kooreksion ta'siming ob'ektiga nimalar kiritiladi?
6. Hozirgi paytda rivojlanishida nuqsoni bo'igan bolalar qanday kategoriyalarga ajratilgan?
7. Psixologik-pedagogik diagnostika qilishni tashkil etish va o'tkazishda qanday metodologik tamoyillarga amal qilish lozim?
8. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni psixologik-pedagogik tashxis qilishning asosiy bosqichlarini tavsiflab bering.

VI-BOB. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKADA TA'LIMNI, OILANI, MAKTABGACHA YOSHDAGI HAMDA RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI TASHXIS ETISH.

25-mavzu: Ta'limni tashxis etish va pedagogik diagnostika.

Reja:

1. Ta'limni tashxis etish tushunchasi va mohiyati
2. Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olishning vazifalari.
3. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan

talablar

***Tayanch tushunchalar:** Diagnostika, tashxis, monitoring, refleksiya, baholash, kompetensiya, kriterial baholash, formativ baholash, summativ baholash, pedagogik kuzatuv.*

I. Ta'limni tashxis etish tushunchasi va mohiyati .Ta'lim tizimida tashxis etish o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish jarayonlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Tashxis o'qituvchiga o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari, psixologik holati, o'qishga bo'lgan munosabatini aniqlashga yordam beradi. Shu orqali o'qituvchi o'z pedagogik strategiyasini o'zgartiradi, individual yondashuvni tanlaydi va o'quvchilarning muvaffaqiyatga erishish yo'lini yengillashtiradi. Ta'limni tashxis etish - bu o'quv jarayonini chuqur o'rganish, undagi natijalarni aniqlash, mavjud muammolarni topish va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-amaliy faoliyatdir. U ta'lim sifatini boshqarishning eng muhim bosqichlaridan biridir. "Tashxis" (yunoncha diagnosis) -"aniqlash", "holatini bilish", "farqlash" degan ma'noni anglatadi. Ta'lim jarayonida "tashxis etish" deganda o'quvchi shaxsining bilim, ko'nikma, malaka, shuningdek, rivojlanish darajasi, motivatsiyasi va individual xususiyatlarini o'rganish jarayoni tushuniladi. Pedagogik tashxislash orqali pedagog faoliyatini aniqlashtirish, uni amaliy vazifalarni hal qilishga yo'naltirish, pedagogning kasbiy kompetentligini takomillashtirish, o'quvchilarning bilim hamda tarbiyalanganlik darajasini, shuningdek, o'quvchilar jamoasining

tarbiyalovchi ta'sirini kuchaytirish mumkin. Yu.P.Shapran bo'lajak biolog o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik darajasini tashxislash masalasini bir qator kompetentliklar, xususan, qadriyatli-yo'naltiruvchi, tabaqalashtirilgan-psixologik, strategik, autopsixologik, tashkiliy, metodik, axborotli-texnologik, fan, etimologik, salomatlikni asrash, innovatsion- ijodiy, ijtimoiy-kommunikativ va shaxsiy kompetentlik asosida o'rgangan.

O'z mohiyatiga ko'ra pedagogik tashxislash pedagogik jarayonni baholash va korreksiyalash uchun tashxis obekti (pedagogning ma'lum sifati, kasbiy malakasi, kompetensiyasi, o'zlashtirish darajasi, tajribasi)ni belgilovchi real ko'rsatkich va o'zgarish an'analari to'g'risidagi tezkor axborotga ega bo'lishni taqozo etadi.

Tashxislashda eng muhim omil muddatning belgilanishidir. Ya'ni: tashxislanadigan har qanday holat ma'lum vaqt oralig'idagina o'rganiladi. Zero, ana shu vaqt oralig'i o'rganilayotgan holat to'g'risida real, obektiv ma'lumotlarni qo'lga kiritish imkonini beradi. Tashxislashda kuzatuv muddatlar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, 2 soat, 1 hafta, ikki hafta, 1 oy, 6 oy, 1 yil, 3 yil yoki 5 yil. Tashxislash jarayonida pedagogik diagnostikaning asosiy bosqichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikning ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega. Bosqichlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikning ta'minlanishi tashlovchi pedagogik faoliyatni metodik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yish hamda ishonchli natijalarni qo'lga kiritishga yordam beradi.

O'quvchilar bilimini tashxis etishning mohiyati: Ta'lim tashxisi mohiyati haqida gapirishdan oldin tashxisni umumiy yondashuv hamda tashxislashni amaliy pedagogik faoliyat jarayoni sifatida qabul qilamiz. Tashxis - bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashxissiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas. Ta'lim tashhisida oqibatlar, erishilgan natijalar va ta'lim olganlik farqlanadi.

Shuningdek, ta'lim olganlikni tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirishda erishilgan daraja sifatida ham qaraladi. Didaktik tashhisning maqsadi o'quv jarayonini uning samaradorligi bilan bog'liq holda aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, tashxis ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Ta'limni baholash yoki tekshirish faqat natijalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi. Tashxis natijalarini ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta'lim samarasini ta'minlovchi jarayon va bosqichlarni aniqlaydi:

II. Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olishning vazifalari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini nazorat qilish, baholash tashhislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ular pedagogik texnologiyaning ancha qadimiy usullaridir. Nazorat va baholash maktab amaliyoti rivojining doimiy hamrohi bo'lib kelgan. Shunga qaramay, bugun ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida qizg'in munozaralar davom etmoqda. Avval bo'lgani kabi pedagoglar baho nimani qayd etishi lozimligini aniqlashga urinmoqdalar. Ularning fikrlaricha, bahoning:

1. Ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini qat'iy belgilovchi - sifat ko'rsatkichi, yoki;

2. U yoki bu ta'lim tizimining ustunligi, kamchiliklarini ko'rsatuvchi ko'rsatkich ekanligi aniq belgilanishi zarur.

Ta'limni baholashda ziddiyatli qarashlarning tug'ilishini buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ham ta'kidlab o'tgan edi. U pedagoglarni o'zlari ega bo'lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta'lim oluvchilarga nisbatan nazoratning obektiv bo'lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida yotadi. Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim, Didaktik nazorat ta'limning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi

xususiyatga ega bo'lishi o'z-o'zini nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta'lim oluvchining o'zi uchun zarur va foydali bo'lishi lozim. Ta'lim tizimini demokratlashtirish bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat va baholashdan emas, balki baho yordamida o'qishga undashning murakkab shakllaridan voz kechishni talab qiladi. O'quvchilarning o'quv mehnatini rag'batlantirishning yangi usullarini izlash, ta'lim va tarbiya sohasida kuch to'plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangicha yondashuvlarni belgilab beradi. Tashxislash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega.

Birinchi navbatda, baholovchi fikrlar (ballar) qo'llanishi mumkin bo'lgan tashxislash natijalari shaxsning yetuklik darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatli ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta'lim (shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o'tmishda o'quvchilar uchun majburiy bo'lgan ta'limning zaruriy vositasidan shaxsiy reyting - shaxsning jamiyatdagi mavqei ko'rsatkichini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi. Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olishning vazifalari. Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri - nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab berishi lozim. Nazorat tushunchasi ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, o'lchash va baholashni anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ham ataladi. Tekshirish - nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida teskari aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida ob'ektiv axborot olinishi, bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashni ta'minlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, shuningdek, uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat. Tekshirish

tizimidagi birinchi bosqich ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli.

III. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan talablar. Bilimlarni tekshirishning ikkinchi bosqich har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi alohida olingan muayyan vaziyatni o'rganishdir. Bunday tekshirish shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv material mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga muvofiq belgilanadi. Takroriy tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning uchinchi bosqichi sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'zlashtirilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarning mustahkamlik darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Tashxisning boshqa shakl va metodlari bilan birga qo'llanilsagina ushbu tekshirish kutilgan samarani beradi.

Tizimning to'rtinchi bosqichi - o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha davriy tekshirish hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi - kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi - tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda beshinchi bosqich ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olishdir.

Testlar

1. Pedagogik diagnostika deganda nima tushuniladi?

A) O'quv dasturlarini yaratish jarayoni

B) O'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, baholash va tahlil qilish jarayoni

C) O'qituvchilarning malakasini oshirish

D) O'quvchilarning tarbiyaviy darajasini aniqlash

2. Pedagogik tashxisning asosiy vazifasi nima?

A) Nazorat qilish va jazolash

B) O'quvchilarning yutuqlarini raqobat bilan solishtirish

C) O'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlab, ularga mos ta'limni tashkil etish

D) Ta'lim muassasasining moddiy bazasini rivojlantirish

3. Quyidagilardan qaysi biri diagnostikaning bosqichlaridan biri hisoblanadi?

A) Imtixon olish

B) Axborot yig'ish, tahlil qilish va natijalarni baholash

C) Faoliyatni rejalashtirish

D) Dars jadvalini tuzish

4. Formativ baholashning asosiy maqsadi nima?

A) O'quv yilining yakuniy bahosini chiqarish

B) O'quvchilarni baholab ularni jazolash

C) Ta'lim jarayonida o'quvchilarning rivojlanishini kuzatish va rag'batlantirish

D) Sertifikat berish

5. Diagnostik baholash qachon amalga oshiriladi?

A) Ta'lim jarayonining boshida

B) Faqat yakunda

- C) Har oyda
- D) Imtihon paytida

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Pedagogik diagnostika nima uchun muhimdir?
2. Ta'limda tashxis qilish jarayoni qanday bosqichlardan iborat?
3. Diagnostik baholash va summativ baholash o'rtasidagi farq nima?
4. Pedagogik tashxisda qanday usullar qo'llaniladi?
5. Formativ baholash qanday vazifalarni bajaradi?
6. O'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlashda pedagogik diagnostika qanday rol o'ynaydi?
7. Ta'limdagi tashxis va baholash natijalari asosida qanday qarorlar qabul qilinadi?
8. Pedagogik tashxis jarayonida qaysi axborotlar yig'iladi?

26-mavzu: Oila tashxisi


Reja:

1. Oila tashxisi.
2. Oila bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat.
3. Tashxis markazlarining bola tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati

Tayanch tushunchalar: Oilaviy muhit, psixologik iqlim, roli taqsimoti, ota-ona nazorati, oilaviy qadriyatlar, konfliktlar, kommunikatsiya, tarbiya uslubi, oilaviy funksiyalar, disfunktsional oila

I.Oila tashxisi. Oila tashxisi va oila tarbiyasi masalalari Pedagogika va psixologiya fanlarida ota -onalar bilan ish olib borishga doir turli xil yondoshuvlar mavjud. Shulardan biri I.V.Grebennikov tomonidan yosh va pedagogik psixologiyaga asoslangan xolda yaratilgan marifiy - axborotli yondoshuvdir. Shu endoshuvning mazmuni va moxiyatidan kelib chikkan xolda bazi mamlakatlarda ota - onalarga uzluksiz va malum tizim asosida yordam berish maqsadida ota - onalar, umuman oila uchun

ommaviy ta'lim dasturi ham ishlab chiqilgan. Bu dasturlar asosida oilaning bola tarbiyasidagi rolini faollashtirishga muvaffaq bo'lingan. Lekin bu dasturlar anonim tarzda olib borilgan. Har qanday faoliyat o'z samarasini beradi, agarda u aniq manzilga qaratilgan bo'lsa. Shuning uchun ham muayyan ijtimoiy pedagogik yordamga muxtoj oilalarni ijtimoiy pedagogik tashxis asosida aniqlab, ularga real yordam korsatish, ya'ni oilada valeologik sog'lom turmush tarzini shakllantirish va bolalarga turli tarbiya berish maqsadga muvofiqdir. Chunki oila tarbiyasida aynan oila tashxisi muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar bilan olib boriladigan maxsus amaliy ishlar bir oilaning ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularga ijtimoiy pedagogik yordam berishda maxsus amaliy ishlar (spetspraktikumlar) muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada sog'lom turmush tarzini saqlashga doir ota - onalarning pedagogik psixologik tayyorgarligiga bolgan extiyojni tashxis etish bo'yicha maxsus amaliy ish quyidagicha amalga oshiriladi: maqsadni belgilash, ya'ni oiladagi erishilgan yutuqlarni aniqlab, ularga suyangan xolda ota-onalarning yana qanday imkoniyatlarga ega ekanligini hamda qanday yordamga muxtoj ekanligini belgilash, harakatlar algoritmi, ya'ni ota-onalar orasida oila tashxisini o'rnatishga doir anketalar tarqatish, ularga javoblar olish, tahlil etish, ularning tavsifiga ko'ra ota-onalarni kichik guruhlariga ajratish va tashxis natijalari bilan tanishtirish kabi faoliyatlardir, tashxis asosida pedagogik konsiliumlarni tashkil etish, psixologik xizmatni amalga oshirish rejalarini tuzish ishlari amalga oshiriladi, oila tashxisini amalga oshirishda oila va oilaviy munosabatlarning psixologik holatini, muhitni o'rganishga doir «Tipik oilaviy hayot», «Oila hayajonlari tahlili», «Oilaning kinetik rasmi» nomli maxsus test ishlarini o'tkazish kabi metodlardan foydalanish mumkin.



Oilaning o'ziga xos tarbiya maskani sifatidagi maqomiga ko'ra oilaviy munosabatlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin (23-rasm):

Psixolog va sotsiologlarning tekshirishlariga ko'ra, oilaviy tarbiya kamchiliklari turli tuman ekanligi va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar ochib berilgan. Bularga quyidagilar kiradi:

a) Ota-onalarning bola tarbiyasida ma'suliyatni his etmasligi; bolaning moddiy taminoti va manaviy kamoliga javobgarlikning yo'qligi;

bolaning tarbiyasini bog'cha, maktab, o'quv yurtlarining vazifasi deb tushunishi

b) Oilada salbiy psixologik muhitning ustun turishi. bolalarga kattalar tomonidan diqqat-e'tiborning yetishmasligi; ota-onalar bilan farzand ortasida o'zaro tushunishning yo'qligi; oila davrasida muhitida doimiy janjallarning qaror topganligi va ularni kamaytirish uchun intilishning yo'qligi;

d) ota-onalarning beqaror his-tuygulari, kayfiyatlari, ularning tartibsiz, tasodifiy harakterga ega bo'lishligi;

e) ota-onalarning shaxsiy qiziqishlarining o'zaro mos tushmasligi va tubdan bir-biridan qarama-qarshiligi.

Ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimdan xabardor emasligi.

Ko'r-ko'rona otalik va onalik mehr-muhabbatining xukm surishligi va uning beqaror ahamiyat kasb etmasligi;

Ota-onaning bola qiziqishi xohish-istagi bilan hisoblashmasligi;

f) ota-onaning bolaga nisbatan qo'pol muomalada bo'lishlari; ota-onaning bola qiziqishi xohish-istagi bilan hisoblashmasligi;

g) Oila muhitida adolatsizlik, ikkiyuzlamachilik, tovlamachilik, poraxo'rlik, o'zganing haqqiga xiyonat qilish illatlarining namoyon bo'lishi;

h) Oila turmushining toralarcha qonun-qoidasi shaxsiy manfaatdorlikka roju qo'yilganligi;

i) Oilada yaxshi ananalarni, urf-odatlarining yo'qligi va ma'lum qolipdagi salbiy xatti-harkatlarga rioya qilinishi;

j) Oilaning ijtimoiy muhitdan ajralib qolishligi.

II.Oila bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat.

Oila bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, yosh avlodni sog'lom ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Oila – bu shaxsning birlamchi ijtimoiylashuv muhitidir. Bola ilk bor oila bag'rida insoniy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, madaniy odatlar, muloqot ko'nikmalarini egallaydi. Shu boisdan ijtimoiy pedagog o'z faoliyatini avvalo oilaning ichki muhitini o'rganish, ota-onalarning tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni to'g'ri yo'naltirishdan boshlaydi.

Ijtimoiy pedagogning asosiy maqsadi – oilaga pedagogik, psixologik va

ijtimoiy jihatdan yordam ko'rsatish, ota-onalarning tarbiya madaniyatini oshirish hamda bolalarning ijtimoiy muhitga moslashuvini ta'minlashdir. Bu jarayonda pedagog har bir oila a'zosi bilan alohida ishlaydi, ularning shaxsiy xususiyatlarini, o'zaro munosabatlarini, turmush sharoitlarini chuqur o'rganadi. Oila muhitida vujudga kelayotgan nizolar, tushunmovchiliklar, tarbiyadagi xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini topish ijtimoiy pedagog faoliyatining muhim tarkibiy qismidir. Oila bilan ishlashda pedagogning vazifalari turlicha bo'lishi mumkin. U ota-onalarga bola tarbiyasida uchraydigan qiyinchiliklarni hal etish bo'yicha maslahatlar beradi, oilaning moddiy yoki psixologik muammolarini aniqlab, tegishli mutaxassislar bilan hamkorlikda

yordam ko'rsatadi. Ba'zi hollarda pedagog oiladagi muhitni yaxshilash uchun mahalla faollari, psixologlar, tibbiyot xodimlari va ijtimoiy xizmat organlari bilan hamkorlik qiladi. Shuningdek, u ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish maqsadida ma'ruzalar, suhbatlar, seminar va treninglar tashkil etadi. Oila bilan ishlashning samarali shakllaridan biri uyga tashrif buyurishdir. Bunda ijtimoiy pedagog oilaning yashash sharoitini bevosita ko'radi, bolaning oiladagi mavqei, ota-onalar bilan muloqot darajasini baholaydi. Uyga tashriflar ijtimoiy diagnostika uchun muhim manba bo'lib, ular orqali pedagog oilaning real ehtiyojlarini aniqlaydi. Shu asosda har bir oila uchun individual ish rejasini ishlab chiqadi. Ijtimoiy pedagog o'z faoliyatida uchta asosiy rol ni bajaradi: maslahatchi, vositachi va himoyachi. Maslahatchi sifatida u ota-onalarga pedagogik-psixologik yo'l-yo'riq beradi, vositchi sifatida esa oila bilan maktab, mahalla, tibbiyot muassasalari o'rtasida aloqa o'rnatadi. Himoyachi sifatida esa u bolaning huquq va manfaatlarini himoya qiladi, oiladagi beparvolik yoki zo'ravonlik holatlariga qarshi chora ko'radi. Oila bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyatning samaradorligi, avvalo, o'zaro ishonch va hamkorlik muhitiga bog'liq. Ota-ona, bola va pedagog o'rtasida samimiy munosabat o'rnatilganda, tarbiya jarayoni yanada muvaffaqiyatli kechadi. Shu ma'noda, ijtimoiy pedagog nafaqat nazorat qiluvchi, balki yo'l ko'rsatuvchi, ishonchli hamkor sifatida faoliyat yuritishi zarur. Zamonaviy jamiyatda oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini to'g'ri yo'naltirish ijtimoiy pedagogning eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki bugungi kunda ko'plab oilalar turli ijtimoiy-iqtisodiy bosimlar, migratsiya, ota-onalarning bandligi yoki axborot texnologiyalarining salbiy ta'siri tufayli tarbiyaviy e'tiborni yo'qotmoqda. Shu sababli ijtimoiy pedagog oilaga nafaqat nazariy, balki amaliy yordamni ham ko'rsatadi: bola uchun sog'lom psixologik muhit yaratish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, ota-onalarning ma'naviy-ma'rifiy darajasini oshirishni ta'minlaydi. Xulosa qilib aytganda, oila bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik

faoliyat – bu murakkab, ammo nihoyatda zarur jarayon bo‘lib, u jamiyatda sog‘lom, barkamol, ma‘naviy yetuk avlodni voyaga yetkazishda asosiy omil hisoblanadi. Ijtimoiy pedagog bu yo‘lda nafaqat tarbiyaviy, balki insonparvarlik, psixologik va ijtimoiy yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda faoliyat yuritadi. U oilaning hayotida ishonchli yo‘lboshchi sifatida qatnashib, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita hissa qo‘shadi.

O‘z mohiyatiga ko‘ra oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari tashxislash quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

Asosiy yo‘nalishlar

Ota-onalarning pedagogik madaniyatga egaligini tashxislash	Oilaning sog‘lom psixologik muhitga egaligini tashxislash
Ota-onalar va farzandlarning sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalariga egaligini tashxislash	Farzandlarning oila qurishga ruhiy, ma‘naviy-axloqiy jihatdan tayyorligini tashxislash

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlarining Respublikamiz mustaqillligi yillarida amalga oshirilayotgan islohotlarning hosilasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta‘limni tashkil etish to‘g‘risidagi 203-sonli Qaroriga asosan tashkil etilgan. Markaz o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda ularning qobiliyati va moyilliklarini aniqlaydi. U bolani 6 yoshdan boshlab, ta‘limning maktab bosqichiga psixologik, jismoniy va aqliy rivojlanganligini hisobga olgan holda tayyorligini belgilaydi. Iqtidorli bolalarni kashf qilish, o‘quvchilarni har yili tibbiy-pedagogik tekshiruvdan o‘tkazish, ota-onalarga bolalarni o‘qitish, tarbiyalash kasb-hunarga ilmiy jihatdan to‘g‘ri yo‘nalishlar berishga yordamlashish kabi muhim

vazifalar ham markaz faoliyatiga kiradi. Shu asosda o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvlarini to'g'ri tashkil etish, maktab bitiruvchilarini akademik litsey, KXKlarga oqilona yo'llash kabi masalalarni pedagogik va tibbiyot nuqtai nazaridan to'g'ri hal qilib berish ishlari amalga oshiriladi.

Mazkur markaz iqtidorli bolalarni izlab topish, ularning iste'dodini shakllantirish masalasida Respublika Iste'dod markazi bilan uzviy hamkorlik qiladi, salomatligi yaxshi bo'lmagan bolalarning sog'ligini tiklash maqsadida tibbiyot markazlariga yo'naltiradi. Bunday markazlar tuman (Shahar) xalq ta'limi bo'limlari tarkibida faoliyat ko'rsatadi. Bir so'z bilan aytganda, tashxis markazlari hozirgacha barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarining orzu-armoniga bag'ishlangan dolzarb muammolarni: bolalarning kelajagini ilmiy-va tahliliy asoslarda to'g'ri tashkil etish, ularning qobiliyat va imkoniyatlariga, salomatligiga mos o'quv, kasb-hunar shakilini to'g'ri belgilashga yordam beradi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktab bosqichiga psixologik, ijtimoiy va aqliy jihatdan nechog'li tayyor ekanligini aniqlashtiradi. Ayni paytda iqtidorli bolalarni izlab topish, ularning iste'dod qirralarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Bolalarni kasbga yo'naltirish kabi amaliyot turi avvallari ham bor edi. Lekin bu soha hech qanday nizom, me'yoriy xujjatlarsiz, sinf rahbarlari, mehnat ta'limi o'qituvchilariga yuklatilgan bo'lib ular o'quvchilarni ijtimoiy moslashtirish, kasbga yo'naltirish va ayniqsa bolaning aqliy, psixik va ijtimoiy rivojlanishiga tashxis qo'yish bo'yicha hech qanday ma'lumot, qo'llanmalarga ega emas edilar. Bunday amaliyot bo'yicha qilinadigan ishlarning shakl va uslublari pedagogik ta'lim o'quv shartlarida ham o'rgatilmas edi. Vazirlar Mahkamasining eng dastlabki qaroridayoq bu dolzarb masala ijobiy hal qilinib, markazlar tuman (Shahar) xalq ta'limi bo'limlari tarkibida tashxis markazlari tashkil etish haqida qaror qabul qilindi va mazkur masala bilan bogliq barcha tashkiliy ishlar tadbirlar Respublika miqyosida ham viloyatlar miqyosida ham amalgam oshirildi. O'quv-

maruzlar, seminarlar, anjumanlar, yo'riqnomada berilgan topshiriqlarning bajarilishi izchillik bilan kuzatib borilmoqda.

Asosiy vazifa tashxis markazlarining rahbarlari va uning hodimlari tomonidan markaz nizomida korsatilgan holatlardan ogishmay, qat'iyat bilan, oshna-ogaynigarchilik, tanish-bilishchilik kayfiyatlariga berilmasdan oz burchlarini halol, puxta, to'g'ri ado etishlariga bog'liq. O'tkazilgan seminarlarda berilgan yo'riqnomalarda tashxis markazlari mutasaddilar amalga oshirgan tashkiliy-pedagogik tadbirlarda ishning nazariy-metodik va amaliy jihatlari bilan bir qatorda, ro'y berishi ehtimol tutilgan ayrim ko'ngilsiz vaziyatlar to'g'risida ham so'z bordi. Jumladan: Bolalarni psixologik, defektologik, tibbiyot nuqtai nazaridan maktab ta'limiga yaroqli yoki yaroqsizligi ota yuzaki tekshirilib ayrim bolalar aqlan zaif, jismonan kamquvvat, turli defektologik va boshqa ijtimoiy nuqsonlar bilan maktabga kelsa, sinflarda o'quv-tarbiya ishlarini samarali tashkil etishga to'sqinlik qilishi mumkin. Agar shunday holga yo'l qo'yilsa, maktab ta'limiga jismoniy, aqliy, psixologik jihatdan tayyor bo'lmagan bolalarda ruhiy tushkunlik, iztirob, qo'rquv yuzaga keladi va bolaga katta ma'naviy zarar yetadi.

III.Tashxis markazlarining bola tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati.Ta'limda demokratik, insonparvarlik tamoyillarini yetarli darajada ma'rifatli tarzda yo'l qo'yilmaganligidan u yoki bu fanni o'zlashtirishga layoqati va iqtidori hamda sog'ligi yetishmaydigan o'quvchilar, ularning ota-onalari bilan o'quvchilar, maktab jamoasi partasida turli ixtilof va ko'ngilsiz to'qnashuvlar kelib chiqadi. Bu har ikki tomon manfaatlariga salbiy ta'sir etadi.

O'quvchilar yoshligidanoq kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirilmaganligidan, ayrim o'quvchilar ota-onalari yaqinlari xohishi bilan o'zlari qiziqmaydigan yoki qobiliyatlari yetmaydigan kasb-hunar yo'nalishiga tushib qoladilar.

Kollejlarda ayniqsa, akademik litseylarda hatto maktablarning 1-sinfiga nomunosib o'quvchilar uchun ota-onalar yoki "yuqoridan"

ko'rsatilgan tazyiq asosida yo'llanmalar berish. Tashxis markazlari yo'llanmasi bilan u yoki bu o'quv muassasalariga borishdan bo'yin tovlash holatlardan ogohlantirildi. Chunki agar yuqoridagi masalalar xolisona va to'g'ri bajarilmasa, tashxis markazlari ish samarasi kutilganidek chiqmaydi, maktab va o'quvchilar oldidagi mavjud muammolar yechmay qolaveradi. Xalq ta'limi vazirligi esa o'z navbatida tashxis markazlarining umumiy ta'lim maktablarida muassasalarida ham "o'z kishisi" bo'lishi ta'minlashga harakat qilinmoqda. Aynan shu maqsadda har bir maktabda psixolog, oliy ma'lumotli vrach tibbiyot xizmatini yo'lga qo'yilganligi, ishlar qanday ketayotganligi haqida tez-tez maqola va habarlar berib borilmoqda. Asosiy maqsad – o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari ish faoliyatini muntazam ravishda takomillashtirib borishdan iboratdir.

Testlar:

1. Ijtimoiy pedagogning oila bilan ishlashdagi asosiy maqsadi nimadan iborat?

A) Ota-onalarning moliyaviy holatini yaxshilash

B) Ota-onalarning pedagogik va psixologik madaniyatini oshirish

C) Bolalarning bo'sh vaqtini to'ldirish

D) Ota-onalarning mehnat faoliyatini nazorat qilish

2. Ijtimoiy pedagog oila bilan ishlash jarayonida qanday rol ni bajaradi?

A) Faqat nazoratchi

B) Faqat maslahatchi

C) Maslahatchi, vositchi va himoyachi

D) Faqat tahlilchi

3. Oila bilan ishlashning eng samarali shakllaridan biri quyidagilardan qaysi biri hisoblanadi?

A) Uyga tashriflar orqali oilani bevosita o'rganish

B) Yozma so'rovnomalar yuborish

C) Yagona ota-ona yig'ilishi

D) Telefon orqali suhbat

4. Ijtimoiy pedagog oila bilan ishlashda kimlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi?

A) Faqat maktab o'qituvchilari

B) Mahalla, psixolog, tibbiyot xodimlari va ijtimoiy xizmatlar bilan

C) Faqat ota-onalar bilan

D) Faqat davlat organlari bilan

5. Oila bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyatning asosiy natijasi nima bo'lishi kerak?

A) Oilaning moddiy farovonligini oshirish

B) Bolaning sog'lom ijtimoiy-psixologik rivojlanishini ta'minlash

C) Maktab reytingini ko'tarish

D) Ota-onalarning bandligini kamaytirish

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Oila ijtimoiy institut sifatida shaxs kamolotida qanday o'rin tutadi?

2. Ijtimoiy pedagogning oila bilan ishlashdagi asosiy maqsad va vazifalarini izohlang.

3. Oila bilan ishlash jarayonida ijtimoiy pedagog tomonidan qo'llaniladigan asosiy metodlar nimalardan iborat?

4. Oila muhitini o'rganishda ijtimoiy diagnostikaning ahamiyati nimada?

5. Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirishda ijtimoiy pedagog qanday faoliyatlarni amalga oshiradi?

6. Ijtimoiy pedagog oiladagi nizolarni hal etishda qanday psixologik yondashuvlardan foydalanadi?

7. Oila bilan ishlashda mahalla, maktab va boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorlik qanday yo'lga qo'yiladi?

8. Oila tarbiyasida uchraydigan muammolarni bartaraf etishda ijtimoiy pedagogning roli qanday namoyon bo'ladi?

27-mavzu: Ijtimoiy pedagogik tashxis

Reja:

1. Ijtimoiy-pedagogik tashxis. Uning mohiyati va uziga xos xususiyatlari

2. Ijtimoiy pedagogik tashxis - pedagogik faktorlarning samaradorligini oshirish, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy psixologik faktorlarning sotsiumi.

3. Ijtimoiy pedagogning tashxis - obekti ijtimoiy mikromuhit.

Tayanch tushunchalar: *Ijtimoiy muhit, pedagogik tashxis, xavf guruhlar, ijtimoiy moslashuv, oilaviy holat, psixososial rivojlanish, tarbiyaviy muammo, profilaktik ishlar, ijtimoiy yordam, diagnostik suhbat*

I. Ijtimoiy-pedagogik tashxis. Uning mohiyati va uziga xos xususiyatlari. Tashxis deganda avvalo, obektning axvolini aniqlash va belgilash nazarda tutiladi. Biz tibbiy, psixologik va pedagogik tashxis kabi tushunchalar bilan duch kelganmiz. Lekin ijtimoiy pedagogikada ijtimoiy pedagogik tashxis jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ijtimoiy pedagogik tashxis - bu pedagogik faktorlarning samaradorligini oshirish maqsadida sotsiologik, ekologik va ijtimoiy - psixologik faktorlarning sotsiumga xamda xar bir shaxsga tasir ko'rsatishi xaqidagi axborotlar majmui kabi bilish jarayonining tashkiliy qismidir. Ijtimoiy pedagogning tashxis obekti - ijtimoiy mikromuhit bilan munosabati tizimida bolaning shaxs sifatida rivojlanishi va ijtimoiylashuvi jarayonidir. Ijtimoiy pedagogik tashxis orqali mikromuxitning ijtimoiy psixologik tavsifi, oila tarbiyasi va pedagogik jarayonlar shaxsining individual - psixologik tavsifi urganiladi.

Ijtimoiy - pedagogik tashxisning umumiy tuzilish. Ijtimoiy pedagogik tashxis quyidagi tuzilishga, yani strukturaga ega:

bolaning faoliyatidagi nuqsonlarni aniqlash konstatatsiyasi;

bolaning faoliyatidagi ushbu nuqsonlarning sabablarini aniqlashush;

ushbu bola haqidagi toplangan materiallar asosida dastlabki farazni ilgari surish;

ushbu farazni sinashga doir qo'shimcha axborotlar to'plash, agarda faraz isbotlanmasa, barcha muolajalarni qayta ko'rib chiqish.

Bola yoki o'smir shaxsi bilan olib boriladigan bu ishlarni bir so'z bilan aytganda ijtimoiy pedagogik tekshiruvdan o'tkazish deb yuritsa ham boladi. Demak, ijtimoiy pedagogik tekshiruv ijtimoiy pedagogik tashxisning asosini tashkil etadi.

Ijtimoiy-pedagogik tashxis deganda bolalar va o'smirlarning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishidagi muammolarini aniqlash, baholash va ularga yechim topish jarayoni tushuniladi. Uning mohiyati shaxsning jamiyatga moslashishida uchraydigan qiyinchiliklarni ko'rsatib, ularni bartaraf etishga qaratilgan bo'lsa, o'ziga xos xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

Mohiyati: Muammolarni aniqlash: Individual bolalar yoki guruhlarda ijtimoiy moslashuvning buzilishi, psixologik muammolar, oilaviy va maktabdagi qiyinchiliklar kabi holatlarni o'rganish.

Sabablarini tahlil qilish: Aniqlangan muammolarning kelib chiqish sabablarini (oilaviy, ijtimoiy, psixologik) chuqur o'rganish.

Yechim topish: Muammolarni bartaraf etishga qaratilgan samarali ta'sir choralari, ya'ni "ijtimoiy-pedagogik korreksiya" dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Maxsus ko'mak ko'rsatish: Zarur bo'lsa, bolaga va uning oilasiga psixologik, huquqiy, ijtimoiy ko'mak ko'rsatishni tashkil etish.

Yagona obykti: Bola va uning shaxsiy rivojlanishini ijtimoiy muhit bilan o'zaro bog'liqligida o'rganish.

Interdisiplinar yondashuv: Pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, huquqshunoslik kabi bir qancha fanlar yutuqlaridan foydalanish.

Ko'p qirrali baholash: Bola holatini baholashda uning yoshini, individual xususiyatlarini, oilaviy va ijtimoiy sharoitlarini ham hisobga olish.

Prognostik funksiya: Muammoning rivojlanishini oldindan bashorat qilib, uni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Korreksiyaviy-rivojlantiruvchi yo'nalish: Tashxis qo'yish bilan cheklanib qolmay, muammoni bartaraf etishga va bolaning ijtimoiy-madaniy rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan.

Jamoaviy ish: Mutaxassislar (ijtimoiy pedagoglar, psixologlar, defektologlar, huquqshunoslar) va oila a'zolarining hamkorlikda ishlashini talab qiladi.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti inson kapitaliga, ya'ni shaxsning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy salohiyatiga bevosita bog'liqdir. Bugungi globallashuv jarayonida inson hayotining barcha jabhalarida ijtimoiy omillar, shaxslararo munosabatlar va ekologik muhitning ta'siri tobora ortib bormoqda. Shu sababli, ijtimoiy pedagogik tashxis — zamonaviy ta'lim va tarbiyaning ajralmas, zaruriy tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. "Ijtimoiy pedagogik tashxis" deganda shaxs, guruh yoki jamiyatdagi ijtimoiy holatni chuqur o'rganish, ijtimoiy muammolarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlovchi ilmiy-pedagogik jarayon tushuniladi. U nafaqat ta'lim tizimida, balki oilaviy tarbiya, mahalla faoliyati, yoshlar siyosati va umuman jamiyatning ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy pedagogika fan sifatida XX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uning markazida shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir, shaxsning ijtimoiy muhitda rivojlanish jarayoni, hamda bu jarayonni boshqarish masalalari turadi. Ijtimoiy pedagogik tashxis ana shu jarayonlarni tahlil qilish, baholash va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

II. Ijtimoiy pedagogik tashxis - pedagogik faktorlarning samaradorligini oshirish, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy psixologik faktorlarning sotsiumi.

Tashxis atamasi yunoncha “diagnosis” soʻzidan olingan boʻlib, “aniqlash”, “farqlash”, “tushunish” degan maʼnolarni bildiradi. Pedagogik kontekstdagi tashxis bu oʻquvchi, talaba yoki jamoaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini aniqlash jarayonidir. Ijtimoiy pedagogik tashxisning asosiy maqsadi — shaxsning ijtimoiy rivojlanish darajasini, uning atrof-muhit bilan oʻzaro munosabatini, ijtimoiylashuv darajasini aniqlash va ushbu jarayonga taʼsir etuvchi omillarni baholashdir.

III. Ijtimoiy pedagogning tashxis - obekti ijtimoiy mikromuhit.

Tashxisning obyekti - shaxs, oila, jamoa, mahalla, ijtimoiy muhit;

subyekti esa - pedagog, psixolog, sotsiolog, ijtimoiy xodim yoki oʻqituvchidir. Ushbu tashxis quyidagi vazifalarni bajaradi: Shaxsning ijtimoiy holatini aniqlash; Ijtimoiy muammolarni tahlil qilish; Tarbiyaviy muhitni oʻrganish; Taʼsir koʻrsatuvchi ijtimoiy, psixologik, ekologik omillarni oʻzaro bogʻliqlikda tahlil qilish; Shaxsning ijtimoiy moslashuv jarayonini oʻlchash. Pedagogik faktorlarning samaradorligini oshirish.

Taʼlim jarayonining markazida inson turadi. Shu boisdan pedagogik jarayonni tahlil qilishda oʻquvchining individual, ijtimoiy va ruhiy holatini oʻrganish muhimdir. Ijtimoiy pedagogik tashxis pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishning asosiy vositalaridan biridir.

Pedagogik faktorlar deganda taʼlim-tarbiya jarayoniga bevosita taʼsir koʻrsatuvchi elementlar - oʻqituvchi faoliyati, oʻquvchi faolligi, oʻquv dasturi, dars sharoiti, oʻquv muhiti, ota-onalar ishtiroki tushuniladi.

Pedagogik tashxis yordamida oʻqituvchi quyidagi masalalarni aniqlaydi:

O'quvchilarning bilish faolligi darajasi;
Motivatsiya manbalari va ularning barqarorligi;
Dars jarayonida o'quvchilarning o'zaro munosabatlari;
O'quvchi shaxsining ijtimoiy muhitga moslashuv darajasi.

Pedagogik samaradorlikni oshirish uchun tashxis natijalari asosida individual o'quv yo'nalishlari tuziladi, ijobiy pedagogik muhit yaratiladi, hamkorlik pedagogikasi tamoyillari joriy etiladi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ijtimoiy tahlilchi, yo'l ko'rsatuvchi va shaxsni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi sifatida faoliyat yuritadi.

Sotsiologik faktorlar shaxsning ijtimoiy muhitda shakllanishi va rivojlanishini belgilovchi asosiy tashqi omillardir. Ularga oila, mahalla, do'stlar jamoasi, milliy qadriyatlar, iqtisodiy imkoniyatlar, madaniy daraja va ijtimoiy institutlar kiradi.

Oila - eng muhim sotsiologik muhitdir. Bola tarbiyasidagi asosiy qadriyatlar, mehnatsevarlik, halollik, hurmat, mas'uliyat kabi fazilatlar oilada shakllanadi. Ota-onaning ta'lim darajasi, ijtimoiy mavqei, madaniy qadriyatlari bolaning ijtimoiylashuviga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mahalla muhitining ijobiy bo'lishi ham ijtimoiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Mahalla yoshlarni ijtimoiy himoya qiladi, ularga milliy an'analarni singdiradi, jamoaviy qadriyatlarni shakllantiradi.

Mavzuni mustahkamlovchi testlar.

1. Ijtimoiy pedagogik tashxisning asosiy maqsadi nimadan iborat?

A) O'quvchilarning o'qishdagi yutuqlarini nazorat qilish

B) *Shaxsning ijtimoiy rivojlanish darajasi va muhit ta'sirini aniqlash*

C) Ta'lim sifatini oshirish uchun yangi darsliklar yaratish

D) Faqat o'qituvchilarning malakasini baholash

2. Ijtimoiy pedagogik tashxisda o'rganiladigan asosiy omillar qaysilar?

A) *Pedagogik, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy-psixologik omillar*

B) Faqat psixologik va axborot omillar

C) Siyosiy va iqtisodiy omillar

D) Texnik va huquqiy omillar

3. Sotsiologik faktorlar ijtimoiy pedagogik tashxisda nimalarni o'z ichiga oladi?

A) Shaxsning sog'lig'i, ekologik muhit va ovqatlanish madaniyati

B) *Oila, mahalla, iqtisodiy holat, madaniyat va ijtimoiy qadriyatlar*

C) Faqat maktabdagi psixologik muhit

D) O'quvchilarning test natijalar.

4. Ijtimoiy-psixologik faktorlar shaxsga qanday ta'sir ko'rsatadi?

A) Faqat jismoniy sog'lig'ini yaxshilaydi

B) *Ijtimoiy munosabatlar, hissiy barqarorlik va moslashuvga ta'sir qiladi*

C) Ta'lim tizimining texnik ta'minotini kuchaytiradi

D) O'quv dasturlarini ishlab chiqadi

5. Ijtimoiy pedagogik tashxisning bosqichlariga qaysilar kiradi?

A) Rejalashtirish, o'qitish, nazorat qilish

B) *Tayyorlov, axborot yig'ish, tahlil, tavsiya berish*

C) Faqat baholash va xulosa chiqarish

D) Eksperiment, sinov, natija chiqarish

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Oila tarkibi qanday?

2. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar qanday?

3. Farzandning yashash sharoitlari qanday?

4. Ota-ona ish bilan ta'minlanganmi?

5. Bo'sh vaqtini qanday o'tkazadi?

6. Maktabdagi o'qish darajasi qanday?

7. Psixologik holati qanday?

8. Ijtimoiy ko'nikmalari qanday?
9. Sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi qanday?
10. O'qituvchilar bilan munosabatlari qanday?

28-mavzu: Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik o'rganish.

Reja:

1. Go'daklik davrida bolalarni psixologik-psixologik tekshirish.
2. Ilk yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik o'rganish.

Tayanch tushunchalar: *Rivojlanish diagnostikasi, psixomotor rivojlanish, kognitiv faoliyat, emotsional holat, ijtimoiy moslashuv, nutqiy rivojlanish, sensor rivojlanish, shaxsiy xususiyatlar, o'yin faoliyati, pedagogik kuzatuv*

I.Go'daklik davrida bolalarni psixologik-psixologik tekshirish. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, uning psixik jarayonlari va individual xususiyatlari eng avvalo hayotining ilk davrlarida, ya'ni tug'ilgan paytidan boshlab maktabgacha yosh davrigacha bo'lgan oraliqda eng jadal rivojlanadi. Shu sababli bu davrni chuqur o'rganish, bola ruhiyati, aqliy salohiyati, hissiy-emotsional dunyosini to'g'ri anglash pedagogika va psixologiya fanlarining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Bola hayotining dastlabki yetti yili insonning butun hayot yo'lida eng ta'sirli davr hisoblanadi. Bu davrda bola tashqi muhit bilan faol aloqada bo'lib, har bir yangi taassurot, har bir emotsional tajriba uning kelajakdagi shaxsiy sifatlarini shakllantiradi. Shuning uchun psixologik-pedagogik o'rganish nafaqat bolaning hozirgi holatini baholash, balki uning rivojlanish istiqbolini aniqlash uchun ham muhimdir.

Bolaning psixologik rivojlanishining mohiyati:

Bola psixik rivojlanishi — bu uning idrok, tafakkur, xotira, nutq, diqqat, hissiyot va irodaviy sifatlarining uzluksiz o'sib borish

jarayonidir. Psixologiyada bu jarayon ko'pincha "ontogenez" deb ataladi. Ontogenez davomida bola asta-sekin biologik mavjudotdan ijtimoiy shaxsga aylanadi. Rivojlanishning asosiy omillari quyidagilardir:

1. Biologik omillar – irsiyat, markaziy asab tizimining yetukligi, fiziologik salomatlik;
2. Ijtimoiy omillar – oila muhiti, muloqot, ta'lim, tarbiya, madaniy muhit;

3. Faoliyat – o'yin, mehnat, muloqot, bilish faoliyati orqali bola o'z imkoniyatlarini namoyon etadi.

Bola rivojlanishining psixologik jarayonida har bir yangi bosqich avvalgisiga tayanadi. Masalan, ilk yoshdagi sezgi-idrok tajribalari keyinchalik tafakkur va nutq rivojining asosi bo'ladi.

II. İlk yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish.

Ilk yosh davrining psixologik xususiyatlari (0–3 yosh)

Ilk yosh davri bola hayotidagi eng muhim poydevor bosqichidir. Bu davrda bola atrofdagi olamni sezgi va harakat orqali o'rganadi. Psixolog J. Piaget bu davrni "sensor-motor" bosqich deb ataydi. Bola o'z tajribasi orqali narsalarni ushlab ko'radi, tatib ko'radi, hidlaydi va shu orqali ularning xususiyatlarini bilib oladi.

Ilk yoshdagi bola uchun eng muhim narsa — ona bilan emotsional aloqa. Onaning iliq munosabati, mehr va g'amxo'rliqi bolaning psixik xavfsizligini ta'minlaydi.

Bu davrda:

Bola atrofdagi tovushlarga sezgir bo'la boshlaydi;

Ko'z bilan kuzatish qobiliyati rivojlanadi;

Oddiy so'z va tovushlarni tushunish paydo bo'ladi;

Nutqning ilk elementlari (bo'g'inlar, so'zlar) shakllanadi;

Mustaqil yurish, tutish, ushlash kabi harakatlar koordinatsiyasi rivojlanadi.

Bu bosqichda bolaning ruhiy dunyosi hali juda nozik va beqaror bo'lgani sababli, unga nisbatan mehribonlik, tinch muhit va

xavfsizlik hissi muhim ahamiyatga ega. Psixologik-pedagogik jihatdan bu davrda bola uchun kuzatuv va muloqot orqali o'rganish eng tabiiy metod sanaladi.

III.Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik o'rganish.Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish jarayoni (3–7 yosh)

Uch yoshdan boshlab bola shaxs sifatida mustaqil “men” tushunchasiga ega bo'la boshlaydi. U o'z istaklarini bildiradi, mustaqil harakat qilishga intiladi, o'z fikrini himoya qiladi. Bu bosqichda asosiy faoliyat turi — o'yin faoliyati. O'yin bola uchun nafaqat hordiq vositasi, balki ijtimoiy tajribani o'zlashtirish vositasidir. L.S. Vygotskiy ta'limotiga ko'ra, bola o'yin jarayonida yaqin rivojlanish zonasida harakat qiladi. Ya'ni, kattalar yordamida u hali mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni bajarishni o'rganadi. Shu orqali u o'z imkoniyatlarini kengaytiradi. Maktabgacha yoshdagi bola quyidagi yo'nalishlarda rivojlanadi:

Nutq rivoji: so'z boyligi kengayadi, gap tuzish, hikoya qilish, savollarga javob berish malakasi shakllanadi;

Tafakkur rivoji: predmetlar orasidagi aloqani tushunish, sabab-oqibat bog'lanishlarini anglash paydo bo'ladi;

Xotira: bola eslab qolish va eslab chaqirish faoliyatini ongli ravishda bajaradi;

Diqqat: ixtiyorsizdan ixtiyoriy diqqatga o'tish kuzatiladi;

Hissiyot: bola o'z his-tuyg'ularini ifoda eta boshlaydi, boshqalarning hissiyotlarini sezadi;

Ijtimoiy moslashuv: bola guruhda o'ynash, do'stlik, navbat kutish, qoida asosida o'ynashni o'rganadi.

Bu jarayonlarning barchasi pedagogik muhit va oilaviy tarbiyaning sifatiga bevosita bog'liq.

Bolani o'rganishning psixologik va pedagogik metodlari

Bolani o'rganish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, bunda turli ilmiy metodlar qo'llaniladi. Eng ko'p ishlatiladigan metodlar quyidagilardir:

1. Kuzatish metodi – bolaning tabiiy sharoitdagi xulq-atvori, o'yini, muloqoti va emotsional holatini tizimli tahlil qilishga imkon beradi.

2. Suhbat metodi – bolaning fikrlash doirasi, so'z boyligi, nutq madaniyati, hissiyati haqida ma'lumot olishda qo'llanadi.

3. Psixologik testlar – bola diqqat, xotira, tafakkur, ijtimoiy moslashuv darajasini o'lchash uchun ishlatiladi (masalan, Denver testi, Rey matritsasi, R. Kettell testi).

4. Eksperiment metodi – maxsus tashkil etilgan vaziyatda bolaning reaksiya va qarorlarini kuzatish imkonini beradi.

5. Portfolio usuli – bolaning ijodiy ishlari, rasm, yozuv, qo'l mehnati namunalarini to'plab, rivojlanish dinamikasini baholash imkonini beradi.

Har bir metodning maqsad- bola shaxsini to'liq, har tomonlama, xolisona o'rganishdir.

Pedagogik yondashuvning asosiy tamoyillari

Bolaning psixologik xususiyatlarini o'rganish bilan bir qatorda, uni rivojlantirish uchun to'g'ri pedagogik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Quyidagi tamoyillar bu jarayonning asosini tashkil etadi:

-Individuallashtirish tamoyili – har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlari, temperamentini inobatga olish;

-Faollik tamoyili- bola o'z faoliyatining faol ishtirokchisi bo'lishi lozim;

Tarbiyaviy muhitning uyg'unligi – oila, bog'cha va jamoaning birgalikdagi ta'siri orqali rivojlanish;

-O'yin orqali o'qitish – bilim berish jarayonini tabiiy, qiziqarli shaklda tashkil etish.

Bu yondashuvlar bolaning mustaqil fikrlashini, o'zini baholashini, ijtimoiy muhitga moslashuvini rivojlantiradi.

Ota-ona va pedagog hamkorligining ahamiyati:

Ilk va maktabgacha yoshdagi bola uchun oila – bu birinchi tarbiya maktabidir. Ota-onaning mehr-muhabbati, muloqoti va rag'batlantirishi bola ruhiy holatining barqarorligini ta'minlaydi. Pedagog bilan ota-ona o'rtasidagi hamkorlik bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Pedagoglar ota-onalar bilan muntazam suhbatlar, maslahatlar, seminar-treninglar o'tkazish orqali bolaning individual xususiyatlarini tushuntiradi va ularni to'g'ri yo'naltiradi. Bu orqali ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi ta'minlanadi.

Psixologik-pedagogik diagnostika va rivojlantirish ishlari

Bola ruhiy rivojlanishini o'rganish natijasida psixolog va pedagoglar tomonidan maxsus rivojlantiruvchi mashg'ulotlar ishlab chiqiladi.

Bunda:

Diqqat va xotirani rivojlantiruvchi o'yinlar;

Nutqni kengaytiruvchi mashqlar;

Mantiqiy fikrlashni rag'batlantiruvchi topshiriqlar;

Hissiyot va empatiyani tarbiyalovchi rolli o'yinlar qo'llaniladi.

Diagnostika jarayonida bola har tomonlama o'rganilib, individual rivojlanish xaritasi tuziladi. Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davr maktabgacha ta'lim tashkiloti yosh davri yoki maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga:

3-4 yosh kichik maktabgacha davr, (kichik bog'cha yoshi),

4-5 o'rta maktabgacha davr, (o'rta bog'cha yoshi),

6-7 yosh katta maktabgacha davr, (katta bog'cha yoshi)ga ajratish mumkin.

Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, asta-sekinlik bilan egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar

orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilishi lozim. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim. Mashhur rus pedagogi Lestgaftning fikricha, insoning bog'cha yoshidagi davri shunday bir boqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Bola bog'cha yoshiga etgach, uning psixik taraqqiyotida jiddiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Chunki xuddi ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati anchagina kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola mustaqil faoliyatda bo'la olishi uchun zarur bo'lgan ikkita qudratli kuchga ega. Birinchidan, ma'lum darajada o'ziga bo'ysundirilgan harakat apparatiga, ikkinchidan esa, atrofidagi katta odamlar va o'z tengdoshlari bilan bir qadar erkin munosabatda bo'la oladigan nutqqa ega. Mana shuning uchun bu yoshdagi bolalarning xulq-atvorlari, xatti-xarakatlari, qiziqish va extiyojlari bog'chagacha yoshdagi bolalarnikidan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, bog'cha yoshidagi bolalar bilan bog'chagacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga ham, turlicha munosabatda bo'lishni taqozo qiladi. Bog'cha yoshidagi davrda bolaning barcha psixik jarayonlari jadal rivojlana borib, uning tashqi muhit bilan bo'ladigan munosabatlarida anchagina o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, bola bog'cha yoshiga etgach, kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod bo'lib, ulardan bir qadar uzoqlashadi, ikkinchi tomondan, kattalar bilan bo'lgan munosabatlari murakkab, ko'p tomonlama xarakter kasb eta boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida ularda paydo bo'ladigan xilma-xil extiyoj va qiziqishlar bolalarni u yoki bu xarakterga

undovchi, ularni ishga soluvchi (omil) hisoblanadi. Ma'lumki, ilk yoshdagi bolalarda (yangi chaqaloqlarda) asosan organik ehtiyojlar (masalan: ovqatlanish, tashnalikni qondirish, uxlash kabi)lar mavjud bo'ladi. Bolaning faoliyat doirasi kengaygan sari, atrofidagi narsalarni bilishga qaratilgan ehtiyojlari ham orta boradi. Bunga sabab bolada turmush tajribasining ozligidir. Har bir narsa bola uchun yangilik bo'lib tuyuladi va bola uni har tomonlama bilib olishga intila boradi. Shuning uchun xam ular juda ko'p savollar beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik jixatdan rivojlanishlarida bog'cha muhiti juda katta rol o'ynaydi. Bog'chadagi tartib, intizom va turli-tuman ta'limiy mashg'ulotlar bolalarda yuksak ijtimoiy, intellektual, axloqiy va gigiyenik ehtiyojlarning uyg'un ravishda yuzaga kelishi uchun sharoit tug'diradi. Psixologiya nuqtai nazaridan qaraganda, odatlar o'z mohiyati jihatidan ehtiyojga yaqin narsalardir. Boshqacha qilib aytganda, turlicha odatlar kundalik hayotda takrorlana berishi natijasida vujudimizga juda singib ketib, ehtiyojga aylanib qoladi. Shuning uchun bolalarda ijobiy va foydali ehtiyojlarni tarbiyalash deganda ularda ijobiy va foydali odatlarni xosil qilishni tushunamiz. Bog'cha yoshidagi davrda xosil qilingan mustaxkam ijobiy odatlar (extiyojlar) kishining butun umri davomida saqlanib qoladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning psixik jixatdan rivojlanishlarida qiziqishning ham roli g'oyat kattadir. Qiziqish, xuddi ehtiyoj kabi, bolani biror faoliyatga undovchi (xarakatga soluvchi) omillardan biridir. Qiziqish deganda, biz voqelikdagi narsa va xodisalarni birmuncha chuqurrok bilishga qaratilgan maxsus intilishni tushunamiz. Demak, qiziqish bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan xar bir shaxsning murakkab sifatidir. Bog'cha yoshidagi bolalar xamma narsalarga birdek qiziqua bermaydilar. Ular ayrim narsalarga ko'proq, boshqa bir narsalarga kamroq qiziqadilar. Lekin bog'cha yoshidagi bolalarning qiziqishlari katta odamlardagi kabi bir narsaga nisbatan qat'iy xamda mustahkam bo'lmay, bir narsadan ikkinchi bir narsaga tez-tez o'tib turadi. Bundan tashqari, bog'cha yoshidagi bolalarning qiziqishlari

juda tarqoq va yuzaki bo'ladi. Ular narsa va xodisalarning mohiyati yoki natijalariga emas, balki shu narsa va xodisalarning o'zigagina qiziqadilar. Shu sababli bog'cha yoshidagi bolalarda asosan beqaror va bevosita qiziqishlar ustun turadi. Tarbiyachi bog'chada turli mashg'ulotlar, ekskursiyalar, suhbatlar o'tkazish va kitoblar o'qib berishi va bolalarda markazlashgan barqaror qiziqishlarni yuzaga keltirishga xarakat qilishlari lozim. Bola psixologiyasining rivojlanishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasining mumkin qadar chuqurroq bilishga tirishadi. Binobarin, uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa, o'z navbatida, bolaning diqqati, irodasi kabi muhim psixik jarayonlarini rivojlantirish hamda mustahkamlashga yordam beradi.

Testlar

1. Bolaning psixologik rivojlanishida asosiy omillar qaysilar

A) Faqat biologik omillar

B) Faqat ijtimoiy muhit

C) *Biologik, ijtimoiy va faoliyat omillari*

D) Faqat ta'lim va tarbiya

2. J. Piaget nazariyasiga ko'ra, ilk yoshdagi bola rivojlanish bosqichi qanday nomlanadi?

A) Operatsion bosqich

B) Abstrakt tafakkur bosqichi

C) *Sensor-motor bosqichi*

D) Formal tafakkur bosqichi

3. L.S. Vygotskiy ta'limotida "yaqin rivojlanish zonasi" deganda nima tushuniladi?

A) *Bola mustaqil bajara olmaydigan, lekin kattalar yordamida bajaradigan faoliyat turi*

B) Bola uchun qulay o'yin muhiti

C) Bolaning jismoniy o'sishi bilan bog'liq jarayon

D) Bola uyqu va hordiq holati.

4. Maktabgacha yoshdagi bola uchun asosiy faoliyat turi qaysi?

A) Mehnat faoliyati

B) O'yin faoliyati

C) O'qish faoliyati

D) Dam olish faoliyati

5. Psixologik-pedagogik o'rganishda kuzatish metodining asosiy maqsadi nima?

A) Bolani baholash

B) Bolaning tabiiy sharoitdagi xulq-atvori va faoliyatini tahlil qilish

C) Faqat xatolarni topish

D) Bolaga topshiriq berish

To'g'ri javob: B) Bolaning tabiiy sharoitdagi xulq-atvori va faoliyatini tahlil qilish.

Nazorat uchun savollar

1. Bolaning psixologik rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar nimalardan iborat?

2. Psixologiyada "ontogenez" atamasi qanday ma'noni anglatadi?

3. J. Piaget nazariyasiga ko'ra, 0–3 yoshli bolalar qaysi rivojlanish bosqichida bo'ladilar?

4. L.S. Vygotskiy ta'limotida "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasi nimani bildiradi?

5. Ilk yoshdagi bolalar rivojlanishida asosiy rolni nima o'ynaydi: sezgi-idrok, tafakkur yoki xotira?

6. Maktabgacha yoshdagi bola uchun yetakchi faoliyat turi qaysi?

7. Bolaning nutqi, tafakkuri, diqqat va xotirasi eng faol rivojlanadigan davr qaysi?

8. Psixologik-pedagogik o'rganishda kuzatish metodining asosiy afzalligi nimada?

9. Ota-ona va pedagog hamkorligining bola rivojlanishidagi o'rni nimada namoyon bo'ladi?

10. Bolani o'rganishda portfel (portfolio) usuli qanday maqsadni ko'zlaydi?

29-mavzu: O'qituvchilarning kasbiy soha sifatida tashxis qo'yish faoliyati.

Reja:

1. Korrektsion faoliyat jarayonida ta'lim-tarbiyaning umumiy metodlarini o'rni.
2. Korrektsion faoliyatda informatsion metodlarning ahamiyati.
3. Korrektsion faoliyatda tushuntiruvchi suhbat metodining imkoniyatlari.
4. Korrektsion faoliyatni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.

Tayanch tushunchalar: *Kasbiy kompetensiya, pedagogik diagnostika, refleksiya, baholash mezonlari, tahlil qilish ko'nikmasi, formatif baholash, summativ baholash, o'quv faoliyatini monitoring qilish, individual yondashuv, metodik yondashuv*

I. Korrektsion faoliyat jarayonida ta'lim-tarbiyaning umumiy metodlarini o'rni. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik jarayonida o'quvchining o'qishi va xulqi bilan bog'liq salbiy holatlarni bartaraf qilishda o'qituvchi, maktab psixologi, tibbiyot xodimi tomonidan korrektsion faoliyat tashkil etiladi. Korrektsion faoliyatning asosini korrektsiyalash tashkil qiladi. Korrektsiya (yun. "correctio" - tuzatish; pedagogikada - pedagogik tuzatish) - pedagogik uslub, tibbiy choralardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik, jismoniy rivojlanish kamchiliklarining qisman yoki to'liq tuzatilishi. Korrektsiyalash (pedagogik tuzatish) - o'quvchi shaxsida kuzatilayotgan og'ishlarni tashxislash asosida ularni bartaraf qilishga qaratilgan maxsus hamda umumiy pedagogik chora tadbirlar tizimi; sabablarini tashxislash asosida o'quvchi shaxsida kuzatilayotgan og'ishlarni bartaraf etishga qaratilgan harakat; maxsus hamda umumiy pedagogik chora-tadbirlarning ko'rilishi.

Korrektsion faoliyat - pedagogik uslub, tibbiy choralardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy

rivojlanish kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatishga qaratilgan pedagogik faoliyat.

Umumiy pedagogik metodlar - bu o'qituvchi yoki tarbiyachi tomonidan bola shaxsini rivojlantirish, unga bilim, ko'nikma va malaka berish, uni tarbiyalashda qo'llaniladigan vositalar majmuasidir. Ular korrektsion pedagogika sharoitida maxsus yondashuv bilan tatbiq etiladi. Umumiy pedagogik metodlar - bu o'qituvchi yoki tarbiyachi tomonidan bola shaxsini rivojlantirish, unga bilim, ko'nikma va malaka berish, uni tarbiyalashda qo'llaniladigan vositalar majmuasidir. Ular korrektsion pedagogika sharoitida maxsus yondashuv bilan tatbiq etiladi.

II.Korreksion faoliyatda informatsion metodlarning ahamiyati. Ta'lim va tarbiyaning umumiy metodlari - bu o'qituvchi yoki tarbiyachi tomonidan bolaning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, unga bilim, ko'nikma va malaka berish, ijtimoiy xulq-atvorni rivojlantirish maqsadida qo'llaniladigan usul va vositalar majmuasidir. Korrektsion faoliyatda bu metodlar o'zgartirilgan, moslashtirilgan va individuallashtirilgan holda tatbiq etiladi.

Birinchi navbatda, og'zaki metodlar alohida o'rin tutadi. Tushuntirish, hikoya, suhbat, savol-javob kabi metodlar bolalarning nutqiy rivojlanishiga, fikrlash faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, logopedik muammolar yoki psixik rivojlanishida orqada qolgan bolalar bilan ishlashda bu metodlar yordamida ularda so'z boyligini oshirish, muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va fikrni to'g'ri ifoda etish malakasini rivojlantirish mumkin.

Ko'rgazmali metodlar esa bolalarning vizual idrokiga asoslanadi. Bu usul orqali bolalarga real hayotiy voqealarni tasvirlash, tushunchalarni shakllantirish osonlashadi. Maketlar, suratlar, modellardan foydalanish, shuningdek, video va interaktiv vositalar orqali o'qitish, ayniqsa eshitish yoki aqliy rivojlanishida cheklov bo'lgan bolalar uchun juda samaralidir. Bu metodlar

bolaning diqqatini jamlash, kuzatish, solishtirish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Amaliy metodlar orqali bolalar real faoliyatga jalb qilinadi. Mashqlar, mehnat faoliyati, hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish - bularning barchasi bola tomonidan mustaqil bajariladigan ishlar orqali bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga imkon beradi. Masalan, kiyinish, ovqatlanish, tozalikka rioya qilish, maktabga borishga tayyorgarlik ko'rish kabi oddiy, ammo hayotiy ko'nikmalar maxsus mashqlar orqali o'rgatiladi.

Korreksion faoliyatda o'yin metodlari ham juda katta ahamiyatga ega. O'yin- bolaning tabiiy faoliyati bo'lib, unda u o'z qiziqishlarini, his-tuyg'ularini ifodalaydi, ijtimoiy rollarni sinab ko'radi, atrof-muhit bilan o'zaro munosabatga kirishadi. Didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, ijodiy va rolli o'yinlar orqali bolalarning psixik faoliyati faollashadi, e'tibor, xotira, emotsional holat, ijtimoiy moslashuv va til rivoji ijobiy tomonga o'zgaradi.

Shuningdek, tarbiyaviy metodlar orqali bolalarning axloqiy tarbiyasi, ijtimoiy muhitga moslashuvi va shaxsiy fazilatlari shakllantiriladi. Rag'batlantirish, ishontirish, namuna ko'rsatish, pedagogik qo'llab-quvvatlash kabi metodlar bolada o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi, mustaqillikni rivojlantiradi, ijobiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantiradi.

Korreksion ta'limda metodlar faqatgina o'rgatuvchi vosita emas, balki bolaning o'zini anglash, jamiyatda o'z o'rnini topish, o'z imkoniyatlariga ishonch hosil qilish vositasidir. Shuning uchun ham bu metodlarni qo'llashda individuallashtirish va differensiallashtirish tamoyillari albatta e'tiborga olinadi. Har bir bolaning psixofiziologik holati, qobiliyat darajasi, rivojlanish sur'ati, ehtiyoj va qiziqishlari metod tanlashda muhim mezon hisoblanadi. Shu asosda har bir bola bilan individual reja asosida ishlash, ularni guruh ichida ham alohida yondashuv asosida rivojlantirish mumkin bo'ladi.

III.Korreksion faoliyatda informatsion metodlarning ahamiyati

Zamonaviy ta'lim jarayonida informatsion texnologiyalar va ularga asoslangan metodlarning o'rni tobora ortib bormoqda. Xususan, korreksion faoliyatda - ya'ni rivojlanishida cheklovlar mavjud bo'lgan bolalar bilan ishlashda - informatsion metodlarning qo'llanilishi alohida ahamiyatga ega. Chunki bu metodlar nafaqat ta'lim mazmunini boyitadi, balki bolalarda motivatsiyani oshirish, vizual va audio idrokni faollashtirish, nutqiy, tafakkuriy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Informatsion metodlar deganda, axborotni (informatsiyani) yetkazish, qayta ishlash va taqdim etishga asoslangan ta'limiy metodlar tushuniladi. Bu metodlar kompyuter texnologiyalari, multimediya vositalari, interaktiv taqdimotlar, audio-video materiallar, elektron o'yinlar va onlayn platformalar orqali amalga oshiriladi. Aynan korreksion pedagogikada bu vositalar individual yondashuvni kuchaytiradi, ta'lim sifatini oshiradi va o'quvchining rivojlanishiga mos tarzda materiallarni tanlash imkonini beradi. Rivojlanishida turli muammolari bo'lgan bolalarda ko'pincha nutqiy, eshitish, ko'rish, harakat, diqqat, xotira yoki emotsional-irodaviy sohalarda cheklovlar mavjud bo'ladi. Informatsion metodlar esa bu holatlarni hisobga olib, materialni o'zlashtirishni soddalashtiradi. Masalan, tinglab tushunishda qiynalayotgan bola uchun vizual animatsiyalar yoki subtitrli videodarslar samarali bo'lishi mumkin. Nutqiy rivojlanishi sust bo'lgan bola uchun esa interaktiv suhbatli dasturlar, nutqni sintezlovchi va eshitiladigan vositalar yordamida mashg'ulotlar o'tkazish foydali bo'ladi.

Korreksion ta'limda quyidagi informatsion metodlar keng qo'llaniladi:

Multimediya darsliklar va taqdimotlar: Vizual va audio ma'lumotlarni birgalikda berish orqali bola idrokini yaxlit tarzda faollashtiradi.

Interaktiv doskalar (sensorli panel va ekranlar): Bolaning harakatga asoslangan ishtirokini ta'minlab, kinestetik o'rganishga yordam beradi.

Elektron didaktik o'yinlar: Rag'batlantirish orqali o'quvchining faolligini oshiradi, ijobiy emotsional muhit yaratadi.

Nutqni rivojlantiruvchi interaktiv dasturlar: Logopedik korreksiya uchun maxsus mo'ljallangan.

Onlayn platformalar: Masofaviy ta'limda yoki uy sharoitida ta'lim olish imkoniyatini beradi, individual ta'lim yo'nalishini qo'llab-quvvatlaydi.

IV.Korreksion faoliyatni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari

Korreksion faoliyatni samarali tashkil etish uchun nafaqat pedagogik metodlar va usullarni puxta bilish, balki maxsus shart-sharoitlarni yaratish zarur. Pedagogik shart-sharoitlar – bu korreksion ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun zarur bo'lgan tashkiliy, moddiy, psixologik va ijtimoiy omillar yig'indisidir. Ular bola rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga olib, uning ta'lim va tarbiyasiga maksimal ta'sir ko'rsatishni maqsad qiladi.

Birinchidan, korreksion faoliyat uchun maxsus tayyorlangan pedagogik muhit talab etiladi. Bu muhit o'quvchilar uchun qulay, xavfsiz va do'stona bo'lishi lozim. Pedagogik muhit tarkibida darsliklar, o'quv qo'llanmalar, maxsus vositalar, didaktik o'yinlar, texnik jihozlar, shuningdek, pedagoglarning malakasi va motivatsiyasi ham kiradi. Muayyan muhitning pedagogik samaradorligi — bolaning psixofiziologik imkoniyatlari va individual ehtiyojlari bilan uyg'unlashganligida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, korreksion faoliyatni tashkil etishda individual yondashuv va differensiallashtirish shart-sharoitlari muhim ahamiyatga ega. Har bir bolaning rivojlanish darajasi, nuqson turi va og'irligi, shuningdek, qobiliyatlari va ehtiyojlari hisobga olinishi lozim. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsga

yo'naltirilgan, moslashtirilgan shaklda tashkil etiladi. Bu esa bolalarning ijtimoiylashuvi va mustaqil hayotga tayyorligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, mutaxassislarning malakasi va jamoaviy ishning tashkil etilishi pedagogik shart-sharoitlarning ajralmas qismidir. Korrektsion faoliyatda pedagog, psixolog, logoped, defektolog va ijtimoiy xodimlarning birgalikda ishlashi natijasida kompleks yondashuv amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ota-onalar bilan yaqin hamkorlik ham muhim hisoblanadi, chunki ularning ishtiroki bolaning rivojlanish jarayonini tezlashtiradi.

To'rtinchidan, metodik ta'minot va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash pedagogik shart-sharoitlarni mustahkamlaydi. Maxsus metodik qo'llanmalar, diagnostik vositalar, interaktiv ta'lim vositalari va axborot texnologiyalari korrektsion faoliyatni samarali tashkil etishda katta yordam beradi. Bu vositalar bolalarning individual o'rganish ehtiyojlarini qondirishga, o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasining yetarliligi ham muhim shartdir. Maxsus sinflar, o'quv maydonchalari, sport zallari, dam olish joylari va maxsus jihozlangan xonalarning mavjudligi bolalar uchun to'laqonli ta'lim va tarbiya jarayonini ta'minlaydi.

Shuningdek, korrektsion faoliyatni tashkil etishda psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish lozim. Bu tizim bolalarning psixologik holatini barqarorlashtirish, ularni stress va tashvishlardan himoya qilish, ijtimoiy moslashuvni yaxshilash vazifalarini bajaradi.

Testlar

1. Korrektsion faoliyatda pedagogik muhit qanday bo'lishi kerak.

A) Qattiq va tartibli

B) Quvnoq va harakatsiz

C) Quvnoq, xavfsiz va do'stona

D) Faoliyat uchun noqulay

2. Korrektsion ta'limda individual yondashuv nima uchun muhim?
- A) Bolalarning yoshi bir xil bo'lgani uchun
 - B) Har bir bolaning rivojlanish sur'ati va ehtiyojlari turlicha bo'lgani uchun**
 - C) Faoliyatni tezroq yakunlash uchun
 - D) Faoliyatni faqat guruh bilan olib borish uchun
3. Korrektsion faoliyatda mutaxassislar jamoasida kimlar ishtirok etadi?
- A) Faqat pedagoglar
 - B) Pedagog, psixolog, logoped, defektolog va ijtimoiy xodimlar**
 - C) Faqat ota-onalar
 - D) Faqat texnik xodimlar
4. Pedagogik shart-sharoitlarni mustahkamlash uchun qanday vositalardan foydalanish muhim?
- A) Zamonaviy metodik qo'llanmalar va texnologiyalar**
 - B) An'anaviy faqat og'zaki darslar
 - C) Faqat yozma ishlar
 - D) O'yinlarga umuman e'tibor bermaslik
5. Korrektsion faoliyatda psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining vazifasi nima?
- A) Faqat bolani jismonan rivojlantirish
 - B) Bolalarning stressini kamaytirish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilash**
 - C) Faqat bolalar uchun o'yin tashkil etish
 - D) Faoliyatni kechiktirish

Mavzuga doir nazorat savollari:

1. Korrektsion faoliyatda pedagogik muhit qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?
2. Nega korrektsion faoliyatda individual yondashuv muhim hisoblanadi?
3. Korrektsion faoliyatda jamoaviy ishni tashkil etishda kimlar ishtirok etadi?

4. Zamonaviy texnologiyalar korrektsion faoliyatni qanday samarali qiladi?
5. Moddiy-texnik bazaning yetarliligi nimani ta'minlaydi?
6. Korrektsion faoliyatda ota-onalarning roli nimadan iborat?
7. Pedagogik shart-sharoitlar qaysi omillardan iborat?
8. Psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi korrektsion faoliyatda qanday vazifani bajaradi?
9. Differensiallashtirish va individualizatsiya o'rtasidagi asosiy farq nima?
10. Korrektsion ta'lim jarayonida metodik ta'minotning o'rni qanday?

30-mavzu: Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik -pedagogik tashxis qilish vazifalari.

Reja:

1. Nutqning oliy psixik funktsiya.
2. Oliy psixik psixik funktsiyakar.
3. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar.

Tayanch tushunchalar: *Psixodiagnostika, pedagogik tashxis, maxsus pedagogika, individual yondashuv, reabilitatsiya, kompensatsiya, rivojlanish monitoringi, differensial tashxis, logopedik tekshiruv, sensor tizimlar*

I.Nutq oliy psixik funktsiya. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga samarali ta'lim, tarbiya berish, ijtimoiy moslashuvini yaratish uchun uning rivojlanish imkoniyat va xususiyatlarini to'g'ri baholay olishga bog'liqdir. Bu vazifani rivojlanish nuqsonlarini kompleks psixologo-pedagogik diagnostika qilish orqali amalga oshirish mumkin. Psixologopedagogik diagnostika rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning kamchiliklarini aniqlash, bolaning psixik-jismoniy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda unga individual psixologo-pedagogik yondashuvni ta'minlaydi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha va maktab

ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadi. Ushbu bolalami psixik va jismoniy rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim sharoitlar yaratilgan. Bunday sharoitlardan awalo har bir bolaning xususiyatlari e'tiborga olgan xolda yakka yondashuvni talab etadi. Ushbu yondashuv maxsus dastur, metod, keraqli maxsus texnik vositalami, maxsus tayyorgarlikga ega pedagog, psixolog, defektolog va boshqalar bilan birgalikda kerakli tibbiy -profilaktik hamda davolov tadbirlarini, maxsus ijtimoiy yordamni, maxsus ta'lim muassasalarini texnik va ilmiy-metodik jihatdan ta'minlashni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda turli xil maxsus ta'lim muassasalari mavjud. Bolalar puxta saralash natijasida qabul qilinishi mo'ljalangan va O'zbekiston respublikasi xalq ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus ta'lim dasturlarini amalga oshiradigan maxsus ta'lim muassasalar bilan bir qatorda turli reabilitatsiya markazlari, rivojlantirish markazlari, aralash guruhlar ochilgan. Shuningdek, umuta'lim maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarda psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni uchratish mumkin.

II.Oliy psixik funksiyakar. Nutq - insonning eng murakkab, oliy darajadagi psixik funksiyalaridan biridir. U kishilarning o'zaro muloqot qilishiga, fikr almashishiga, o'z faoliyatini yo'naltirishiga imkon beradi va boshqa psixik funksiyalar bilan uzviy bog'liqdir.

Murakkab funksiya: Nutqiy faoliyat ko'p ma'nolilik, ko'p darajali tuzilma va harakatchanlik kabi xususiyatlarga ega.

Asosiy vosita: U odamlar orasidagi muloqotning asosiy shakli bo'lib, yaratuvchanlik faoliyatida muhim rol o'ynaydi.

Psixik mexanizmlar: Nutqning rivojlanishi va amalga oshishi turli murakkab psixologik mexanizmlarga tayanadi.

Shakllanishi: Nutq bola atrofidagi kattalar ta'siri ostida shakllanadi, bu esa uning rivojlanishida ijtimoiy muhitning muhimligini ko'rsatadi.

Nutq oliy psixik funksiyalar tizimida yetakchi o'rin egallaydi hamda kishilarning yaratuvchanlik faoliyatida til vositaida o'zaro muloqotning asosiy shakli bo'lib xizmat qiladi. Inson psixikasining

rivojlanishi ikki xil jarayonning uzviy bog'liqligidan iborat: **biologik (tabiiy)** va **madaniy (ijtimoiy)**.

- **Tabiiy funksiyalar:** Bularga oddiy sezgi, bevosita xotira va ixtiyorsiz diqqat kiradi. Ular genetik dastur asosida shakllanadi.

- **Oliy psixik funksiyalar (OPF):** Bular murakkab, ijtimoiy kelib chiqishga ega, ixtiyoriy boshqariladigan va vositalangan jarayonlardir. L.S. Vigotskiy ta'kidlaganidek, OPF insoniyat yaratgan madaniy qurollar (til, yozuv, hisob)ni o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladi.

2. OPFning tarkibiy tuzilishi va xususiyatlari

OPF quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan tabiiy funksiyalardan ajralib turadi:

1. **Vositaviylik:** Inson va obyekt o'rtasida "belgi" (so'z yoki belgi) turadi. Masalan, bola narsani shunchaki eslab qolmaydi, balki unga nom berish orqali xotirasida muhrlaydi.

2. **Ixtiyoriylik:** Inson o'z diqqatini ongli ravishda biron bir qiyin topshiriqqa yo'naltira olishi.

3. **Tizimlilik:** OPFlar alohida emas, balki yaxlit tizimda ishlaydi. Masalan, **nutq** tafakkur bilan, **idrok** esa xotira bilan bog'langan.

3. Interiorizatsiya: Tashqi harakatdan ichki qobiliyatga

OPF shakllanishining asosiy qonuni — **interiorizatsiya**dir. Bu jarayon quyidagi zanjir asosida kechadi:

- **Interpsixik bosqich:** Bola kattalar yordamida, tashqi muloqot orqali vazifani bajaradi.

- **Ekstrapsixik bosqich:** Bola o'z-o'ziga baland ovozda ko'rsatma beradi.

- **Intrapsixik bosqich:** Tashqi harakat ichki aqliy rejaga o'tadi. "Tashqaridagi" bilim "ichkaridagi" shaxsiy qobiliyatga aylanadi.

4. Neyropsixologik asoslar: Miya bloklari nazariyasi

A.R. Luriya bo'yicha OPFning amalga oshishi uchun miyaning uchta asosiy bloki uyg'unlikda ishlashi shart:

Miya bloki	Vazifasi	Buzilish oqibati
I blok (Energetik)	Tonus va uyg'oqlikni saqlash.	Tez charchash, diqqat tarqoqligi.
II blok (Axborot)	Axborotni qabul qilish va saqlash.	Ko'rganini yoki eshitganini anglamaslik.
III blok (Nazorat)	Rejalashtirish va tekshirish.	Maqsadsiz harakatlar, impulsivlik.

5. Korreksion faoliyatning metodologik ahamiyati

OPF nazariyasi korreksion pedagogika uchun "yo'l xaritasi" hisoblanadi. Agarda bolada biron bir funksiya (masalan, nutq) rivojlanmay qolgan bo'lsa, korreksiya quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- **Yaqin rivojlanish zonasi (YRZ):** Ta'lim bolaning bugun mustaqil bajara oladigan ishi emas, balki ertaga kattalar yordamida bajara oladigan ishi ustiga quriladi.

- **Aylanma yo'llar (Kompensatsiya):** Agar ko'rish funksiyasi buzilgan bo'lsa, OPF tizimi eshitish va taktil (ushlab ko'rish) sezgilari asosida qayta quriladi.

III. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar (imkoniyati cheklangan bolalar) — bu jismoniy yoki psixik rivojlanishida kamchiliklari bo'lib, ular sababli hayot faoliyati cheklangan hamda maxsus ta'lim va tarbiyaga muhtoj bo'lgan shaxslardir.

L.S. Vigotskiy nazariyasiga ko'ra, boladagi nuqson shunchaki "minus" (yetishmovchilik) emas, balki organizmning ushbu kamchilikni qoplashga (kompensatsiya qilishga) bo'lgan intilishidir.

2. Nuqsonning tuzilishi (Vigotskiy bo'yicha)

Nuqson ikki qatlamli tuzilishga ega:

- Birlamchi nuqson: Biologik omillar (miya shikastlanishi, eshitish yoki ko'rish a'zolarining tug'ma nuqsoni) natijasida kelib chiqadi.

- Ikkilamchi nuqson: Birlamchi nuqson ta'sirida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik buzilishlar. Masalan, kar bolada nutqning rivojlanmasligi ikkilamchi nuqsonidir.

3. Rivojlanishdagi nuqsonlarning asosiy guruhleri

Maxsus pedagogikada bolalar nuqsonning turiga qarab quyidagi toifalarga bo'linadi:

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar: Kar va zaif eshituvchi bolalar (Surdopedagogika).

2. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar: Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar (Tiflopedagogika).

3. Nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalar: Nutq a'zolari sog'lom bo'lsa-da, nutq funksiyasi buzilgan bolalar (Logopediya).

4. Intellektual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar: Aqli zaif va aqliy rivojlanishi orqada qolgan bolalar (Oligofrenopedagogika).

5. Tayanch-harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalar: Bolalar serebral falaji (BSF) va skelet tizimi kasalliklari.

6. Hissiy-ixtiyoriy sohasida buzilishlari bo'lgan bolalar: Bolalar autizmi (RDA).

7. Murakkab nuqsonli bolalar: Bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq nuqsonga ega bo'lganlar (masalan, kar-ko'r bolalar).

4. Rivojlanishdagi og'ishlarning asosiy turlari (Dizontogenez)

V.V. Lebedinskiy bo'yicha psixik rivojlanishning buzilishi quyidagi shakllarda kechishi mumkin:

- Rivojlanishning to'xtab qolishi: Aqli zaiflik.

- Rivojlanishning kechikishi: Psixik rivojlanishning orqada qolishi (PRQ).

- Shikastlangan rivojlanish: Miya jarohatidan keyingi holat (Demensiya).

- Disfarmonik rivojlanish: Shaxsiyatning shakllanishidagi buzilishlar (Psixopatiya).

5. Korreksion-pedagogik yordam tamoyillari

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

- Erta yordam: Nuqson qanchalik erda aniqlansa va korreksiya boshlansa, natija shunchalik samarali bo'ladi.

- Kompensatsiya: Sog'lom a'zolar faoliyatini kuchaytirish orqali nuqson o'rnini to'ldirish (masalan, ko'rlar uchun sezgi a'zolarining ahamiyati).

- Individuallik: Har bir bolaning imkoniyatidan kelib chiqib, individual ta'lim dasturini (ITD) tuzish.

- Ijtimoiy moslashuv: Bolani jamiyatga tayyorlash, mustaqil hayot ko'nikmalarini o'rgatish.

Xulosa: Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola — bu "kasal" bola emas, balki "boshqacha" rivojlanayotgan shaxsdir. To'g'ri yondashuv orqali ularning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishini ta'minlash mumkin.

L.S.Vigotskiy bola nutqining uning atrofidagi katta kishilar ta'siri ostida shakllanish mexanizmlarini ko'rsatib berdi. Avval kattalar unga nutqiy ko'rsatmalar beradilar («qoshiqni ol», «o'yinchog'ingni menga ber» va h.k.), bunga javoban bola nomi aytilgan predmetni ko'zi bilan topadi va ko'rsatmani bajaradi. Bola faqat o'zi nutqni egallagandagina, o'ziga-o'zi buyruqlar, nutqiy ko'rsatmalar bera boshlaydi (avval ovoz chiqarib, keyin ichida) va o'z xatti-harakatlarini ularga bo'ysundiradi, ya'ni bola va katta odam o'rtasida taqsimlangan funktsiya endi shaxsning psixik faoliyatining oliy shakllarini tashkil etish usuliga aylanadi. Oliy psixik funktsiyalarning rivojlanish qonuni ham aynan mana shunda. Nutqni rivojlanishi tug'ilgandan boshlab bosqichma-bosqich shakllanadi, har bir bosqich mustaqil tizim bo'lib, u tilning ma'lum bir rivojlanish darajasiga yetadi.

A.N.Leontev bola nutqining shakllanishini 4 davrga bo'lib ko'rsatadi;

- 1) tayyorgarlik davri — 1 yoshgacha;
- 2) bog'chagacha bo'lgan davr — 3 yoshgacha;
- 3) maktabgacha bo'lgan davr — 7 yoshgacha;
- 4) maktab davri.

D.B.Elkonin yoshga qarab faoliyat turlarining almashinishini ko'rsatadigan

muntazamlikni (davriylikni) ajratib ko'rsatadi: Tug'ilgandan bir yilgacha (go'daklik) yetakchi

faoliyat - bu kattalar bilan to'g'ridan-to'g'ri emotsional muloqot yoki vaziyatli-shaxsiy aloqa bo'lib, uning doirasida bolada predmetli faoliyat shakllanadi. [3]

Bir yoshdan uch yoshgacha (erta yosh) yetakchi faoliyat predmet-harakatli: bola kattalar bilan o'zaro munosabatlarda predmet va instrumental harakatlarni o'zlashtiradi. Uch yoshdan olti yoshgacha (maktabgacha yosh) yetakchi faoliyat- bu rolli o'yindir: bolalar odamlar va turli ijtimoiy rollar o'rtasidagi munosabatlarni modellashtiradi.

Shuningdek, olti yoshdan o'n bir yoshgacha bo'lgan kichik maktab yoshi (yetakchi faoliyat ta'lim hisoblanadi) va 11 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'spirinlik (yetakchi faoliyat tengdoshlar bilan muloqot).

Shunga ko'ra, bolalarning nutqgacha va nutq darajasida rivojlanishi vazifalar va me'yorlarni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi, buning asosida motivatsion soha rivojlanadi va shu bilan birga ob'ektlar bilan harakatlarni rivojlantirish orqali bolaning intellectual rivojlanishi shakllanadi yoki rivojlanadi. Ba'zi davrlarni boshqalar tomonidan o'zgartirishning ushbu ketma-ketligi va ularning o'zaro bog'liqligi turli davrlarda (erta bolalik davri, bolalik davri, o'smirlik davri) aqliy jarayonlarning rivojlanish chastotasi haqida gapirishga imkon beradi. Bir davrdan ikkinchisiga o'tish

faoliyatning motivlari va vazifalarini o'zlashtirish davri, predmetli harakatlarni o'zlashtirish orqali sodir bo'ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Psixologo-pedagogik tashxisning asosiy maqsadi nima?
2. Tashxis jarayonida qanday metodlardan foydalaniladi?
3. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda individual yondashuv nima uchun muhim?
4. Maxsus ehtiyojli bolalar uchun qanday reabilitatsion choralar qo'llaniladi?
5. Tashxis natijalari asosida qanday pedagogik choralar ko'riladi?
6. Tashxis jarayonida ota-onalar qanday rol o'ynaydi?
7. Logopedik tashxis qanday amalga oshiriladi?
8. Psixologik tahlil bolaning qaysi jihatlarini aniqlaydi?
9. Tashxis davomida bola bilan muloqot qanday tashkil etiladi?
10. Tashxis jarayonida multidisiplinar yondashuv qanday ahamiyatga ega?

Test:

1. Psixologo-pedagogik tashxis nima?
A) O'yin o'tkazish jarayoni
B) Bola shaxsini ijtimoiy o'rganish
C) Bola rivojlanishini baholash va aniqlash jarayoni
D) Faqat psixologik maslahat berish
2. Differensial tashxisning asosiy vazifasi nima?
A) Bolani darsga tayyorlash
B) Rivojlanishdagi farqlarni aniqlash
C) O'qituvchini baholash
D) Ota-onani o'rgatish
3. Kompensatsiya nima?
A) Bola uyga vazifa bajarishi
B) Yo'qotilgan funksiyani boshqa yo'l bilan qoplash
C) Darsni erta tugatish
D) O'yin orqali o'qitish

4. Psixologo-pedagogik tashxisda kimlar ishtirok etadi?

A) Faqat ota-ona

B) Faqat psixolog

C) *Mutaxassislar guruhi (psixolog, pedagog, logoped, shifokor)*

D) Faqat bolalar

5. Reabilitatsiya nima?

A) Tibbiy yordam ko'rsatish

B) *Bola holatini tiklash va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar*

C) Rivojlangan bolani qayta tekshirish

D) Mashg'ulot o'tkazish

ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
4. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi - inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston", 2017.
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014. - 46 b.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri (2019 yil 12 dekabr) // <https://regulation.gov.uz/uz/document/7093>.
7. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" /Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq nashriyot- matbaa konserni, 1997. - 31-61-b.
8. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 227-b.
9. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: "O'zbekiston", 2016. - 14-b
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha

- chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2018 yil 5 sentyabr) PF-5538-sonli Farmoni //https://lex.uz/docs/3893445.
- 11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son (2020 yil 6 noyabr) Qarori // https://lex.uz/docs/5085887.
 - 12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2019 yil 29 aprel) PF-5712-sonli Farmoni //https://lex.uz/docs/4312785.
 13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-son (2020 yil 7 avgust) Qarori // https://www.lex.uz/ru/docs/4945840.
 - 14."O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi"ning Ustavi //
 - 15.Abdullayeva Sh.A., Ro'ziyeva D.I. . /Pedagogik dignostika va korreksiya / darslik Toshkent-2018
 - 16.Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika. -Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010 - 256 b.
 - 17.Abdullayeva Sh. A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar//Xalq ta'limi, 2016 ,№3, 40-45 b.b.
 - 18.Denyakina L. I. Pedagogicheskaya diagnostika- dvijushaya sila pedagogicheskogo kollektiva -Moskva: Universitet,200,198 s.
 - 19.O.Jo'rayev R. H. va boshqalar. Pedagogika fani konsepsiyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2014.-232 b.260
 - 20.Ernazarova G.O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -Toshkent.: "Fan va texnologiyalar", 2017. -210 b.
 - 21.Kaykavus. «Qobusnoma». – Toshkent: O'qituvchi 1986, – 118 b.
 - 22.Musurmonova O. «Oila ma'naviyat- milliy g'urur». – T: O'qituvchi 1999.
 - 23.Munavvarov A.K. «Oila pedagogikasi». – T.: O'qituvchi 1994.

- 24.Ochilov M. Ochilova N. « O'qituvchi odobi». – T: O'qituvchi 1993.
- 25.Abdullayeva Sh.A., Ro'ziyeva D.I. "Pedagogik diagnostika va koreksiya"magistrantlar uchun darslik.
- 26.D.O.Ximmataliyev, S.B.Allayarova, D.Xalmatova, R.R.Karimov, I.N.Buxorov, Sh.V.Usmonov, M.O'Xakimova "PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA" o'quv qo'llanma-Toshkent 2024yil
- 27.Bloom B. S. A taxonomy of Eucational Objektives Handbook - Harvow ,1965, 83 p.
- 28.Bojovich L. I. Lichnost i yeyo formirovaniye v yunosheskom vozrasteMoskva: Vlados, 2009.-219 s.
- 29.Weiner B, Theorien der Motivazion. Stuttgart: Klett ,2007.-196 p.
- 30.Vershlovskiy S. G. Obsheye obrazovaniye vzrosלבix: stimulbi i motivbi - Moskva: Pedagogika, 2017- 271s.
- 31.Voyshvillo ye. K., Degtyarev M.G. Logika,-M.: Vlados, 1998, 528s.
- 32.Widdel H. Fragebogen zur Attribuerung fon Erfolg und Misserfolg in der Schule. Beltz ,2010 - 189 p.
- 33.Giddens Entoni. Sotsiologiya - T., «Sharq», 2002 y.,848b.
- 34.Denyakina L. I. Pedagogicheskaya diagnostika- dvijuShaya sila pedagogicheskogo kollektiva -Moskva: Universitet,200,198 s.
- 35.Jo'rayev R. H. va boshqalar. Pedagogika fani konsepsiyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2014.-232 b.
- 36.Ingenkamp Karlxayns. Pedagogichen diagnostik.-Berlin, 1991-240 p.
- 37.Jenks C. The Sjciology of Childhood. - London, 2005.-196 p.
- 38.Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. -Moskva:Logos, 2G02. 284 b.
- 39.Zunnunov A.M.Pedagogika tarixi.-Toshkent: Ma'naviyat, 2010.-308 b.
- 40.Xayrullayev, N. Xotamov,D. Shodiyev O rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. -Toshkent: Fan, 1996.-351 bet.
- 41.Ibn Sina Abu Ali. Izbrannwe filosofskiye proizvedeniya. Moskva:Natka, 1980.552b.

- 42.Ibroximov A, Sultonov X, Jo'rayev N. Vatan tuyg'esi Toshkent: O'zbekiston, 1996.-. 400 b.
- 43.Ingenkamp Karlxayns. Der pedagogischen diagnostik.- Berlin:Lampress,2001, 240 p.
- 44.Kuzmina N. V. Put ot nravstvennogo ponyatiya k nravstvennomu ubejdeniyu.-M.: Znaniye, 1999,178 s.
- 45.Munavvarov A. Q. Oi la pedagogikasi.-Toshkent: O 'qituvchi,1994 - 204 b.
- 46.Nemov R. S., Olshanskiy i dr. Kak razvivayutsya i krepnut ubejdeniya v period nravstvennoy zrelosti.-M.: Pedagogika, 1991, 403 s.
- 47.Piaje J.J. Rebyonok i yego razvitiye-Moskva: Znaniye, 2008, 508 s.
- 48.Podlasbiy I. P. Pedagogika-Moskva: Vlados, 2010,- 576 s.
- 49.Rollet B. Anstrengungsvermeidungstest (FVT). Braunschvvjig: Westermann ,2009, 304p.
- 50.Sunsov N.S. Diagnostirovaniye v uchenicheskom kollektive- M.r // Pedagogika, 2016 №4,S.- 40-50.

QAYDLAR UCHUN

D.A.Xalmatova,S.B.Allayorova

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA

Darslik

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: D. Toshboltayev

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 10.03.2026 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi.

“Cambria” garniturası. Hisob-nashr tabog'i. 20.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 10.

«ZEBO PRINTS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.

+998 (94) 673-66-56, +998 (97) 017-01-01